

DILDORA SOIPOVA

**MUSIQA O'QITISH
NAZARIYASI
VA METODIKASI**

TOSHKENT

5-38

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI


RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI

DILDORA SOIPOVA

MUSIQA O'QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI

O'quv qo'llanma

Toshkent – 2009



O'quv qo'llanma O'zbekiston davlat konservatoriyasining Ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama qilingan hamda (№ 7-sonli bayonnomasiga ko'ra) nashr etishga tavsiya etilgan.

Ma'sul muharrir: san'atshunoslik fanlari doktori **O.A. Ibrohimov**

TAQRIZCHILAR:

Pedagogika fanlari nomzodi, professor **R.G.Qodirov**

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **A.P.Sulaymonov**

Mazkur o'quv qo'llanmada maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqa mashg'ulotlarini, darslarini tashkil etish masalalari, musiqa o'qitishning nazariy asoslari, xorijiy mamlakatlardagi musiqa o'qitish tizimi, sinfdan tashqari musiqiy tarbiyani tashkil etish shakl va yo'llari o'z ifodasini topgan. Qo'llanma «Musiqiy ta'lim» yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda «Musiqqa madaniyati» o'quv fani o'qituvchilari, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi musiqa rahbarlari uchun mo'ljallangan.

© SOIPOVA DILDORA YULDASHEVNA

KIRISH

Musiqiy tarbiya - bu musiqachi tarbiyasi emas, inson tarbiyasidir

V.A.Suxomlinskiy

Mustaqil O'zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalash bizga, endi yetishib chiqayotgan kadrlar zimmasiga mas'uliyatli va sharaflı ishni, ya'ni bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish yuklatildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa tarbiyasi, uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagi, davlatimizni buyukligini tasavvur etganining natijasiga ko'ra ta'lim to'g'risidagi qonun va yangicha dunyoqarash talab etilar edi. 1997 yil «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Ta'lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog'onasi bo'lgan maktabgacha ta'lim bosqichida ham katta o'zgarishlar qilish ehtiyoji tug'ildi. Buning uchun pishiq - puxta o'ylangan, ma'lum maqsad va vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan istiqbolli dasturlar talab etar edi.

Unda uzluksiz davom etadigan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonining belgilovchi ilk turi «maktabgacha ta'lim» deb ataldi. Birgina shu yondashuvning o'ziyoq tarbiyaga mehribonlik va adolat bilan qarashni talab etadi. Negaki, bugunki yosh avlod zimmasida XXI asrda kuchga to'lib, sog'lom, bilimli, aqli bo'lib, jamiyatimizning faol a'zolariga aylantirishdek ulkan vazifa turibdi. Bunda esa ular siz-u bizga, ya'ni kattalarga ishonadilar. Agar yoshlarimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni va vatanparvarlik bilan uyg'unlashtira olsak, bundanda ziyoda qudratni topa olmaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish uchun «Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturi va o'quv qo'lanma asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari ko'pgina o'quv va metodik qo'llanmalar mavjud. Bularning asosiy maqsadlari bir yo'lga qaratilgan, ya'ni komil insonni tarbiyalash va voyaga yetkazishdir. Prezidentimiz «Bolalarimiz bizdan ko'ra dono, aqli, bilimdon, sog'lom va albatta baxtli bo'lishi kerak», - deb ta'kidlashlari bejiz emas.

«Uchinchi mingyillikning bolasi» dasturi maktabgacha ta'lim bilan shug'ullanadigan barcha muassasalar uchun bajarilishi zarur bo'lgan tayanch dastur hisoblanadi. Tayanch dasturining pirovard natijasi maktabgacha

yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining bajarilishiga erishishdan, ya'ni maktabga jismonan, aqlan va ma'nan yetuk bolalarni tayyorlashdan iboratdir.

«Uchinchi mingyillikning bolasi» dasturi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni quyidagi 3 yo'nalishda amalga oshirilishini belgilab beradi:

1. Bolalarni jismonan rivojlantirish.
2. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.
3. Bolalarni ma'nan rivojlantirishdir.

«Uchinchi mingyillikning bolasi» milliy dasturining 3-yo'nalishi bo'lmish bolalarni ma'nan rivojlanishida aynan musiqa mashg'ulotlarda bolani aqlan, jismonan va ma'nan yetuk qilib tarbiyalash ko'zda tutiladi. Bu borada «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun ta'lim tarbiya tizimini isloh qilish yo'lida hayotga tadbiq qilindi. San'at - kishilik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, kishi shaxsi san'at vositasi yordamida va ishtirokida to'laligicha yorqin namoyon bo'ladi. Hozirgi kelajak avlodni tarbiyalashda san'at muhim o'rin tutadi. San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyatini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxo'rlik qilish ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak. Shu sababli musiqa estetik tarbiya tarmog'ining ajralmas qismi sanaladi.

Bolalarda yoshlik chog'idan idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Ayniqsa, bolalar bilan musiqiy ish olib borish katta ahamiyat kasb etadi. Omma orasida musiqiy targ'ibot olib bormay turib, to'laqonli natijalarga erishib bo'lmaydi. Musiqiy tarbiya bolalarda erta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional his-tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyatini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma'naviy boy shaxsni shakillantirib va boshqa ijobiy sifatlarini tarbiyalab bo'lmaydi. Musiqaga yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra musiqani idrok etishning vazifasi va

mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog'liq umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Ma'lumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, badiiy musiqa nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, musiqiy didni shakllantirish, qisqasi bolalarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish kerak. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va voqelikni to'g'ri aks ettirgan musiqiy asardan o'rinni foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, musiqali obrazlarning shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrofimizdagi dunyo va undagi go'zalliklarni idrok etishga bevosita bog'liqdir. Shu borada musiqa mashg'ulotlari mazmuni bolalar tomonidan bajaradigan qator faoliyatlarni taqozo etadi. Bulardan tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning asosiy ustuvorligidan biri – bu fanlararo bog'liqlikni yo'lga qo'yishdir. Musiqa – san'atning bir turi. Musiqa san'atning yana boshqa turlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Masalan, musiqa darslarini raqs, she'riyat (adabiyot), badiiy san'at va san'atning boshqa turlari, bulardan tashqari jismoniy tarbiya, tasviriy san'at va boshqalar bilan qo'shib olib borish nazarda tutilgan. Bu masala «Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturi va o'quv qo'llanmada ham alohida ta'kidlanadi.

Bolalar ijrochiligi - kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish va hokazo masalalari hozirgi kunda o'zining dolzarbligi bilan ko'pgina pedagog-olimlarning diqqat markazidadir.

Uzluksiz ta'lim tizimida musiqiy ta'lim tizimi bir necha bosqichlardan iborat. Musiqa ta'limi boshqa fanlar kabi maktabdan emas, balki maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanadi va ta'lim tizimining barcha jabhalarida davom etadi. Shuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bo'lishlariga zamin yaratar ekanmiz, ularning musiqiy-estetik tarbiyalariga alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz zarur. Buning uchun «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlab o'tilganidek, nafaqat bola shaxsi, balki musiqa o'qituvchisi shaxsini, uning ma'naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishimiz, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy-musiqiy an'analarimizga amal qilgan holda bo'lajak musiqa o'qituvchilarmizni yosh avlodni tarbiyalashga loyiq hamda munosib inson qilib shakllantirishimiz kerak. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining «Musiqa madaniyati» o'quv fani uchun tayanch dastur ishlab chiqildi. Ushbu

dasturda umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqiy ta'lim-tarbiyaga qo'yiladigan maxsus talablar ham dasturning asosiy qismlari qatoridan o'rin olgan. Unga ko'ra musiqiy-estetik tarbiya uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

-Musiqiy-estetik faoliyatni atrof-muhit hamda zamon bilan hamohangligi;

-Musiqaning san'at sifatida o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

-O'quvchilarning musiqiy rivojlanishlarida uzviylikni ta'minlash;

-O'quvchilarning qobiliyat va imkoniyatlaridan qat'i nazar ularning musiqiy tarbiyalariga qo'yiladigan majburiyatlar.

Dasturda musiqiy tarbiyaning mazmuni va yo'nalishlari ochib berilgan, bolalarning rivojlanishining dinamikasi begilangan, har xil yoshdagi sinflarga minimal talablar qo'yilgan va aks ettirilgan.

Dasturning maqsadlari quyidagilardan tashkil topadi:

- bolalarni quvnoq, g'amgin, yengil va vazmin musiqani tinglashga past va yuqori registrni eshita olishga, musiqa tilini tushunishga, past ovozli va baland ovozli musiqaga mos chapak chalish orqali musiqa dinamikasini ajratishni o'rgatish;

- kattalar ketidan musiqani taqlid qilib, intonatsion mos ravishda qaytara olish;

- musiqiy rahbar boshchiligida raqs harakatlarini bajarish;

- kompozitorlar, musiqiy cholg'u asboblari haqida gapirib berish orqali bolalarda musiqa san'atiga muhabbat uyg'otish;

- bolalarni musiqani diqqat bilan tinglashga o'rgatish, yengil va oson xalq qo'shiq hamda kuylarini musiqasiga mos ritmik harakatlar bajarib ijro etishga o'rgatish. Musiqa sur'atiga mos chapak chalish yoki oyoq bilan jo'r bo'lish orqali qo'shiqni ijro eta olish.

Dasturda o'zbek kompozitor va bastakorlarning bolalar uchun yozilgan kuy va qo'shiqlari o'rin olgan. Musiqiy asarlar bolalarning psixologik xususiyatlarini, ularning qiziqishlari va dunyoqarashlarini hisobga olgan holda tanlangan.

Biz ushbu o'quv qo'llanmada maktabgacha ta'lim muassasalari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqiy ta'lim-tarbiya masalalariga hamda uni to'g'ri tashkil etish masalalariga to'xtalib o'tdik. Zamonamizdagi ma'naviy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi, bo'lajak «Musiqa ta'limi» yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga nisbatan yuqori talablarni qo'ymoqda. Ushbu o'quv qo'llanmada biz asosan, «Musiqa ta'limi» yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda musiqiy

pedagogika fakultetlari talabalari, «Musika o'qitish nazariyasi va metodikasi» o'quv fani bo'yicha ma'ruza o'qiyotgan, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy mashg'ulotlar olib borayotgan musiqiy rahbarlar uchun Musika ta'limining boshlang'ich bosqichlarida qo'llashlari kerak bo'lgan nazariy-amaliy, psixologik hamda pedagogik bilimlarini oshirish hamda musika rahbarlari, o'qituvchilarini kasblariga yo'naltirish maqsadida metodik tavsiyalar berishga harakat qildik.

I BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA TARBIYASI VA METODIKASI

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda «Ta'lim to'g'risidagi Qonun»ga tayanch sifatida maktabgacha ta'lim muassasalari uchun «Uchinchi ming yillik bolasi» dasturi 1991 yil M.Sh.Rasulova tomonidan ishlab chiqildi. 2000 yilda ushbu dastur qayta nashr qilindi va unda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar, zamonaviy pedagogik jarayonni tashkil etishga qo'yiladigan talablar o'z aksini topgan. Maktabgacha bo'lgan davr psixologiyada ilk bolalik davri deb yuritiladi hamda bolalikning eng go'zal va esda qoladigan damlarini o'z ichiga oladi. Musiqa tarbiyasi bolalar bog'chasi va umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy fanlar tarkibida o'qitiladi. Shuning uchun bu o'quv fanini o'qitish nazariyasi hamda metodikasini o'zlashtirish hozirgi kunda o'ta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kun talabi maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga musiqiy-estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo'yadi:

- bolalarni tabiat go'zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish;
- estetik did va hissiyotni shakllantirish;
- hayotda go'zallik tushunchasini to'liqligicha anglashni o'rgatish;
- bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;
- bolalarda go'zallikni o'z hayotlariga, o'z faoliyatlariga olib kirishni o'rgatish va hokazo.

Uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muhim o'rin egallaydi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ahamiyati uzluksiz ta'limning oldingi bosqichi sifatida muhim rol o'ynamoqda. Shuning uchun har bir fanning alohida o'qitilish ahamiyati oshib bormoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi har bir fanning asosiy vazifasi bolalarni fikrlash va o'ylashga o'rgatishdir.

Musiqa san'atining ahamiyati

Musiqa shunday san'at turiki, u insonlarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg'otishining o'zini bir mo'jiza deb, atash mumkin. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini

shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri – ta’lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go’zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san’atning xalqchilligi to’g’risidagi ta’limotga suyanib, o’quvchilarning ob’ektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste’dodini o’stiradi hamda ularda yuksak ma’naviy fazilatlarining tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg’u va fikrlarni rivojlantirish, go’zallikni ko’ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, o’quvchilarni go’zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko’ra bilishga o’rgatadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg’ulariga, tasavvuriga, e’tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta’sir o’tkazadi.

Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqindir.

Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg’ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to’lqinlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo’ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug’orilgan bo’ladi, musiqada hayot va o’lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta’sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o’ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san’atlar ichida, musiqa san’atining insonni Shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari - ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta’siri, uning ichki dunyosini o’zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo’lgan.

Musiqa san’ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida Shaxs shakllanishiga kuchli ta’sir etadi. Oilada, bog’chada, maktabda musiqa mashg’ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san’atni to’g’ri tushunishdagi samarali yo’ldir.

Musiqa inson his-tuyg’ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o’ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg’ulariga faol ta’sir etadi. Musiqa ham fan, ham san’atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga Shu fanning turg’un tushunchasi sifatida qarab bo’lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san’atdir. Musiqa san’ati inson hayotining ilk yillaridanoq

uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi. Musiqa inson umrining doimiy yo'ldoshi. Olim Stendalning aytishiga ko'ra, musiqa – san'at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir.

«Musiqa san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqea-hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko'rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok etiladi. Musiqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqa voqelikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratadi».

Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo'lib, u hech narsa bilan bog'lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo'lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo'lgan tuyg'u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati Shundaki, u shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va Shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi.

Musiqa «til»i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi. Shakl – musiqa mazmunining moddiy ifodasidir. Bastakor fikri, tuyg'ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi. Shu bois musiqa «til»ini egallashga, uning mazmun-mohiyatini anglashga, musiqadagi fikrlar, tuyg'ular, kechinmalar boyligini o'zlashtirishga keng yo'l ochadi.

O'sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg'u bilan ta'kidlashgan. Kelajak jamiyat a'zosining insoniy va ijobiy fazilatlarini aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqa ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi va keyinchalik badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi; o'ta o'ziga xos badiiy ifoda «til»iga ega bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu «til»ning manbaidir.

Albatta, musiqa Shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo'nalishlarini o'z-o'zidan belgilab bermaydi. Tarbiyaviy ta'sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g'oyaviy mazmuniga bog'liqdir. Ana Shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Mashhur polyak kompozitori K.Shimanovskiy o'zining «Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati» nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar ekan, - uning ikki qarama-qarshi yo'nalishda – yaratish va buzish uchun ishlatish

mumkinligini - «kerakli ishga yo'naltirgan holda, tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya'ni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak», - degan.

Musiqaning insonga ta'siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o'rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadi. Shu o'rinda Asafevning «...musiqa - bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o'yin» - degan so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.

Demak, bolalarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va kuchlidir.

Musiqa qobiliyatini rivojlantirishning shart-sharoitlari

Qobiliyat – ma'lum bir turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sub'ektiv sharti bo'lib hisoblanuvchi shaxsning individual xususiyatidir. Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron-bir qobiliyatning ro'yobga chiqish va rivojlanish manbai layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Bola musiqaga layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo'lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealar yig'indisi tushuniladi. Muhit o'z navbatida - tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga bo'linadi. Insondagi musiqiy layoqatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Inson bolasi, agar insoniy muhitga tushmay, hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat shakllanmaydi. Odob, axloq, fe'l-atvor – shaxsning barcha ruhiy sifatleri faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi.

Bolalarning musiqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri – ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki musiqiy qobiliyatlar – musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqaqa emotsional ta'sirchanlik bolalarda ijrochilik malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi. Pedagog N.V.Vetlugina «... musiqa kechinmalari aslini olganda doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi», - deb ta'kidlagan. Qobiliyatning eng yuqori darajasi - talantdir. Talant - insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o'ziga xos ravishda amalga oshirish imkoni qobiliyatdir.

Shu o'rinda bir narsani aytish kerak, musiqiy qobiliyati bo'lgan barcha insonlarning avlodlari ham musiqiy qobiliyatga ega bo'ladi, degan fikrga qo'shilmaymiz. Ularning bolalarida musiqaqa layoqat bo'lishi mumkin, lekin shu layoqat rivojlantirilmasa, layoqat qobiliyatga aylanmay, ya'ni shakllanmay qoladi. Zero, musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doyrasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o'sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu sababli Respublikamizdagi har bir maktabda hozirgi kunda musiqiy-estetik tarbiyaga pedagogikaning shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmoqda. Olimlardan Platon inson qobiliyatlari tug'ma ekanligini aytgan va inson bilgan barcha narsa uning ideal bilimlar dunyosida bo'lgan paytidan xotiralar bo'lib hisoblanadi, deb taxmin qilgan. Frensis Galton o'zining «talantning tug'maligi, uning qonuniyatlari va oqibatlari» (1869) nomli kitobida «... buyuklik va iste'dod avloddan avlodga o'tadi, muhit esa bunda ikkinchi darajali omildir...», - deb aytgan. Biroq ko'pgina mashhur ijrochilar buyuklikning sababi to'qson foiz mehnatdandir va qolgan foizlarigina qobiliyatga bog'liqligini ta'kidlashgan. Lekin faqat mehnat bilan ham qobiliyatni cheksiz darajada-rivojlantirib bo'lmaydi. Kishining qobiliyati ma'lum bir imkoniyat va shaxsiy xususiyatlari doyrasidagina shakllanadi.

Estetik va emotsional muhit musiqa olamida bolaga emotsional qulayliklar yaratib, undagi ijodga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Biroq, musiqiy muhitning samaradorligi faqat tashqi sharoitlargagina bog'liq bo'lmay, balki bola musiqiy rivojlanishini tartibga soluvchi muloqot, musiqiy-nazariy bilimlar, ijodiy usullarga ham bog'liq. O'quvchilarni musiqiy tarbiyalash jarayoni samarali kechishi uchun: qobiliyat yo'nalishlarida aks etuvchi insonning ijtimoiy-madaniy faolligi (E.A.Bodina); ijtimoiy va shaxsiy tajriba to'plash, madaniyatni saqlash yo'llari

(A.I.Arnoldov, L.P.Bueva, E.S.Makaryan, V.M.Mejuev); belgilovchi faoliyat (L.S.Vigotskiy); hissiyot va obrazli tafakkur bilan bog'liq estetik tajriba, badiiy ma'lumotlar bilan bog'liq tushunchalar (A.E.Lazar); insonlar va narsalar dunyosi bilan aloqadorlik (V.S.Muxina); faoliyatlarni bilish va yanada rivojlanishga intilish (V.A.Petrovskiy) bo'lishi lozim.

V.V.Bogoslovskiyning fikricha, qobiliyat faoliyat talablariga javob beruvchi va undagi yuqori natijalarni ta'minlovchi inson shaxsi xususiyatlarining sintezidir. Shuningdek, V.V.Bogoslovskiy qobiliyatlarni ularning yo'nalishi va sohasiga qarab turlarga ajratadi. Bu borada psixologiya asosan umumiy va maxsus qobiliyatlarni farqlaydi. Umumiy qobiliyatlar deganda, bilimlarni o'zlashtirganda va har xil faoliyat turlarini qo'llaganda nisbatan yengillik hamda sermahsullikni ta'minlovchi shaxs xususiyatlarining tizimi tushuniladi, deb hisoblaydi psixolog.

Qobiliyat – ko'nikma, malaka va bilim emas, balki ularni o'zlashtirish dinamikasidir. Qobiliyatlar – faoliyat davomida namoyon bo'ladigan imkoniyatdir. Musiqiy qobiliyat faqat musiqa amaliyoti, musiqa san'atiga xos bo'lgan musiqiy material, maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin. Faqat musiqagina insonning musiqiy hislarini uyg'otadi.

V.N.Shatskaya o'quvchilarda musiqani his qilish va tushunish qobiliyatini tarbiyalash lozimligini ko'p marotaba uqtirgan. Musiqiy tarbiya berish, har bir bolada mavjud musiqiy qobiliyat va iste'dodni tarbiyalash, o'quvchining aqliy, fiziologik, mehnat va estetik xususiyatlarini shakllantirish aynan musiqa san'ati orqali, ma'lum bir tizimga solingan musiqiy ta'lim va tarbiya orqali amalga oshiriladi, deydi olima.

Musiqiy ta'lim olmagan kishilarda, musiqiy qobiliyat bo'lmaydi. Chunki ular musiqiy bilimlarni o'zlashtirmaganlar. O'quvchilar maktabga kelgunga qadar musiqa bilan tanish bo'lganlar, lekin musiqiy bilimlarni o'zlashtirish uzluksiz ta'limning - umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflariga to'g'ri keladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisining ruhiy jihatlarini – xotirasi, ongi, diqqat-e'tibori, tafakkuri bilimlarni o'zlashtirishga tayyor bo'ladi.

B.M.Teplov o'zining «Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi» asarida musiqiy-pedagogik amaliyotdagi musiqiy qobiliyatlarni uch asosiy guruhga: musiqiy eshitish qobiliyatiga - kuydagi tovushlarning lad funksiyalarini, tovush ifodaliligini emotsional jihatdan ajrata olish, ritm hissiga - musiqiy ritm ifodasini his eta olish va musiqiy kechinmalarni faol (harakatlar bilan) aks ettirish, musiqiy xotiraga (musiqiy ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tiklash) bo'ladi.

«Musiqqa madaniyati» o'quv dasturida darsdagi barcha «... faoliyatlar o'quvchilar musiqiy qobiliyatini, xususan, ritm-usul hissi va asar badiiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirishi muhimdir», deyilgan.

Qobiliyatning musiqiy ta'limdagi ahamiyatini ko'rib chiqar ekanmiz, Shuni alohida ta'kidlash joizki, bizning fikrimizcha, qobiliyat musiqani ijro etishda juda katta rol o'ynasada, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishda (nota yozuvi, nazariy ma'lumotlarni egallash, musiqa ifoda vositalarini o'rganishda) musiqiy qobiliyat muhim emas. Lekin ayni vaqtda biz o'z fikrimizni qisman inkor etgan holda shuni aytishimiz kerakki, «Musiqqa madaniyati» o'quv dasturida aytilishicha «... musiqa savodi boshqa musiqiy faoliyatlarni birlashtiruvchi jarayondir...», ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirgandan keyin ularni amaliy qo'llash mumkindir. Buning uchun musiqiy xotira, musiqiy ritm hissi, musiqiy eshitish qobiliyati - bir so'z bilan aytganda musiqiy qobiliyatlar zarurdir.

V.I.Kirienko, E.I.Ignatev va boshqa psixologlarning fikriga ko'ra, musiqiy qobiliyatlar o'z o'rnida murakkab ta'limiy kompleksga ham ega bo'lib, o'z tuzilishiga bir qator zarur va maxsus qobiliyatlarni oladi.

Qobiliyat kuch, harakat, jismoniy va aqliy jarayonlar, tabiiy iqtidor, iste'dod, shuningdek, tashqi muhit ta'sirida rivojlanadi. Odatda umumiy va maxsus qobiliyatlar farqlanadi. Odam umumiy qobiliyatlarga ega bo'lganda faoliyatning har xil turlari bilan aytarli qiynalmay shug'ullana oladilar. Bunday o'quvchilar tabiat fanlarini ham, ijtimoiy fanlarni ham birdek yaxshi o'zlashtiradilar. Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan odam qandaydir aniq narsa bilan muvaffaqiyatli shug'ullana oladi. Maxsus qobiliyatlardan biri – bu musiqiy qobiliyat hisoblanadi.

O'quvchilarda musiqiy qobiliyat juda erta rivojlanadi. Biroq ayrim hollarda musiqiy qobiliyat kech namoyon bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun musiqiy qobiliyati sust bo'lgan bolalarda umuman musiqiy qobiliyat yo'q deb hisoblash noto'g'ridir. Bolalarning xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo'ladi, lekin dars davomida diqqatlari bir joyda turmaydi. Maktab yoshidagi bolalar ijodiy topshiriqlarni yaxshi bajaradilar. Ular turli ritmlardagi kichik kuylar o'ylab topishlari, qo'shiqlarni tahlil qilishlari, musiqani rasm orqali ifodalashlari va qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalarda ritmni his eta oladigan yuqori musiqiylik, ya'ni musiqaga emotsional javob qaytarish qobiliyati, shuningdek, musiqani nozik did bilan farqlash, ya'ni musiqani eshitish qobiliyati namoyon bo'ladi. O'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari dars (mashg'ulotlar)dagi faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga ular asarlarni farqlash, qarama-qarshi hamda o'xshash tomonlarini ajratish, qismlarni taqqoslash, tovush, ritm,

dinamikadagi o'zaro munosabatlarni bilishga o'rganadilar. Bu jarayonda esa ularning musiqiy asarni ijro etish, ritmni his qilish va ijrochilik qobiliyatlari o'sadi. Bolalar o'zlarini eshitib idrok etgan kuy va qo'shiqlari asosida paydo bo'lgan tasavvurlarini aks ettirishga qodir bo'ladilar. Bularning barchasi musiqa dars (mashg'ulot) lari va musiqiy to'garaklarda amalga oshiriladi.

Musiqiy qobiliyatning asosiy shakllarini tahlil eta turib kuy va garmoniya idrokini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular asosida uchta qobiliyat yotadi:

1. Musiqiy eshitish qobiliyatining perceptiv va emotsional qismi deb ataluvchi lad hissi mavjud. Lad hissi, ya'ni kuy, tovushlarning lad vazifasini emotsional his qilish yoki tovushlarning yuqoriga-pastga harakatlanishining ifodalanishini emotsional his qilish qobiliyati. Bu qobiliyatni boshqacha qilib musiqiy eshitish qobiliyatining emotsional yoki perceptiv qismi deyiladi. Lad hissi musiqiy tovushlarning balandligini his etish va bevosita kuyning anglash va intonatsiyalarni his qilish jarayonida namoyon bo'ladi. U ritm hissi bilan bir qatorda musiqaqaga bo'lgan asosiy emotsional munosabatni tashkil qiladi.

2. Musiqiy ta'limning reproduktiv yoki idrok etish qismi bo'lib hisoblanuvchi musiqiy eshitish qobiliyati. U lad hissi bilan birgalikda uyg'unlikni his etishga yordam beradi. Bu qobiliyat musiqiy xotira va musiqiy tasavurning asosiy negizidir.

Musiqiy eshitish qobiliyati – musiqani to'la-to'kis idrok etish qobiliyatidir. Musiqiy eshitish qobiliyati quyidagi turlarga bo'linadi: mutlaq, nisbiy va ichki qobiliyat.

Mutlaq eshitish qobiliyati - musiqiy tovushlarning mutlaq balandligini etalonlari bilan solishtirmagan holda aniqlash qobiliyati.

Nisbiy yoki interval eshitish qobiliyati - kuy, intervallar, akkordlardagi tovushlar soni, ular orasidagi masofa va tovushlar balandligini sezish, aniqlash, ijro etish qobiliyatidir. Buning uchun kishiga hech bo'lmaganda bitta tovush ma'lum bo'lmog'i kerak.

Ichki eshitish qobiliyati – musiqani butun tarkibiy qismini hayolan tasavvur qilish qobiliyatidir.

Musiqiy eshitish qobiliyati musiqiy faoliyatlar davomida rivojlanib boradi. Mutlaq eshitish bundan mustasno, negaki uni maxsus mashqlar orqali takomillashtirishning iloji yo'q. Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun ixtisoslashgan musiqa maktablarida solfejio darslari o'tiladi.

3. Musiqiy ritm hissi - musiqani faol boshdan kechirish, musiqiy ritm ifodaviyligini emotsional his etish va uni aniq ijro eta olish qobiliyati. Ritm hissini rivojlantirish juda murakkab bo'lgan qobiliyatlardan biridir.

Tovushlarning past-balandligini his etish va ritmik harakatlarning ifodali mazmunini boshdan kechirish asosida yuqorida sanab o'tilgan uch qobiliyat yotadi. Bu qobiliyatlar musiqiy faoliyat uchun zarur bo'lgan asosiy qobiliyatlar bo'lsa-da, shu bilan qobiliyatlar majmuasi tugallanmaydi. Musiqiy qobiliyatning asosiy belgilaridan biri – ma'lum bir mazmun ifodaviylikini his eta olishdir.

Nazariya va amaliyotga asoslangan holda shuni aytish joizki, musiqiy qobiliyatlar va ularni rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Bu qobiliyatlarni rivojlantirish ijtimoiy muhit, tabiatdan berilgan iste'dod, iqtidor, Shaxsning iroda kuchi, faolligi, jismoniy va aqliy jarayonlarga ham bog'liqdir. Demak, bolalarda musiqiy qobiliyatlar erta namoyon bo'lishi, shuningdek ularning qobiliyatlari ta'lim-tarbiya va atrof-muhit ta'siri ostida shakllanishini hisobga olgan holda biz quyidagi xolosaga keldik. Uzluksiz ta'lim tizimidagi musiqa mashg'ulotlari (darslari)da ijrochilik malakalarini rivojlantirishda musiqiy qobiliyatlar muhim omil bo'lib xizmat qilar ekan.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining yosh psixologik xususiyatlari

3-7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga:

3-4 yosh kichik maktabgacha davri.

4-5 yosh kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr (o'rta bog'cha yoshi).

6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog'cha yoshlariga ajratish mumkin.

Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o'tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish,

elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davridir.

Mashxur rus pedagoglaridan biri Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday xarakter hislatlari shaydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.


Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatning asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so'zlardan bog'cha yoshdagi bola tabiatning asosiy qonuni bo'lmish serharakatligini ortiq cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerakligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. O'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshdagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doyraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Bog'cha yoshdagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doyradan kengroq doyradagi munosabatlarga intila boshladilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynaydilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshdagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana bir uning har narsani yangilik sifatida ko'rib bola uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.



Musiqiy ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uning psixologik asoslarini o'rganish o'ta muhimdir.

Bizning hayotimizda musiqa har bir uyga kirib borgan. Musiqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmagani uchun, eng avvalo, inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi. Musiqada musavvirlik va haykaltaroshlikdan farqli tarzda dunyo haqida tasavvurlar emas, balki tuyg'ular va kayfiyatlar hosil qiladi. Musiqada tuyg'ular hayotiy tuyg'ularning aynan o'zi bo'lmay, ular tanlab olingan, tasodifiy lahzalardan tozalangan, muayyan orzular nuqtai nazardan anglangan bo'ladi. Musiqa inson hissiyotlari holatining barcha rango-rang tovlanishlarini aks ettirishga qodir. U eng murakkab tuyg'ular, eng nozik kechinmalar va kayfiyat holatlarini ham ifoda eta oladi. Musiqa vaqt mezoniga amal qilib, kechinmalarning o'zgartirib turishlari, avjlanishi va pasayishi jarayonlarini qamrab oladi.

Musiqa inson ichki dunyosining hissiyotli tomonlari bilan birga ma'naviy olamini butunligicha ifoda etib, uning aqliy va iroda qudratini, yaxlit qiyofasini yarata oladi. U ruhiy tizim xususiyatlarini ifodalash, milliy ruh holatlarini vujudga keltirish imkoniyatiga ham ega. Buyuk bastakorlar ijodida u yoki bu xalqqa xos bo'lgan ruhiy tizim xususiyatlari, tuyg'u holatlari va voqelikni in'ikos etish imkoniyatlari beqiyosligi yaqqol ko'rinadi. Milliy ruh xususiyatlarini musiqa vositalarida aks ettirish jarayonida xalq musiqiy ijodi katta o'rin tutadi.

Buyuk rus fiziologi I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, inson kechirayotgan turli his tuyg'ular bosh miya yarim sharlari po'stloq qismining faoliyati asosida yuzaga keladi. Atrof muhitning inson organizmiga doimiy ta'siri va organizmning bu ta'sirlarga qonuniy javob reaksiyasi natijasida asta-sekin ma'lum bir munosabatlar tizimi vujudga keladi. I.P.Pavlovning dinamik stereotip, deb atagan edi. I.P.Pavlovning dinamik stereotip haqidagi ta'limoti kishidagi hissiyotlarning fiziologik va psixologik tabiatini chuqurroq o'rganishda katta ahamiyatga egadir. Gap bog'cha bolalarida estetik hissiyotni tarkib toptirish haqida borar ekan, e'tiborni avvalo ikki muhim masalaga qaratishimiz kerak:

1) Bolalarda estetik hissiyotning paydo bo'lishi uchun ob'ektiv shart-sharoitlar mavjudmi?

2) Bolalar san'at asarlarini go'zallik nuqtai nazaridan baholay oladilarmi?

Psixologiya fanidan ma'lumki, voqelik ta'siri ostida paydo bo'ladigan sezgi va idrok hissiyotning asosiy manbaidir. Bolalarda bosh miya va sezgi

organlarining taraqqiyoti yetarli darajada yuksak bo'lmaganligi tufayli ularda sezuvchanlik bir muncha ta'sirli bo'ladi.

Musiqani to'la to'kis idrok etish uchun diqqat, xotira va musiqiy tafakkur zarur va muhimdir. Ana shundagina insonning tasavvuri yordamga keladi va estetik hissiyot shakllanadi. Aytildiklardan ko'rinib turibdiki, musiqiy asarni to'liq idrok etish uchun inson psixikasining faoliyati xilma-xil bo'lmog'i lozim. Musiqiy bilimlarni o'zlashtirishdan maqsad bolalarning musiqiy asarning lad, o'lchov, sur'at, registrini aytib berishlari emas, balki musiqaning yuqoridagi ifoda vositalari orqali ularda Shaxsga xos bo'lgan xususiyatlarni: ijodiy qobiliyat, erkin yo'naltirilgan diqqat, musiqiy xotira, tasavvur, faollikni, tashabbuskorlikni shakllantirishdir.

Bolalar hissiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning muayyan sharoit bilan bog'liqligidir, ya'ni bolalarda sodir bo'ladigan hissiy kechinmalar aniq bir sharoitdagina vujudga keladi. Shunga ko'ra ularni qiziqtiradigan, diqqatlarini jalb etadigan sharoitni yaratish ularda estetik hissiyotning, musiqiy madaniyatni o'stirishning eng muhim shartidir. Bolalar biror bir musiqiy asarni tinglar ekanlar, musiqaning rang-barang ovozlari, ifoda vositalarini (temp, ritm, kuy, o'lchov, registr, dinamika va hokazolar), xarakter va kayfiyatini farqlashni, eshitilgan musiqiy asarlarning qaysi jaruga mansubligini, mumtoz, estrada yoki boshqa musiqalarni bir-biridan farqlay olishni hissiy-emotsional jihatdan idrok eta boradilar, boshqacha qilib aytganda, ularning musiqiy didlari shakllana boradi. Musiqiy did, musiqiy dunyoqarashning shakllanishida mashg'ulotlardan tashqari va maktabdan tashqari ishlarning qay darajada yo'lga qo'yilganligi, bolalarning yashash sharoitlari, oiladagi muhit va oilaning musiqaga nisbatan munosabati, otanalarning va boshqa oila a'zolarining musiqaga qanday munosabatdaliklari ham g'oyatda muhimdir. Inson biror bir narsani idrok etar ekan, idrok etilayotgan narsaga nisbatan sezgi organlaridan birortasi asosiy o'ringa chiqadi. Masalan, rasm chizganda ko'rish sezgi organi, musiqa tinglashda eshitish sezgi organi bosh o'rinda turadi. Idrok etishda sezgi organlarining bir nechtasi ham ishtirok etishi mumkin. Bunday idrok aralash idrokka misol bo'la oladi.

Musiqiy ohangdorlik inson nutqi ohangiga o'xshab ketadi. Odam o'zining his-tuyg'u holatini boshqalarga nutqi ohangi orqali bildiradi, nutq ohangi ovozning balandligi, pastligi, tebranishi, vazni orqali namoyon bo'ladi. Aytish mumkinki, inson nutqi ohangining ulkan ifoda imkoniyatlari musiqiy ohangga tabiiy shart-sharoit yaratadi, unda ohang butunlay yangi badiiy sifat oladi. Inson nutqi ohangi musiqa badiiy tilining asosi bo'lib, bastakorning voqelikka munosabatini musiqada aks ettirishda vosita bo'lib

xizmat qiladi. Ko'p asrlik tajriba nutq ohangi imkoniyatlari insonning musiqiy sezgirligi va idrokliligini, musiqani idrok etish qobiliyatini vujudga keltirdi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va binobarin uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashishga yordam beradi.

Bolaning qobiliyatlari musiqiy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Ushbu rivojlanishni bolalarning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri tashkil etish va yo'naltirish musiqa tarbiyachilarining vazifasidir. Masalan, bolani ilk bolalik davridan tovushlar balandligini ajratishga o'rgatilmasa, u etti yoshga yetganida o'zidan kichik bolalar osongina bajara oladigan vazifalarni bajara olmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy rivojlanishining muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ularning eshitish sezgisi, musiqiy eshitish qobiliyati rivojlanib boradi;
2. Har xil xarakterdagi musiqaga emotsional ta'sirchanlikning sifati va darajasi ortadi;
3. Qo'shiq kuylash musiqiy-ritmik ijrochilikda qo'llaniladigan sodda ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Bolalar yoshi xususiyatlari

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining yoshiga ko'ra hosil qiladigan qobiliyat va imkoniyatlarini ko'rib chihamiz.

Bir yoshli bolalar – psixolog A.Lyublinskayaning to'plagan ma'lumotlariga ko'ra, go'dakning 10-12-kunlarida eshitish organi ishga tushar ekan. Ikki oylik go'dak esa, musiqa tovushlarini eshitganda, qimirlamay, jim bo'lib qolar ekan. 4-5-oylarida bola tovush kelayotgan tomonga qaray boshlaydi. Ilk bolalik davrlaridayoq go'daklarda musiqa tovushlariga nisbatan shaxsiy munosabat shakllana boradi. Birinchi yilning oxirlarida bolaning umumiy eshitish hissi shakllanadi. Bolakay kattalardan har xil musiqani tinglab uni o'ziga xos intonatsion (o'xshash ovozlar chiqaraib) xirgoya qiladi. Musiqaga nisbatan emotsional munosabat bildirish, eshitish hissiyotlarini rivojlantirish ilk bolalikdan musiqiy tarbiyani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ikki yoshli bolalar - musiqani idrok etishda bolalar yorqin emotsiyalarini namoyon etadilar. Eshitish hissiyoti tabaqalashgan bo'ladi: bola yuqori va

quyi, baland va past tovushlarni, hatto, tembrni ham farqlay oladi. Bolada ilk kuylash ko'nikmalari ongli ravishda shakllana boradi; bola kattalarga qo'shilib kuylay boshlaydi. Bola oddiy musiqiy harakatlar - chapak chalish, oyoqni to'pillatish, musiqa ostida aylanish kabi faoliyatlarni bemaolol bajara oladi.

Uch va to'rt yoshli bolalar - eshitish hissida individual ajralib turish hollari ko'rinadi. Masalan, murakkab bo'lmagan kuyni aniq ijro etishlari mumkin. So'zlarni ifodalashda avval alohida so'zlarni qo'llagan bo'lsalar, endi ularni bir-biri bilan bog'lagan holda ishlata oladilar. Tafakkurlarida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi. Ko'rgazmali-harakatli tafakkurlari ko'rgazmali-obrazli tafakkurga aylanadi. Bu yoshdagi bolalar o'zlari mustaqil harakatlar bajara oladilar hamda mustaqil ravishda raqsga tushib o'ynaydilar.

Besh yoshli bolalar - bolalarning faol tarzda «nimaga?», «qaerdan?» kabi savollarni paydo bo'lishi davridir. Bola voqea va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni anglay boshlaydi va ularni oddiy usulda umumlashtira boshlaydi. Bolalar kuzatuvchan, ayniqsa, musiqaning quvnoq yoki g'amgin, tovushlari baland yoki pastligi, qanday cholg'u asbobida ijro etilayotganligini bemaolol aniqlay oladilar. Ular qo'shiqni qanday ijro etish kerakligini, qanday harakatlar bajarish kerakligini yaxshi tushuna boshlaydilar. Bu davrda bolalarning ovozlari jarangdor va yorqin tus oladi. Ovoz intonatsiyalari turg'unlashib boradi, lekin hali kattalarning ko'magiga muxtoj bo'ladi. Bu yoshda eshitish qobiliyati shakllana boradi. Bu davrda harakatlarning asosiy turlarini - yurish, yugurish, sakrash kabi faoliyatlarni yaxshi o'zlashtira boshlaydilar. Bolalar o'z individual xususiyatlaridan, qobiliyatlaridan kelib chiqib bir faoliyat turini afzal ko'rishlari mumkin.

Olti va etti yoshli bolalar – bu davrda bolalar maktabga tayyorgarlik ko'ra boshlaydilar. Musiqa mashg'ulotlarida olingan bilim va taassurotlariga asoslanib bolalar musiqiy asarlarga sharh berishlari, musiqaning ifoda vositalarini aniqlashlari, musiqiy kayfiyat belgilarini ajrata olishlari mumkin.

Bu davrda bolalar rivojlana boradilar va bir necha rivojlanish bosqichlaridan o'tadilar:

- emotsional rivojlanish - oddiy musiqiy tovushlarga keskin yoki yorqin emotsional reaksiya berish;

- hissiyot, idrok va eshitishning rivojlanishi - musiqiy tovushlarni alohida idrok etishdan, butun, ongli va faol idrok etish, tovushning xususiyatlari, balandligi, tembr, dinamikasi, ritmini idrok etish;

- munosabatlar bildirish jarayoni - beqaror qiziqishlardan barqaror qiziqishlarga, ehtiyojlarga o'tish, musiqiy didning ilk qirralarining paydo bo'lishi;

- ijrochilik faoliyati - ko'rib bajariluvchi faoliyatlar, musiqiy ritmik hamda kuylash faoliyatida taqlidchanlik.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari guruh va faoliyatlar kesimida

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo'lmish bolalarni to'g'ri va ma'naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bu maqsadni amalga oshirishda barcha sohalar kabi musiqa fani ham alohida o'rinni kasb etadi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya – bu bir aniq maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o'z iqtidorini namoyon qila olishga, estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o'rgatishdir.

Har bir bola musiqaning qaysi yo'nalishini o'rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim.

Bolaning musiqiy rivoji bu to'g'ri va uzluksiz ravishda yo'lga qo'yilgan faol musiqiy jarayondir. Bu rivojlanish quyidagicha kechadi:

a) hissiy munosabat. Oddiy musiqiy tasavvurdan murakkab va ko'p tomonlama rivojlangan musiqiy asarlarni tushuna olish;

b) Musiqani eshitish qobiliyati – musiqaning tembri, tovush balandligi, musiqa ifoda vositalari.

v) Ijrochilikning ilk shakllanishi. Bola o'zining bilim va ko'nikmalariga tayanib, unga tanish bo'lgan musiqaga matn yoki raqs elementlarini ijro etish.

Musiqa tarbiya boshqa sohalar kabi o'ylab chiqilgan tizim va rejalariga asoslanib uzluksiz olib boriladigan jarayondir, ya'ni har bir mashg'ulotda o'ylab chiqilgan ma'lum maqsad sari birin-ketin qadamba-qadam erishiladi. Bu jarayonda musiqa rahbari sardor vazifasini o'taydi va bolalarni o'zi bilan ergashtirib yuradi.

Bu jarayonning yana bir muhim jihatlaridan biri bu - har bir bolaning individual dunyoqarashi va iqtidorini nazarda tutish kerak. Ayrim bolalarga tanbeh berish bilan kifoyalansa, ayrim bolalarga tanbeh salbiy ta'sir ko'rsatib, ular o'z faoliyatlarini ko'rsatmay yanada qisilib qolishadi.

Musiqiy tarbiya vazifalari:

1. Musiqaga muhabbat va qiziqishni o'stirish.
2. Bolalarning musiqiy tajribasini boyitish (musiqiy asarlar asosida).

3. Bolalarni oddiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa tinglash, kuylash, musiqiy ritmika borasidagi malakalarini rivojlantirish.

4. Bolalarda emotsional hisni shakllantirish. Ularda lad hissi, ritm tuyg'usini o'stirish va harakatni o'tirish.

5. Musiqiy didni o'stirish (musiqiy taassurotlar asosida).

6. Bolalarda ijodkorlikni o'stirish (barcha faoliyatlar asosida).

Bolalarning Shaxs sifatida tarbiyalash uchun ta'lim jismoniy va ongli tarbiya uyg'unlikda olib borilishi kerak. Bu maqsadga erishish uchun bolalarda to'g'ri tashkillashtirilgan musiqiy mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Estetik tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarda go'zallikni tushunish, uni his qilish, yaxshi va yomonni, badiiy san'at turlarini farqlay olish va ularga ijodkorona yondashishga yo'naltirilgandir. Estetik tarbiyaning eng ko'zga ko'ringan omillaridan biri bu – musiqadir. Bu maqsaddarga erishish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy musiqiyiligini rivojlantirish kerak.

Bolalarning umumiy musiqiyiligiga nimalar asos bo'ladi: musiqa bolaning estetik tarbiya omili sifatida unga go'zallikni qabul qilish, tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish. Bu masalarni hal etish uchun umumiy musiqiylikni rivojlantirish zarurdir.

Musiqiy omillar 3 tamoyilga bo'linadi:

1. Musiqaning xarakteri, kayfiyatini his etish, musiqaga emotsional munosabat bildirish (musiqaning ifodaviyligi va tasviriyiligi). Bolada musiqani tinglaganda uning xarakteriga mos kayfiyatda bo'lishiga erishish kerak.

2. Eng yorqin musiqiy obrazli asarni tinglash, taqqoslash va baho berish. Bunda musiqa ifoda vositalari, musiqiy asboblarning tembrlari, eshitish madaniyati talab etiladi. Masalan, cholg'u asboblarning yuqori va past tembrlari (skripka - alt, konstrabas - violonchel va boshqa sholg'u asboblari).

3. Musiqaga ijodkorlik munosabatini bildirish. Har bir bola biror musiqiy asarni eshitib o'zicha badiiy tasavvur qiladi va qo'shiqda, o'yinlarda, raqs elementlari bilan hissiy munosabat bildirishi mumkin. Bu bolalarda ijrochilikning ilk namoyishlari, ya'ni ilk urug'lari bo'lishi mumkin.

I. Musiqa - bolalarning aqliy faoliyatining faollashtiruvchi omildir.

II. Musiqa - axloqiy omil bo'lib, ma'naviyatning ajralmas qismini tarkib toptiradi. Musiqadan an'analarga hurmat, Vatanni sevish va boshqa tarbiyaviy axloqiy fazilatlarini tarbiyalaydi.

III. Musiqa - jismoniy tarbiya omili hamdir.

Endi bu omillarnin birma-bir ko'rib chihimiz:

I. Musiqa bolaning hissiyotiga va kayfiyatiga ta'sir qiladi.

Bu bolalarga asarni tanishtirar ekanmiz ularda musiqani his qilish, u bilan birga kechinmalarni boshdan kechirishga o'rgatamiz. Qardosh va chet ehl qo'shiqlari hamda raqslarini o'rgatar ekanmiz bu xalqlarning an'analari, tarbiyasi bilan ham tanishtiramiz. Musiqaning boy janrlari - qahramonlik obrazi yoki lirik obrazlarni, yumor yoki raqsonna kuyni eshitib tushinishga undaydi.

Musiqqa bolalarning ichki dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiya masalalari jamoa bo'lib kuylashda, raqs va o'yinlarda namoyon bo'ladi, chunki bolalar bu jarayonlarni jamoa bo'lib ijro qiladilar.

Kuylash faoliyati birgalikni, birdamlikni talab etadi. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida bola o'zini yolg'iz his qilmaydi va asta-sekinlik bilan uning individual rivojiga ham ta'sir qiladi. Musiqqa mashg'uloti bolaning umumiy madaniy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqqa mashg'ulotlari jarayonida turli faoliyatlarni qo'llash (qo'shiq kuylash, tinglash, musiqqa cholg'u asboblariida ijro etish, musiqiy ritmik harakatlar) bolalarda diqqatni jamlash, tez reaksiya va irodasini kuchaytiradi: qo'shiq kuylash jarayonida birga boshlab birga tugatish; raqs va o'yin jarayonida musiqani tempini sezish talab etiladi.

Shunday qilib, musiqiy faoliyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi.

II. Musiqani idrok etish. Bu bolaning axloqiy va aqliy rivojining uyg'unligi bilan olib boriladi, ya'ni diqqatini jamlash, musiqaga nisbatan kuzatuvchilik, uni taqqoslash va farqlay olish talab etiladi. Bola musiqiy asarni tinglagandan so'ng, u musiqqa haqida ilk fikrlarini bildiradi: asarning umumiy xarakterini, qo'shiqdagi badiiy matnini, musiqqa ifoda vositalariga e'tiborini qaratadi. Bu e'tiborni shakllantirish uchun albatta musiqqa rahbari ko'magi kerak.

Misol qilib M.Otajonovning bolalar uchun yozilgan «Guldasta» to'plamidan joy olgan «Musicha» asarini tinglab ko'rishadi.

Bolaning ilk diqqatini tortgan narsa bu asarning kayfiyati - yengil o'yinqaroqligidir. Bu asarda musichaning obrazini kompozitor juda yaxshi ochib bergan. Bolalar tinglash jarayonida bu asar o'yinqaroq va sho'x musicha haqida ekanligini tasavvur qiladilar.

Bolalar bog'chasida o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida ijodkorlik masalasini o'rta tashlasa, albatta bolalarda aqliy faoliyat bilan ishlashadi, ya'ni biror bir tanish bo'lgan qo'shiqqa o'zlari biror matn qo'yishlari yoki aynan shu qo'shiqni improvizatsiya qilishlari. Undan tashqari biror bir badiiy mantga o'zlari kuy bastalashlari, biror bir kuyga raqs elementlarini o'ylab ko'rishlari. Bolalar bilan ishlash jarayonida ularning

aqliy faolligini oshirish, ijodkorligini shakllantirish uchun bolalar bilan biror kuyga raqs elementlari yoki saxnalashtirishni sevishadi. Bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshadi:

1. Bolalar asarni tinglashadi;
2. Uning badiiy tahlil qilishadi;
3. Badiiy obrazni o'ylab ko'rishadi;
4. Rollarni taqsimlashadi;
5. Ijro etishadi.

Bu bosqichlarning har birida maktabgacha yoshdagi bolalar oldida yangi-yangi masalalar qo'yiladi.

III. Musiqa insonning nafaqat kayfiyatiga, estetik rivojiga balki umumiy organizmiga ham ta'sir o'tkazadi. Bola musiqa tinglaganda, kuylaganda, raqs davomida butun organizm faol ishlaydi (nafas yo'llari, mushaklar, qon aylanishi, asab tizimi va boshqa a'zolar). Bu masala bo'yicha ko'plab fiziolog olimlarimiz ish olib borishgan va o'z izlanishlarida juda ko'plab ma'lumotlarni berishadi. Shulardan biri fiziolog olim P.N.Anaxinning ta'kidlashicha: «Kichkina gudak bola major va minor ladida yozilgan asarlarni tinglab ko'rganida shu ladlarga mos kayfiyatini ko'rsatgan ekan». Bu uning ruhiy psixikasiga ta'sir ko'rsatadi.

Qo'shiq kuylashda bolalarda ovoz apparati, tovush paylari va hattoki, talafuzi rivojlanadi. Bola to'g'ri o'trib kuylaganida tanasi, ko'krak qavasi va nafas organlari yaxshi ishlaydi va rivojlanadi.

Ritmika bolalarda musiqani his qilish, tananing asosi (asanka), qadamlarning shaxdamligi va yengil yugurishini rivojlantiradi.

Shunday qilib, bolalarning har tomonlama rivojida musiqaning o'rni kattadir. Bola musiqani tushunish, uni idrok etish, unga hissiy munosabat bildirish, ijrochilik malakalarini shakllantirishga muntazam olib borilgan musiqa mashg'ulotlari katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'shiqchilik ko'nikmalarini tarbiyalash

Qo'shiq kuylash – bolalarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. U bolalarni nafaqat ruhiy balki jismoniy jihatdan rivojlantiradi. Chunki bola kuylayotganda og'iz, burun, nafas yo'llari, ko'krak qafasi, umuman olganda barcha a'zolari faoliyat olib boradi. Bola kuylash jarayonida tik gavdasini erkin va to'g'ri o'tirishi talab etiladi. Kuylash jarayonida nafas yo'llari ham rivojlanadi. Bu jarayonlar masalasini juda ko'plab fiziolog-medik olimlar ko'p tadqiqotlar va ishlar olib borishganlar. Bulardan N.A.Vetlugina,

A.N.Keneman, M.A.Metlov, S.G.Tovbina, E.P.Iova, I.P.Pavlov, A.G.Menabeni va boshqa ko'plab fiziologlarni ta'kidlab o'tsak bo'ladi.

Bolalarga kuylash jarayonida matn va musiqa uyg'unligida bo'lganda matn va kuyga e'tibor beriladi. Qo'shiqda matn va musiqiy kuy birikib, tinglovchiga emotsional ta'sir ko'rsatib turli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bu ta'sirchanlik bola tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Bolaning kichik davridan qo'shiqni ma'nosini tushunmasa ham, uning mazmunini va musiqasini tushunmasa ham unga hissiy munosabatni bildiradi. Bola rivojlangani sari, nutqi va hayot davomida olgan ko'nikmalari qo'shiqni, umuman kuyni tushuna olishga yordam beradi.

Jamoa bo'lib kuylaganda bolaga kuy qo'shiq matnga nisbatan kuchliroq ta'sir qiladi. K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek: «Qo'shiqda, ayniqsa xor jamoasida qalbni tarbiyalovchi uning jumbushga keltiruvchi hissiyotlar mavjud»

Ko'pgina hollarda o'g'il bolaning shaxdam yurib marshni kuilayotganini, qiz bolani esa qo'g'irchoqni allalashini kuzatishimiz mumkin.

Bolaning ovozi - tabiiy cholg'udir, chunki bu cholg'u u yoshligidan mavjud. Mana shuning uchun ham uning hayoti davomida hamroh bo'ladi va turli o'yinlarda foydalanadi. Undan tashqari qo'shiq bola hayotining boshqa faoliyatlarida ham qo'llanadi. Masalan, raqs, xorovod, bolalar cholg'ularida ijro etganda.

Qo'shiq – bu bolaning dunyoqarashini kengaytirib, yorqin obrazli tasavvurga ega bo'lishga yordam beradigan janrdir. Qo'shiqlarda tabiatga, Vatanga muhabbat, kattalarga, ajdodlarga hurmat, o'zaro munosabatlarni yaxshilash va boshqa tarbiyaviy, axloqiy fazilatlar aks etadi va axloqiy qarashlarini o'stirishga yordam beradi.

Qo'shiq o'rgatish jarayonida bolalardan katta aqliy mehnat talab etiladi. U yonidagi bolani eshitishni, uning qo'shig'iga o'z munosabatini bildirishni, musiqiy jummalarni bir-biri bilan solishtirishni, taqqoslashni, fortepiano jo'rligini tinglay olishni, qo'shiqni garmonik va melodik tizimini eshita olishni va ijro sifatini baholashni o'rgatadi.

Qo'shiq bola organizmiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, nutqini o'stiradi, ovoz apparatlarini rivojlantiradi, qo'shiqchilik nafasini shakllantiradi. Bola qo'shiq kuylashda asosan musiqa hissi, emotsional ta'sirlanish, musiqiy eshituvi (slux), ritm hissi rivojlanadi. Qo'shiq kuylashning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri bu – jamoa bo'lib ko'ylashdir.

Bola eshituv qobiliyati (slux) va ovozini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Qo'shiq – tovush hosil qilishning murakkab jarayonlaridan biri bo'lib, asosan ovoz va eshituv organlarining mujassamlashuvi asosini tashkil etadi, ya'ni eshituv apparati va qo'shiqchilik ovozing o'zaro bog'liqligidir.

Eshituv qobiliyatining takomillashuvi - bolalarning kichik yoshidan rivojlanadi. Ular musiqa rahbari yoki tarbiyachi kuylab berganda qo'shiq, kuy yoki ohangni sofligicha eshitadilar va shundayligicha kuylaydilar.

Kichik yoshdagi bolalar 2-3 ta nota oralig'idagi qo'shiqlarni ko'ylay oladilar. Bolalar kattalar kuylarini eshitib, keyin o'zlari ham shu kuyni kattalardek kuylashga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz apparati mukammal rivojlanmagan (tovush paylari rivojlanmagan, nozik, nafas kuchsiz va boshqalar). Bola rivojlangani sari organizm va qo'shiqchilik organlari ham takomillashadi. Maktabgacha yoshdagi bola ovozi yetarli darjada yorqin bo'lmaydi. Bu muammolar ustida ko'pgina tadqiqotchilar ilmiy ishlar va izlanishlar olib borishgan. Bolaning ovoz xususiyatlari, ularning diapazoni imkoniyatlari haqida N.D.Orlov, E.I.Almazov, N.A.Metlov, N.A.Vetlugina, A.D.Voinova, R.T.Zinichlar shular jumlasidandir. Ular o'z ilmiy ishlarida «bolaning tabiiy ovozi re 1 - si 1, ya'ni undan yuqori va pastki notalarni bola kuylaganda tovush zo'riqishi va uni siqib kuylashi mumkin. Bu bolalarning tovush paylarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin». Bu muammolarga yo'l qo'ymaslik uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan va puxta o'ylab chiqilgan repertuar tanlanishi kerak. Bunda asosiy e'tiborni qo'shiqchilik diapazoniga qaratamiz.

Yoshi	Diapazonlari
2 - 3 yosh	mi 1 - lya 1
3-4 yosh	re 1 - lya 1
4 - 5 yosh	re 1-si 1
5 -6 yosh	re 1 - si 1 (do 2)
6 -7 yosh	do 1 (re 1)-do 2

Berilgan jadvalda bolalarning ovozi pastki, yuqori va ishchi diapazoni mavjuddir.

Bolalarga qo'shiq o'rgatayotganda va repertuar tanlaganda nimalarga e'tibor berilishi kerak? Har bir qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zga tutib tanlanadi. Unda har bir yangi qo'shiq oldingisidan hosil etilgan kuylash malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi.

Qo'shiq diarazoni bolalar ovozigga mosligi, badiiy g'oyaviy mazmuni, bolalar dunyoqarashi va yoshiga mos bo'lishi kerak.

Qo'shiqlarni quyidagi talablarga ko'ra tanlash tavsiya etiladi:

1. Qo'shiqni tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakterining bolalar yoshiga mosligi.

2. Qo'shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi, bolalarning lug'at boyligiga mosligi va ularning nutqini va tafakkurini o'stirish uchun xizmat qilishi.

3. Qo'shiq ohangi, uning xarakteri (xushchaqchaq, quvnoq, marsh, mungli, g'amgin, bayramona, ko'tarinki ruhda), lad va tessiturası, ovoz diapazoni bolalar yoshiga mos bo'lishi.

4. Qo'shiqning badiiy xususiyatlari va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi.

5. Qo'shiq shakli (1, 2 qismli yoki kuplet shaklida tuzilganligi) naqoratning mavjudligi.

Qo'shiqni tanlashdagi bolalarga qisqa, mazmunli, obrazli, qiziqarli hikoya qilib beriladi. Qo'shiq mazmunidagi axloq-odob, tabiat, ona Vatan, mehr-muhabbat haqidagi g'oyalarni bolalar ongiga singdirib, ularda qiziqish uyg'otadi.

Badiiy qo'shiqlar sirasiga D.Omonullaevning bolalar uchun yozilgan «Dilorumning qo'shiqi», «Buvijonim», «Aziz buston - O'zbekiston», «Navro'zim», «O'zbekiston - Vatanim manim»; N.Norxo'jaevning «O'ynasangchi tipratikan», «Nevaralar qo'shig'i», «Kapalak va kamalak», «Kakligim», «Shaftoliga savolim», «Navo'zim - sho'x sozim», «Salom bergan bolalar», «Buvijonim yaxshisiz», «Gullar manim kulganim», «Yaxshi bola», «Biz askarmiz»; Sh.Yormatovning «Ay-yay-yay», «Islom bobo»; A.Mansurovning «Muzqaymoq», «Vatanginam»; F.Nazarovning «Inoq o'ynaymiz», «Paxtaoy», «Qish chog'lari» va boshqa ko'plab O'zbekiston kompozitorlarining qo'shiqlari bolalar ijodiyotida so'nmas iz qoldirib ularning badiiy tarbiyasi va didini o'stirishga yordam beradi.

Qo'shiqni tarbiyachi ifodali qilib ijro etib beradi. Qo'shiq mazmuniga mos tasviriy san'at qo'shiq mazmuniga va tuzilishiga xos savol-javoblar qilib, qo'shiqni musiqiy jumalarga bo'lib o'rgatadi. So'ngra qo'shiq mazmuniga mos musiqiy-ritmik harakatlar bilan o'rgata boshlaydi. Matn va ohang talaffuzning aniqligi ma'lum me'yorga tushgandan so'ng, qo'shiqning badiiy ijrosiga erishildi. Qo'shiqni vaqti-vaqti bilan sayr vaqtida, mashg'ulotdan-mashg'ulotga qadar takrorlab kuylab turish lozim, aks holda uning matni bolalar xotirasidan ko'tariladi va unga nisbatan qiziqish susayadi. O'qituvchi har bir mashg'ulotda ayniqsa, yangi qo'shiqni

o'rganishdan oldin, ilgari o'rgatilgan qo'shiqni takrorlab turish, bolalar ijrosidagi aytm nuqsonlarni tuzatib borishga yordam beradi. Bolalar toliqmasliklari uchun qo'shiq o'rgatish shakllari o'zgartirilib turiladi. Masalan: guruhlarga bo'lib o'rgatish; yakkaxon va guruh jo'rligida; musiqiy harakatlar yordamida amalga oshirilib; qo'shiq matniga mos raqs elementlarini o'ylab ko'rishga va o'zlari uni ijro etishga undab ko'rish yaxshi samara beradi.

Qo'shiq mukammal o'rganilgandan so'ng, ularning qiziqishi yanada ortadi. Shuningdek, mashg'ulot shakllarini (noan'anaviy mashg'ulotlar) o'zgartirilib turish ham mashg'ulotlarda bolalarning zerikishini oldini olib, qiziqishini kechaytiradi.

Yil davomida bolalar 10-12 ta qo'shiq o'rganishlari ko'zda tutiladi. Bunga erishish uchun qo'yiladigan vazifalar: bolalarda sof intonatsiya va qo'shiqchilik malakalarini shakllantirish; bolalarga yakka va tarbiyachi bilan qo'shiq kuylash, a'kapella tarzida ijro etish; musiqiy eshituv qobiliyatini, kuyning balandligi, ularning uzunligi, kuyning yo'nalishi, o'zini eshita olishi (kuylayotganida), ijro vaqtida o'zining xatolarini eshita olishini rivojlantirish; ovoz rivoji, tabiiy ijroga erishish; bolalarda ijodkorlik malakalarini rivojlantirish, ular ijro etgan qo'shiqlarini xorovodlar va o'yinlarda qo'llash.

Qo'shiqchilik malakalari

Bola to'g'ri kuylashi uchun qo'shiqchilik, vokal-xor malakalarini shakllantirish kerak. Qo'shiqchilik malakalari – bu to'g'ri holatda kuylash. Qo'shiq kuylash jarayonida bola gavdani ko'tarib bukchaymasdan, stol orqasiga suyanibroq o'tirishi kerak. Qo'llari esa tizzaga qo'yiladi.

Vokal malakalari. Bu ovoz hosil qilish, nafas va diktsiya. Nafas qisqa, yengil va shovqinsiz bo'lishi kerak. So'zlar aniq va burro talaffuz qilinadi. Xor malakalari. Bu ansambl va tuzilish (stroy)ning o'zaro bog'liqligi. «Ansambl» – francuzcha so'z bo'lib, «uyg'unlashuv» (slitnost') ya'ni, ovozlarning kuch va balanligining birlashuvidir. Bu jarayonda ovoz unison kuylashga va tembrning tekislanishiga erishishimiz kerak.

Kuylash malakalarini rivojlantirish

Kuylash malakalari qo'shiq yodlash va o'rgatish jarayonida rivojlanadi. Asar murakkablashgani sari malaka rivojlanadi.

Bog'cha bolalarining musiqiy tarbiyalanish jarayonida bilishlari kerak bo'lgan mezonlar:

Kichik va o'rta guruh - musiqa rahbari musiqa asbobi yordamida oddiy, murakkab bo'lmagan qo'shiqlarni kuylay olishi kerak.

Katta guruh - asbobsiz faqat musiqa rahbarining yordami bilan yoki musiqa rahbarisiz musiqa asbobi jo'rligida kuylashi, tovushlar balandligi va cho'zimlarini farqlay olishi, qo'shiq kuylash jarayonida to'g'ri, tik, elkani to'g'ri tutib o'tirishi kerak.

Maktabgacha tayyorlov guruhi - yodlagan qo'shig'ini ifodali kuylab berish, oldin yodlagan qo'shig'ini eslab kuylashi, kuylash jarayonida yonidagi bolalarni eshita olishi va kamchilik-xatolarini to'g'riylay olishi, tovushlarning yuqoriga va pastga harakatlanishini farqlay olishi, notalar qisqa uzunligini va notalarning nomlarini bilishi kerak.

Qo'shiq kuylashga o'rgatishning metodlari va yo'llari

Musiqa rahbari bolalarga qo'shiqni o'rgatishdan oldin qo'shiqni tanishtirishi, kompozitori haqida, asarning matni, mazmuni haqida gapirib berishi kerak, bir so'z bilan aytganda bolalarda bu qo'shiqni o'rganish uchun qiziqishlarini uyg'otishdir.

Qo'shiq o'rgatish jarayonida yosh davrlar bo'yicha ko'rib chihamiz.

Kichik guruh bolalarini kuylashga o'rgatish metodlari

Uch yoshda ovoz apparati endi shakllana boshlaydi. Qo'shiqchilik ovozi hali yo'q, nafas qisqa, lekin bolalar shu davrda juda qiziquvchan bo'lib, kattalar ijrochiga bajonudil qo'shiladilar, jummalarning ba'zi tovushlarini kuylay olishadilar. Asosiy vazifa. Boshlang'ich kuylash malakalarini rivojlantirish va mustahkamlash. Bu yoshdagi bolalar qo'shiqni butun-yaxlitligicha kuylay olishmaydilar, faqat ba'zi qismlarinigina kuylay olishadi.

To'rt yoshga kelib ovoz kuchayadi, ular eng oddiy qo'shiqlarni kuylay olishadi. Bunda qo'yiladigan vazifa - bolalarda tabiiy tovushda kuylashga, zo'riqmasdan, tovushni siqmasdan kuylashga o'rgatish. Bu yoshda muhim ishlardan biri bu talaffuz ustida ishlash. Bolalar bu yoshda hali ko'p so'zlarni ma'nosini tushunmaydilar. Ularga so'zlarning mazmunini va to'g'ri talaffuzini tushuntirish kerak. Bu yoshdagi bolalar umumiy bir tempda kuylashi qiyin kechadi. Bu narsa tarbiyachining doimiy e'tiborida bo'lishi va bolalarning birgalikda kuylashga o'tgatiishi kerak.

Besh yoshli bolalar murakkab bo'lmagan qo'shiqlarni musiqiy rahbariga ergashib kuylaydilar.

Metodik usullar:

1. Musiqa rahbari tomonidan qo'shiqni ifodali emotsional ijroda ko'rsatish;
2. Qo'shiqni birinchi bor tanishtirish jarayonida rasm, o'yinchoqlar bilan qo'shiqni mazmunini ochib berishga yordam beradi.
3. O'yin shakllarini qo'llash.
4. Ta'limiy usul - musiqa rahbari asarni 2-3 marta fortepiano chalib beradi va bolalar bilan birgalikda kuylaydilar.
5. Qo'shiq matnini kuy bilan birgalikda o'rganiladi.

O'rta guruh bolalarini kuylashga o'rgatish metodlari

Besh yoshdagi bolalar ma'lum darajadagi umumiy musiqiy tayyorgarlikka ega. Ovozi ancha mustahkamlangan bo'lib diapazon (re 1 - si 1) kengaygan. Nafas biroz mustahkamlangan, chuqurlashgan, so'zlarni to'g'ri ta'laffuz qilish malakalariga egadirlar.

Asosiy vazifa:

1. Tabiiy tovushda zo'riqmasdan kuylash. Bu malaka ustida muntazam ravishda ish olib boriladi.
2. To'g'ri nafas olish, ya'ni bir jumlaning bir nafasda kuylash.
3. To'g'ri talaffuzga e'tibor berish
4. Artikulyatsiya ustida ishlash (qo'shiq ijrosi vaqtida og'izni to'liq ochishga, past jag'ni zo'riqtirmasdan, siqmasdan ochib kuylash).
5. Ansambl malakalari - qo'shiqni birga boshlab, birga tugatishga erishish. Bu yoshdagi bolalarni jo'rsiz ijroga o'rgatish (yaxshi o'rganilgan va mustahkam biladigan qo'shiqni jo'rsiz aytishi mumkin) kerak.

Metodik usullar:

1. Qo'shiqni o'rgatish jarayonida fortepiano jo'rligida yoki jo'rsiz olib boriladi.
2. Musiqa rahbarining ovozidan kuylashga o'rgatish bolalar uchun osonlashadi.
- 3. Qo'shiq o'rgatish jarayonida musiqiy jummalarni bolalarni guruhlariga bo'lib, navbatma-navbat aytirish (bunday metodni qo'llashdan maqsad bolalarning eshituv jarayonini va diqqatini rivojlantiradi).
4. Cho'zib kuylash malakasini o'stirish (kontellenno ijrosi). Bu yoshda kuylash oldidan ovoz sozlash mashqlariga katta e'tibor beriladi. Mashqlar bolalarda qo'shiqchilik ovozini va qo'shiqchilik nafasi rivojiga olib keladi.

Katta guruhda kuylashga o'rgatish metodlari

Tovush hosil qilish ustida ishlaganda zo'riqtirmasdan kuylashga e'tiborini qaratadi, ammo ovoz jaranglash turli-tuman bo'lishini, ya'ni tabiiy, jarangdor, chaqqon, yengil, mayin kuylashga erishish kerak.

Qo'shiqchilikda diktsiya va qo'shiqchilikni rivojlantirib o'z-o'zini eshitishga ovoz kuchini boshqarishga, so'zlarni aniq talaffuz etishga o'rgatish.

Musiqi rahbari doim bolalar sof kuylashiga e'tibor berishi kerak. Kuylashning sifati kuylash holatiga bog'liqdir.

Ifodali kuylashga erishishda dinamik tuslar, ansambl malakalari to'g'ri bajarilishi muhimdir.

Metodik usullar:

1. Aks-sado usuli.
2. Qiyoslash-taqqoslash metodlaridan foydalaniladi.

Maktabga tayyorlov guruhlarida kuylashga o'rgatish metodlari

Maktabga tayyorlov guruhida musiqiy-estetik masalalar alohida ahamiyat kasb etadi. 6-7 yoshli bolalarda kuylashga ehtiyoj kuchayadi. Maktabga bolalarni puxta egallagan bilim va malakalar bilan yuboriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalaridan talab etiladigan bilim, malakalar:

1. Qo'shiqni ifodali ijro etishi: jarangdor, kuychan, yengil ovoz bilan kuylash; ko'krak va elkani ko'tarmasdan nafas olish; jumlani boshida olingan nafasni jumlaning oxirigacha tejab sarflash; artekulyaciya malakalari, so'zlarni (unli va undosh harflarni) aniq va burro talaffuz qilish.

2. Qo'shiqni birga boshlab birga tugatishi (tempni tezlashtirmasdan yoki sekinlashtirmasdan); ritm va tempni aniq his qilishi; kuyni sof intonatsiya qilishi, yonidagi do'stini kamchiligini ayta olishi; tanish bo'lgan qo'shiqni asbob jo'rligida yoki jo'rsiz ijro eta olish; kuyning yuqoriga va pastga harakatlanishi, uzun va qisqa tovushlarni aniqlay olishi; notalar nomlarini bilishi; yuqori notalar nota yo'lining yuqorisida, past notalar esa pastiga yozilishini bilishi kerak.

3. Jamoa va yakka kuylay olishi. Bunda qomatini tik tutib, ega bo'lgan qo'shiqchilik malakalarini ko'rsata olishi.

4. Qo'shiqchilik diapazonini rivojlantirishi (do (do#) 1-re2).

Qo'shiqchilik malakalari

1. Tovush hosil qilish ustida ishlash (yengil, yuqori, jarangdor, kuychan). Musiqa rahbari qo'shiq o'rgatish jarayonida o'zi yoki yaxshi kuylaydigan bola misolida ko'rsatadi.

2. Unli tovushlar (a, o, u, eh, i)ni to'g'ri talaffuz qilish. Bunda musiqa rahbari kuylashdan oldin ovoz sozlash mashqlarida (lya-le-li bo'g'inlari) qo'llashi maqsadga muvofiqdir.

3. Qo'shiqchilik nafasi ustida ishlash.

4. Diktsiya rivoji. Bola matni mazmunini tushungan holda to'g'ri kuylashi kerak.

5. Intonatsiya (stroy) ning sofligi va to'g'riligiga erishish.

Metodik usullar:

1. Qo'shiq kuylashdan oldin ovoz sozlash.

2. Qo'shiqni yuqori va past tonalliklarda transportda kuylash.

3. Kuyni eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

4. Kuyni qo'l haraktida ko'rsatish (dirijyorlik elementlari).

Musiqiy asar tahliliga namuna:

«Yangi yil archasi»

M.Abdushukurova she'ri A. Berlin musiqasi

Asar maktabga tayyorlov yosh bolalarga mo'ljallangan. Bu qo'shiqning murakkab joylari ko'p bo'lib, bolalarda kuylash faoliyatini takomillashtiradi. Qo'shiq diapazoni mi 1-do 2.

Bu qo'shiqda qishning ziynati – qor, quyoncha, tulkicha, qorbobo va boshqa mehmon (hayvon)larni kutayotganlari haqida, umuman olganda, bolalarning hayotida yangi yil bilan bog'liq xotiralari o'chmas iz qoldiradi. Uning yorqinligi, bolalar ertak qahramonlari bilan hamnafaslikda bo'lganligi bolalarni o'ziga jalb etadi.

Qo'shiq qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llari:

1. Qo'shiqda sakrama harakatlar ko'p. Bular bolalar kuylashi uchun murakkabdir. shuning uchun sof kuylashga alohida e'tibor qaratish kerak.

2. Qo'shiqda punktir ritmlaridan ham keng foylanilgan va ularni aniq talaffuz etish kerak.

3. Ligali notalar. Bunday notalar asosan jummlar oxirida uchraydi va buni to'g'ri va sof kuylashga erishish kerak.

Musiqiy ritmik faoliyat

Musiqi tarbiyasidagi faoliyatlardan bolalar bog'chasi uchun eng muhimi hisoblangan musiqiy-ritmik faoliyatdir. Bolalar bog'chasida bu faoliyat ertalabki badantarbiya mashqlari sifatida amalga oshiriladi. Bolalar mashqlarni havosi toza xonalarda yoki ochiq havoda o'tkaziladi. Buning uchun bola kiyimi yengil va qulay bo'lishi kerak. Muntazam mashq bajarish bolalarni elka, qorin va boshqa a'zolarini mustahkamlaydi. Oyoq uchi va tavon uchun bajariladigan mashqlar yassi oyoqlikni oldini oladi. Bundan tashqari bunday mashqlar bolalarni qon aylanish tizimiga ta'sir ko'rsatadi.

Musiqiy rahbar mashg'ulot o'tkazish jarayonida bolalarga musiqi ostida harakat qilishlariga yordam beradi va ularga raqs elementlarini o'rgatib boradi. Musiqiy mashg'ulotlarni boshlashdan avval bolalarni musiqi bilan yugurish va sakrashga o'rgatish lozim.

Yurish - har xil bo'ladi. Oddiy qadamlarni keng tashlash, turgan joyida tizzalarni ko'tarib, yumshoq, cho'zilib oyoqni uchida yurish turlari mavjud.

Yugurish - bu oddiy, yengil, oyoq uchida qo'lni yuqoriga ko'tarib yugurish va keng qadamlar bilan yugurish.

Sakrash - bunda ikki oyoqda sakrash, oyoqni juftlab, oyoqlarni almashtirib, bir oyoqni oldinga ikkinchi orqaga qilib sakrash, obruchlar orasidan arqon bilan sakrash turlari mavjud.

Nafas

Musiqiy ritmik harakat bajarayotganda toza havodan nafas olish kerak. Buning uchun bolalarga to'liq, nafas va burundan to'liq olishga o'rgatish kerak. Bolalarga mashqlar jarayonida nafasni uzoq ushlab turmaslik kerakligini uqtirish lozim.

Ana shu vazifalar qo'shiq kuylab raqsga tushganda ham katta yordam beradi.

Bir yoshli bola - musiqi tovushiga impulsiv reaksiya qiladilar va ular taqlid qiladilar. Kattalar musiqaga mos qanday harakat qilsalar yosh bolalar ham xuddi shunday qiladilar.

Ikki-uch yoshli bolalar - musiqani ritmik anglashga yetarli ravishda tayyor bo'ladilar.

To'rt yoshli bolalar - o'yin haqida fikr ayta oladilar va qiyin asarlarga mos harakatlar qila oladilar.

Besh yoshli bolalar - ritmik harakat va mashqlar haqida bema'lol o'z fikrlarini harakatda ifoda eta oladilar. Lekin, musiqi tempini o'zgarishi ular uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Olti yoshli bolalar - musiqa bilan harakatni bir-biriga mosligini his etadilar. O'yin jarayonida harakat ketma-ketligini his etadilar.

Yetti yoshli bolalar - musiqani faol idrok etadilar. Musiqani harakat bilan bog'liqligini ifodasini his etadilar. Ular raqs, o'yin jarayonida mustaqil harakatlana oladilar.

Boshlang'ich guruhlarda ritmik harakatlarni bajarish, bolalarni jismoniy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich guruh bolalarining ovoz apparatlari nozik, diqqat e'tibori tarqoq, serharakat, o'yinga beriluvchi, xotirasi, nutqi to'liq rivojlanmagan bo'lganligi sababli musiqa mashg'ulotlarida faoliyat turlari tez-tez almashib turishi lozim. Musiqaga mos raqs, o'yin harakatlarini bajarish, bolalar diqqatini jamlashda, xotirasini mustahkamlashda va jismonan o'sishiga yordam beradi. Mashg'ulotlar davomida quyidagi harakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi: marsh musiqalariga qadam tashlash, yugurish raqsi elementlarini bajarish, mustaqil o'yinlar o'tkazish, musiqali harakatlarni, turli qo'l va tana harakatlari bilan ifodalash. Ma'lumki, milliy musiqa madaniyatida raqs muhim o'rin tutadi va unga har bir bola qiziqadi. Raqs harakatlari musiqa mashg'ulotlarida bolalar faollashuvini oshiradi. Eng muhimi shundaki, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarning musiqiy iqtidori, ritm tuyg'usi faol rivojlanadi. Har bir harakat turini musiqa rahbari oldindan belgilaydi va o'zi uni aniq, go'zal va ifodali qilib ko'rsatib beradi. Har bir harakatni bajarishdan oldin, unga doir musiqa mazmunini avval ongli ravishda tinglab yoki kuylab, so'ngra harakatlar bajarish yaxshi natija beradi. Bolalar musiqali o'yinlarga ham juda qiziqadilar. Ko'p musiqiy asarlar mazmunida o'yin metodlaridan foydalanish mumkin. Mashg'ulotlar jarayonida bajarilgan har bir musiqiy harakat turi, musiqali o'yinlar, bolalarni xotirasini mustahkamlaydi, nutqini o'stiradi, jismoniy sog'lom bo'lishga ko'maklashadi va ularni ruhlantirib, musiqa mashg'ulotlariga qiziqishini oshiradi. Chunki, kichik guruh bolalarining diqqat-e'tiborining tarqoq, ovoz apparatlari kuchsiz, musiqiy o'quv qobiliyatlari to'la shakllanmagan, serharakat, o'yinga moyil bo'ladilar. Bunda mashg'ulotlarning tuzilishi pedagogik maqsadlarga qarab mashg'ulotlarni xohlagan mashg'ulotlar faoliyatidan boshlashi mumkin. Bundan maqsad, bolalarni musiqaga qiziqitira olish, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, mashg'ulotlar faoliyatlarini bir-biri bilan chambarchas bog'lab mazmun jihatdan mantiqiy bir butunlikka erishishdir.

Demak, yangi dastur mazmunida mashg'ulotlar o'tish uchun, musiqa rahbari ijodkor bo'lishi, musiqadan zarur bilimlarga hamda ashulachilik malakalariga va musiqiy ritmik harakatlarni o'rgatish metodikasiga va unga kerak bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Bolalar cholg'u asboblarida ijro etish faoliyati

Musiqa mashg'ulotlarida bu faoliyat turi eng qiziqarli jarayonlardan biridir. Bu faoliyat bolalarni ijodkorlikka undaydi. Bolalar cholg'u asboblarida jonli tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir bolani qiziqtiradi. Chapak va bolalar cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish, musiqaning xarakter va obrazlarni chuqurroq his etishda, ularga mos emotsional tuyg'ular hosil qilish, ayniqsa, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa mashg'ulotlarida bolalar cholg'u asboblaridan foydalanish ijobiy natijalar berish bilan birga bolalarning mashg'ulotga intiluvchanligi, qiziqishi va musiqiy o'quvini (xotirasi, ritmni his qilish tuyg'usini, nutqini) o'stiradi.

Bu borada ko'plab pedagogik olimlar metodik qo'llanmalar yaratganlar. Ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borganlar. Misol qilib, N.A.Vetluginaning «Musiqiy alifbo», N.G.Kononova «Obuchenie doshkol'nikov igre na detskix muzykalnix instrumentax» kitoblarini ta'kidlab o'tish mumkin. Undan tashqari Mustaqillikka erishilgandan so'ng o'zbek xalq cholg'ularida ijroga katta e'tibor qaratildi. Va aynan bolalar yoshiga mos keladigan o'zbek xalq cholg'ulari yasatildi. Bu asboblarning kattalar ijro etadigan asboblardan farqi - bu asboblar shakl jihatdan kichkina. Bolalarning qo'lga to'g'ri keladi, ya'ni ijro vaqtida bolalarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Endi bu asarlarni hayotga tadbiiq etish uchun ma'lum bir o'quv qo'llanma talab etilardi. Bu borada O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi professor-o'qituvchisi A.Leviev «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik» nomli kitobini hayotga tadbiiq etdi.

Bu kitobning o'ziga xosligi shundaki, birinchidan, o'zbek kompozitorlarining bolalar uchun yozgan qo'shiqlaridan foydalanilgan. Bu bolalarda tanish bo'lgan qo'shiqlarni cholg'ularda ijro etib kuylashlariga katta turtki bo'ladi.

Ikkinchidan, aynan o'zbek xalq kuylaridan namunalar keltirilganligidir. Bu bog'cha bolalarida yoshligidan o'zbek xalq kuylarida mehr-muhabbat hissini, ularga hurmatini uyg'otadi. Bolalar o'zlari o'zbek xalq kuylarini cholg'uda ijro etishsa, anchagacha eslarida qoladi.

Uchinchidan, bu cholg'ular tafsifi, uni ijro etish malakalari va ko'nikmalari batafsil yoritib beriladi. Lekin bu kitobning murakkab jihati - bolalarda mashg'ulot jarayonida qo'llash uchun qiyinchilik tug'diradi. Bu masalani bartaraf etish uchun mashg'ulotdan tashqari vaqtda qo'llash kerak. Yod bo'lgan kuy va qo'shiqlada bayram ertaliklardan va tantanalarda bolalar ijro etishsa o'zlarini kichkina sozandalar, deb his qiladilar.

Turli tantanalarda ijro etilgan kuy va qo'shiqlar anchagacha xotirada muxrланib qoladi.

Bolalar cholg'u asboblarda jo'r bo'lishda, avval, bolalar chapak chalib, ritmik jo'r bo'ladi. Musiqa rahbari bolalar kuy ritmini to'g'ri his etib ijro etishlari uchun, bolalarga stol ustida terib qo'yilgan cholg'u asboblarida chalib, musiqaga jo'r bo'lishi haqida batafsil so'zlab berishi lozim. So'ng biror cholg'uda kuyni o'zi ijro etib chapak bilan jo'r bo'lishini ko'rsatadi. Keyin barchani kuyga chapak chalib, jo'r bo'lishni taklif etadi va ijro jarayonini diqqat bilan kuzatib, bolalar cholg'u asboblarini tarqatish uchun ilg'or va zehni bolalardan birini tayinlaydi (birinchi marta ilg'or bolalarni tanlashdan maqsad kuy chiroyli va to'g'ri bo'lib ijro etilsa keyin qolgan bolalar ham o'z tengdoshlari ijro etganlaridek chalishadi). Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun yana bir takrorlab chiroyli, to'g'ri ijro etilishi kerak. So'ngra musiqa rahbari ijro etmagan bolalarga cholg'u asboblarida jo'r bo'lishni taklif etadi. Shu tarzda guruhdagi barcha bolalar galma-gal cholg'u asboblarida jo'r bo'lishga undab, ularning qiziqishini oshiradi. Cholg'ularda chalishga hamma intiladi, albatta. Shuning uchun berilgan asarni bolalar xato qilmay musiqani his etishga va xotirada saqlashga harakat qiladilar. Keyinchalik ijrochilik turlari murakkablashtiriladi. Aynan shu holda guruhni ikki jamoaga bo'lib, 1-jamoa chapak chalib, 2-jamoa esa ovozda uchul berish bilan yeki cholg'u asbobida ham jo'r bo'lishlari mumkin. Bu usulning yana bir foydali tomoni shundaki, bolalarda jamoa bo'lib kuylash malakalarini, ko'p ovozli kuylashning ilk malakalarini rivojlantiradi. Ijro etishning yana bir turi - bolalar doyrada usulni aniq va tekis chalib turadi. «Bum»ga 1-jamoa bolalari, «bak»ka esa 2-jamoa bolalari jo'r bo'lishadi. Buni iloji bo'lsa magnitofon tasmasiga yoki yozuvga yozib olib bajarisa ham bo'ladi. Shuningdek, kuyni dinamik belgilari va ifoda vositalarini ko'rsatib turish uchun kartochkalardan foydalansa ham bo'ladi.

Bunday mashg'ulotlar - qiziqarli o'tadi, bolalar bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi va musiqiy-qobiliyatlari har tomonlana rivojlanishini ta'minlaydi. Musiqa mashg'ulotlarida bolalar cholg'u asboblarini qo'llashi, tarbiyachidan katta mas'uliyat, ijodkorlik va topqirlikni talab etadi.

Bolalar musiqa cholg'ulari xarakteristikasi

Bolalar musiqiy o'yinchoqlari va musiqiy cholg'ularda tovush hosil bo'lishi va tovush sifatiga ko'ra ma'lum guruhlariga bo'linadi.

Bolalar musiqa cholg'ulari asosan ikkita guruhga, ya'ni tovush balandligiga ega bo'lgan (melodik) hamda urib chalinadigan (melodik bulmagan) cholg'ularga bo'linadi.

1. Urib chalinadigan (melodik bo'lmagan) ritmik cholg'ular: doyra, nog'orachalar, kayrok, klaves, bloklar, tamburin, baraban, marokas, uchburchak, rumba, yog'och koshiklar, tarelkalar. Shu cholg'ularning ba'zilarining tavsifini keltiramiz:

Klaves - palisandr daraxtidan tayyorlangan ikkita tayoqcha, bir biriga urib ovoz chiqariladi. Ularni ushlaganda (bosh va ko'rsatkich barmoqlar yordamida) yog'och uchrali bush bulishi kerak.

Baraban - ikki tarafi teri bilan koplangan temir cilindr. Tovush yog'och tayoqchalar yordamida markaziga urish orqali hosil kilinadi.

Marakas - ikkita plastmass shar, ularning ichida toshchalar harakatlanadi. Bu cholg'uning tovushi og'irroq bo'lgani uchun bolani tez charchatadi. Shuning uchun ehxtiyot bo'lib foydalanish zarur. Qo'lda ushlab, mayin harakat bilan silkitib tovush hosil qilinadi.

Uchburchaklar - chalish paytida osib qo'yiladi yoki chap qo'lda tasmachasidan ushlab turiladi va o'ng qo'lda metall tayoqcha bilan uriladi. Tez tempda tayoqchani uchburchakning ichki ikki yoniga urib «tremalo» ijro etish mumkin. «Nozik», «yaltiroq», qisqa tovushga ega.

Tarelkalar - barabanchaga mustahkamlanadi yoki chap qo'lda ushlab turiladi. Ikkita yog'och tayoqcha bilan barobar yoki alohida-alohida chalish mumkin.

2. Melodik cholg'ular: tovush balandligiga ega bo'lgan metallofon, ksilofon, metallofon va ksjilofon alt (S1-S2), metallofon va ksilofon soprano (S2-S3), ko'ng'iroqchalardan iborat:

Bu cholg'ularning asosiy sozlanish tonalligi - Do major. Almashtiriladigan plastinkalar yaqin tonalliklarda ijro etish imkoniyatini beradi. Eng pastki tovush doimo tonika bo'ladi. Ijro paytida cholg'ular o'quvchining bel qismi-balandligida bulishi lozim. Tayoqchalarni bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasida yengil ushlash kerak. Bunda qo'llar tirsakdan bilaklargacha erkin holatda bulishiga e'tibor tortiladi. Avval bolalarga tovushni ikki qo'l bilan hosil qilish taklif qilinadi. Bunda ikkala qo'lning balandligi bir xil bo'lishi lozim.

Har bir cholg'uning o'z tayoqchalari bor:

- ksilofonda - qattiq probkali tayoqchalar bilan chalinadi.

- metallofonda rezina tayoqchalar bilan ijro etiladi.

- ko'ng'iroqchalarda - yog'och tayoqchalar bilan ijro etiladi.

Bulardan tashqari cholg'ularning boshqa turlari ham mavjud.

3. Tovushsiz cholg'ular. Bularga musiqiy cholg'ularni ifodalaydigan o'yinchoqlar kiradi. Masalan, tovushsiz fortepiano, royal va boshqalar. Bular bolalarga o'yinni qiziqitirish uchun xizmat qiladi. Musiqiy o'yinlar esa ijodiy va musiqiy eshituvni rivojlantiradi.

4. Tovush balandligi aniq bo'lmagan cholg'ular - baraban, shaqildoq, uchburchak, nog'ora, safoyl, quticha, kastaneta.

5. Faqat bir tovushni beruvchi o'yinchoq - cholg'ular.

(bular ritmni chalish uchun qulay bo'ladi) - surnaycha, nay, rojki, sverel va boshqalar.

6. Ma'lum bir kuynigina ijro eta oladigan cholg'u o'yinchoqlar.

Masalan musiqiy shkatulka, musiqiy quticha. Bularni chalish mexanik tus oladi.

7. Xromatik va diatonik tovushqatorli o'yinchoq-cholg'ular - metallofon, pianino, royal, klarnet, saksofon, lab garmoni, bayan va boshqalar.

Urma zarbli cholg'ular

Yog'och qoshiqlar. Bu cholg'u bolalar bog'chalarining ansambllarida, musiqa mashg'ulotlarida va bayram tantanalarida ijro etiladi. Bu cholg'u bolalarning ritmik hissini rivojlantiradi. Uchburchak - ansambl, orkestr va qo'shiqlarga jo'r bo'ladi. Tovush asbobga yengil urilishi bilan hosil bo'ladi.

Musiqiy bolg'acha - ikki tomonlama plasmassadan yasalgan bolg'asimon cholg'u. Bolg'acha dasta va havo to'ldirilgan tovushchiqaradigan asosdan tashkil topgan. Bu o'yinchoq - cholg'u kichik guruh bolalarida kata qiziqish uyg'otadi. Undan tashqari o'rta guruh bolalarida ritmni his qilishga o'rgatadi.

Qo'ng'iroqlar. Bu cholg'ular shakl jihatidan kata-kichik bo'ladi. Bu bolalarda musiqiy eshituv qobiliyatini rivojlantiradi. Turli shakldagilari turli balandlikka egadir. Masalan kattaligi jihatidan turli bo'lgan uchta qo'ng'iroqlarni qo'llashdan maqsad bolalar tovushlarni yuqori va pastlarini farqlay oladilar. Orkestrlarda katta qo'ng'iroqlar mavjud. Bu ayrim kuylarda pastki tovushni alohida ijro etish uchun belgilangan.

Metallofon. Bu asbob yog'och tayoqchalar va tayoqchalarga ulangan metall plastinkalardan iborat.

Musiqiy zina - etti bosqichdan tashkil topgan tovushqatorni eslatadigan zina. Zinaning asosi yog'och yoki metall. Bu cholg'u ikkita tayoqcha bilan ijro etiladi. Bu bolalarda notalarning joylashuvi va yuqoriga yo'nalishini ko'rsatib beradi. Bu cholg'uda ijro etish katta va maktabga tayyorlov guruh bolalariga mo'ljallangan.

Urma klavishli cholg'ular

Pianino, royal. Bu cholg'ular katta va maktabga tayyorlov guruh bolalariga mo'ljallangan. Bu asboblarni mashg'ulot davomida va mashg'ulotdan tashqari vaqtda ham foydalanish mumkin. Mashg'ulot davomida musiqiy didaktik o'yinlar jarayonida tadbiiq etilsa, bolaning mashg'ulotga qiziqishi oshadi.

Damli cholg'ular

Damli cholg'ularga klarnet, saksofon kabilar kiradi. Ularda ijro etishni individual tarzda o'zlashtiriladi.

Damli garmonika. Bu asbobda tovush hosil qilish uchun puflab klavishlarini bosish bilan chalinadi. Asbob 6-7 yoshli bolalarga mo'ljallangan.

Triola asbobi. Rang-barang klavishlarga ega bo'lgan bolalar musiqa cholg'usi. Bu asbobda puflash bilan birga klavishlarini bosib tovush chiqariladi. Bu asbob yo'qimlilik bilan boshqa asboblardan farq qiladi.

Doyrada ijro etishdagi holat

Doyrada belni bukchaytirmasdan, o'tirib, kiftlarni erkin, boshni to'g'ri tutib, tirsaklar tanadan sal narirokda ushlagan xolla chalinadi. Doyra ikki qo'l bilan, notani ko'rib turish uchun qo'llarni tanadan sal chaproqqa qayirib ushlab chalinadi.

O'ng ko'l: bosh barmoq doyra gardishini tashqi tomoniga, qolgan panjalari esa doyraning pardasi (membranasi)ga zarb urish uchun erkin holatda ushlanadi.

Chap ko'l: bosh barmoq gardishni ichki tomonida turadi, qolgan barmoqlar esa tovush chiqarish uchun xizmat qiladi. Doyraning vazni asosan chap qo'lga tushadi.

Doyra chalish usullari

Doyra muayyan bir tovush baland-pastligiga ega bo'lgan urma cholg'u asbobi guruhiga kiradi. Doyra turli-tuman ritmik va dinamik imkoniyatlarga ega bo'lib, doyrachi ikki qo'l va barcha barmoqlarning zarblaridan foydalanadi.

Kichik nog'oralar. Kichik nog'oralar ma'lum bir sozda sozlanmaydi, lekin uni olovda yoki elektr isitgich oldida qizdirilganda tovushning jarangdorligi kuchayadi. Ikkala kichik ko'zalar sozi bir-biriga nisbatan taxminan kvartaga tushadi. Bu asboblarga yog'och tayoqcha bilan arib tovush chiqariladi. Nog'oraning birmuncha chuqurroq tovushi o'ziga xos tus bilan ajralib turadi. Nog'ora partiyasini yozish uchun bitta chiziqdan foydalanadi. Nota cho'zimlari chiziqning ustiga yoki ostiga yoziladi. Chiziqning ostiga yozilgan notalar pastroq sozdagi ko'zachaga uriladi, ustiga yozilgan esa yuqori sozdagi ko'zachaga uriladi.

Safoyil

Safoyil - jarangdor cholg'u bo'lib, 2 ta yog'och dastachalarga mahkamlangan, 2 ta katta buralgan xalqalardan iborat. Har bir katta xalqaga 15 tadan kichik xalqachalar o'tkazilgan. Bu xalqachalarning jaranggi o'ng etkaga urib yoki havoda tez-tez harakat bilan oldinga silkitishdan kelib chiqadi. Safoyil partiyasi bitta nota chizig'ida yoziladi.

Quticha

Qutichalar qattiq daraxt turidan yasaliib, har xil yiriklikda bo'lishi mumkin va unga yog'och cho'plar bilan urib chalinadi. Qutichani chap qo'lda ushlab, o'ng qo'l bilan yog'och cho'plarini qutichaning o'rta qismiga o'rib chalinadi. Ba'zan bir juft yog'och cho'p bilan ham ijro etiladi. Bunda quticha stul ustiga qo'yib chalinadi.

Kichik guruhlarda cholg'ularni ijro etishga o'rgatish metodlari

Musiqa cholg'ularida ijro etishga o'rgatish kichik yoshdan boshlanadi (2-3 yosh). Bolalar musiqa cholg'ularining tovush balandligini farqlay olishga erishish kerak. Shiqildoq va bubenlarni farqlashi kerak. Bolalar bilan ishlash jarayonida musiqiy o'yinchoqlardan foydalaniladi. Masalan, surnaycha va boshqa o'yinchoqlar asboblarga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Bolalar bilan turli didaktik o'yinlarda cholg'ularni qo'llash mumkin. Masalan, urma zarbli cholg'ular bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Bolalarda ritmni his qilish tuyg'usini rivojlantirish aynan shu yoshdan boshlash kerak. Turli zarbli urma cholg'u o'yinchoqlardan foydalanib, ritmning aniq ijrosiga erishish maqsadga muvofiqdir.

O'рта guruhda ijro etish

O'рта guruh bolalarida ijro etishga zarbli cholg'ularga yana bir yangi cholg'u qo'shiladi. Bu metallofondada ijro. Bu cholg'uda bolalarning hissi, xotirasi va eshitish qobiliyati rivojlanadi. Bolalarga cholg'uni musiqa mashg'uloti davomidan tanishtirish kerak. Lekin unda ijro etish va ma'lum bir kuyni o'rgatish esa mashg'ulotdan tashqari o'tkaziladi. Metallofondada ijro etishga o'rgatishdan oldin uning tayoqchasini to'g'ri ushlashga, u bilan to'g'ri foydalanish, tovush chiqarish ustida ishlash kerak. Masalan, tayoqchani qo'lini qattiq zo'riqtirib va qisib ushlasa talab etiladigan tovush chiqmaydi. Biror bola ijro etishga taklif etiladi. Uni bolalar kuzatib turishadi. Bola qo'lidagi tayoqchani qisib ushlayotganini musiqa rahbari tushuntirib beradi.

Katta guruh

Katta guruh bolalariga ijro etishni o'rgatar ekanmiz ular oldiga yanada murakkabroq masalani qo'yamiz. Ularga tanish bo'lgan qo'shiqlarni va kuylarni yakka va orkestrda ijro etishga o'rgatamiz. Bu davrda bolalar musiqa asboblarning barchasini qo'llasak bo'ladi. Aynan shu davrda bolalarga ijodkorlik malakalarini ham shakllantirish mumkin, chunki bolalar cholg'u asbob haqida yetarli darajada malaka va ko'nikmalarga ega. Ular faqat ritm yoki jamoa bo'lib bir notani ijro etardilar. Endi bu davrda har bir cholg'uning individual partiyasini ijro etishlari talab qilinadi. Bu bolalarda o'zlarini partiyalarini ijro etish bilan bir qatorda yonidagi o'rtog'ini ham ijrosini tinglay olish maqsadda tutiladi.

Maktabga tayyorlov guruhi

Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari ijrosiga alohida e'tibor beriladi. Bu davrga kelib bolalar cholg'u asboblari bilan batafsil tanishadilar. Uning imkoniyatlarini to'liq o'rganib chiqadilar. Bolalar nafaqat musiqa rahbari, balki o'zlarini musiqiy ansambl tuza oladilar. Bu davrda ijroga har bir mashg'ulotda 5-10 daqiqa sarflash kerak. Bu jarayon tizimiylikni va izchillikni talab qiladi. Qo'llanilayotgan asarlar murakkablashib boradi.

O'rgatish vazifalari.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya dasturiga ko'ra cholg'ularda ijrochilikka o'rgatish ishlarini katta, o'рта va maktabgacha tayyorlov

guruhlarida olib borish ko'zda tutiladi. Dastur mazmuniga ko'ra quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Bolalarda kattalar ijro etgan asarlarni idrok etishi;
2. Bolalarda cholg'u malakalarini oshirish.

Bolalar quyidagilarni bilishlari lozim:

1. Cholg'ular nomi va ularning ko'rinishlari.
2. Cholg'ularning jaranglash xarakteri.
3. Cholg'ulardan foydalanish yo'llari.
4. Turli cholg'ularda baland va past joylashuvi.
5. Notalar nomlarini va ularni asboblarda joylashuvini.

Bolalar quyidagilarni o'rganishlari lozim:

- a) Turli cholg'u asboblarda ijro etishning oddiy usullarini;
- b) Puflab chalinadigan asboblarda nafasni to'g'ri sarflash;
- v) Uchburchak va tarelkalar (shu jumladan barcha urma-zarbli cholg'ular)ni chalganda tovushni pasaytira olish;
- g) Ansamblni his qilish, ansambl tempiga e'tibor berish va shu tempda ijro eta olish;
- d) Ritmik va melodik mashqlarni erkin ijro etish va improvizatsiya qila olish.

Bolalarga cholg'u asboblarda ijro etishga o'rgatishda bir qancha bosqichlardan olib boriladi. Bulardan:

- 1) cholg'u asbobini tashki ko'rinishi bilan tanishtirish;
- 2) bir necha mashg'ulotlar davomida ijro asari bolalarga tanishtiriladi;
- 3) cholg'u guruhlariga bo'lib o'rgatiladi;
- 4) umumiy mashg'ulotlarda boshqa cholg'ular bilan tanishtiriladi.
- 5) urib chalinadigan cholg'ularga kamroq mehnat talab etiladi. Shuning uchun 1-mashg'ulotda 2-3 ta cholg'u asbobini tanishtirish kerak.

Bolalar cholg'ularida ijroga o'rgatish metodlari

Asboblarni turli guruhlariga bo'linganligi uchun ularning har biriga individual yondashmoq lozimdir. Musiqa cholg'ularida ijro etish metodikasida puxta o'ylab chiqilgan dastur asosida olib boriladi. Ulardan:

- asarning ifodali ijrosi, ijro usullarini ko'rsatish va tushuntirish;
- bolalarga asboblarni mustaqil ushlab ko'rish, uni ko'zdan kechirishga berish;
- ular oldiga murakkab bo'lmagan ijro vazifalarini qo'yish;

Bu metodlarni uyg'unlikda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Asarga qo'yiladigan talablar.

1. Bolalar yoshiga va bilim darajasiga mosligi.
2. Badiiy va tasavvurga boyligi.
3. Tarbiyaviy ahamiyatga egaligi.
4. Ijroning qulayligi, yengilligi va ravonligi.
5. Ritm jihatdan aniqligi.

Endi 2ta asarni ijro metodini ko'rib chihamiz.

1. N.Norxo'jaevning «Navro'zim - sho'x sozim»
2. O'zbek xalq kuyi «Yallama - yorim»

«Navro'zim - sho'x sozim»¹

X Raxmat she'ri

N.Norxo'jaev musiqasi

Asar qo'shiq bo'lib, katta guruh bolalariga mo'ljallangan.

Asarda barcha asboblari (rubob, soz, tanbur, qonun, doyra, nog'ora, safoyil, quticha) ishtirok etadi.

1. Asarning kirish qismini fortepiano jo'rlicida doyra va nog'ora ijro etishadi. Qolgan asboblari ijro etishmaydi. Bunda bolalarga o'zlari ijro etgunlariga qadar do'stlarini ijrosini diqqat bilan tinglashga undaydi.

2. Asosiy qismda barcha cholg'ular o'z partiyalarini ijro etishadi. Bu jarayonda bolalarda birga boshlashni va tempdan oldin shoshib yoki orqaga cho'zib qolishni bartaraf etishga qaratilshgan, ya'ni bolalar o'zlari ijro etayotgan asbobdan tashqari yonida turgan o'rtog'ining chalishini eshita olishi va kamchiliklarini ayta olishga erishish kerak.

3. Asarda berilgan uzun va qisqa cho'zimli notalarni tekis ijro etishlari.

4. Bu asarada safoyil va quticha fundament, ya'ni asos vazifasini bajaradi.

5. Asar qo'shiq bo'lganligi uchun guruhning bir qism bolalari cholg'ularida ijro etishsa, bir qismi esa kuylashlari mumkin.

Bu qo'shiq bayram tadbirlari repertuaridan keng joy olishi mumkin.

«Yallama yorim» (O'zbek xalq kuyi)²

Kuy maktabga tayyorlov guruhi bolalari ijrosiga mo'ljallangan.

¹ Qarang: Sharipova G. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. T. "Turon-iqbol", 2008 y., -47 b

² Qarang: O'sha adabiyot -121 b

Asarni faktura jihatdan murakkabligi uchun 4-5 mashg'ulot jarayonida o'rganiladi.

Asarni o'rganish jarayonida musiqa rahbari asboblarni guruhlarini mashg'ulotdan tashqari yig'ib tayyorlashi kerak, chunki mashg'ulot davomida bolalar bilan ijro ustida ishlasa qolganlari zerikadi va kutishdan charchashadi. Bu o'rganish jarayonini va bolalar qiziqishini sustlashtiradi. Asarni o'rganishda mashg'ulotlarni aniq vazifalarga yo'naltirib o'tiladi:

1-mashg'ulot. Musiqa rahbari asarni ifodali va qiziqarli qilib ijro etadi. Musiqa rahbari bolalardan: "Bu asarni ijro etishda qanday asboblardan foydalansa bo'ladi?" yoki "Bu asar qanday janrga mansub?" - degan savolni o'rtaqa tashlaydi.

Bu bolalarda raqs janri haqida ham ma'lumotga ega bo'lishlari uchun muhimdir.

2-mashg'ulot. Musiqani yana bir bor ijro etgandan keyin baxs boshlanadi. Bolalar o'z tasavvurlari va fikrlash qobiliyatlaridan va dunyoqarashlaridan kelib chiqib turli javoblarni berishlari mumkin. Shunda musiqa rahbari bolalar fikrini jamlab yakuniy bir fikrga, ya'ni «xalq» kuyi haqidagi mavzuga keltiradi.

3-mashg'ulot. Musiqa rahbari fortepiano jo'rligida doyrada ijro etishga harakat qiladi. Unda usul hissi kuchli bo'lgan bolani ijroga taklif qiladi. Asar 2-3 marta ijro etilgandan keyin bolalar xotirasida qoladi. Kuyni ovozda taxminiy ijro eta olganlaridan keyin qolgan zarbli urma cholg'ularni ijroga qo'shsa bo'ladi.

4-mashg'ulot. Mashg'ulotdan oldin asboblarni sozlab bolalarga o'rgatish kerak. Chunki bolalar hayajonlanib, ijro etishlari qiyinlashadi. 2-3 marta orkestr cholg'ulari (rubob, dutor, tanbur, qonun) birgalikda ijro etishlari yaxshilangandan keyingina urma zarbli cholg'ularni birlashtirsa bo'ladi.

Mashg'ulot davomida yaxshi ijro etishganidan so'ng biror bir cholg'uda boshqa bolalarni ishtirok ettirsa bo'ladi. Chunki har bir bola ijro etib ko'rishga o'zini orkestr cholg'uchisi sifatida ko'rishni xohlaydi.

5-mashg'ulot. Orkestr jo'rligida qolgan bolalarga raqs elementlarini o'rgatilsa, ular raqsga tushishadi, ya'ni bayram tadbirida bir guruh bolalar ijro etishsa, ikkinchi guruh bolalari raqsga tushishadi. Bunda bolalar bayram vaqtida zerikishni his qilishmaydi va hammalari ishtirok etadilar.

Xulosa qilib aytganda, bolalar cholg'ularida ijro etishga o'rgatish, va uni hayoti davomida qo'llash bolalarga katta zavq ulashadi. Ular o'zlarini sozanda sifatida ko'radilar. Bu ularda ijrochilik iqtidorini shakllantirishga turtki bo'lishi ham mumkin.

Musiqashg'ulotlari

«Uchinchi mingyillikning bolasi» maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan dastur davlat hujjati bo'lib, musiqashahbarini ta'limiy-tarbiyaviy ishi, bolalarni barkamol tarbiyalab maktab ta'limiga tayyorlashini nazarda tutadi. Musiqashg'ulotlarini rejalashtirar ekan, pedagog bolalar aqliy, jismoniy, emotsional yuklamalarini hisobga olish kerak va shunga ko'ra o'rganadigan repertuar va faoliyat turlarini ketma-ketligini to'g'ri tuzish kerak.

O'quv materialini murakkabligiga ko'ra xilma-xildir: ko'proq aqliy faoliyati, diqqatni talab qiladigan vazifalarni mashg'ulotlar boshida berish kerak. Kuylashdan oldin murakkab jismoniy mashqlarni berish mumkin emas, chunki bunday mashqlar bolalarni nafas olishlarini qiyinlashtiradi. Amaliyotga ko'ra faoliyat turlarini quyidagicha berish maqsadga muvofiq.

Mashg'ulot boshida kichik musiqiy-ritmik mashqlar ular birorta raqs elementlari ham bo'lishi mumkin. Bunday harakatlar bola diqqatini jamlaydi.

Ritmik mashqlardan so'ng bolalar o'tiradilar va musiqashinglaydilar. Keyin esa qo'shiq kuylashga o'tadilar. Bolalar bir mashq davomida 2-3-ta qo'shiq kuylashadi. Masalar, marsh, raqs, qo'shiq jarayonida musiqashavodidan xabardor bo'lادilar. Bunday mashg'ulotlar mavzuli mashg'ulotlar deyiladi.

Yana biri bu kompleks mashg'ulotlardir. Bunda bolalar bilan faqat musiqashemas, balki, adabiyot va tasviriy san'at bilan shug'ullanadilar. Bunday mashg'ulotlar asosida uchta san'atni birlashtiruvchi badiiy obraz yotadi. Masalan, «Qish zavqi», «Kuz keldi», «Bahor».

Har bir bolaning musiqiy qobiliyatini va maqsadga muvofiq va har tomonlama ta'lim-tarbiya beruvchi mashg'ulotlardir. Ularda har xil faoliyat turlari: kuylash, ritmik harakatlar bajarish, musiqashinglash, musiqashavodi bilan tanishish kabi faoliyatlarni uzviy bog'lab olib boradilar. Musiqashfaoliyatini bajarish bolalarni faolroq bo'lishlariga asos bo'ladi. Tashkil etiladigan bayramlar ham qiziq va muvaffaqiyatliroq o'tadi.

Musiqashg'ulotlari butun guruh bilan bir vaqtda o'tkaziladi. Uning mazmuni va tuzilishi bolalar yoshi va beriladigan vazifalarga bog'liq. Bir yashar bolalarda mashg'ulotlar qisqa o'tadi.

Bir yarim yashar bolalarda 10-13 daqiqa olib boriladi.

Musiqashg'ulotlar 2-guruhdan boshlab haftasiga ikki marta o'tkaziladi. Musiqashmazmuni - qo'shiq o'rgatish, musiqashinglash, ritmik harakatlar bajarishni qamrab oladi. Bolalarni bilim va malakalariga qo'yiladigan talablar har bir guruh uchun faoliyat turiga qarab tuziladi.

Bunday mashg'ulotlarning qiyinligi shundaki, bolalarning diqqatini bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga ko'chirish kerak bo'ladi. Shu ketma-ketlikni reja asosida amalga oshirish murakkabdir. Chunki bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olsak, ular bugun o'rgangan asarlarini keyingi safar unutishlari mumkin.

Musiqiy ertaliklar va bayramlar

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ertaliklar va bayramlar davlatimizning muhim voqealari bilan bog'liq tarzda tashkil etiladi. Turli xil bayramlarga bag'ishlangan ertaliklarda bolalar mamlakatimizning muhim sanalari va bayramlari bilan tanishib boradilar. Bunday ertaliklarda musiqa asosiy o'rinda turadi. Bunday ertaliklarda bolalar qo'shiq kuylaydilar, raqsga tushadilar, bolalar musiqiy cholg'ularida ijro etadilar. Bunday bayram-ertaliklar uchun ataylab ssenariylar yoziladi. Ssenariylar mavzusi bayram ruhiga yaqin bo'lishi, turli xil she'rlar, kuy va qo'shiqlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Demak, bayram ertaliklaridagi repertuar xilma-xil bo'lmog'i lozim. Tanlanadigan repertuarining mazmuni bayram mazmuni bilan hamohang bo'lishi muhim. Davlatimiz bayramlaridan tashqari maktabgacha ta'lim muassasalarida hayrlashuv kechalari ham tashkil etiladi. Bunda asosan, tayyorlov guruhlar bolalari ishtirok etib, ular bog'cha bilan hayrlashib maktabga yo'llanma oladilar. Bayram ertaliklaridagi ssenariy musiqiy fon ostida namoyish etiladi. Shuning uchun musiqa rahbari har bir, hodisa va holatlar uchun mos bo'lgan musiqa namuqalarini tanlashi o'ta muhim shartlardandir. Bundan tashqari kecha o'tkaziladigan zallarni ham bayram kayfiyatiga mos jihozlash darkor. Yuqoridagi shartlarni bajarilishi bayram-ertaliklarni ko'tarinki ruhda o'tkazilishini ta'minlaydi.

Musiqa rahbari (o'qituvchisi)ga qo'yiladigan asosiy talablar

Zamonaviy pedagogika ta'lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo'lgan musiqa o'qituvchisining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat, chunki umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbari oldiga uning kasb malakasiga va shaxsiy hislatlariga nisbatan yuqori talablar qo'ymoqda.

Har qanday pedagoglik kasbi murakkab va serqirra jarayondir, shuning uchun bu kasb qaysi sohaga tegishli bo'lmasin, musiqiy rahbar oldiga ko'pgina talablarni qo'yadi. Ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarining maqsadi

barkamol shaxs tarbiyasidir. Lekin bu borada maktabgacha ta'lim muassasalaridagi estetik turkumga kiruvchi fanlar - musiqa, tasviriy san'at, adabiyot va ularning o'zaro aloqadorligi asosiy rolni o'ynaydi. Jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi «musiqa» mashg'ulotlari musiqiy rahbarlari ham maxsus bilimlar, ko'nikma-malakalar, pedagogik qobiliyat hamda pedagogik mahoratga ega bo'lmoqlari lozim. Ma'lumki, «musiqa» mashg'ulotlari to'rtta musiqiy jarayonni o'z ichiga oladi:

1. Qo'shiq kuylash;
2. Musiqa tinglash;
3. Musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish.
4. Bolalar musiqiy cholg'u asboblari chalish.

Mana shu to'rtta jarayon bir-biri bilan uzviy bog'langan holda o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarda yuqori natijalarga erishish uchun musiqa o'qituvchisi musiqiy bilimlarni: garmoniya, polifoniya, solfejio, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqa adabiyoti, musiqiy asar tahlili va yana birorta musiqiy asbobi chalishni bilishi zarurdir. Lekin yuqorida aytilgan bilimlarni egallashning o'zi yetarli emas.

Musiqa (rahbari) o'qituvchisi mashg'ulot jarayonida musiqa haqida bolalarga juda qiziqarli, savodli va obrazli qilib, har xil illyustratsiyalarni qo'shgan holda gapirib bera olishi ham kerak.

Biror kompozitor yoki bastakorlarning asarini o'rganish jarayonida, shu asar haqida, asarning mualliflari haqida, asar yaratilgan davr haqida to'liq ma'lumot bera olishi zarur.

Asarning ladi, tonligini, tuzilishini, akkordlar funksiyasini va hokazolarni bilishi lozim.

Bulardan tashqari musiqa o'qituvchisi oldiga amaliy vazifalar ham qo'yiladi:

1. Berilgan qo'shiqni kuylab bera olishi;
2. Kuyga akkomponiment chala bilishi;
3. Bernalol transpozitsiya qila olishi;
4. Dirijyorlik qila olishi kerak va boshqalar...

Musiqa o'qituvchisi nafaqat o'z predmetini, balki falsafa, estetika, psixologiya, pedagogikani yaxshi bilishi va o'z ish faoliyati davomida qo'llay olishi shart.

Musiqaning ta'sirchanligini, uning mohiyatini to'liqligicha bolalar ongiga yetkazish pedagogikaning eng qiyin muammolaridan biridir. Musiqa o'qituvchisi «Musiqa madaniyati» darslarida bolalarda quyidagi fazilatlarini shakllantirishi lozim: Do'stlik, vatanparvarlik, sadoqat, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va hokazo.

Bolalarda yuqorida sanab o'tilgan fazilatlarini shakllantirish uchun musiqiy rahbar bir qator vazifalarni bajarishi kerak:

- 1) Bolalarni musiqani sevish va tushunishga o'rgatish;
- 2) Bolalarning badiiy va estetik didlarini shakllantirish;
- 3) Bolalarda musiqiy qobiliyatni rivojlantirish;
- 4) Bolalarning musiqa savodi, musiqa tarixi, musiqa adabiyoti, qo'shiq kuylash kabi musiqiy bilimlarini hamda tushunchalarini kengaytirish.

Sanab o'tilgan fazilatlarini shakllantirish uchun, avvalam bor musiqa o'qituvchisi darslarni yuqori professional darajada o'tishi zarurdir. Darsdan kutilgan natijalarni olish uchun mashg'ulotlarda ta'lim tamoyillariga rioya qilish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi rivojlanish jarayonida ko'pchilik maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar kompyuterlar, musiqiy markazlar, televizor, radio kabi bir qator yangi axborot texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu texnologiyalardan musiqa madaniyati mashg'ulotlari, darslarida ham foydalanish yuqorida keltirilgan shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda juda qo'l keladi.

Musiqa (rahbari) o'qituvchisi o'tiladigan mashg'ulotlarini ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda, ta'lim-tarbiyani uzviy bog'lagan holda, aniq bir reja asosida olib borsa, mashg'ulot va undan olinadigan natija yuqori bo'ladi. Musiqa (rahbari) o'qituvchisi o'zining hamda bolalarning mashg'ulot davomida qiladigan ta'limiy-tarbiyaviy hatti-harakatlarini har xil qiziqarli usullarini ishlab chiqishi lozim. Buning uchun musiqa o'qituvchisi quyidagi narsalarni bilmog'i darkor:

1. Bolalarining musiqiy faoliyatlarini uyushtirish shakllarini;
2. «Musiqa madaniyati» dasturi mazmunini, uning g'oyaviy-nazariy asoslarini, didaktik usul va tamoyillarini;
3. Bolalarning yosh xususiyatlarini;
4. Musiqa mashg'ulotlari (darslari)da o'rganiladigan asarlarning badiiy xususiyatlari, tarbiyaviy ahamiyatini;
- 5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktabda va maktabdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlarning samarali shakl va usullarini tashkil etishni;
6. Musiqa mashg'ulotlari (darslari)ni konstrukciyalash: reja-konspekt tuzish, kerakli musiqiy asarlarni to'plash, musiqani o'rgatishning umumli yo'llarini izlash;
7. Pedagogik masalalarini formulalash va echish;
8. Bolalarning musiqiy qobiliyatlarini ochib beruvchi ijrochilik musiqiy faoliyatlarini uyushtirish (Bayram ertaliklari tashkil etish);

9. Bolalarda mavjud bo'lgan bilimlarni, yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirish va hokazolalar.

Musiqqa mashg'ulotlar (darslar)i bolalarga o'z milliy musiqiy tarixlari, musiqaning elementar nazariyasi, jahon musiqqa san'ati namoyondalarining ijodi haqida tushunchalar berish, ularda musiqiy madaniyatni, odobini va nafosatni tarbiyalashga asos soladi.

Bolalarda kuylash malakalarini tarbiyalashning o'z qiyinchiliklari bo'ladi. Bolalar hali asarni to'la tahlil qila olmaydilar. Shuning uchun avvalam bor musiqiy rahbar o'zi qo'shiqni namunaviy tarzda kuylab bermog'i lozim. Agar qo'shiq yozuv lentasida yozilgan bo'lsa, magnitofonda qo'shiqni biror bir bolalar xorlari ijrosida eshittirish ham yaxshi natija beradi. Keyin qo'shiqni qayta-qayta kuylab yod olinadi. Qayta kuylash usulining ikkita sharti mavjuddir:

1) Bola kuylayotganda aynan nima qilishi va nimaga erishishi mumkin bo'lgan, puxta, aniq bilimga ega bo'lishi lozim.

2) Bola nimaga erishganini, har bir mashqning qanday natija berganini, qanday xatolarga yo'l qo'yilganini bilishi kerak va keyingi mashqlarida xatolarni bartaraf etishi lozim.

Birinchi shartning to'g'ri bajarilishi uchun musiqqa savodxonligi jarayonini kuylash jarayoni bilan bog'liqligi, mantiqan bir-biriga mosligiga e'tiborni qaratish darkor. Ikkinchi shartning bajarilishi qayta kuylash mashqining ma'lum bir maqsadga qaratilganligiga bog'liq. Bunda musiqqa rahbari (o'qituvchisi) har gal qayta kuylanganda mashqni bolalar bilan o'z vaqtida tahlil qilib borishi zarur. Musiqqa rahbari (o'qituvchisi) kuylashda yaxshi natijalarga erishish uchun quyidagi tadbirlarni o'tkazishi tavsiya etiladi:

1) Bolalarni ohangdoshlikni his etishlariga erishish;

2) Har bir bolaning individual xususiyatini hisobga olish;

3) Iloji boricha milliy cholg'u asboblardan foydalanish;

4) Mashg'ulot (darslar)da faol qatnashgan, qobiliyatli bolalarni musiqqa to'garaklariga jalb etish.

Bolalar musiqqa mashg'ulotlarida faqat qo'shiq o'rganish yoki musiqiy ritmik harakatlarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki musiqqa rahbari (o'qituvchisi) ijrosida, plastinka yoki magnit lentalarida yordamida musiqqa asarlarini tinglaydilar, idrok etadilar. Musiqqa asoslarini bolalarga tushuntirish va tanishtirish bolalarning musiqiy bilim saviyasini kengaytiradi. Musiqqa asarlarini eshitish mashg'ulotlarni mazmunan boyitadi, xilma-xilligini oshiradi, mashg'ulotlarni hayajonli o'tishiga katta yordam beradi.

Bolalar bilganlaricha javob beradilar. Musiqa rahbari (o'qituvchisi) bolalarga ko'rgazmali qurollar yordamida o'zbek milliy cholg'u asboblari ko'rsatib, birma-bir tanishtirib chiqadi, bolalar bilan fikr almashadi. Bolalarda cholg'u asboblari ijro eta olish uchun to'garaklarga qatnashishni tavsiya etadi.

Ko'rib turganimizdek, musiqa rahbari (o'qituvchisi) faqatgina qo'shiq kuylashni emas, balki bir qator musiqiy-nazariy bilimlarga ega bo'lmog'i shart. Musiqa mashg'ulotlari xoh u qo'shiq kuylash bo'lsin, xoh musiqa tinglash bo'lsin, xoh nazariy bilimlar bo'lsin yosh avlodni axloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan har tamonlama etuk shaxs qilib shakllantirishga asos solar ekan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, musiqa mashg'ulotlari (darslari) orqali musiqa rahbari (o'qituvchisi) bolalarda yuksak ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatni, milliy g'urur, vatanparvarlik tarbiyasini, nafosat va badiiy didni o'stirishga, tafakkurlarini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa o'qitish metodikasi pedagogik prinsiplar tizimida

Musiqa madaniyati mashg'ulotlari pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari asosida tuziladi. Mazkur prinsiplar musiqa rahbari hamda bola tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari – mashg'ulotlar mazmunining metodlari va mashg'ulotlarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqa mashg'ulotlari (darslari) mazmuni va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Yuqoridagi qayd etilgan umumdidaktik prinsiplari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, musiqa mashg'ulotlarini davlat ta'lim standartiga muvofiq milliy xususiyatlarini asos qilib musiqa faoliyati izchilligini ta'minlaydi.

«Musiqa madaniyati» darslarining didaktik prinsiplari bir necha turdan iborat:

1. Musiqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi.

Musiqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi har bir mashg'ulotlarda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doyrasi, musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqa o'ld qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqiy tajribalar o'z aksini topgan. Ularni

o'zlashtirish - musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil qilish demakdir. Mashg'ulotlar (darslar) jarayonida o'quv materiallarini bolalarning bilim tajribasiga mosligi, bolalar ovozing rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asoslarini bolalarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish mashg'ulotlarining ilmiylik prinsiplarini tashkil etadi. Ilmiylikni, tizimliliksiz amalga oshirish qiyin. Mashg'ulot (dars)larning barcha o'quv faoliyatini hamda keyingi mashg'ulot (dars)larning o'zaro mantiqiy bog'lanishi tizimlilik asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bilim va malaka darajasiga ko'tarib, soddadan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab o'zlashtirib borish prinsiplari muayyan tartibga mos bo'lib, tizimlilik demakdir. Mashg'ulotlarning har bir faoliyati o'z navbatida, har bir mashg'ulot, darslarning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlarni tobora amalga oshirishi davomiylik prinsipi demakdir.

Musiqa darslarida musiqiy bilimlarni o'zlashtirish mukammal o'ylangan va asoslangan tizim bo'yicha o'tilishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Beriladigan bilimlar soddadan murakkabga qarab yo'naltirilgan bo'lmog'i darkor. Ushbu prinsipning buzilishi bolalarning o'quv materialini o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning musiqa madaniyati mashg'ulot (dars)lariga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Musiqiy bilimlarni tushuntirishda musiqa rahbari (o'qituvchisi), avvalo, o'tilgan mavzularga tayanmog'i lozim. Musiqa savodi, jumladan, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida beriladigan bilimlar aniq tizimga solingan bo'lmog'i kerak. YAngi tushuncha va bilimlar avval o'zlashtirilgan bilimlarga asoslangan bo'lishi, asta-sekin kengaytirilib va chuqurlashtirib borilishi lozim.

« ... oddiydan murakkabga va chuqurroqqa qarab borgan holda o'z didimizni mumtoz musiqaning eng yaxshi namunalari, zamonaviy kompozitorlarning eng yaxshi asarlari asosida tarbiyalashimiz kerak» (D. Shostakovich).

«Musiqa madaniyati»-darslarini tizimlilikka asoslangan holda tashkil etish, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikma-malakalarni shakllantirish jarayonida bolalarda o'zlariga ishonch paydo qiladi, ruhlarini ko'taradi va musiqa mashg'ulotlarlariga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Tizimlilik buzilsa, bolalar tez charchaydilar, mashg'ulotlarga nisbatan diqqat va qiziqishlari bo'shshib boradi, mashg'ulotlar materialini o'zlashtirish pasayib ketadi.

Ta'limda izchillikka rioya qilish lozim, toki bugun olingan bilimlar kechagisini mustahkamlasin, ertaga o'rganiladiganiga zamin yaratsin. Shu ma'noda barcha guruhlarda musiqiy bilimlarni berish tizimi (mazmuni)ning tahlil qilish hamda uni tartibga solish katta ahamiyatga ega.

2. Mashg'ulot (dars)larda bolalarni onglilik va faolligi prinsipi.

Mazkur prinsip didaktikaning yetakchi prinsiplaridandir. Chunki, bilimni o'zlashtirish bolaning aqliy faoliyatiga asos bo'lgan bilish jarayoniga bog'liqdir. Musiqa idroki kishining hayotiy tajribasini boyitadi, real voqealarni badiiy his etib, bilish, fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Mazkur malaka va ko'nikmaning shakllanishi bola ongining uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Buning uchun, bolaning o'quv materiallarini ongli ravishda bilib o'zlashtirish bilim jarayonlarini faolligini vujudga keltirishi lozim. Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy-estetik, zavqlanib, idrok etishda, bolaning eng avvalo, diqqat e'tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg'ota bilish, onglilik va faollikni vujudga keltiradi. Musiqani ongli idrok etish va o'z navbatida badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi. Musiqa mashg'ulotlarida onglilik va faollik ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, faoliyatlarida ham onglilik va faollik musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

3. Musiqa mashg'ulot (dars)larida ko'rgazmalilik prinsipi.

Musiqa ta'limida ko'rgazmali idrok etish katta imkoniyatlarga egadir. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi emas, balki uning nutq va amaliy faoliyat bilan birlashtirilishi muhimdir. Shuning uchun ham boshlang'ich guruh bolalari Shaxsini shakllantirishda qo'llaniladigan musiqiy bilimlar ko'lami, mazmunini tanlashda mazkur prinsipga mosligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ko'pincha ko'rgazmalilik prinsipini o'quv-bilish faoliyatidagi jonli mushohada va mavhum tafakkurning uzviy bog'liqligini ta'kidlab, aniq va mavhumning birligi sifatida, ya'ni xususiydan-umumiyga, aniqdan mavhumba o'tish; boshqa hollarda esa mavhumdan muayyan tushuncha va faktlarga o'tish tarzida talqin qilinadi.

K.D.Ushinskiy ko'rgazmalilik prinsipining pedagogik samarasi haqida shunday degan: «...bu shunday ta'limki, u mavhum tasavvur va so'zlarga emas, balki bolalar bevosita idrok qiladigan ma'lum obrazlarga asoslanadi...». Mazkur prinsip ko'rgazmali metodni tanlashda uning ilmiy-didaktik vazifalarini nazarda tutib, e'tiborni maqsadga muvofiqligiga qaratadi.

Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi ko'rgazmali vositadir. Chunki, u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham, ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi. Musiqa rahbarining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, turli tajriba-sinov materiallarini: metodik tavsiyalar, mashg'ulotlar ishlanmalari, sxema, jadvallar, boshqotirmalar, texnik

vositalar, ko'rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari, nazorat va boshqa didaktik materiallar va qo'llanmalarni tayyorlashda ham ushbu prinsippga suyaniladi.

4. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi prinsipi.

Mazkur prinsip, dasturdan tanlab olingan o'quv materiallari va mazkur metodik materiallar asosida mashg'ulotlar mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir guruhning umumiy bilim va malaka darajasi hisobiga olinishi shart. Dastur asosida har bir guruhning bilim va malakalari hisobiga olingan holda, musiqa mashg'ulotlarining yillik kalendar-mavzuli rejasini tuziladi. Kalendar-mavzuli ish rejasining tuzganda, uning mazmunida bolalarning yosh xususiyati, musiqiy o'quvi, yangi qo'shiqlar, musiqa tinglash uchun asarlar, musiqa savodidagi o'quv materiallari, mashg'ulotlar faoliyatlarini hisobga olinadi.

5. Musiqa mashg'ulot (dars)larida bilim va malakalarining mustahkamligi prinsipi.

Mazkur prinsipni amalga oshirishning eng asosiy sharti, yuqorida bayon etilgan to'rtta prinsippga jiddiy amal qilishdan iboratdir.

Birinchidan, bilim va malakalarning chuqurligi, mustahkamligi va hayotiyligini ta'minlash lozim, ya'ni mazkur asarni va uning ijro uslubini, madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil qilinishi lozim.

Ikkinchidan, asarlarni tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

a) Asarning bolalarni badiiy va axloqiy tarbiyasi uchun mosligi.

b) Musiqa ta'limining xususiyati.

s) Guruhdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqтира olish va to'la o'zlashtirishga erishish. Uchinchidan, mashg'ulotlarda olinadigan bilimlar doyrasi va malakalarini amaliyotda takrorlash va mustahkamlash. Masalan: qo'shiqlarni jumlagina bo'lib o'rgatish va keyingi mashg'ulotlarda mustahkamlab takrorlash.

To'rtinchidan- musiqa mashg'ulot (dars)larida har bir yangi- bilim elementi mashg'ulotlar faoliyatida to'liq o'zlashtiriladi va keyingi mashg'ulot (dars)larda keng qo'llanilib, doimiy bilimga aylantiriladi.

6. Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi.

Maktab bolalariga ta'lim berish bilan birga tarbiyalash, ya'ni ularning aqliy va axloqiy shakllanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Musiqa mashg'ulotlari bolalarga musiqiy bilimlarni berish bilan birga ularning axloqiy sifatlarini ham shakllantirib boradi. qanday faoliyat turi bo'lmasin, xoh musiqa tinglash, xoh qo'shiq kuylash, xoh musiqa savodi, xoh musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish va musiqiy asboblarda jo'r bo'lish –

bularning barchasi bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, musiqiy did, musiqiy qobiliyat, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash va musiqa madaniyatini shakllantiradi.

H.N.Nurmatov bolalarni musiqiy-estetik tarbiyalashning qulay shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni tavsiya etadi:

- darslarning maqsadga yo'naltirilganligi (estetik tarbiya borasida);
- musiqa darslarining aniq tuzilishi va o'tilayotgan materialga muvofiqligi;
- o'rgatiladigan materialni to'g'ri tanlash (katta bo'lmagan, lekin yorqin asarlar) va ta'limga mos usul va uslublarni tanlash;
- musiqa o'qituvchisining har bir sinf (guruh) va har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;
- musiqa o'qituvchisining maxsus yo'naltirilgan ishi bolalarning musiqiy-estetik tarbiyasining asosi sifatida bo'lishi;
- musiqa o'qituvchisining bolalarga musiqiy-estetik tarbiya berishida uzviylik va tizimlilikka erishish;
- butun dars (mashg'ulot)lar davomida musiqa o'qituvchisi tomonidan ma'lum bir psixologik muhitning yaratilishi;
- estetik xarakterdagi kechinmalarni hosil qilishi;
- musiqa o'qituvchisining estetik, metodik, psixologik va pedagogik jihatdan tayyor bo'lishi;
- ota-onalarning bolalari estetik didi, qiziqishi va hissiyotlariga e'tibor berishi.

7. Musiqa ta'limiga tabaqalashtirilgan tarzda yondashish prinsipi.

Bolalarning qobiliyati, imkoniyatlariga muvofiq ravishda musiqaga qiziqishlarini oshirish va musiqa bilan Shug'ullanishning o'ziga xos yo'llarini tanlash, ularning musiqiy didi, musiqiy idroki, musiqiy dunyoqarashi va musiqiy madaniyatlari shakllanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bolalarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga yo'naltirilgan didaktik choralardan yana biri musiqa ta'limi mazmunini tabaqalashtirishdir. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida bolalar musiqiy bilimlarning uzviyligini ta'minlash uchun bosqichlararo bog'lanishga oid amaliy topshiriqlarni bajarishda turli tayyorgarlikka ega bo'lgan bolalarning har birida mavjud bo'lgan o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'z bilimlarini qo'llashlari va individual yutuqlarga erishishlarini ta'minlash ko'zda tutilishi lozim.

Bu sohada musiqiy bilimlarni o'zlashtirishda guruhdan tashqari olib boriladigan ko'rinishlari ham o'qishni tabaqalashtirish uchun katta

imkoniyatlarni ochib beradi. Q.M.Mamirov musiqa ta'limini tabaqalashtirish uchun bolalarning bilim darajalarini tekshirib chiqib, ularni uch guruhga ajratadi:

1-guruhga - musiqani sevadigan, musiqashunos bo'lish istagidagi, mashg'ulotlarda o'ta faolligi bilan ajralib turuvchi bolalar.

2-guruhga - musiqiy rahbarning barcha talablarini o'z vaqtida bajaruvchi, lekin musiqiy to'garaklarga qatnashmaydigan, o'zlari mustaqil vazifa bajarmaydigan, biroq mashg'ulotlar vazifalarini o'z vaqtida bajaradigan bolalar.

3-guruhga - uyida musiqaga kam e'tibor beriladigan, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarmaydigan, past o'zlashtiruvchi bolalar.

Q.M.Mamirov bolalarni yana ovoz diapazoniga qarab ham tabaqalashtirish mumkinligini ko'rsatib bergan. U ovozga qarab tabaqalashtirishda faqat ovozni hisobga olmasdan, bolalar musiqiy bilimlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini ham hisobga olishni ta'kidlab o'tgan. Musiqiy bilimlarni o'zlashtirishni ham bolalarning Shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Musiqiy bilimlar majmuasi (mazmuni) va metodikasini belgilashda Shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish ham muhim ta'limiy-tarbiyaviy shart hisoblanadi.

8. Ta'lim jarayonida bolalarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Ushbu prinsip o'quv materialining mazmuni, uning hajmi, xarakteri u yoki bu guruh bolalarining jismoniy rivoji, umumiy tayyorgarlik saviyasi va imkoniyatlariga mos bo'lishini taqozo etadi.

Ushbu prinsip musiqiy ta'limning ikki tomonini nazarda tutadi:

1) Musiqa ta'limida ma'lum guruh uchun belgilangan o'quv materiallarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu guruh bolalarining yosh xususiyatlariga mos bo'lmog'i lozim;

2) Har bir guruh uchun belgilangan musiqiy bilim hajmi Shu guruh bolalarining saviyasiga mos bo'lishi kerak.

Bu prinsip musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqiy bilimlarni bolalarga sodda, lo'nda qilib tushuntirilmasa, ularni o'zlashtirish yaxshi natija bermaydi. Ko'pincha o'zlashtirilgan bilimlar sodda, o'zlashtirilmagan mavzular murakkabdek ko'rinadi. Ta'limning sodda bo'lishi u yoki bu o'quv materialini ortiqcha urinmay tushunib olinishidir. Bolalar yaxshi tushungan, o'zlashtirgan bilimlarini yangi (murakkab) tushunchalar bilan aniq va ravshan bog'lash natijasida sodda vazifalarni bajarib, murakkab vazifalarni o'zlashtirishga hozirlanib boradilar. Musiqiy bilimlar tizimini shakllantirishda aynan shu prinsipga amal qilinadi.

9. Bilim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi ta'lim prinsipi.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirishda bu prinsipdan maqsadga muvofiq, muntazam foydalanish lozim. U o'qitishning bilim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarini chambarchas bog'liq holda olib borishga xizmat qiladi. O'qitishning bilim beruvchi vazifalari bolalarning fakt, hodisa, tushuncha va xulosalarni o'zlashtirishlari zarurligini belgilasa, tarbiyalovchi vazifalari bola Shaxsining ma'lum e'tiqod hamda axloqiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. Rivojlantiruvchi ta'lim esa musiqiy materialni o'rganish bolalarda qanday ko'nikma va malakalarni shakllantirishga umumiy va musiqiy tafakkurning qaysi jihatlarini rivojlantirish lozimligiga e'tibor beradi. Shuningdek, bilim berish va bolalarni har tomonlama kamol toptirish jarayonlari orasida uzluksiz aloqa o'rnatilishini talab qiladi.

O'zlashtiriladigan bilimlar hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida qayd qilingan mashg'ulot(dars)lar bolalarda mustaqil fikr yuritish, musiqiy materialni zamon va makonda tahlil qilish, musiqa asarlarini o'xshashlik va farq qiluvchi xususiyatlariga qarab taqqoslash, musiqiy faktlar o'rtasida mavjud bo'lgan sabab - oqibatli aloqani aniqlash kabi ko'nikma va malakalarni hosil qilishga ko'maklashadi.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirishning mazmuni va metodikasi, shakl va usullari, bir so'z bilan aytganda uning pedagogik tizimini yaratish - musiqiy pedagogikaning hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolaridan biri. Bu tizim musiqa san'atining vositalari orqali Shaxsni shakllantirishning umumiy pedagogik prinsiplaridan iborat bo'lmog'i lozim. Shuningdek, u ma'lum usullar va shakllarni hamda ilmiy-metodik tavsiyalarni o'zida mujassam etishi kerak.

E.B.Abdullin: - «...musiqiy ta'limning mohiyati, maqsad va vazifalari, yo'nalishi, mazmun va jarayonining xarakterini ochib berishda prinsiplar asosiy o'rin egallaydi», deydi. U musiqiy ta'limdagi bir nechta prinsiplarni yo'nalishlarga ajratadi:

1. Falsafiy-estetik yo'nalish (... musiqiy ta'limda insonparvarlik qarashi; bola Shaxsini san'at bilan muloqotda o'z-o'zini baholashi...).

2. Musiqashunoslik yo'nalishi (... xalq, milliy va zamonaviy musiqa birligiga tayanish; musiqa janrlari va ularning hayot bilan bog'liqligiga tayanish; tinglash, ijro etish, ijod etish faoliyat asosi sifatida...).

3. Badiiy-psixologik yo'nalish (... musiqiy ta'limda ong va tafakkur birligiga tayanish...).

4. Badiiy-didaktik yo'nalish (... musiqiy ta'lim-tarbiya birligi, izchillik va tizimlilik, ilmiylik, musiqiy ta'lim natijalari mustahkamligi...).


5. Musiqiy pedagogik yo'nalish (... obrazlilik va butunlik, musiqiy-pedagogik maqsad va vositalar aloqadorligi, badiiylilik va texnologiya birligi...).

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash joizki, bola shaxsini shakllantirishda amal qiladigan ilmiy asoslangan mazmun va metodika, shakl va usullar muayyan pedagogik prinsiplarga amal qilishi lozim. Bu prinsiplar ta'lim-tarbiyaning davr talabiga, ya'ni zamonaviy ijtimoiy buyurtmaga mosligi, pedagogik jarayonda ob'ektiv-sub'ektiv jarayonlarning uyg'unligi, ta'lim-tarbiyada maqsad, mazmun, metod va vositalarning bir-biri bilan bog'liqligi kabi pedagogikaning umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. Natijada, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirish uchun quyidagi prinsiplar muhim va ular nafaqat musiqiy ta'lim strategiyasini, balki ta'lim va tarbiyaning boshqa masalalarini ham muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi. Musiqiy bilimlarga oid mazmuni belgilash, unga monand metodika, ta'lim shakli va usullarini tanlashda, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqishda bu prinsiplarga amal qilish pirovard pedagogik ijobiy natijaning samarasidir.

10. Nazariyaning amaliyot bilan uzviyiligini ta'minlash prinsipi.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirishda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lagan holda mashg'ulotlar o'tish o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Umumiy musiqa ta'limi tuzilishi



Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy jarayonlar o'rganilishi kerak bo'lgan quyidagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi:

Qo'shiq kuylash ↔ musiqa tinglash, ritmik harakatlar bajarish jarayonida musiqa ijodkorlari, musiqaning ifodaviylik vositalari, musiqa tarixi, musiqiy janrlar haqida (sodda qilib) ma'lumotlarni beradi.

Musiqa tinglash ↔ kuylanadigan yoki tinglanadigan kuyning nota xususiyatlarini, dinamik belgilari, sur'ati, kuy yo'nalinishini ongli kuzatish va ijro etish imkonini beradi.

Musiqiy-ritmik harakatlar bajarish ↔ kuylanadigan yoki tinglanadigan kuyning sur'ati, usulini o'rgatadi. Ritmsiz kuy bo'lmaydi. Shuning uchun biror kuy noto'g'ri ritmda ijro etilsa, musiqiy asar o'z shaklini yo'qotadi. Mashg'ulotlarda amaliy mashqlar jarayonida musiqiy asarga xos ritmik harakatlar bajariladi (raqs elementlari).

Bolalar musiqa cholg'u asboblarida musiqaga jo'r bo'lish ↔ kuylanadigan yoki tinglanadigan asarning yaratilish tarixi, o'sha davrning xususiyatlari, yaratuvchilari haqida ma'lumot beradi.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, o'zlashtirilgan bilimlarning boshqa faoliyatlar bilan uzviylikini ta'minlash ham zarur.

Umuman, yuqorida qayd etilgan prinsiplar musiqiy bilimlarni o'zlashtirishda, bolalarning shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish va uni amaliyotga joriy qilish uchun metodik sharoitlarni ishlab chiqishda asos bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik prinsiplari, musiqa madaniyati mashg'ulotlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, musiqani hayot bilan bog'lashda katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqa o'qitish metodlari

Musiqa o'qitish metodikasi - bu pedagogikaning bir qismi hisoblanib, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlarni nazariy qismlarini - usul, uslub, vositalarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Ushbu metodlar o'quv-tarbiyaviy jarayonning tuzilishini umumlashtirib, unga kiruvchi alohida va bir butun vazifalarni hal etish bilan shug'ullanadi. «Metod» yunon tilidan olingan bo'lib, «yo'l», «usul» degan ma'nolarni anglatadi. «Metodika» so'zi grekcha so'z bo'lib, «tadqiqot yo'li», «bilish usuli» degan ma'noni anglatadi va ta'lim-tarbiyaning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi, ularning yig'indisi musiqa o'qitish metodlari deyiladi. Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab bolalarining bilim, mahorat va malakalarini egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda musiqa rahbarilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi. Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U musiqa o'qitishning qonun-qoidalarini ta'riflab beradi, kelajak yosh avlodni tarbiyalashda qo'llanadigan zamonaviy metodlarni belgilaydi.

Metodika, ta'lim-tarbiya jarayonida musiqa rahbarining bolalar bilan ishlash usullarining, mazmunini anglatadi. Musiqa o'qitish metodikasi musiqa rahbaridan iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo'lishini talab etadi, chunki, san'at pedagogikasi mashaqqatli va juda mas'uliyatli sohadir. Musiqani o'qitish metodikasi, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, musiqa mashg'ulotlarining tashkil etish usullari va yo'llarini o'rgatadi.

Hozirgi kunda musiqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunga qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqa o'qitish metodikasini shakllantirishda mahalliy olimlar, metodistlar, tajribali musiqa rahbarilarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarining ahamiyati katta bo'ladi.

Pedagogikaning metodika sohasidagi so'nggi yutuqlari talabalarni pedagogika faoliyatiga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, musiqa o'qitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq mehnat qilishni talab etadi. Ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasalarda bolalarning yosh fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko'nikma va malakalariga muvofiq musiqa o'qitish metodikasi qo'llaniladi. Bu erda ta'lim usuli, o'quv materiallarining (o'quv reja, dastur, darslik) ta'lim prinsiplari, o'quv-tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir. Demak, musiqa o'qitish metodikasi talabalarning musiqa san'atiga o'rgatishning mazmuni, vazifalari, metodlarini o'rgatuvchi va o'quv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yo'llarini tadbiiq etuvchi fandır. Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikaning amaliy yo'nalishini unumli metodlar egallab, musiqa mashg'ulotlarida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa mashg'ulotlarida o'qitishning unumli metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Etuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab musiqa o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan kasbiy talablar va bolalar munosabatini, xususiyy metodlardan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asosda ta'riflab berganlar. Unumli metod - biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlari mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, musiqa rahbari va bola faoliyatida o'zaro aloqadorligini va bolalarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir.

Unumli metodlar o'qitish faoliyati va maqsadiga qarab to'rtga bo'linadi:

1. Mashg'ulot (dars)larning musiqiy umumlashtiruvchi metodi.

2. O'tilajak mashg'ulot(darslar)ga oldindan «yugurib», bog'lab o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi.

3. Mashg'ulot (dars)lar mazmunining emotsional dramaturgiyasi metodi.

4. Mashg'ulot (dars)larning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baholanishi metodi.

Endi har bir metodni alohida ko'rib chihamiz.

1. Mashg'ulot (dars)larni musiqiy umumlashtiruvchi metodi yetakchi metodlardan biri bo'lib, bolalarni musiqa idroki, mantiqiy badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir:

a) Musiqa rahbari (o'qituvchisi) mashg'ulot (dars)larda hal qilinishi lozim bo'lgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;

b) Musiqa rahbari (o'qituvchisi) va bola o'zaro hamkorlikda masalani echadi;

v) Bolalar tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.

2. Oldinga «yugurib o'tish», ya'ni ilgari o'tilgan materialdan foydalanib, bolalarni yangi material o'zlashtirishga tayyorligini sinab ko'rish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi.

3. Emotsional dramaturgiya metodi bilan mashg'ulotlarning mantiqiy yaxlitligiga erishiladi.

Bunda chorak mavzusi asosida mashg'ulotlar rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muvofiq bo'lib, boshlanishi va yakunlanishiga bog'liqdir. Musiqa rahbari mashg'ulotlarni ijrochilik mahorati, so'z ustaligi bilan qiziqarli qilib o'tishi kerak va bolalarni mashg'ulotlarga faol qiziqtirib, mashg'ulotlarning emotsional dramaturgiyasi, ya'ni avjiga erishishi lozim.

Musiqa madaniyati o'qituvchisi maktabda musiqa darslaridan tashqari konsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o'tkazishi talab etiladi.

Mashg'ulot (dars)larni pedagogik kuzatilishi va bilimlarni baholash maqsadga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

a) Bolalarni bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi.

b) Bilim faoliyatini rag'batlantirish va tanbehlash talablarini qo'yish.

v) O'qish, bilish faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish.

Baholashda shunday ehtiyotkor bo'lish kerakki, bolalarning kayfiyati tushib ketmasin, mashg'ulotlarga, qo'shiq kuylashga qiziqishi so'nmasin. Rag'batlantirishda esa, aksincha. Musiqa rahbari va bola munosabatlari me'yordan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag'batlantirish, guruhda boshqa bolalarga namuna bo'lib xizmat qilsin va ular odobli, aqlli bo'lishga intilsinlar.

Shunday qilib, musiqa o'qitishning xususiy metodlaridan tashqari boshqa turlari ham mavjud:

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.

2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari.

3. Amaliy o'qitish metodlari.

4. O'yin metodlari.

5. Taqqoslash metodlari.

6. Musiqiy o'quvi, musiqiy eshitish qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodlari.

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.

Musiqa mashg'ulotlarida musiqa rahbarining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. Musiqa rahbari o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan bolalarni ajoyib va sehrlil musiqa olamiga olib kiradi hamda qiziqarli hikoya yoki suhbat yo'li bilan bolalar diqqatini jalb qilib, musiqani badiiy idrok etishlariga egrishadi.

Hikoya - bu musiqa rahbarining musiqa asari haqida jonli, emotsional yorqin bayoni. hikoya qisqa, obrazli, jonli, qiziqarli bo'lib, uning maqsadi bolalarni asarni badiiy idrok etishga o'rgatish.

Suhbat - musiqa rahbari va bolalar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatidan iborat bo'lib, bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ularning nutqini o'stiradi, fikriy faoliyatini kuchaytiradi, bilish qobiliyatini faollashtiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi. Tushuntirish-ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa mashg'ulotlarida qo'llaniladi. Bu asosan, musiqa savodi faoliyatida qo'llaniladi.

2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari.

Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va garmonik tovushlaridan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organi orqali tinglab idrok etish mumkin. Ko'rgazmali o'qitishni esa, nota yozuvlarini, plakatlar, rasmlar, musiqa rahbarining so'zi, dirijyorlik ifodalari, raqs harakatlari, bolalar cholg'u asboblari, musiqani jonli va aniq ijrosi, texnik vositalaridan foydalaniladi. Demak, musiqaning jonli yangrashi mashg'ulotlarda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'limidagi ko'rgazmalilik turlari:

1. Tabiiy ko'rgazmalar (tabiatdan olingan).

2. Grafik ko'rgazmali qo'llanmalar (chizma, sxema, jadvallar).

3. Tasviriy ko'rgazmalar (suratlar, fotosurat, videofil'mlar).

4. Muayyan belgilarni ifodalaydigan ramziy ko'rgazmalar.

5. Eshittirishga doir ko'rgazmalar (grammoplastinkalar, magnit lentalar, komp'yuterning eshittirish moslamalari).

Musiqqa ta'limida illyustraciya metodi asosan plakatlar, cholg'u asboblari, stend, chizmalar, kompozitorlarning suratlar, jadvallar kabilarni ko'rsatishni o'z ichiga olsa; namoyish etish metodlariga asl holiday tabiiy ob'ektlarni ko'rsatish, mashg'ulotlar jarayonida esa texnik namoyish, ya'ni zamonaviy komp'yuter, axborot kommunikaciya tarmoqlari yordamida, kompakt disk elektron kitoblaridagi mavzularni ehkranda yoritish, mavzuga oid kino va diafil'mlar, audio va videomateriallar kiradi.

3. Amaliy o'qitish metodlari.

Amaliy metodlar vositasida bolalar vokal-xor malakalarini, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va no'ta yozuvini o'rganish malaka-ko'nikmalarining shakllantirishi uchun foydalaniladi. Amaliy metodlar, vokal-xor malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

4. O'yin metodi - asosan boshlang'ich guruhlarda ko'proq yaxshi natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo'llanma va mashg'ulotlarliklarda o'yin va uning elementlari keng joriy etiladi. Boshlang'ich guruh bolalari serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan musiqali o'yinlar bolalarning musiqiy o'quvini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqqa mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otadi.

5. Taqqoslash metodi. Musiqqa mashg'ulotlari jarayonida taqqoslash metodi keng qo'llaniladi. U vokal-xor ishlarida musiqqa rahbari, bolalar va gramyozuvdagi ijrolarini taqqoslashda musiqqa asarining tahlili va janrlarini belgilashda keng qo'llaniladi. Masalan, raqs, marsh, janrlarining templarini, turli cholg'ularidagi ijrolar farqini aniqlashda foydalaniladi.

6. Musiqqa o'quvi, musiqiy eshitish qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi.

Musiqqa o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan mashg'ulotlar jarayonida differensial guruhlariga bo'lib va mashg'ulotlardan keyin vaqt ajratib, yakka (individual) tarzda ish olib boriladi. Differensial guruh - deganda bolalarning musiqiy qobiliyati, o'quvi va ovozigga qarab tabaqalashtirish yoki guruhlariga bo'lish tushuniladi.

1-guruhga ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan bolalar kiradi.

2-guruhga ovozi, musiqiy qobiliyati o'rtacha bo'lgan, ya'ni musiqqa rahbarining ovozigga ergashib, tayanib kuylaydigan bolalar kiradi.

3-guruhga esa ovozi uncha yaxshi bo'lmagan, musiqiy qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar kiradi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bu bolalarni quyidagi tartibda o'tkazish kerak: birinchi qatorga musiqa rahbarining ovozigga tayanib kuylaydiganlar, ikkinchi qatorga musiqiy o'quvi bo'sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lmagan bolalar, uchinchi qatorga qobiliyatli, ovozi jarangdor bo'lgan bolalar o'tiradilar. Bunda ikkinchi qatoridagi bolalar musiqa ohanglarini atrofda gildan eshitib ularning ovozlari ga ergashib, chiroyli, to'g'ri kuylashga harakat qiladilar.

Shu uslub bilan bolalarni musiqiy o'quvini o'stirish mumkin. Ba'zi musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan, mashg'ulotlardan keyin alohida, yakka tartibda Shug'ullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. Shu tariqa, bolalarda musiqa qiziqish, qo'shiq kuylash, musiqa tinglash ishtiyoqi, musiqiy qobiliyat, musiqiy o'quv, qo'shiq kuylash malakalari hosil bo'ladi.

7. Musiqa bilan ta'sir ko'rsatish metodi. Bu metod musiqa tinglash faoliyatida qo'llaniladi. Bolalar musiqani turlicha tushunadilar. Masalan, P.I.Chaykovskiyning «To'rgag» kuyini tinglab, uni nomini bilmay turib, turlicha fikr yuritadilar. Ayrimlari tabiat manzarasiga, boshqalari qushni kuylashini, qolganlari esa boshqacha xarakter his etib aytadilar. Yana boshqalarida esa yaxshi kayfiyat tug'iladi. Shuning uchun musiqa rahbari (o'qituvchisi) bolalarga asarni tushuntirib beradi. Bolalar diqqatini musiqaning ifoda vositalariga qaratadi.

Ular kuylovchi qush obrazini yaratadilar. Bu musiqa bilan ta'sir qilish metodidir. Bolalarning musiqa qiziqish, musiqa tinglashda taqqoslashga o'rganish, kuylashda, raqsda, turli cholg'ular ijrosida o'rgatiladi. Musiqa rahbari ushbu faoliyatlarni ketma-ket olib borganda aniq maqsadga erishiladi.

Musiqa o'qitish metodikasi fanining maqsadi ta'lim maqsadidan kelib chiqib, musiqa madaniyati o'qituvchisini dars (mashg'ulot) berish jarayoniga nazariy va amaliy tayyorlash. Bu maqsad quyidagi vazifalarni hal etishni ko'zda tutadi.

– 1. Maktabda musiqa ta'limini va tarbiyasini mazmunini tashkil qilishning turli shakl va metodlari haqida asosiy ma'lumotlar berish.

2. Musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasidagi ilg'or tajribalarni umumlashtirish.

3. Musiqa ta'limi va tarbiyasi jarayonida pedagogik amaliyot bo'yicha metodik adabiyotlarni mustaqil o'rganishga tayyorlash.

4. Musiqa asoslarining badiiy pedagogik tahlili metodikasi asosini bilish.

5. Ilmiy tadqiqot ishlari masalalarini hamda bolalarni musiqa vositasida o'qitish va tarbiyalash masalalariga to'g'ri yondashuvni shakllantirish. Musiqa o'qitish metodikasi musiqa rahbarining musiqa ta'limi kasbini

mukammal bilguvchi musiqachi pedagogni tayyorlaydi. Musiqa o'qitish metodikasini o'zlashtirishda pedagogika, psixologiya, musiqiy pedagogika tarixi, musiqiy ta'limda innovacion texnologiyalar, musiqiy pedagogika va boshqa musiqiy, psixologik va pedagogik fanlarga asoslanadi.

Ajdodlarimiz barkamol insonni voyaga yetkazishda badiiy estetik tarbiya vositalari, jumladan, musiqa san'atining ahamiyatini chuqur anglab, yoshlarning ichki dunyosini boyitishga, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va kamol toptirishga uning ta'siri jihatlariga diqqat-e'tibor bilan qarashgan.

Musiqani kattalar, bolalar va qariyalar ham sevib tinglashadi. Xoh u mumtoz bo'lsin, xoh xalq musiqasi, xoh yengil yoki vazmir musiqa bo'lsin, barchamiz uni bajonudil tinglaymiz. Lekin musiqiy yo'nalishlarni anglash, ayniqsa bolalarga juda qiyin. hayotda hamma ham musiqa tilini tushunvermaydi. Ko'pchilik mumtoz musiqamizga nisbatan o'ta befarq. Buning sababi bolalikda musiqiy tarbiyaga kerakli e'tibor berilmaganligidadir.

Bola rivojlanishida musiqaning o'rni

Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalari uchun musiqiy bilimlar mazmunini belgilash bir qator psixologik xususiyatlarni e'tiborga olishni talab etadi. Zero, musiqiy bilimlarni egallash avvalo shaxsning ruhiy olami bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham B.M.Teplov tomonidan berilgan tezislarini bu jarayonda yo'naltiruvchi deb idrok etish mumkin. Unda quyidagilarga e'tibor qaratilgan:

1. Musiqiy kechinmalar tabiatdan olingan kechinmalardir... Musiqani tushunish, agarda musiqiy asarning ichki tuzilishini nazarda tutmasak, doimo his-hayajon tushunchalaridir.

2. Musiqiy kechinmalar faqat his-hayajondan iborat bo'lishi kerak emas. U his-hayajondan boshlanadi, lekin tugamaydi. his-tuyg'ular orqali biz hayotni anglaymiz. Musiqa – dunyoni his-tuyg'ular orqali anglashdir.

3. Musiqaning asl mazmunini chuqur anglash qiyin. Uni bilishning boshqa vositalari orqali o'rganish mumkin. Musiqiy obrazlar olami «o'z-o'zidan oxirigacha tushunarli bo'lmaydi».

B.M.Teplovning nuqtai-nazari insonning estetik ongi shakllanishini ilk bora o'rgangan buyuk olim Arastuning fikri bilan hamohangdir: «Paydo bo'lgan narsalarning biri oddiy yo'l bilan paydo bo'lsa, boshqasi san'at orqali yuzaga keladi, uchinchisi o'z-o'zidan yaraladi... San'at orqali inson ruhidagi

mavjud hissiyot shakllanadi». Inson ruhiyatida mavjud bo'lgan narsalarga Arastu quyidagilarni kiritadi: «o'sish qobiliyati», «intilish qobiliyati», «his qilish qobiliyati», «harakatlanish qobiliyati», «fikrlash qobiliyati».

«Shaxsning musiqiy madaniyati»ni shakllantirish tushunchasiga **A.N.Soxor** murojaat etib quyidagi jadvalni tavsiya etgan:

Shaxsning musiqiy madaniyati (A.N.Soxor konsepciyasi)


<i>Musiqiy qadriyatlar</i>	<i>Faoliyatning barcha turlari</i>	<i>Faoliyat sub'ektlari</i>	<i>Maxsus muassasalar</i>
(jamoada yaralgan va saqlanadigan)	(qadriyatlarni yaratish, asrash va targ'ib qilishga qaratilgan)	(Ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchilar)	(ushbu faoliyatni ta'minlovchi)

Shaxsning estetik ongi tarkibiy qismlari ko'rinishini **V.G.Mozgot** o'zining ilmiy ishida sodda va tushunarli qilib bergan: - «...zamonaviy yoshlarning estetik ongini muvaffaqiyatli shakllantirish jarayoni, mamlakatdagi ijtimoiy-psixologik muhit, siyosiy va madaniy sharoitga bog'liqlik...», deydi u.

<i>Shaxsning estetik ong komponentlari (V.G.Mozgot konsepciyasi)</i>			
Estetik hissiyot	qadriyatlarni e'zozlash	Did	Qarash G'oyalar

Yuqoridagi konsepciyalarga tayanib, biz musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bola shaxsining qanday faoliyat turida qaysi shaxsiy xususiyatlari shakllanishini chizma yordamida ko'rsatib berdik.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bola shaxsni shakllantirish



1. Qo'shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqiybilimlarga asoslangan holda qo'shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtiradilar. Shu jarayonda ularda musiqiy dunyoqarash va musiqiy did shakllanadi.

Musiqi savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari - ritm, metr, registr, o'lchov, lad, temp, nota yo'li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqi ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo'lish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o'z navbatida bolalarni musiqi olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantiradi.

2. Musiqi tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqi tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi shuningdek, ularda musiqiy dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

3. Musiqi ostida ritmik harakat bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida o'quvchilarda deyarli

barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zlari bevosita musiqiy asarga jo'r bo'ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko'radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko'rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. O'quvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

4. Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zlari bevosita musiqiy asarga jo'r bo'ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko'radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko'rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Bola bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

Ayni vaqtda shuni aytish joizki, musiqaning qanday faoliyat turi bo'lmasin, u Shaxsning barcha psixologik jihatlari shakllanishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlashimiz kerakki, musiqiy faoliyatlarning har biri barcha sanab o'tilgan psixologik xususiyatlarni shakllanishiga qisman bo'lsa ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Jumladan, musiqiy his-tuyg'ular, musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi. Demak, ular bolalarning umumiy musiqiy madaniyati, estetik dunyoqarashining shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Musiqa bolalarning estetik qiyofasini shakllantiruvchi vosita sifatida

Musiqa bolalarning his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir qilishi orqali ularning ma'naviy qiyofasini shakllantiradi. Musiqa san'atining ta'sir kuchi boshqa ta'kid va uqtirishlarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Bolalarni har xil emotsional-obrazli mazmundagi asarlar bilan tanishtirar ekanmiz, biz beixtiyor ularni hissiyotlariga ta'sir qilamiz va ularni kechinmalar olamiga olib kiramiz.

Musiqa janrlari qahramonlik ruhidagi, lirik ohangdagi, quvnoq yumorni va jo'shqin raqsona kuylarni o'ta jiloli tovushlar hamda boy tembri bilan idrok etishga ko'mak beradi. qo'shiq, raqs va musiqa tinglash faoliyatlari

jarayonida bolalar ruhan birlashadilar hamda jamoada tarbiyalanadilar. Bolalar individual shakllanishlari uchun ham ularga jamoada yaxshi muhit yaratilgan bo'lmog'i lozim. Ijrosi yaxshi bo'lmagan, tortinchoq bolalar o'z tengdoshlarining ijrosini ko'rib ruhan tetiklashadilar va faollashadilar, ularga ergashadilar va yaxshi ijroga intiladilar. O'ziga haddan ziyod bino qo'ygan bolalarga ijrosi sust bo'lgan o'rtoqlariga yordam berishni taklif qilib, ularni kamtarinlikka o'rgatish hamda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish kerak.

Musiqa mashg'ulotlari bolalarning umumiy madaniyatiga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Har xil faoliyatlar bilan shug'ullanish (musiqa tinglash, qo'shiq aytish, musiqiy-ritmik harakatlar bajarish, bolalar musiqiy cholg'ularida ijro etish) bolalardan diqqatni, uyushqoqlikni, irodaviylikni, zukkolikni talab qiladi. Bu faoliyatlar davomida bolalarda irodaviylik shakllanib, tortinchoqlik yo'qola boradi.

Shu tarzda musiqiy faoliyatlar bolalar shaxsining ma'naviy-madaniy sifatlarini shakllantirish uchun kerakli bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlaydi va ularning umumiy madaniy saviyasiga asos soladi.

Bolalarni jismoniy tarbiyalashda musiqaning roli

Musiqa eshitish organi orqali idrok etilsada, u kishi organizmining umumiy ahvoriga - qon aylanish tizimi, nafas olishga va boshqa jihatlariga ta'sir qiladi.

Qo'shiq kuylash ovoz apparatini rivojlantiradi, ovoz apparatini mustahkamlaydi, nutqni yaxshilaydi (logoped vrachlar kuylashni nutq talaffuzini davolovchi vosita sifatida qo'llaydilar), ovoz-eshitish koordinatsiyasini yaxshilaydi. Kuylash jarayonida to'g'ri o'tirish nafas olish tizimiga ijobiy ta'sir qiladi. Musiqiy ritmik harakatlar bajarish jarayonida bolalar musiqa bilan birgalikda har xil harakatlar bajaradilar. Bu esa o'z navbatida bola qomatini to'g'ri rivojlanishiga, uning koordinatsiyasini, to'g'ri qadam qo'yish, yurishini to'g'ri va yengil bo'lishiga imkon beradi. Musiqadagi barcha dinamik, ritmik va sur'atga daxldor ifoda vositalari bolalarni bir holatdan boshqa holatga o'tishlariga, charchoqlarini yozishlariga, kayfiyatlarini ko'tarishlari uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk mutafakkirlarimizdan Ibn Sino musiqa ovozlarining kishi ruhiga ta'siri haqida ham o'z fikrlarini bayon etgan. Bu borada buyuk alloma mashxur «Qonun-fit-tib» asarida quyidagilarni ta'kidlaydi:

«Tanasi chinlantirishda chaqaloqlar uchun juda foydali vositalar qatoriga, birinchidan yengil tebratish, ikkinchidan, odatda uxlatish uchun aytiladigan qo'shiqlar - ellalar kiradi. Bolaning ushbu ikki narsani idrok etish darajasiga muvofiq uning jismoniy mashqlarga va musiqaga moyilligini aniqlaydilar. Ularning birinchisi tanaga, ikkinchisi esa ruhiyatga tegishlidir»³. Bunda Ibn Sino ma'naviy tarbiya bolaning chaqaloq yoshidan belanchagini tebratish davomida (jismaniy tarbiya) alla (qo'shiq) aytish vositalari bilan mushtarak tarzda olib borilishi lozimligini aytib o'tgan. Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari u yashagan davr musiqa ilmidan juda muhim ma'lumotlar berishi bilan ham qimmatlidir.

³ Rajabov I Maqomlar T San'at, 2006 y , 18-bet

II BOB. MUSIQA TA'LIMIDA MUSIQIY FAOLIYATLAR

Musiqa idroki (tinglash) - bolalar musiqiy faoliyatining yetakchi turi

Bolalarning musiqiy bilimlar tizimida musiqa tinglashning ahamiyatini baholash murakkabdir. Musiqa tinglamay madaniyatni o'rgatish, dunyo musiqa san'ati durdonalari bilan tanishtirish, musiqaning ifoda vositalarini o'rgatish, yuqori musiqa san'ati asarlariga nisbatan muhabbat uyg'otish mumkin emas. Bu sifatlarni shakllantirishda musiqa tinglash jarayonining juda katta o'rni bor.

Musiqa tinglash jarayonida, bolalar turli bastakor va kompozitorlar asarlaridan namunalar tinglaydilar. Shostakovichning ta'бири bilan aytganda: «Musiqani sevish uchun, avvalam bor uni tinglash kerak...» Vatan, do'stlik haqidagi, mehnat va boshqa jismoniy hamda aqliy faoliyatlar mavzusidagi asarlarni tinglash, bolalarga ijobiy ta'sir qiladi. Bola tinglangan musiqa yoki san'at asari haqida birorta savol bermasa, unda biror hissiyot vujudga kelmasa, shaxsiy hissiyot va munosabat bilan bog'lanmagan xabar tarzidagi aloqagina paydo bo'lsa, demak vazifa bajarilmagan, maqsadga erishilmagan hisoblanadi.

V.I.Petrushin «Musiqiy psixologiya» asarida musiqaning psixologik xususiyatlari haqida to'xtalar ekan, musiqa idrokiga ham to'xtalib o'tadi.

Uning fikricha, tinglovchi biror bir musiqiy asarni tinglaganda, uning muallifi va kuyning nomini avval eshitgan bo'lsa darhol aniqlay oladi. Har bir musiqiy asar insonning hayoti davomida orttirgan taassurotlari, kechinmalarini uyg'otadi. Lekin tinglovchi musiqiy asarni tinglaganda, o'zining emas, balki kompozitorning kayfiyati, his-tuyg'ularini musiqaning ifoda vositalari orqali anglashi kerak. V.Petrushinning fikriga ko'ra, musiqiy idrokni shakllantirish bu musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirishga bog'liq ekan. Lekin u yana shuni ta'kidlaydiki, kishining tarbiya ko'rgan muhiti, bilimi, yoshi ham uni musiqiy idrokiga sezilarli ta'sir ko'rsatar ekan. Har bir kishining musiqiy didi uning turar joyi, yashash muhiti va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq, deb hisoblaydi. V.Petrushin. Olim yana «... musiqiy idrok tafakkurning boshlang'ich bosqichi...» - deydi.

Demak, olimning fikrini tahlil qilar ekanmiz, shunday xulosa chiqarishimiz mumkin:

1. Musiqiy idrok eshitish sezgisi bilan bog'liqdir.
2. Musiqani idrok etganda avval egallangan taassurotlar gavdalanar ekan.

3. Kishilarning musiqiy didi ular yashayotgan ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq ekan.

4. Musiqiy idrok taffakur jarayonining ilk bosqichlaridan biridir.

N.A.Vetlugina o'zining «Musiqani idrok etish» nazariyasida musiqaning nihoyatda ta'sirchanligi va uni inson ongi orqali idrok etish malakalarini shakllantirishning boshlang'ich bosqichlari haqida bayon etadi. Avvalam bor, N.Vetlugina bolalarni musiqiy asarlarni idrok etishi muammosi bilan ko'p shug'ullangan olimadir. U musiqa tinglashning ahamiyati haqida gapirar ekan, ijro etishdan ko'ra musiqa tinglash kishilar ruhiyatiga ko'proq ta'sir qilishiga urg'u beradi. Shuningdek, N.Vetlugina musiqa tinglash jarayonining ham o'z metodikasi bo'lishi haqida gapiradi. Maktabda o'quvchilarga har xil mazmundagi qo'shiqlarni tinglatar ekanmiz, tinglash jarayonini tashkil etish va uni samarali usullarini ishlab chiqish joizdir. N.Vetluginaning ta'biriga ko'ra, musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi.

B.V. Asafev (1884-1949) musiqa tinglash yoki musiqani idrok etishni ikki xil ma'noda tushuntirgan:

1. Tinglovchi o'z ijrosi bilan uyg'unlashib undan zavqlanib, musiqa tinglash uning kundalik ishiga aylanib qoladi.

2. Tinglovchi o'zini, butun vujudini musiqa ummoniga g'arq etib, qalbi bilan uni his etib haqiqiy musiqa bilimdoni sifatida tinglaydi.

Ko'rib turganimizdek, B.V.Asafev musiqa tinglovchilarni ham farqlaydi. U musiqani asl bilimdoni boshqacha tinglaydi va shunchaki havaskor boshqacha tinglaydi, deb uqtiradi. Tabiiyki, musiqashunos musiqani idrok etar ekan, u musiqa ijodkori, shakli, xarakteri, janri haqida bema'lol fikr bildira oladi. Biroq, havaskor musiqa tinglaganda, faqatgina musiqaning xarakteri, badiiy obrazi haqida qisman tushuncha bera oladi.

Asarni bilishning ikkinchi bosqichida bola asar haqidagi o'z fikrini aytishi, uning g'oyaviy-badiiy mazmuniga baho berishi, asarning xarakterli xususiyatlarini tahlil qilishi kerak. Bunda tanqidchilik, san'atshunoslik va hokazolardagi muallif va uning asarlari haqida insoniyat to'plagan bilimlar mujassamlashadi. Musiqa tinglash, yakkanavoz va jo'rovozlikni ajrata bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish, o'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash kabi musiqiy-nazariy bilimlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu bilimlarni o'zlashtirish bolalarning musiqiy-estetik saviyasini oshiradi.

Bolalarning musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, uning tilini tushunish, har bir bolaning o'z sevimli musiqiy asarlar doyrasini paydo qilish, ularda musiqiy asarlarning mualliflariga nisbatan minnatdorlik hissini uyg'otish, milliy va mumtoz musiqaga nisbatan qiziqish uyg'otish muhim vazifalardandir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning yoshlariga mos bo'lgan, o'z tuzilishi, mazmuni jihatdan go'zal, yuksak g'oyalarni, o'tmish va kelajakni aks ettiruvchi musiqa yangrashi kerak. Bolalar oilada, radio, televidenie orqali, shuningdek, teatr, konsert va boshqa jamoatchilik joylarida musiqa bilan doimo oshno bo'ladilar, ya'ni bolalarning hafta davomida tinglaydigan musiqa ko'lami haftadagi bir soatlik mashg'ulotdan bir necha bor ko'pdir. Ammo ular tinglaydigan musiqa asarlarining hammasi ham bolalar yoshiga mos emasligi va ular musiqani badiiy-g'oyaviy jihatdan hamma vaqt ham maqsadga muvofiq idrok eta olmasligini hisobga olishimiz lozim. Shuning uchun ham musiqa mashg'ulotlaridagi musiqa tinglash jarayonlari bolalarning hayotiy musiqiy faoliyatida boshqaruvchi va pedagogik maqsadga muvofiq yo'naltiruvchi, badiiy-axloqiy tarbiya beruvchi vosita sifatida muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, mashg'ulotlar jarayonidagi har bir faoliyat xoh u qo'shiq kuylash bo'lsin, xoh musiqa savodi, xoh musiqa tinglash, bularning barchasi barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Musiqa madaniyati darslarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda musiqa ta'limining ko'pgina faoliyatlari qamrab olinadi. Bu faoliyat turjari ichida xor bo'lib kuylash va musiqiy asar tinglash jarayonida bolalarning musiqiy didini shakllantirish yetakchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, mashg'ulotning tarkibiy qismlari - qo'shiq kuylash, musiqa cholg'u asboblari jo'r bo'lish, musiqa ostida ritmik harakatlar qilish jarayonlarida ham bolalarning musiqiy didlari shakllantirib boriladi. Bolalarda musiqaga havas uyg'otish uchun ularning eshitayotgan musiqa asarlarini sevish katta ahamiyatga egadir. Bu hislat faqat yuksak badiiy-estetik saviyadagi asar vositasida analga oshiriladi.

Inson yaxshi qo'shiqni mahoratli ijrochidan tinglaganda unda musiqiy asarga nisbatan taassurotlar, fikr-mulohazalar uyg'onadi. Tinglovchilarning qo'shiqni qanday idrok etishlari, undan qanchalik ta'sirlanishlari, musiqiy asarning tinglovchilar hissiyotiga va ongiga ta'siri musiqaning qanday yangrashi, sozanda yoki xonandaning asarni qay darajada ijro etishiga bog'liqdir. Lekin buning o'zi musiqa tinglash uchun yetarli emas.

Tinglovchilar musiqa ijodkorlari va mualliflari haqida, tinglanyotgan asarning yaratilgan davri, shakli, turi, o'lchovi, ritmi va boshqalar haqida tushunchaga ega bo'lsa, musiqiy asarni tinglashda asarning mazmun-mohiyatini to'la-to'kis tushunadi, shuningdek, asar unga ijobiy ta'sir qiladi, ichki hissiyot va kechinmalarni hosil qiladi.

Bolalarni milliy musiqamizni tinglashga tayyorlash uchun hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida qanday ishlar olib borilayapdi? Yuqorida aytilgan musiqa tinglash uchun kerak bo'ladigan shartlarni bajarish musiqa rahbari oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Musiqa rahbari musiqiy asarni eshittirishdan oldin, bolalar bilan shu mavzuda qisqacha suhbat o'tkazadi va suhbatda asarning mazmuni va xarakteri, asar mualliflari haqida bolalarga so'zlab beradi. E.Gorskayaning fikriga ko'ra, musiqa tinglashdan avval o'tkazilgan suhbat o'quvchilarni psixik jihatdan asarni idrok etishga tayyorlaydi. Asarning janri, yaratilish tarixi, ijodkorlari, asardagi g'oya haqida o'tkazilgan suhbat o'quvchilarni shu asarni tinglashga zamin yaratadi. Kuyni tinglash jarayonida uni yaratilgan davr haqida, kompozitorning hayot va ijodi haqida, qo'shiq yoki kuy bilan bog'liq tarixiy voqealar haqida o'tkazilgan suhbat musiqani idrok etishda o'ta muhim jarayon hisoblanadi.

E.Gorskaya shu fikrlarni bayon etar ekan, bir qator har xil mavzudagi qo'shiq va kuylarni keltiradi. Shuningdek, u har bir kuy va qo'shiqni ijro etishdan - tinglashga berishdan avval beriladigan kirish suhbatlaridan namunalarni keltiradi. O'quvchilarga har bir musiqiy asar zahirida ma'lum voqelik, his-tuyg'u va fikrlar yotishi haqida ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda tushuncha berib borish lozim.

Musiqiy tarbiyani amalga oshirishda bolalarni nafaqat musiqiy asarni ijro etishga, balki musiqani emotsional va ruhan idrok etishni o'rgatish kerak. Asosan, bolalar musiqani qo'shiq kuylash jarayonida eshitadilar. Qoidaga ko'ra, musiqa rahbari qo'shiq o'tg'atishdan avval, bolalarga uni o'zi ijro etib beradi. Bolalarning musiqani eshittirish va idrok etishlari uchun bu juda kamlik qiladi. Buning uchun avvalo musiqa rahbari bolalarni o'zlari kuylaydigan qo'shiqlaridan murakkabroq kuy va qo'shiqlarni tinglashga o'rgatishi kerak. Shuning uchun ham musiqa rahbarining o'zi yuqori darajada musiqani ijro eta olishi va qo'shiq kuylay olishi talab etiladi. Afsuski, hozirgi paytda hamma musiqa rahbarilari ham bunday imkoniyatga ega emaslar. Lekin metodik jihatdan mahoratli musiqa rahbari turli texnik vositalar, audio tasmalar, musiqiy markazlar va kompyuterlardan foydalangan holda bolalarni yuqori emotsional holatda musiqa eshittirishlarini tashkil eta oladi, ya'ni zamonaviy musiqa madaniyati musiqa rahbari barcha imkoniyatlardan foydalangan holda bolalarning musiqani asl mohiyatini tushunishlari, uni

ma'nosini anglashlari uchun mavjud bo'lgan texnik va ko'rgazmali qurollardan samarali foydalana olishi lozim. Lekin shuni inobatga olish kerakki, magnitofon yordamida eshitilgan asarga nisbatan musiqa rahbarining o'zi ijro etgan musiqiy asar bolalarda ko'proq taassurot qoldirar ekan. Agar musiqa rahbari musiqiy asarni avval o'zi ijro etib, so'ngra magnitofonda qo'yib bersa natija yanada yuqori darajada bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda musiqa tinglash bo'yicha qo'yiladigan asosiy vazifalar ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. Har xil mazmundagi va har xil mualliflar asarlari bilan tanishish, musiqiy zahira to'plash.

Musiqiy termin va tushunchalarni o'zlashtirish, asosiy musiqaning ifodalovchi vositalari haqida, musiqiy asar elementlari haqida boshlang'ich tushunchalarni egallash. Musiqa ta'lim tizimidagi darslarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishda mashg'ulotlarda tinglanadigan asar musiqiy tuzilishi, badiiy-g'oyaviy mazmun jihatidan chorak mavzusidan kelib chi'ishi lozim. Musiqa tinglash jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Tinglanadigan asar haqida musiqa rahbarining kirish so'zi (bunda, musiqa rahbari bolalarga musiqiy asar mualliflari haqida, asarning yaratilish tarixi haqida so'zlab beradi).

2. Musiqa rahbari yoki magnitofon ijrosida asarni tinglash.

3. Tinglangan asarni suhbat-bahs yo'li bilan musiqiy va badiiy-g'oyaviy jihatdan oddiy tahlil qilish.

4. Musiqiy asarni bir butunligicha qaytadan tinglash hamda asar haqida bolalarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish.

Yuqorida keltirilgan bosqichlarga amal qilgan holda, mavzu jihatidan bolalar hayotiga oid bo'lgan, turli xarakterdagi musiqa asarlarini tinglab va bu asarlarni yaratgan kompozitorlarning hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumotga ega bo'lsalar - ko'zlangan maqsadga ehrishgan bo'lamiz. Shu tariqa bolalar mashg'ulotlarning musiqa tinglash qismida quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar:

-musiqiy asarni diqqat bilan jimlikni saqlagan holda tinglash.

-musiqiy asarni tinglaganda asar mazmuni va xarakterini anglash;

-musiqaning ifoda vositalari, janrlar (qo'shiq, raqs, marsh), tembrlar haqida oddiy tushunchaga ega bo'lish;

-erkaklar, ayollar, bolalar va aralash xor ovozlari, yakkanavozlarni eshita olish hamda bir-biridan farqlay olish;

-milliy cholg'u cholg'ularini, orkestr turlarini, musiqa janrlarini bir-biridan farqlash va hokazo.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'z tinglagan asarlari haqidagi taassurotlarini rasm chizish orqali aks etishlari yaxshi natijalar beradi. Musiqa rahbari bolalarning tasviriy faoliyati natijalariga asoslanib ularning fikrlashi, idrok etishi, tafakkuri, ongi say darajada shakllanganligini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Musiqa tinglashning yana bir muhim shartlaridan biri, musiqiy asarni tinglash jarayonida guruhda tinchlik bo'lmog'i lozim. Musiqani diqqat bilan, jimlik sharoitida tinglashga o'rganish yoshlikdan boshlanadi va bola ulg'aygandan so'ng yuksak madaniyatli shaxs bo'lib yetishadi.

Har qanday sohada ko'nikma va malakalarni oshirish uchun takrorlash o'ta muhim shart hisoblanadi. Musiqa tinglashda ham eshitilgan musiqiy asarni qayta-qayta tinglab turish, ushbu asarni yaxshiroq tushunish va o'zlashtirishga imkon yaratadi. Eng asosiy talablardan biri shundaki, bola tinglangan asar haqida o'z taassurotlarini aytib bera olishi kerak. Har bir bolaning o'z fikr-mulohazalarini bayon qilishi eshitilgan asar haqidagi taassurotlar ko'lamini kengaytiradi. Masalan, musiqa tinglashda - «Bu qo'shiqni bilasizmi? Birinchi marta qaerda eshitgansiz? Qo'shiq sizga yoqdimi? Qo'shiqning ma'nosini tushuntirib bera olasizmi?» - kabi savollar orqali bolalarni yanada diqqat bilan tinglashga, ularni o'zlari e'tibor bermagan ayrim jihatlarni idrok etish va anglashga, mustaqil fikr yuritishga odatlantirib boradi.

Musiqa madaniyati mashg'ulotlarlarida musiqa tinglashni ahamiyatini baholash murakkabdir. Bolalarga musiqa tinglash madaniyatini o'rgatish, ularni dunyo musiqa san'ati durdonalari bilan tanishtirish, musiqaning o'ta boy ifoda vositalarini o'rgatish, yuqori badiiy saviyadagi musiqa san'ati asarlariga nisbatan muhabbat uyg'otishda musiqa tinglash jarayonining o'rnini juda katta.

Musiqiy ta'lim tizimida, xususan, musiqa tinglash ta'lim mazmunining asosini tashkil qiladi. Bolalar asar tinglash jarayonida yakkanavoz va jo'mavozlikni ajrata bilishlari, ansambl va-orkestr ijrosini farqlay bilishlari, sozlar va cholg'ular tembrini ajrata olishlari, o'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglay olishni o'rganishlari zarur.

Musiqa tinglash mashg'ulotlarda barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshadi. Demak, musiqa tinglash orqali bolalarda musiqani, uning obrazlari vositasida hayotni, borliqni estetik idrok etish, anglash va bilish qobiliyati rivojlanib boradi. Yuqorida sanab o'tilgan shartlar bajarilsa, bolalarni musiqiy asarlarni badiiy-g'oyaviy jihatdan mantiqan to'g'ri idrok etishga, musiqiy did va tafakkurlarini rivojlantirishga, musiqiy asarni qadrlashga, uni to'g'ri baholashga qulay sharoit yaratiladi.

Qo'shiq kuylash faoliyati

Bolalar tarbiyasida musiqa muhim o'rin egallaydi. Bu faoliyat turi bolalarga boshqa faoliyat turlariga nisbatan yaqin va tushunarlidir. Bolalar qo'shiq kuylashni sevadilar. Kuylash bolalar ijrochiligi faoliyati ichida yetakchi faoliyat turi bo'lib, u o'quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Yaxshi qo'shiq bolani quvontiradi, har tomonlama kamol topdiradi va tarbiyalaydi. Cholg'u kuylaridan farqli o'laroq qo'shiq kuylash kuchli emotsional ta'sir kuchiga ega. Chunki qo'shiqda matn va musiqa badiiy birligi namoyon bo'ladi. qo'shiq kuylash bola shaxsi tarbiyasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. qo'shiq inson aqliy kamolotini o'sishiga, dunyoqarashini kengayishiga, atrof-olam haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Qo'shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok etadilar, o'z kechinma va his-tuyg'ularini faolroq ifodalaydilar. Qo'shiqning matni bolalarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Biror bir cholg'uda ijro etilgan kuyga nisbatan ovozda ijro etilgan kuyni bolalar yaxshiroq idrok etadilar.

Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarda musiqiy qobiliyat rivojlanadi: musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritm hissi, shuningdek, qo'shiq kuylash musiqiy qobiliyatlardan: metr va ritm hissi, musiqiy eshituvi, lad hissi rivojlanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini, boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rmovozlik qilishga intiladi, jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi.

Qo'shiq kuylash bola ruhiyatiga ta'sir qilish barobarida, uning jismoniy o'sishi va rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongilligi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarni ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar.

Qo'shiq kuylash bolalarning nutqini ham rivojlanishiga zamin yaratadi. Qo'shiq so'zlari cho'zib ijro etilganligi tufayli bolalar yangi so'zlarni bo'g'inlab, xatosiz o'rganadilar. Musiqiy rahbar va tarbiyachilar so'zlarning to'g'ri ijro etilishini tekshirib boradilar.

Qo'shiq kuylash jarayoni bolalarni umumiy kayfiyat bilan birlashtiradi, ular hamkorlikda faoliyat bajarishga o'rganadilar. Ular shoshib ketayotgan yoki orqada qolib ketayotgan o'rtoqlarini eshitadilar va ularni bir xil sur'atda kuylashga chaqiradilar.

Qo'shiq kuylash - musiqiy tarbiyaning asosiy vositasidir. U boshqa faoliyatlarga nisbatan bolalar uchun juda yaqindir. Qo'shiq kuylab, ular musiqani yanada faolroq idrok etadilar. Qo'shiq matni esa mazmunan qo'shiq kuyini anglashga yordam beradi. Kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy qobiliyatlar eshitish qanday xotira va ritm hissi rivojlanadi. Kuylash bolarning nutqini rivojlantiradi.

Musiqa o'qituvchisi (rahbari) bolalarni qo'shiq kuylash jarayonida so'zini kuyga mos qilib kuylash ularni nazorat qilib turadi.

Bola ovozni o'ziga xos xususiyatlari bog'cha bolalarining ovozi nozik, yumshoq mayin bo'ladi. Bola tomog'i undagi bo'g'in bilan katta kichkina bo'ladi. Shuning uchun ovozi yumshoq va tovush rezanatori orqali kuchaytirib beriladi. Rezonator ikkiga bo'linadi:

1. Yuqori bosh rezonator.

2. Pastki ko'krak rezanatori.

Ko'krak rezanatori ovozni kuchaytirib beradi. Bosh rezanator esa ovozni jarangli qilib beradi.

Kuylash - bu murakkab jarayon bo'lib, tovush hosil qiladi, ya'ni kuylash davrida eshitish va kuylash bir-biri bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bolalar kattalarning nutqi va ohangiga taqlid qiladilar, ovozlari qushlarning, uy hayvonlarining tovushlarini ifodalaydilar. O'quvchilarda kuylash malakalarini samarali shakllantirishda eng avvalo inson ovoz apparati tuzilishini bilib olishimiz kerak. Og'iz, burun bo'shlig'i, halqum, traxeya, bronxlar va o'pkalar ovoz hosil kiluvchi a'zolar hisoblanadi. Asosiy ovoz apparati esa hiqildoqda joylashgan. Bolalarni kuylash ijodini rivojlantirish buyicha ish asta-sekin olib boriladi. Shuni inobatga olgan holda maktab ta'lim-tarbiya dasturida har bir sinf diapazoniga mos asarlar berilgan.

Shuni aytib o'tish kerakki, yosh bolalarda hali ovoz mushaklari rivojlanmagan bo'ladi. 7 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan vaqt ovoz mushaklarining shakllanish davri hisoblanadi. Unga qadar ovoz mushaklari vazifasini paylar bajaradi. 11-13 yoshga kelib bolalarda hiqildoq mushaklari to'liq shakllanadi va 20 yoshga qadar rivojlanib boradi. Shundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, 11-13 yoshda ovoz hosil qilish kattalarnikidan farq qiladi. Buni qo'shiq o'rgatish jarayonida albatta inobatga olishimiz kerak.

Bolalar ovozini to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish uchun o'qituvchi ovoz apparati o'zgarish xususiyatlari bilan birga, bolalarning kuylash imkoniyatlarini yaxshi bilish kerak. Chunki bolalarning yosh diapazoniga amal qilishlik ovozning to'g'ri tarbiyalashning, kuylash faoliyatini samarali amalga oshirishda muhim shartlaridan biridir.

6-7 yoshli bolalarda kuylash imkoniyati u qadar katta emas. Yuqorida aytib o'tilgandek, bu ularning ovoz apparatlari to'liq shakllanmaganligi bilan bog'liq.

1-sinf o'quvchilari ovozi mi 1-sol' 1, fa 1-lya 1 diapazonida yaxshi jaranglaydi. Shuning uchun ham dastlab diapazon jihatdan chegaralangan, uncha murakkab bo'lmagan, sodda, ammo xarakteri va obraz jihatdan erkin qo'shiqlar kuylashga berilishi lozim. Asta-sekin qo'shiqlar diapazoni kengaytirib boriladi. Har bir qo'shiqda o'quvchilar kuy tovushlari va balandligini ko'rgazmalar va harakatlar orqali bilib boradilar. Bu esa ovoz va eshituv muvozanatini ta'minlaydi va tovush balandligini to'g'ri aniqlashga o'rgatadi.

2-sinf o'quvchilarining ovozlari esa mi 1 - si 1, diapazonida ancha tabiiy jaranglaydi. Shu bilan birga ushbu diapazon hali nozik va kalta ovoz paylari imkoniyati bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda yengil, zo'riqmay kuylashga erishish kerak.

Asta-sekin kuylash diapazoni kengaytirib boriladi. O'quv yili oxiriga kelib ushbu sinf o'quvchilari diapazoni re 1 - re 1 ga o'tadi.

Uchinchi-to'rtinchi o'quv yillarida esa o'quvchilar ovozi do 1- re 2 (mi 2) diapazonida to'liq jaranglaydi. To'rtinchi sinf o'quvchilari ovoz diapazoni do kichik oktava - mi 2 (fa 2) diapazonida to'liq jaranglaydi. Bu davrga kelib ular kuylash malakalariga ega bo'ladilar.

5-6-sinfda 11-13 yoshli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'qituvchi ishida qiyinchiliklar vujudga keladi. Chunki bu davrda hiqildoqning o'sishi natijasida bolalar ovozida «mutasiya» holati kuzatiladi.

Mutasiya har kimda turlicha kechadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchini yaxshi bilishi va ovozidagi individual o'zgarishlarni kuzatib borishi lozim.

Qizlarda ham «mutasiya» bormi? - degan savol ilmiy adabiyotlarda u qadar to'liq yoritilmagan. Yaxshi ma'lumki, ovoz o'zgarishi fiziologik jarayon bo'lib, u bevosita butun organizm o'zgarishi bilan bog'liq. Qizlarda ham ovoz paylarining o'sishi kuzatiladi. 13-14 yoshga kelib kuylashdan so'ng qizlar ovoz paylarida ham qizarish va ovozning bir muncha charchash

holati kuzatiladi. Lekin qizlardagi mutasiya jarayoni o'g'il bolalardagidek sezilarli darajada o'tmaydi.

Bolalar ovozini muxofaza qilishda kuylash malakalari ustida ish to'g'ri olib borilishi kerak. Jamoa bo'lib kuylash malakalariga:

- 1) Kuylashdagi holat (turib, o'tirib kuylash);
- 2) Nafas hosil qilish;
- 3) Tovush hosil qilish;
- 4) Soz;
- 5) Talaffuz;
- 6) Ansambl.

Qo'shiq aytish holati

Bog'cha bolalarning kuylash jarayonida ularni to'g'ri o'tirish, qomatlarini, boshlarini tik tutishlarini, og'iz ochishlarini to'g'ri o'rganishlarini nazorat qilib turish. Stulga to'g'ri o'tirish, lekin, 3-4 yoshli bola stulga suyanib qo'lini tizziga qo'yib o'tirishi mumkin, og'izlarini vertikal ochishlari kerak.

Maktabda esa o'qituvchi birinchi darsdan boshlaboq, qo'shiq aytish holati - partada o'tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo'l va oyoqlarni qanday to'tish lozimligi haqida bolalarga tushuncha berib boradi. Kuylaganda gavdani qiyshaytirmasdan to'g'ri tutish, elkalarni yengil kerib, iyakni ortiqcha ko'tarmasdan, bo'yinni va boshni to'g'ri ushlash, qo'llarni erkin holda pastga tushirish yoki kaftlarni tizzalar ustiga yengil qo'yib, engashmasdan o'tirish ya oyoklarni elka kengligida erkin qo'yish kabi, holatlari ustida ish olib boradi. Bu ish har bir darsda qayta-qayta takrorlanadi va butun yil davomida nazorat qilib borish bilan bolalarda ko'nikma hosil etiladi.

Nafas hosil qilish

Nafas qo'shiq kuylash jarayonida mustahkamlanadi. Kuylashdan avval musiqiy jumlar orasida nafas olishga bolalarni o'rgatadi. Nafas hosil qilish kuylash nafasni to'g'ri olish va undan unumli foydalana bilish asosida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda nafasni ko'krak qismida olishlari sababli kaftlarni ko'tarishlari, jumlaning tugatmasdan yoki so'zni bo'lib nafas oladilar.

O'qituvchi elkalarni ko'tarmasdan vazmin nafas olish va jumla hamda so'z o'rtalarida nafas olmaslikka alohida e'tibor berishi lozim. Bolalar

qo'shiq yoki mashq kuylaganlarida o'qituvchining qo'l ishoralariga qarab nafas olishlariga va uni jumla oxirigacha yetkazishga odatlantirib boriladi. Dirijyorlik holatlari - «diqqat», «auf», «ijroni boshlash», «ijronit ugatish»ga odatlantirib borish boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafasni to'g'ri yo'lga qo'yishda eng samarali usul hisoblanadi.

Intonatsiya (Tovush hosil qilish)

Buning uchun bolalar kuyni yaxshi idrok etish kerak. Intonatsiya eshitish qobiliyati va ovoz apparatining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Ayrim nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlarni noto'g'ri aytish natijasida falsh (nosoz) qilib kuylashlari mumkin. Intonatsiyani sof bo'lishi tarbiya olayotgan muhitga ham bog'liq. Tovush hosil qilish kuylashni asosiy vositalaridan biridir. U ko'pincha maxsus mashqlar va qo'shiqlar o'rganishda so'zlarni aniq-ravshan talaffuz etish yo'li bilan shakllanib boradi. Bolalarni kuylash malakalarini shakllantirish va o'stirish ishlari, musiqa tovushlarini diqqat bilan eshitish va ularni aniq balandlikda kuylab bera olish qobiliyatini rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Bu yoshdagi bolalarda, qo'shiqni kuylaganda ko'proq nutq tovushlaridan foydalanishga intilish hollarini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham bu, birinchi navbatda, bolalarni bitta tovushda cho'zib mayin, ya'ni legatoda kuylashga o'rgatishdan boshlash zarurdir.

Boshlang'ich sinflarda bolalarni mayin «ataka»da kuylashlari aniq tovush hosil bo'lishini, ovozning muloyim va yoqimli bo'lishini ta'minlaydi. Qattiq «ataka»dan foydalanish bolalar ovozigacha qo'pollik va dag'allik olib kelishi mumkin. Ayrim bolalar baqirib, zo'riqib kuylaydilar. Bu esa, vokal-xor malakalarining yaxshi shakllanishiga xalaqit beradi, ovozlarga putur yetkazadi. Bolalarni to'g'ri kuylashga o'rgatish uchun kerakli mashqlardan foydalanamiz: pastki jag'ni bo'shatish uchun «lya-lya-lo-lu»; «da-de-di-do-du»; «ma-me-mi-mo-mu» mashqini ikkinchi barmoqlarimizni labimiz chetiga qo'yib ijro etamiz.

Soz va ansambl

Jamoa bo'lib kuylashning eng asosiy sharti soz va ansamblga erishishdir. Soz jamoa bo'lib kuylashda ovozlarning intonatsion uyg'unligi, jo'rliqi, birligi bo'lib, melodik va garmonik turlarga bo'linadi. Soz har bir bolaning musiqa tovushi balandligini aniq kuylay olishiga asoslanadi. Barcha bolalarni sozga bir xil tushushi jamoa bo'lib kuylaganda talaffuz jihatdan

uyg'unlashishga imkoniyat beradi. Shuning uchun 1-darsdan boshlab, soz ustida muntazam ish olib boriladi. Faqat shundagina sof unişonga erishish mumkin bo'ladi.

Talaffuz

Tovush yaxshi chiqishi uchun talaffuzning muhim ahamiyati bor. Jamoa bo'lib kuylash ishini rivojlantirishda talaffuzning yaxshi rivojlanishi muhimdir. Bunda artikulyacion organlari - lab, til, jaqlarning faol harakatidan hamjihatligi, aniq, ohangdor, mazmunan ifodali talaffuz etilishiga erishish lozim. Bolalar nutqida zaiflik, noaniqlilik, ovoz apparatini siqib gapirish kabi nuqsonlar uchraydi. Bunday bolalarga e'tiborni kuchaytirish va ular bilan individual ish olib borish lozim. Eng muhimi, bolalarni mashq va qo'shiqlar matnlarining vokal talaffuziga o'rgata borish lozim. Qo'shiq kuylashda unli tovushlarni to'g'ri shakllantira olish muhimdir. Bu ish vokal mashqlari, mashq-qo'shiq, va qo'shiqlarni o'rganib kuylash jarayonida amalga oshiriladi. Nutqimizda unli tovushdan ko'ra, undosh tovushlar ko'prok ishlatiladi. Shuning uchun bizning vazifamiz ko'proq unli tovushlarni kuychan, cho'zib kuylash hisobiga undosh tovushlarni qisqa aniq talaffuz etishga erishishdan iboratdir. Xususan, «A» tovushini ochiq keng talaffuz qilinib, kuylanganda lablar bir-biriga yaqin, yopiqroq, biroz «o» tovushiga yaqinlashtirish; «O» tovushini talaffuz qilganda ochiq, tomoqqa yaqin, kuylaganda ballarga yaqin, yopiq, yumshoq kuylanadi; «E» tovushi talaffuzda ochiq, kuylaganda yopiq «e» tarzida keladigan so'zlarni «e» ga yaqinlashtirib kuylanadi. «I» tovushi til oldi, yig'iq, ba'zan siqiq holda talaffuz etiladi. Uni faqat ovoz apparatinnig erkinligi va yengil nafasda «u» ga yaqinlashtirib kuylash lozim. Tovushlarni vokal mashqlarida «da, de, di; ma, me, mi» kabi bo'g'inlar bilan kuylash foydalidir.

Undosh tovushlarni keskin, chaqqon va aniq talaffuz etib, ularni unli tovushlar oralig'ida kuylashga o'rgatib borish lozim. «q», «g'» va «h» tovushlari nutqda tomoqqa yaqin talaffuz etiladi. Kuylashda talaffuz mexanizmini o'zgartirmay, ularni yumshoq talaffuz qilishga erishish lozim.

1. Kuylashdan oldin qo'shiq matnini ifodali o'qish.
2. Qo'shiq o'rgatish jarayonida hamma birgalikda shoshmasdan so'zlab sekin kuylash.
3. Qo'shiqni kupletlarga bo'lib, ifodali o'qish kuylashga yordam beradi.

Ansambl

Jamoa bo'lib kuylashda ovozlarning ritmik, dinamik, temp, tembr va intonatsion uyg'unligidir. Soz malakasi esa, ansamblning vujudga kelishida asosiy omil hisoblanadi. Qo'shiqlarning badiiy ijro etilishiga ovozlardagi soz va ansamblning uyg'unligi vositasi bilangina erishish mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jamoa bo'lib kuylash

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoa bo'lib qo'shiq kuylashga o'rgatish umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa o'qituvchi zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Jamoa bo'lib kuylash o'quvchilarda bir qator ijobiy jihatlarni jumladan, ularni axloqiy jihatdan shakllanishiga katta ta'sir etadi. Birinchidan, qo'shiq aniq bir mavzuga qaratilgan bo'ladi, ikkinchidan, o'quvchilar qo'shiqlarda aks etgan o'zga insonlarning ruhiy holatini, uning kechinmalarini his qiladilar. Jamoa bo'lib kuylash nafaqat estetik didni, balki o'quvchilarning tashabbuskorligini, fantaziyalarini, ijodiy qobiliyatlarini, tarbiyalaydi va musiqiy qobiliyatlar (qo'shiqchilik ovozini, usulni his etishni, musiqiy xotirani)ni rivojlantiradi, qo'shiqchilik malakalarini, musiqiy qiziqishlarini oshirib, emotsional hamda vokal-xor malakalarini orttiradi. Jamoa bo'lib kuylash inson hayotida jamoatchilikning o'rnini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantiradi va ularga jisplashiruvchi, tartibga soluvchi ta'sir qiladi hamda jamoatchilik, do'stlik hislarini shakllantiradi. Jamoa bo'lib kuylash darslarida ijro etish uchun musiqiy asar tanlashda kuylanadigan materialni to'g'ri tanlash asosiy shartlardan biridir. Bu turdagi darslar uchun qo'shiq ularni mavzu, musiqiy janrga mansublik, maqomi (milliy va chet el musiqiy asarlari) jihatidan turli tuman bo'lishiga alohida e'tibor qaratish lozim, ya'ni repertuarda har xil mavzu va janrlardagi zamonaviy va muntaz asarlar, mahalliy va chet el musiqalarini bo'lishi maqsadga muvofiq. Qo'shiq aytish boshqa musiqiy faoliyatlar turidan shunisi bilan farq qiladiki, unda musiqa bilan so'z birgalikda keladi. Shuning uchun ham qo'shiqning mazmuni o'quvchilarga musiqaning boshqa turlariga qaraganda tushunarliroq bo'ladi.

Maktab musiqiy tarbiya amaliyotida jamoa bo'lib kuylashning bir qator o'ziga xos xususiyatlarini yuzaga chiqargan:

- jamoa bo'lib kuylash bolalar xulqini tarbiyalaydi va jamoaga birlashtiradi;

- jamoa bo'lib kuylash bolalarni jismoniy rivojlantirish vositasidir;

- jo'rsiz kuylash bolalarni eshitish qobiliyatini va xotirasini rivojlantiradi;

- ko'p ovozlilik garmonik eshitish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Bolalarni jamoa bo'lib kuylashga qiziqtirish va o'rgatishda o'qituvchining oldida qator vazifalar belgilab berilgan.

Jamoa bo'lib kuylashning vazifalari:

- bolalarda badiiy sezgirlikni oshirish va musiqaga bo'lgan muhabbatni uyg'otish, jamoa bo'lib kuylashga bolalarni qiziqishini rivojlantirish;

- vokal-xor malakalarini rivojlantirish;

- musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- musiqiy ijrochilik malakalarini rivojlantirish.

Jamoa bo'lib kuylashda belgilab berilgan xususiyatlar, maqsad va vazifalardan to'laonli foydalana olsak, bolalarda musiqaga, xususan, jamoa bo'lib kuylashga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiramiz.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishning qo'shiq kuylash jarayonida, o'quvchilar avval kuylanadigan qo'shiqni o'qituvchi ijrosida, ma'lum musiqacha cholg'usi jo'rligida tinglaydilar. Bu o'quvchilarda qo'shiq haqidagi dastlabki emotsional taassurotlarni hosil qiladi. O'qituvchi o'quvchilarga tanlangan qo'shiqning yaratilishi haqida, uni yozgan kompozitor haqida qisqacha ma'lumot beradi. Keyin hamma birgalikda qo'shiqning tuzilishi, ladi, o'lchovi va tonligini aniqlaydilar. So'ngra o'qituvchi yordamida qo'shiqni kuylashni o'rganadilar. O'quvchilarga qo'shiq kuylashni o'rgatish jarayonida o'qituvchi o'z bilimini ular ongiga yetkazishi uchun juda qulay vaziyat vujudga keladiki, bunda o'qituvchining bolalarni musiqani to'g'ri idrok qilishga tayyorlashi muhimdir. Bu jarayonni amalga oshirishda tafakkur, diqqat, xotira va emotsional ko'tarinki ruh yordamga keladi. Pedagogika va psixologiya fanlarida o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lumki, ijodiyotni shakllantirishning barcha turlariga bu narsalar bevosita aloqadordir, qolaversa butun ta'lim jarayonini bularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Musiqacha darslarida xotirani kuchaytirish va rivojlantirishning asosiy prinsiplaridan biri darslarni soddadan-murakkabga, quyidan-yuqoriga qarab borish prinsiplariga asoslangan holda uyushtirishdir.

Qo'shiq aytish san'ati vokal-xor malakalariga ega bo'lishni talab etadi va quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

1. Kuylash jarayonida to'g'ri o'tirish yoki turish.

2. To'g'ri nafas olish.

3. Ohangdoshlikni his etishga erishish.

4. Boshqa o'quvchilarni tinglagan holda kuylash (ansamblga erishish) va hokazolar.

Jamoa (xor) bo'lib qo'shiqni kuylash oldidan va uni kuylash jarayonida musiqiy savodxonlik komponentlarini tashkil etuvchi bir qancha vazifalarni amalga oshirish lozim, chunonchi:

-qo'shiq haqida dastlabki emotsional taassurotlar hosil qilish (qo'shiqni tinglab ko'rish orqali);

-qo'shiqni musiqiy tahlil qilish (o'lchov, temp, ritm, janr va hokazolarni aniqlash);

-qo'shiqning so'zlari ustida ishlash;

-qo'shiqni kichik bo'laklarga bo'lib o'rganish;

-qo'shiqni bir necha marotaba qaytarish orqali mustahkamlash;

-asarning musiqiy-badiiy obrazini tinglovchiga etkazib kuylash (musiqiy harakatlar, emotsional tuyg'ular orqali).

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchi eng avvalo tanlangan qo'shiqning yaratilishi haqida qisqacha ma'lumot berishi va ushbu qo'shiqni ma'lum cholg'u asbobi jo'rligida ifodali kuylab berishi lozim. O'qituvchi qo'shiq ustida ishlaganda, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Yuqoridagi vazifalarni hisobga olgan holda qo'shiq kichik bo'laklarga bo'linib o'rgatiladi. So'ngra bir butun qilib frazalar, jumlar bo'yicha qo'shiladi. Qo'shiqni bir butun kuylaganda o'quvchilar o'qituvchining ijrosiga suyanadilar. Bu vazifalarni o'quvchilarning bilim doyrasini, ya'ni kuylash madaniyatini shakllantirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. O'quvchilarda kuylash malakalarini shakllantirish jarayoni bir xilda kechmaydi. Bu jarayon ma'lum qonuniyatlarga bo'ysungan holda maqsadga muvofiq ravishda, amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinflarda kuylash malakalarini shakllantirishning quyidagi uch bosqichga bo'lishimiz mumkin:

1. Oddiy elementar kuylashni o'rganishga erishish.

2. Oddiy mashqlarni mustahkamlash va rivojlantirish.

3. Hosil bo'lgan kuylash mahoratidan samarali foydalanish.

Shakllanishning ilk bosqichlaridanoq o'quvchilar kichik diapazonda bo'lsa ham, sof, toza va ifodali, dinamik belgilarga rioya qilgan holda kuylashga harakat qilishlari kerak. Kuylaganda, og'izni to'g'ri ochish, nafasni to'g'ri olish, kuylash talaffuzini yaxshilash, ovoz tembrini yorqinroq hamda yumshoqroq qilishga erishishlari lozim.

Birinchi bosqichni amalga oshirishda musiqa o'qituvchisining ushbu malakalarning bir-biriga bog'liqligini ta'minlashga erishishi muhim hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning tovush pardasiga og'irlik tushmasligi va ularning ovozlari charchab qolmasligi uchun qo'shiq aytish faoliyatini boshqa faoliyatlar bilan almashtirib turishi lozim.

Ikkinchi bosqichda asosiy o'quvchilarning kuylash malakalarining barcha qirralarida ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi. Nafas yo'llarida erkinlik hosil bo'ladi, ovoz tembri yorqinlashadi musiqiy xotira, eshitish, ladni his etish qobiliyati, diqqat rivojlanadi.

So'nggi bosqichda kuylash malakalarini rivojlanganlik darajasi yuqori bo'ladi. Jarangdorlikning sof va ifodali bo'lishi, ovoz hosil bo'lish usulining mustahkamlanishi, ovoz tembri sifatining yanada oshishi, ovoz diapazonining sezilarli darajada kengayishi, kuylashda talaffuzning hamda nafas olishning to'g'ri, ravon va to'la shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichda o'quvchilar chuqur musiqiy his-tuyg'u va musiqiy to'g'ri kuylashga ehrishgan bo'ladilar. Bu davrda o'qituvchi katta diapazonli, sakrashlar ishtirok etgan mashqlardan foydalanishi mumkin. Kuylash malakalarining o'zaro uzviyligi paydo bo'lishi Shu bosqichga xos omillardandir. Masalan, musiqiy eshitish qobiliyatining rivojlanish darajasi ovoz tembrining sifatiga, ovoz hosil qilish usuliga va boshqa malakalarga ta'sir qiladi.

Tabiiyki, o'quvchilarda kuylash malakalarini shakllantirishning o'z qiyinchiliklari bo'ladi. O'quvchilar hali berilgan asarni to'la tahlil qila olmaydilar, dastlabki mashqlarda qo'lga kiritilgan yutuqlarni keyingi mashqlarda ishlata olmaydilar, kuylash malakalari orasidagi bog'liqlikni to'liq ko'ra bilmaydilar. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etishda o'quvchilarning musiqa tinglash va kuylash ijodiyotini to'g'ri tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Kuylash malakalarini shakllantirishda qayta kuylash mashqlari usulining maqsadga muvofiq ravishda bajarilishi muhimdir. Qayta kuylash usulining ikki sharti mavjud:

1. O'quvchi kuylayotganda o'z oldiga aniq bir maqsadni qo'yishi kerak.
2. O'quvchi nimaga ehrishganini, har bir mashqning qanday natija berganini, qanday xatolarga yo'l qo'yilganini bilishi lozim va kelajakda ushbu xatolarni bartaraf etishga harakat qilishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan shartlarni bajarish musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshiradi va kelajakda yangi usul va uslublar ishlab chiqarishga zamin yaratadi. Buning uchun biz musiqiy tarbiya tizimini yaxshiroq anglashimiz zarur.

Har bir dars o'z xususiyatiga ko'ra takrorlanmas va bir-biriga o'xshamaydigan bo'ladi. Darsning har bir faoliyati, metodlari, maqsadi va vazifalari erishilmoqchi bo'lingan natijalar avvaldan tuzib chiqilgan bo'ladi.

qisqa vaqt ichida darsni tashkil etish uchun 3-sinf misolida bir aralash dars turining rejasi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

Dastlab darsning maqsadi belgilanadi.

I Darsning maqsadi:

1) Ta'limiy maqsad - intonatsiya ustida ishlash, yangi mavzuni tushuntirish, yangi qo'shiq o'rgatish, dars jarayonida avval o'tilgan mavzularni mustahkamlash va dars mobaynida ulardan unumli foydalanish.

2) Tarbiyaviy maqsad - o'rganilayotgan qo'shiq orqali o'z Vataniga, xalqiga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish, o'z milliy musiqasiga, milliy urf-odatlariga hurmat va faxrlanish hissini uyg'otish.

3) Rivojlantiruvchi maqsad - mustaqil fikrlay olish, o'z fikr-mulohazalarini bayon eta olish, boshqa o'quvchilarning xato va kamchiliklarini to'g'ri topib, ularni tuzata olish.

4) Shakkllantiruvchi maqsad - musiqiy qobiliyatni, eshitib aniqlash malakalarini, to'g'ri o'tirish, qo'shiq kuylaganda to'g'ri nafas olish, ovoz apparatidan qoidagidek foydalanishni, musiqiy did va dunyoqarashni shakkllantirish.

II Darsning turi: bahs-munozaraga asoslangan intellektual o'yin.

III Darsning ko'rgazmaliligi:

Darslik va qo'shimcha adabiyotlar, cholg'u asboblari (pianino, rubob, akkordeon...), magnitofon yoki gramplastinka, kartochka va plakatlar.

IV Darsning rejasi:

1) Musiqa ohangi ostida o'quvchilar sinfga kiradilar va joylariga o'tiradilar. (o'rganilishi yoki eshutilishi kerak bo'lgan qo'shiq bo'lsa yana ham yaxshi).

2) Eshitilgan musiqa yuzasidan fikr-mulohazalar almashinadi. (musiqiy asarning muallifi, qanday janrga xosligi, tempi (sur'ati), ritmi (usuli), tonligi va hokazo).

3) Yangi mavzu: «Tonika».

Kuyning tayanch nuqtasi - tonikadir. Har bir tonlikda tonika mavjud. Musiqiy asarlar o'z yozilgan tonligining tonikasida tugaydi va hokazo.

4) O'rganishimiz kerak bo'lgan «Ota-onalarga» qo'shiqini tinglaymiz. O'quvchilar qo'shiq borasidagi o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar. qo'shiqning kompozitori haqida o'qituvchi so'zlab beradi. Yangi mavzuga bog'lagan holda o'qituvchi o'quvchilarga asarning tonikasini topishni vazifa qilib beradi.

5) Qo'shiq o'rganib kuylaymiz. (Ovoz sozlovchi mashqlar bilan ovoz sozlanadi, qo'shiq kichik jumalarga bo'lib o'rganiladi).

6) O'qituvchi o'quvchilar bilan qo'shiqni musiqiy (tonligi, o'lehoivi, tempi, dinamikasi va boshqalar) va mazmuniy (ota-onaga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'ulari va hokazo) jihatdan tahlil qilib, o'quvchilar fikrlarini to'ldiradi va qo'shiqning tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi.

V. Darsning borishi: musiqiy ta'lim an'anaviy shaklda (o'quvchilarni davomatini tekshirish, uyga berilgan vazifani tekshirish, qo'shiq o'rgatish, musiqa tinglash, musiqiy savodxonlik) olib boriladi. So'ng o'qituvchi yuqorida belgilangan rejaga asosan darsni olib boradi. Dars so'ngida uyga vazifa berilib, faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi. Faol qatnashgan o'quvchilarning aniqlash uchun yordam sifatida, har bir to'g'ri javob uchun o'quvchiga rag'batlantiruvchi kartochkalar berib borish darsning samarasini oshiradi.

Yuqorida berilgan dars ishlanmasi bir darsning ko'rinishi bo'lsada, biz bundan tashqari boshqa usuldagi, masalan, konsert darslari (barcha o'rganilgan qo'shiqlar o'quvchilar ijrosida tinglanadi va baholanadi), kontrol darslar (barcha o'rganilgan mavzular musobaqa tarzida (qatorlararo) savol-javob qilinadi), «kim to'g'ri topadi» darslari (ijro etilgan kuyning nomi, muallifi, tempi, qanday jamoa uchun yozilganligi va hokazo topiladi) va shu kabi dars shakllaridan ham foydalanishimiz, yangilarini izlab topishimiz mumkin. Bunday yondoshuv o'quvchilarni barchasini darsda faol qatnashishga, ularning aksariyatini bir darsda baholashga keng imkoniyat yaratadi.

Musiqa madaniyati darslarining samaradorligini oshirish uchun mazkur predmet xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan didaktik prinsiplarga asoslanadi.

Darslarga qo'yiladigan didaktik talablar tizimida qo'llaniladigan metodikaning aniq va tushunarli bo'lishi, avvalgi o'tilgan darslar bilan hozirgi darslarning uzviyligi, darsda o'tiladigan mavzuga mos material tanlash, dars o'tishda samarali usul va uslublardan foydalanish, darsni tashkil eta bilish, jamoa, guruh va individual ishlash usullarini umumlashtirish, dars jarayonida har bir o'quvchining individual xususiyatini hisobga olish, musiqa madaniyati darslarini boshqarish, turli xil darslar yordamida darslarning mazmunini boyitish, beriladigan vazifalarni to'g'ri baholash, o'qituvchining darsga tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Notaga qarab kuylash (solfejio)

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida notaga qarab kuylash murakkab jarayondir. Solfejio - italyancha solfeggio - notalar, musiqa belgilari, gammalarni kuylash - eshituv malakasini yuksaltirish va notaga qarab ularni tez o'qishni o'rganish uchun o'tkaziladigan vokal mashqlardir. Solfejio - musiqa asarlari va turli xil musiqiy mashqlarni notaga qarab, nota nomini aytib kuylash tariqasida olib borilishi mumkin. Solfejio termini sol-fa

nota nomlaridan olingan. U o'qituvchidan darslarni tizimli va izchil ravishda olib borishni talab qiladi. Agar o'quvchilar sinfdan-sinfga o'tayotganlarida notaga qarab kuylash malakalarini asta-sekin, oddiydan-murakkabga qarab olib borsalar yuqori sinflarga o'tganda ular o'rganiladigan qo'shiqlarni bemalol notaga qarab kuylay oladilar. Notaga qarab kuylash - solfejio musiqa savodi bilan uzviy ravishda olib boriladi. Musiqa savodi notalar joylashuvi, uzunligi, sanalishi haqida o'rgatsa, solfejio orqali notalarni amalda kuylab ko'rish imkoniyati bo'ladi. Shuning uchun musiqa savodi va solfejio parallel tarzda olib boriladi.

Birinchi sinfdanoq o'quvchilar notaga qarab kuylash malakalarini egallashlari kerak. Buning uchun kuylanayotgan kuyning harakatini notaga qarab kuzatib borish lozim. Avvalam bor oson bo'lgan kichik musiqiy lavhalar berib boriladi. Notaga qarab kuylash uchun o'quvchilar notalar tizimini yaxshi bilishlari va ularni nota chizig'idan bemalol topa olishlari muhimdir. Notaga qarab kuylash yaxshi samara berishi uchun o'quvchilarga tanish bo'lgan, avval kuylangan yoki tinglangan kuyni berish ularni kuy harakatini kuzatishlarida qulaylik tug'diradi. Kuylashdan oldin kuyning o'lchovi, qanday uzunlikdagi notalar (butun, yarim, chorak, nimchorak...) ishtirok etganligi, kuyning tempi, tonligi aniqlanadi. Keyin shu tonlikda ovoz sozlash mashqlarini bajarish tonlikka moslashishga imkon beradi. Mashqlarda tonlikdagi turg'un va noturg'un bosqichlar aniqlanadi va aytiladi. Ko'rgazmali qurol sifatida bunday mashg'ulotlarda darslikdan tashqari, musiqiy kuy yozilgan plakatlar yaxshi natija beradi. Plakat hammaga ko'rinadigan joyga osib qo'yiladi. O'qituvchi boshchiligida o'quvchilar kuyning barcha notalarini baravariga aytadilar. Keyin o'qituvchi shu kuyni ohangi va o'lchovi bilan kuylab ko'rsatadi, o'quvchilar notaga qarab kuzatib turadilar. So'ngra hamma birgalikda notaga qarab kuyni kuylaydilar va bir vaqtda dirijyorlik qiladilar. Notaga qarab kuylashda dirijyorlik qilish, kuyning ritmidan chiqib ketmaslikka, metr hissini rivojlantirishga, notalar uzunligini to'g'ri sanashga yordam beradi. Solfejio malakalarini egallash o'quvchilarning musiqiy o'quvlarini o'stirishda, ularning amaliy ishida katta ahamiyatga egadir. Solfejio asosan, notanish bo'lgan kuylarni birinchi galdanoq notaga qarab kuylashni nazarda tutadi. Notanish kuyni notaga qarab kuylash uchun yozilgan kuyning ohangini fikran tasavvur qila oladigan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham musiqiy o'quvni o'stirish va musiqa tajribasiga yetarli darajada ega bo'lishlik uzoq vaqtini va muntazam ravishda mehnat qilishni taqozo etadi. Bunga musiqa savodini o'stirish musiqa adabiyotlari bilan tanishish, vokal-xor malakalarini egallash jarayonlarida erishiladi. O'quvchilar asta-sekin musiqiy nutqning balandligi, ladi,

metroritmik xususiyatlarini tushuna boshlaydilar, shuningdek ularda musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy xotira, musiqiy hissiyotlar paydo bo'la boshlaydi. O'qituvchi o'quvchilarga solfejio malakasini egallash bo'yicha mashg'ulotlarni 1-sinfдан boshlasada, 5-6-sinflardagina ko'zlagan maqsadga ehrisha oladi.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida notanish kuyni notaga qarab ijro etish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi doskaga nota misollarini yozadi. Keyin o'qituvchining savollari va o'quvchilarning javoblari asosida kuy tahlil qilinadi. Tahlil qilish o'quvchilar avval egallagan musiqiy-nazariy bilimlari ularning yoshiga mos ravishda o'tkaziladi. O'quvchilar tushunmagan elementlarni o'qituvchi tushuntirib beradi, o'quvchilar diqqatini asosiy mavzuga qaratadi.

Tahlil qilish jarayonida quyidagilar aniqlanadi:

1. Asar tonligi, ladi.
2. Asarning o'lchovi.
3. Asarda uchraydigan dinamik belgilar.
4. Kuyning ritmik tuzilishi (notalar cho'zimi, pauzalar, asarning qaysi hissidan boshlanishi va hokazo).
5. Asardagi jumlarlar, nafas olish uchun qulay bo'lgan taktlar.

Ana shundan keyin solfejio, ya'ni nutqlashga o'tish mumkin. Boshlang'ich sinflarda solfejio uchun mashqlar asosan Do major gammasida beriladi. Chunki bu tonlik eng oson va kuylash uchun qulaydir. Solfejiolash uchun mashqlarni solfejio darsliklaridan topish mumkin. Bunday darsliklarda oson misollardan boshlab murakkab mashqlargacha mavjud bo'lib, u yerda o'quvchilarning yoshi va o'zlashtirish darajalari hisobga olingan bo'ladi. O'quvchilar sinfdan-sinfga o'tganlari sari ularga beriladigan mashqlar ham tonligi, o'lchovi, ladi va boshqa xususiyatlari jihatidan murakkablashib boradi.

Ayrim hollarda mashqlar ritmi tez bo'ladi. Bunday hollarda o'qituvchi mashqlarni avval sekin tempda boshlab keyin sekin-asta tezlashtirib borishi kerak. Agar o'qituvchida metronom bo'lsa, u holda u bemaol ko'zlagan tempga erishishi mumkin. Musiqiy asarni avval mo'tadil tempda kuylash kuyni yaxshiroq eshitish, to'g'ri sanash, nafasni to'g'ri olish, aniq dirijyorlik qilish imkonini beradi. Solfejio uchun mashqlar tanlashda o'qituvchi o'quvchilarning ovoz diapazonini, nafas olish malakalarini hisobga olishi lozim. Nutqlashda baqirmasdan, ovozni zo'riqtirmasdan, har jumlaning oxirida nafas olib mayin ovoz bilan kuylashni o'qituvchi nazorat qilib turmog'i darkor. Solfejio mashqlar 1-sinfning ikkinchi yarmidan boshlanib 7-sinfning oxirigacha davom etadi.

O'quvchilarni kuylashga o'rgatishda, ularni solfejio malakasini egallashlariga erishish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o'quvchilarning musiqiy saviyasini oshirishdagi yetakchi omillardandir.

Musiqiy-ritmik harakatlar faoliyati

O'quvchilarning har tomonlama musiqiy rivojida: musiqiy-ritmik harakatlar boshqa faoliyat turlari kabi muhim ahamiyatga ega. Ularda musiqiylik, ijodiylik qobiliyatlari rivojlanadi, jamoa bo'lib harakat qilish malakalari shakllanadi. Musiqiga mos harakat bajarishning tarbiyaviy ahamiyati – ritm hissi faollashadi, musiqiy materialning o'zlashtirishi chuqurlashadi, harakatlar bajarish musiqiy obraz rivojini kuzatishga yordam beradi, musiqiy asar obraziga xos fazilatlar shakllanadi.

Musiqani diqqat bilan tinglab o'z hissiyotlarini harakatlarda ifodalash imkoniyati o'quvchining o'z harakatlarini nazorat qilish qobiliyatiga ta'sir etadi.

Musiqiy-ritmik harakatlar jamoaviy faoliyatlardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yurish, yugurish va sakrashda harakat koordinatsiyalari juda yaxshi. Musiqa sadolari ostida o'zlari maroq bilan: qarsak chaladilar, oyoqlari bilan to'pillatadilar, turli buyumlar bilan, xususan, koptok, tayoqchalar, lentalar, sun'iy gullar, oddiy musiqa asboblari bilan ifodali harakatlar bajaradilar. Musiqa va harakat birligini his qilish ularga xosdir. Bu sifat esa - bolalar musiqiy-ritmik harakat faoliyatida musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy hisoblanadi. Vaqtning chegaralanganligi va maxsus xonaning yo'qligi sababli musiqa darslarida harakatlarni bajarish noqulaydir. Ular bu faoliyatni, xususan ayrim raqs elementlarini o'tirgan yoki turgan holda bajarishlari mumkin. Musiqiy-ritmik harakatlar ham boshqa faoliyat turlari kabi o'quvchilarda har tomonlama musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, jumladan:

- musiqiy ritm hissini;
- ijodiy qobiliyatlarni;
- jamoa bo'lib harakat bajarish malakalarini shakllantiradi.

Musiqa ostida harakatlar bajarish bolalarda ritm hissini faollashtiradi. Bu esa darsning musiqiy materialini yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Bu o'z navbatida tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Harakatlar yordamida o'quvchilar asarning xarakter xususiyatlarini ko'rsata oladilar.

Musiqiy-ritmik harakatlar faoliyati asosida musiqiy materialni plastik jihatdan qayta ishlashdir. U musiqaning emotsional ta'sirini kuchaytiradi.

Bularning hammasini musiqa, uning xarakteri, kayfiyati bilan harakatning uyg'unlashtiruvchi ko'nikma va malakalarni singdirilishi oqibatida yuz beradi va maqsadga erishiladi.

Ritmik harakatlar yordamida musiqa shakllari, musiqiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi taassurotlar mustahkamlanadi. Ritm hissini rivojlantirishga harakat xarakteri va yo'nalishini o'zgartirish orqaligina erishish mumkin.

Musiqiy asarlar, qo'shiqlarni sahnalashtirish ifodali harakatlar orqali nafaqat musiqiy-eshituv taassurotlari rivojlanadi, balki ijrochilik qobiliyatlari, badiiy didlari shakllanadi. Agarda ularga mustaqil harakat o'ylab topish vazifasi yuklatilsa; ular musiqaning obraziga, xarakteriga mos o'zlari harakat o'ylab topadilar va bajaradilar. Odatda sahnalashtiruvchi raqslarga dasturli musiqa tanlab olinadi, chunki uning mazmuni va harakatlarning ketma-ketligi ayon bo'ladi.

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda mos harakatlarni topadilar. Bajarish vaqtida o'qituvchi bolalarga yordam beradi, yangi harakatlarni to'g'ri va ifodali bajarish kerakligini tushuntiradi, ko'rsatib beradi.

Harakatlarni o'rgatish jarayonida kirish so'zi, tushuntirish, she'riy matndan foydalaniladi.

Harakatlarning yorqin taqqoslanishi o'quvchilarni ushbu harakatlarni to'g'ri va ifodali bajarishlariga yordam beradi.

Musiqa ostida harakatlarni takomillashtirish paytida texnik vositalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa o'quvchilarni o'ziga tanish bo'lgan kuylarni yangicha yangrashi bilan tanishishlari, o'qituvchiga esa harakatlarni aniq bajarishini ta'minlash imkonini beradi.

Musiqa va harakat uyg'unligi insonning ma'naviy va jismoniy rivojini o'zaro bog'laydi va barkamollikka yo'naltiradi, deb aytish mumkin. Musiqa va harakatning o'zaro bog'liqligi masalalari ko'p marotaba psixologiya, pedagogika, fiziologiya, musiqashunoslikda ko'rib chiqilgan. Organizmning umumiy funksional faoliyatiga musiqaning ijobiy ta'sirini I.Sechenov, B.Teplovlar isbotlab berishgan. Musiqiy-ritmik tarbiya tizimini rivojlantirish masalalari bilan N.Aleksandrova, M.Rumer, E.Konorova, N.Vetlugina, M.Palavandishvili kabilar shug'ullanib kelganlar. Shu o'rinda XX asrning boshlarida ko'p mamlakatlarda shveysariyalik musiqachi, pedagog E.Dalkroz tomonidan asos solingan ritmik tarbiya tizimining keng tarkalganini aytish joiz. E.Jak Dalkroz metodi - maxsus tanlab olingan mashqlar asosida bolalarda musiqiy eshituv, xotira, diqqat, ritm tuyg'usi, plastik ifodali harakatlarni rivojlantirishga asoslangan.

Musiqiy-ritmik harakat faoliyati o'zaro bog'langan uch yo'nalishni o'z ichiga oladi:

Birinchisi musiqiy rivojlantirishni ta'minlaydi, ya'ni musiqiy eshituvni o'stirish, harakatni musiqaga moslash ko'nikmalarini shakllantirish, musiqiy bilimlarning o'zlashtirishi; musiqiy va musiqiy eshituvni rivojlantirishni ta'minlaydi, harakatni musiqaga bo'ysundira olish malakasini shakllantiradi, musiqiy bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Ikkinchi yo'nalish to'g'ri harakat ko'nikmalarini hosil qiladi: yurish (marshona, shaxdam, tetik, xotirjam, sportcha, tantanavor, keskin prujina yurish va hokazo); qadam tashlash (baland, oyoq uchida, keng, yumshok, prujinali, xorovodli va hokazo); sakrashlar (yengil, harakatchan); aylanishlar; qo'l harakatlari (mayin, ohista, harakatchan); chapaklar (sekin, qattiq, past, baland, qo'l siltab, bir-biriga yaqin ushlab turib, sirg'anuvchi «likopchalar», kaftlarni yaqin tutgan holda sirpanma harakatlari); raqs elementlari (o'zbek xalq raqsalaridan «oyna», «arqon», «elka uchirish», «koptokni yuqoriga ot», chapak va yon tomonga qo'l harakati, ball, polka, golop, valsqa o'xshash raqs elementlari va hokazo.); oyoq uchida aylanish, prujinali qadam bilan sakrashning uyg'unligi; qo'l harakatlari (mayin, keskin); turli holatlarda turish va o'zgartirish; buyumlar bilan harakat bajarish (koptok, lentalar, bayroqchalar bilan)ni o'z ichiga oladi.

Uchinchi yo'nalish o'quvchilarda tana harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan (aniq va tez to'xtash, harakatni o'zgartirish va hokazo).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlarni e'tiborga olgan holda o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotganida tanlayotgan asari mavzu jihatdan, harakatlanish malakasi dars mavzusiga mos bo'lishi, aniq musiqiy-eshituv taasurotlarni, musiqiy bilimlarni chuqurlashtiradigan va mustahkamlaydigan, ijrochilik malakalarini rivojlantiruvchi bo'lishi zarur. Dars boshida va o'rta qismida qanday harakatlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar tomonidan harakatning sifatli va aniq bajarilishi musiqiy obrazning tushunishlari hamda o'qituvchining asarni ifodali ijrosiga bog'liqdir.

O'qituvchi o'quv materialini yoddan bilishi kerak. Harakat paytida u o'quvchilarni kuzatishi, ko'rishi va xatolarini tuzatishi zarur. O'quvchi barcha harakatlarni avval o'zi ko'rsatib berishi zarur, ayniqsa 1-2 sinflar uchun. Chunki birgina tushuntirish bilangina kerakli natijaga erishib bo'lmaydi. Harakatlarni ko'rsatish musiqaga bo'lgan emotsional hissiy munosabatni faolashtiradi.

Darsda musiqiy-ritmik faoliyatni tashkil etishda o'qituvchining tayyorgarligi

Darsga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi musiqiy materialni dars mavzusiga mos holda tanlaydi. Mavzu, harakat ko'nikmalari aniq musiqiy eshitish vositasidagi tasavvurini (masalan, tembr yoki registr va hokazo) va musiqiy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi lozim. O'quvchilar tomonidan bajariladigan harakatlar sifati tinglangan musiqiy asarning idrok etish darajasi hamda o'qituvchining ifodali ijrosiga bog'liq. Ijro qilinayotgan asarni o'qituvchi yoddan chalishi kerak, chunki harakatlar bajarilishi vaqtida o'qituvchi o'quvchilarni kuzatib turishi, xatolarini tuzatishi lozim.

O'qituvchi barcha harakatlarni o'rgatish jarayonida obrazli so'z, tushuntirish, she'riy matndan foydalanish maqsadga muvofiq. Harakatlarni tushuntirishda yorqin taqqoslashlar o'quvchilarga harakatlarni to'g'ri va ifodali bajarishga yordam beradi. Masalan, «Mening jajji toychoq'im» so'zlari bolalarga tez, yengil, harakatchan, baland qadam tashlash va sakrama harakatlarining ifodaviyligini aniqlashda yordam beradi. Bu esa M.Otajanovning «Toychoq» asari mazmunini, undagi musiqiy obrazning rivojlanishi xususiyatlari, asarning shaklini his etish va ongli tushunish imkonini beradi.

Musiqaga harakatlar bajarishda o'qituvchining texnik vositalaridan keng foydalanishi lozim. Bu o'quvchilarni ularga tanish bo'lgan asarni yangi talqinda, jaranglashda ko'rsatib berish, o'qituvchiga o'quvchilar bajarayotgan harakatlarning sifatini kuzatish, lozim bo'lgan joylarda o'zgartirishlar kiritishga imkon yaratadi.

Darsda harakatlarni qo'llash uslublari

Musiqiy-ritmik harakatlar bolalarning badiiy tajribasiga aylanishi, badiiy rivojlanishini boyitishi uchun o'quvchilarni bu faoliyatga tayyorlash, eng avvalo, harakat malakalari haqida tasavvurga ega qilish lozim. O'quvchilar xonada musiqa ostida qadam tashlash, yengil yugurish, har tomonga tarqalish kabi boshlang'ich malakalarini egallaydilar. Musiqiy signal - belgilarga (harakatni boshlash, o'zgartirish va hokazo) javoban harakatlanishni o'rganadilar. Masalan, barabanning jaranglashi o'rinlaridan turib saflanishga signal bo'lsa, D.Nazarovning «Yurish marshi» kuyining boshlanishi qadam tashlab turgan joyda harakatlanishga, kuyga

uchburchakning jo'rligi qo'shilgan joyda esa sakrashga o'tishni ko'rsatishi lozim.

Musiqiy-ritmik harakatlar bolalarni badiiy jihatdan boyitilishi uchun bolalarni shu faoliyatga tayyorlash kerak. Shuning uchun o'quvchilar avval harakatlanish malakalari haqida taassurot olishlari zarur. Ular xonada musiqa ostida marsh yurishni, yengil yugurishni, shartli musiqiy signallarga bo'ysunishni o'rganadilar.

O'quvchilar aniq mo'ljal uchun berilgan mashqlarni o'zlashtirganlaridan so'ng, darsga maxsus vazifalar kiritiladi: musiqiy obrazning xarakter xususiyatlarini harakatlarda ko'rsata olish, bajara olish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan: turli xarakterdagi marshlar orqali turlicha harakatlanishni o'rganadilar: sportdagi marshda - tetik, o'yinchoqlar marshida - yengil, oyoq uchida; harbiy marshda -baland qadam bilan va hakoza.

Bunda S.Abramovaning «Marsh» kuyidan foydalanish mumkin.

O'qituvchi harakat uchun mashqlar va sinfga kirish uchun nafaqat marshlardan, balki tetik, tantanovor kayfiyatdagi asarlarni ham ishlatishi mumkin. O'zbek xalq kuyi «Qari navo» ostida sinfga kirib kelish mumkin.

Eng oddiy raqs harakati elementlari bu - qarsak va oyoq to'pillatishdir. Ularning yordamida o'quvchilar o'z taassurotlarini mustahkamlaydilar.

Harakatlarda ritmik suratni o'zlashtirishga katta ahamiyat berish kerak. O'quvchilarning diqqatini to'xtamlarga, bir tekis harakatning o'zgarishiga, marsh musiqasining punktir ritmiga qaratish kerak. Buni masalan, «Kim yurayapti?» degan o'yin yordamida o'rgatish mumkin. Bu yerda bolalar bir necha guruhga bo'linadilar: birinchi guruh - «Turnalar» musiqasiga yura-yura bir oyoqda to'xtaydi; ikkinchi guruh - «Poezd» musiqasi ostida harakat-yurish tezligi oshadi va asta-sekinlik bilan to'xtaydi; uchinchi guruh - «Qurbaqalar» musiqasi ostida sakrab yurishadi. Shunday o'yinlarni qo'llasak, bolalarda ritm hissi foallashadi, musiqani yanada chuqurroq tinglash malakasi oshadi.

Harakatlar yordamida bir qancha musiqiy taassurotlarni shakllantirish mumkin, xususan, ikki, uch hissali o'lchovda. 2/4 o'lchamidagi musiqaga joyda turib oyoq uchida ko'tariladilar va tushadilar. 3/4 o'lchamidagi musiqaga esa, «birinchi» hissaga tushadilar, «uchinchi» hissaga ko'tariladilar. Bolalar bu harakatlarni o'zlariga tanish bo'lgan musiqa sadolari ostida bajaradilar (polka va vals). Bolalar «musiqiy badantarbiya» yoki «o'z raqsingni bilib ol» o'yini orqali o'ynashlari ham mumkin.

Har bir guruh o'z raqsiga mos ritmda harakat bajaradilar. O'qituvchi esa musiqaga mos, ritmik va xarakterini aniq ifoda eta olgan guruhni aniqlaydi

va rag'batlantiradi. Musiqiy ritmik faoliyatda nafaqat milliylikni rivojlantirish, balki harakatning madaniyligini, bolalarning badiiy didini rivojlantirish ham nazarda tutiladi.

O'qituvchi musiqiy materialni tanlayotganida, qaysi tayyor asarni olish mumkinligini va qaysilarini badihago'ylikka berish kerakligini aniqlashi kerak.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning tashabbuskorlarini qo'llab-quvvatlash zarur, o'z raqsiga o'ylab topgan harakatlarni asar xarakteriga mos va unga xos xususiyatlari mujassam bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda musiqiy-ritmik faoliyat quyidagicha maqsadga muvofiq rejalashtiriladi.

Birinchi sinfda o'qituvchining faoliyati bolalardagi maktabgacha muassasadagi tajribalarini yanada faollashtirish, shuningdek, harakatlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak:

- a) raqs elementlari
- b) jismoniy tarbiya elementlari.

Bu yoshdagi o'quvchilar harakatlarni o'zlari o'ylab topadilar. Keyin esa o'qituvchi harakatlarning ifodali bajarilishiga e'tibor qaratadi, chunki bolalar harakatlarni musiqa bilan aloqasini tushunishlari, ularga tanish bo'lgan musiqiy o'yinlardagi harakatlarni qo'llay olish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar musiqaning xarakter va ifoda vositalarining o'zgarishini aniq sezishlari kerak. Musiqiy nutq elementlari, ifoda vositalari haqidagi taassurotlar ijodiy vazifalarda mustahkamlanadi.

Birinchi sinf musiqa darsida musiqiy-ritmik harakatlarni tashkillashtirishda - bosh o'rinni o'yinlarga ajratish lozim. O'yinlar bolalarni musiqa bo'lgan qiziqishini orttiradi, musiqiy obrazni qabul qilishga yordam beradi.

Ikkinchi sinfda - darsdagi musiqiy-ritmik faoliyat o'quvchilarni avvalgi malakalarini yanada murakkabroq harakatlar orqali mustahkamlashga qaratiladi. Tanish bo'lgan harakatlarni raqslarda ijodiy ishlata olishni shakllantirish ham kiradi. Marsh va raqs harakatlarini bajarishdagi malakalari musiqadagi kuchli va kuchsiz hissalarini farqlashga, ikki ritmik birlikning muttanosibligini, nota yozuvini o'rganishga yordam beradi.

Uchinchi sinf o'quvchilarida o'zgargan qismlarda harakatlarni o'zgartirish malakasi mavjud bo'ladi. Musiqiy rivojlanish qonuniyatlarini va musiqiy shakllarning tuzilishini o'rganish jarayonida musiqiy jumlar ishlatiladi. Raqsning, qo'shiqning, marshning ritmik xarakterni ajratish,

cho'zimlarini bo'g'inlar yordamida belgilash («ti», «ta» va boshqalar), nota yozuvida ko'rsata olish, musiqiy intonatsiya haqidagi tushunchani o'zlashtirishga yordam beradi.

To'rtinchi sinfda - improvizatsiya va folklor - qo'shiq materiallari, xalq musiqasining xususiyatlari haqidagi taassurotlar keng ishlatiladi. Bu yoshdagi bolalar milliy raqs elementlari bilan tanishadilar. Ularning ritmik intonatsiyalari jihatdan o'ziga xosligidan o'quvchilar alohida millat musiqa «tili» ni, uslubini tushunib oladilar.

Ilk bosqichda o'quvchilarda aniq musiqiy taassurotlarni shakllantirish o'yin shaklida o'tkaziladi.

Musiqiy o'yinlarda bolalar xona bo'ylab harakatlanishni, shartli musiqiy signallarga ahamiyat berishni, tovushlarni balandligini, qattiqligini, oddiy musiqa cholg'ularining tembriga qarab farqlashni o'rganadilar. Xususan, doyraning bir tekis urilishiga bolalar yugursalar, kichik uchburchakning tovushiga to'xtaydilar.

Bolalarni yengil yugurishga, yo'nalishni tezda o'zgartira olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'yin davomida cholg'ular o'rtasidagi masofani o'zgartiradi, ya'ni doyrani ma'lum vaqtgacha urib turadi yoki kamroq uriladi. Bu esa bolalarning eshituv diqqatini oshiradi, cholg'ularning tembriga bo'lgan munosabatini (reaksiyani) mustahkamlaydi. Ammo o'qituvchi bolalar oldiga vazifa qo'yayotganida dinamika haqida bolalarga tushuntirishi kerak: qattiq zarblarga yurish, xuddi «ayiqqa» o'xshab borish; sekin zarblarga - yengil «qushlar»ga o'xshab qo'llarini qanot qilib oyoq uchida yugurish va hokazo.

O'qituvchi o'yin davomida o'quvchilarni kuzatishi kerak, harakatlarni ritmik aniq, bolalarning qaddi-qomati to'g'riligiga ahamiyat berishi kerak. O'yinga turli xarakter o'zgarishlar kiritilishi unga quvnoq, qiziqarli tus beradi. Bunday mashqlar va o'yinlar uchun o'qituvchi o'z xohishiga qarab musiqa tanlaydi, lekin dastur bo'yicha bo'lishi shart.

Agar birinchi harakatlanuvchi mashqlar o'quvchilarda musiqiy hodisalarning xarakterni aniqlash bo'lsa, keyingisida aniq musiqiy-eshituv taassurotlarini shakllantiruvchi mashqlar bo'lishi kerak.

Bunday boshlang'ich mo'ljal olish mashqlaridan so'ng, dars jarayonida o'quvchilarga harakatlarda musiqiy obrazning xarakter xususiyatlarini ko'rsatib berish ko'nikmalarini shakllantirish uchun vazifalar beriladi. Masalan, marshlar turiga qarab harakat qilish: sport marshiga - shaxdam, bayram marshiga - tantanavor, soldatchalar marshiga - baland qadamlar tashlab harakatlanish; raqs musiqalarini ohang xakteri va tempiga qarab turlash orqali qo'l, bilak va elka harakatlarini asarga mos holda «o'ynatish»:

yengil raqs («Bahor keldi»), o'ynoqi raqs («Ufor»), Xorazmcha raqs («Lazgi»), ohista, ravon, Mayin raqs («Bahor valsi») va hokazo.

Chapaklar, qarsaklar, oyoq dupillatishlar harakat elementlarining eng oddiyalaridir. Ular o'qituvchiga kuy ritmlari, nota cho'zimlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, o'zbek xalq kuylari «Do'loncha» va «Chertmak» asarlariga chapakda jo'r bo'lish orqali bolalar «Do'loncha» kuyidagi tovushlar cho'zimi «Chertmak» kuyidagi cho'zimlarga nisbatan qisqaroq ekanligi hamda qisqa tovushlar yugurish uchun, uzunroq tovushlar qadam tashlashga qulayligini his etadilar. Bu kuylarning ritmik xususiyatlarini taqqoslab, o'quvchilar musiqa xarakteri va uning ifoda vositalari o'zaro bog'liqligini aniqlaydilar.

Musiqiy-ritmik harakatlarda tovush balandligini eshitishni shakllantirish

1. Bolalar ko'zlarini yumib, tovush balandligini cholg'uning tembrini bo'yicha aniqlaydilar. Harakat - ramzlar orqali javob qaytaradilar. Masalan: A.Muhamedovning «Shoxi so'zana» kuyidagi past tovushlarga oyoqlarini o'ynatadilar, baland tovushga - qo'l bilaklarini aylantiradilar; doyra tovushiga - shu cholg'u ijrosini ko'rsatadilar (Imitatsiya qiladilar).

2. O'quvchilar turadilar. Birinchi turgan bola koptokni oladi. Agar musiqa baland yangrasa, bola koptokni boshi orqali keyingi bolaga doyra bo'ylab uzatadi, agar past yangrasa, oyoqlari orasidan uzatadi.

3. O'quvchi tinglagan ohangining doskaga bo'r bilan chizadi. Keyin ikki yoki uch o'quvchi xuddi shuni hayolan doskaga chizadilar va harakat bilan ifodalaydilar. Bu mashqda D.Zokirovning «Gulxan» kuyidan foydalanish mumkin.

Musiqiy-ritmik harakatlarda ritm hissini oshirish

1. Bolalar doyra bo'lib yoki partada o'tiribdilar. M.Mirzaevning «Bahor valsi» kuyiga koptokni ushlagan bola choraktali cho'zimga koptokni u qo'lidan bu qo'lga o'tkazadi, yarimtalik cho'zimga doyra bo'ylab yoki partadoshiga uzatadi.

2. Bolalar xona bo'ylab yorqin kuyga yuguradilar, mayin, ohista musiqani tinglashlari bilan juft bo'lib aylanadilar.

3. «Aks sado» o'yini harakatlarda: ritmik suratni boshdan yuqorida, orqada oldida chapak bilan takrorlash, keyin oyoqlarni turgan joyda to'pillatish yoki yon tomonga chapak chalib oyoqlarni to'pillatish.

4. O'quvchilar vazifa oladilar: berilgan harakatga ritmik suratni chapak orqali ko'rsatish yoki kuylab berish. Avval o'qituvchi ritmik asosni harakatda ko'rsatadi, keyin esa o'quvchilar chapak yoki barmoqlarni qarsillatish orqali namoyon etadilar.

Harakatlar yordamida o'quvchilarda bir qator musiqiy-eshituv tasavvurlarini shakllantirish mumkin:

Ikki yoki uch hissali o'lchov haqidagi tasavvurlar.

1) Bunda o'quvchilar turgan holda 2/4 o'lchovidagi musiqaga oyoq uchida ko'tarilib va pastlab harakat bajaradilar;

2) 2/4 o'lchovidagi musiqaga kift va elkalarini boshga qarab ko'taradilar va o'z holiga tushiradilar

3) 3/4 o'lchovidagi musiqaga esa – birinchi hissaga yengil yarim o'tirgan holda harakatlanadilar va «uch»ga turadilar va hokazo.

Harakatli mashqlar.

1) Bolalar ko'zlarini yumib o'tiradilar va tovushlar balandligi yoki cholg'ular tembrlarini aniqlashga harakat qiladilar. Javoblarni bolalar harakatli belgilar yordamida ko'rsatadilar. Masalan, past tovushlarga oyoqlar «raqs tushadi», baland tovushlarga - qo'l bilaklari, doyra jarangiga bolalar doyrasida ijroga taqlid qilib ko'rsatadilar.

2) O'rta registrdagi tovush eshitilsa, bolalar ko'krak balandligida chapak chaladilar, baland registrdagi tovush chalinsa - boshlari uzra chapak chaladilar.

3) Ijodkorlikka qaratilgan mashq: 3 qismli asardagi registrnlarni taqqoslashda qo'llar yuqori registrga «raqs tushadilar», o'rta registrda esa - tanani harakatlantiradilar va hokazo, Bunda bir o'quvchining harakatlariga ikkinchi o'quvchi oddiy cholg'uda ritmik jo'r bo'lishi ham mumkin. Sinfga esa bu ijodiy vazifaning bajarilishini baholash topshiriladi.

Musiqi tempi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish

1) O'qituvchi chalayotgan yoki kuylayotgan turli tempdagi musiqiy asar ostida yurish yoki yugurish (sakrash);

2) Hayvonlar harakatiga taqlid: sekin harakatlanuvchi - fil, toshbaqa; tez harakatlanuvchi - tulki, quyon, it va hokazo.

Bunday va bunga o'xshash musiqiy-ritmik harakatlar yordamida o'qituvchi bir qator musiqiy tasavvurlar va bilimlar doyrasini (dinamika, musiqi shakli, musiqiy jumla, tovush yo'nalishi va hokazo) tarkib toptirishi boshlang'ich sinflarda musiqi o'qitish ishlarining samaradorligini oshiradi.

1. Yurish va yugurish turli tempdagi ijro. P.I.Chaykovskiyning «Yog'och soldatchalar marshi» bunday mashqlarda juda qo'l keladi.

2. Ijro etilayotgan musiqiy obrazga xos ravishda harakatlanish.

3. Bir o'quvchi bolalarga tanish bo'lgan harakatlanuvchi mashqlarni boshqarib turadi. Qolganlar esa mashqlarni takroran bajaradilar.

4. Hayvonlarga taqlidiy harakatlar: sekin-fillar, toshbaqalar, ayiq; tez-quyon, kuchuk, va boshqalar.

5. Musiqaning tezlashishi yoki sekinlashishi ostida harakatlarni o'zgartirish: yurishdan yugurishga, yugurishdan sakrashga va hokazo.

6. Musiqaning tezlashishi va to'xtashiga improvizatsiya, masalan: avtomobil, paravoz, arg'imchoq.

O'quvchilarga ular tinglanayotgan va kuylayotgan musiqiy asarlari mazmuni va xarakteriga mos keladigan raqs va musiqiy-ritmik harakatlarni tanlash, topish va mustaqil ijro etish taklif etilsa, bunday vazifalar ularda ijodkorlik qobiliyatlarini faollashtiradi, badiiy didni rivojlantiradi. Bu vazifalarni osonlashtirish maqsadida mazmuni va harakat ketma-ketligini namoyon qiluvchi qo'shiq va dasturiy musiqa asari qo'llaniladi. Sh.Najmiddinovning «Bolalar va g'ozlar», T.Toshmatovning «Ayiqpolvonlar bog'chasi», o'zbek xalq «Boychechak», T.Xusaylining «Jo'jalarim», A.Mansurovning «Piyoda askarlar qo'shiqi», P.Chaykovskiyning «Yog'och soldatchalar marshi» va hokazo asarlarini keltirish mumkin. O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda harakatlarni topadilar. Ijro paytida o'qituvchi bolalarga harakatlarda ifodaviylikka erishish, ularni yaxshiroq bajarish yo'llarini ko'rsatib boradi.

Musiqiy material tanlar ekan, musiqa o'qituvchisi qaysi asarda tayyor kompozitsiyasini qo'llash mumkin, qaysi asarni esa bolalarning o'zlari ijod qilib, harakat va raqs elementlarini topishlari uchun mo'ljallash kerakligini aniqlaydi. Bolalarda, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida ularda tashabbuskorlikni, qiziquvchanlikni qo'llab-quvvatlab, rag'batlantirib borish muhimdir.

Musiqiy dinamika haqidagi tasavvurlarni shakllantirish

1. Musiqa ostida dinamikani ko'rsata olish P ga - oyoq uchida yurish, F ga - tovonda yurish, P/F ga - dinamikaga xos kichik, o'rta, katta qadamlar bilan yurish.

2. Raqsda dinamikaning o'zgarishini qo'llar, bosh, elka va hokazolar bilan ko'rsata olish. Masalan: kaft-bilakni aylantirish, tirsak-qo'llarni aylantirish.

3. Musiqa ostida krishendo va diminuendoga qarab harakat bajarish: o'quvchilar doyra shaklida turib oladilar, agar tovush sekin-asta pasaya borsa, doyra torayadi, balandlasa kengayadi.

4. Gullar raqsini improvizatsiya qilish orqali bolalar musiqadagi dinamik o'zgarishlarni ko'rsatadilar, ya'ni gul o'sadi, ochiladi, so'liydi yoki quyoshga talpinadi, shamoldan to'satdan sinadi va hokazo.

Musiqiy-ritmik harakatlarda tovush kayfiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirish

1. Bolalar juft bo'lib turadilar, har bir bolada bittadan yumshoq koptok bor. Stakkato ijroga bolalar koptokni yerga (polga) uradilar, mayin, ohista kuyga u qo'ldan bu qo'lga o'tkazadilar. Bunda R.Shumanning «Jasur chavandoz» kuyidan foydalanishimiz mumkin.

2. O'qituvchi katta koptokni olib - stakkatoga-koptokni polga uradi, legatoga esa koptokni havoda yarim doyra yoki to'lqinsimon harakat qilib qo'llarida harakatlantiradi. Keyin esa bolalarga stakkato kuyga koptok misol sakraydilar, ligatoga qo'llarini havoda u tomondan bu tomonga «shamolda esayotgan navdalar» harakatini bajaradilar.

3. Mayin ohista kuy ostida bolalar juft bo'lib doyrada aylanadilar. Qisqa yorqin kuyni tinglashlari bilanoq qo'llarini qo'yib yuboradilar va toki legato kuy ijro etilmagunicha to'rgan joylarida yengil sakraydilar.

Musiqiy-ritmik harakatlar jarayonida taassurotni shakllantirish

1. Bolalar doyra bo'lib qo'llarini ushlab yuradilar, har bir musiqiy jumlagi yo'nalishlarini o'zgartiradilar. Bu vazifa birinchi o'qituvchi bilan birgalikda qo'shiq kuylash jarayonida o'tkaziladi, keyin esa musiqa ostida o'qituvchining yordamisiz bajariladi.

2. Bolalar doira bo'lib o'tiradilar. Chiqarilgan bir o'quvchi doira ichida koptok bilan musiqaga mos ravishda harakatlanadi. Musiqiy jumla yakunida u keyingi bolaga koptokni beradi va o'yin shunday davom etadi.

3. O'quvchi tinglayotgan musiqaning musiqiy jumlasini hayolan qo'llari orqali doskaga chizadi. O'quvchining harakatlari asar tempiga, xarakteriga mos bo'lishi muhim o'rin egallaydi.

4. Doskada yoki qog'ozda turli musiqiy fragmentlarning grafik chizmalar tasvirlangan bo'lib, bolalar tinglayotgan musiqaga mos chizmalarni tanlaydilar, keyin esa o'zlari shu musiqaga mos harakatlar o'ylab topadilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, musiqa madaniyati darslarida raqs va musiqali harakatlarga alohida e'tibor berishimiz kerak. Bu faoliyat turi o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm-usul tuyg'usi va asar badiiyatini ifodalash, ijrochilik malakalarini rivojlantirish bilan birga ularning

jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Buyuk qomusiy olim ibn Sino aytganidek, bolalarni yengil tebratish jismni chiqintirsa, musiqa (alla) esa ruhiyatni tarbiyalaydi⁴. Shu bois, musiqa o'qituvchisi boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda, raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilishi va darsda qo'llash usullarini puxta egallagan bo'lishi bugungi davr talabidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Ritmik harakatlar bajarishda qanday mashqlardan foydalanish mumkin?

2. Musiqiy dinamika harakatlarda qanday ifodalanadi?

3. Musiqiy tovush balandligi, ritm hissini aks ettirishda qanday harakatlar qo'llaniladi?

4. «Musiqqa madaniyati» darslarida o'quvchilarning musiqiy-ritmik faoliyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirib bering.

5. O'quvchilarda ritm tuyg'usini rivojlantirish vazifasiga qaratilgan dars fragmentini tayyorlang va talabalar guruhi bilan o'tkazib bering.

6. Folklor qo'shiq asarini dramatishtashga misollar keltiring va bunda qanday harakat malakalarini shakllantirish mumkinligini ayting.

7. Biror bir tanlangan sinfda qo'shiq yoki kuy yordamida musiqiy-ritmik harakatlar bajarishga misollar keltiring.

Bolalar musiqiy cholg'ularida ijrochilik faoliyati

Zamonaviy musiqiy tarbiya tizimida ayniqsa, bolalar bog'chasida musiqiy mashg'ulotlar o'tkazishda musiqiy o'yinchoq va musiqa cholg'u asbolarini o'ta muhim va nozik hisoblanadi. Bu faoliyat turi boshlang'ich maktabda ham qo'llaniladi.

Bolalar musiqa cholg'ularida chalish - o'quvchilarning jamoaviy ijrochilik faoliyati turlaridan biridir. Uning dars (mashg'ulot)dagi o'rni - o'quvchining musiqiy qobiliyatini yuzaga chiqarish va rivojlantirish, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining badiiy tajribasini boyitish, ijrochilik faoliyatiga qiziqish uyg'otishdir.

Dars (mashg'ulot) sharoitida bolalar cholg'u asbolarida ijrochilik faoliyatini qo'llash bir necha o'quv-pedagogik vazifalarini hal etishga qaratilgan:

⁴ Rajabov I Maqomlar T San'at, 2005 y -18b.

1) o'quvchilarni dars (mashg'ulot) va sinfdan tashqari hamda bo'sh vaqtlarda ijrochilik faoliyatiga undash;

2) ularda badiiy did va qiziqishlari shakllanishiga yordam berish;

3) jamoaviy ijrochilikka qiziqishlar shakllanishiga yordam berish;

4) cholg'ular tembrlarini farqlash, ularning jaranglashdagi uyg'unligini his eta olishlariga erishish;

5) musiqiy qobiliyatlarning (lad, ritm, shaklni his etish, tembr, melodik, garmonik eshituv, xotira) rivojlanishini faollashtirish;

6) o'quvchilarda musiqiy ifoda vositalarining ahamiyati haqidagi tasavvurni shakllantirish.

Bu vazifalarni amalga oshirishda musiqiy-o'quv repertuari va ish metodlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Dars (mashg'ulot)da qo'llaniladigan musiqiy materialning eng asosiy xususiyati - uning serqirraligidadir, ya'ni bir yoki bir necha asarning o'zida bir qator tasavvur, malaka, ko'nikmalar shakllantirilib imkoniyati borligidadir. Bundan tashqari, musiqiy material (musiqiy asar) o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi ijrosi uchun qulay bo'lishi va ijodiy harakatlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bolalar cholg'ularida chalish eshituv va ovoz koordinatsiyasi (muvofiqligi) bo'sh bo'lgan o'quvchilarning musiqiy-ijodiy rivoj uchun ham ayniqsa foydalidir.

Musiqqa o'qituvchisi (rahbari) musiqqa cholg'ulari yordamida bolalarni musiqaga mos ravishda harakat qilishga o'rgatadi. Bolalar tanishib bo'lgan kuylariga mos ohang chalishni ritmga mos usul berishni, yengil bo'lgan kuylarni ijro etishni, qo'shiq kuylash jarayonida jo'r bo'lishni o'rganadilar. Bolalar cholg'ulari sof jaranglashi, toza sozlanishi o'ziga xos tembriga ega bo'lishi, ko'rinishi va og'irligi jihatdan bolalarga mos bo'lishi kerak. Ta'mir talab cholg'ular bolalarga berilmasligi kerak.

Dars (mashg'ulot)lar natijasida o'quvchilar quyidagilarni bilishlari lozim:

- cholg'ular nomlarini va ularni ehtiyot qilish yo'llari;

- cholg'ular tembrlarini eshituvda farqlash va ularning ifodaviylik xususiyatlarini anglashlari;

- har qaysi cholg'u asbobida chalish usullari va yo'llarini o'rganish;

- cholg'ularda tovush hosil qilish va tovush yo'naltirishning (legato, stakkato) ifodaviylik ahamiyatini tushunish;

- ansambl ijrochiligi malakalarini hosil qilish, murakkab bo'lmagan kuylarni chala olish;

- tovush balandligiga ega cholg'ularda baland va past tovushlarning joylashuvini bilish, nota nomlari va ularning nota chizig'idagi o'rnini bilish.

Dars (mashg'ulot)dagi ish natijalari ko'proq cholg'ularga bog'liq. Shuning uchun ba'zi cholg'ularning tovush sifatiga, tovush hosil qilish texnikasi talablarini hisobga olish zarur.

Darsda bolalar cholg'u asboblari ijtirochilikka o'rgatishning musiqiy-tarbiyaviy ahamiyati

Bolalar musiqa cholg'ularida ijro bu o'quvchilarning jamoa bo'lib ijro etadigan faoliyat turlaridan biridir. Uning darsdagi ahamiyati - bolalarning musiqiy qobiliyatlarini kamol toptirish va rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy malakalarini boyitish, ijro faoliyatiga qiziqish uyg'otish va uni rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga bolalarning musiqiy ijodkorlikka bo'lgan emotsional munosabati, maqsad sari to'g'ri yo'naltirish va ijro usullarini o'zlashtirishlari muhimdir.

Musiqa cholg'ularida ijroni darsga kiritilishiga quyidagi pedagogik vazifalarni kiritishimiz mumkin:

- darsda, darsdan tashqari va bo'sh vaqtlarda bolalarning ijro faoliyatini rivojlantirish;

- badiiy did va qiziqishni bolalarda rivojlantirishga imkoniyat yaratish;

- Orkestrda ijro etishga qiziqishni uyg'otish, uni tarbiyalash;

- cholg'ular tembridan farqlashga, ularning yangrashidagi garmoniyani his qilishga o'rgatish;

Musiqiy qobiliyatlarining rivojini tezlatish (faollashtirish) (metr hissini, ritm hissini, musiqa shaklini; tembr, garmonik, melodik eshituvni);

- Musiqiy nutq elementlari va musiqaning ifodajuvchi vositalari haqidagi taassurotlarni shakllantirish.

O'quv tarbiyaviy vazifalarni bajarayotganda - repertuar, ish uslubiga katta ahamiyat beriladi. Musiqiy materialning bosh xususiyati - bu uning universalligidadir. Bu o'sha ijro etilgan barcha asarlar - tasavvur, malaka, ko'nikma, his-tuyg'ularning shakllanishiga asos bo'la-oladi. Bundan tashqari musiqiy material o'quvchilar va o'qituvchining birga ijro etishi uchun va o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilganligi va qulay bo'lishi talab etiladi. Shunga qarab ular o'zlari qo'shiq va asarlarni yaratishlari yoki qayta ishlashlari mumkin. Bolalar cholg'ularida ijro etish eshituv va ovoz koordinatsiyasi bo'sh darajada bo'lgan bolalarga juda foydalidir, undan tashqari, qolgan bolalarga yanada murakkab bo'lgan cholg'ularni o'zlashtirishda yaxshi tayyorgarlik vazifasini o'taydi.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar quyidagi natijalarga erishishlari darkor:

- cholg'ularning nomini va ularni saqlash qonun-qoidalarini bilishlari;
- eshitib turib cholg'uni tembr jixatdan farqlash va ularning ifodali jixatlarini bilishlari, ajratishlari;
- har bir cholg'uda ijro etish usullarini va qo'llanishini bilishlari;
- tovush, tovush hosil bo'lishning ifodali xususiyatlarini tushunishlari;
- musiqaning ifodali vositalarini tushunish va ularni cholg'uda ijro bilan yetkaza olishini, qo'llay olishni;
- ansambl bo'lib ijro etish, murakkab bo'lmagan kuylarni o'zi mustaqil chalishni, do'stlarining ijro sifatini yaxshilash bo'yicha malakalarini o'zlashtirishni;
- yuqori tovushli cholg'uda yuqori va past tovushlarining joylashuvini, notalar nomini va ularning nota yozuvida qanday yozilishini bilishi;
- o'z partiyasini aniq o'qishni va o'zining improvizatsiyasini taklif etishni.

Darsdagi ishning natijasi asosan cholg'ularning yig'indisiga bog'liq bo'ladi. Shu orkestrdagi cholg'ularning soniga, ularning tembriga, tovush hosil qilish texnikasiga, orkestr tarkibiga ahamiyat berish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda eng oddiy cholg'ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu musiqiy cholg'ular o'rt (zarbli) guruhga kiruvchi cholg'ular bo'lib, ritmik hissiyotni rivojlantirishda qo'l keladi. Ular aniq balandlikka ega uchburchak, tarelka buben, marakassalar, baraban va boshqa cholg'ular, hamda tovush balandligiga ega - qo'ng'iroqchalar, metallofonlar, ksilofonlardir. Barcha cholg'ular sof va yoqimli tovush hosil qilishi, tashqi ko'rinishi bilan bolalarning diqqat-e'tiborini jalb etishi, chiroyli, yengil bo'lishi va ijrochilardan murakkab texnik vazifalarni talab etmasligi shart. Turli cholg'u asbobning ijro etish paytida o'quvchilarning tanasi, bo'yni va boshining erkinligiga e'tibor berish kerak.

Melodik bo'lmagan cholg'ular – klaves (yog'ochli tayoqchalar), bloklar (karobkaehalar), brusok, tamburin (buben), baraban, marakassalar, uchburchak, kichik barmaq taqillatadigan tarelkachalar, osib qo'yiladigan tarelkalar, juft katta tarelkalar.

Klaves-yog'ochli tayoqchalar - ikkita tayoqchalar yaxshi yangraydigan daraxt-palisandrdan yasaladi. Tayoqchalarni bir-biriga uriladi. Tayoqchalarni shunday ushlab kerakki, ularning uchlari erkin bo'lishi kerak. Birinchi chap qo'lda, ikkinchisini o'ng qo'lga olib uriladi.

Melodik cholg'ular - alt metallofon va ksilofon - C1-C2, soprano metallofon va ksilofon C2-C3 alt qo'ng'iroqchalar C2-C3. Barcha notalar oktava pastda yoziladi. Cholg'ular asosan C-C1 ga moslashtirilgan bo'ladi.

O'zgaruvchan plastinkalar yordamida yaqin tonalliklarda ijro etishga imkoniyat beradi. Eng past ton hamisha tonallikning tonikasi bo'lib, ijro etiladigan yoki kuylanadigan asarning tonligida bo'ladi. Ijro paytida cholg'ular o'quvchining beli bo'yi turishi kerak. Tayoqchalarni katta va ko'rsatkich barmoqlar orasida yengil ushlab; barmoqlarni esa musht qilib siqib turish mumkin emas.

Tirsakdan to bilalgacha qo'l erkin bo'lsa, demak u to'g'ri harakat qilayapti. Avval bolalarga tovush hosil qilishni taklif etish va ikkala qo'l bir vaqtda harakat qilishini kuzatish kerak.

Har bir cholg'u o'ziga xos tayoqchalarga ega. Ksilofon tayoqchalari - qattiq bo'lib, tayoqcha uchida probka bo'ladi, metallafon tayoqchasi - rezinali, qo'ng'iroqchalarniki - yog'ochli bo'ladi.

Birinchi darsdan ikki tur cholg'ularni, ya'ni ritmik va tovush balandligiga ega bo'lgan asboblarni bir vaqtda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tovushli cholg'ularda ijro malakalari lad hissini rivojlantirish uchun birga parallel olib boriladi. Ladni uning xarakterli intonatsiyasi orqali o'zlatirilishi, balki uni tinglashni, imkoniyat boricha sof kuylashni, bosqichlarda ovoz bilan badiha qilishni bilishlari kerak. Shuning uchun tovushli cholg'ular o'zgaradigan plastinkalar bilan kerak.

O'qituvchi bolalarga ijodiy vazifa berayotganida cholg'uda kerakli plastinkalarni qoldirishi kerak.

O'quvchilarning lad va ritm tasavvurlari qo'shiq ustida turli ijodiy vazifalarni bajarish orqali eshitish mumkin. Ritmik jo'rlikni, kirishni o'zi yaratishi, mos keladigan cholg'uni tanlay bilishni ijodiy ishlar, ijrochilik qobiliyatlarida ko'rish mumkin.

Partituraning yodlash uchun turli usullarni qo'llash mumkin: notalar yordamida, ritmik yozuvlar; qo'l harakat belgilari, eshituv yoki ijroni kuzatish orqali erishish mumkin. Zarbli cholg'ularning partiyalarini eslab qolishni tezlashtirishda umumiy va turli holatlardagi har bir cholg'ularning ritmik suratini tahlil qilish, bilishga erishiladi. Xususan, shuni aniqlash kerakki, ma'lum bir partiya kuyning ritmik harakatini takrorlaydimi yoki u mustaqil ritmik suratga egami, cholg'u barcha hissalarining pulsini beradimi yoki kuchli hissani ta'kidlaydimi. Bunday tahlil o'quvchilarning partituraning tezroq yod olishga, cholg'uda ijro paytida va muhim musiqiy vaziyatlarni eslab qolishda yordam beradi.

Oddiy ritmik partituralarni ijro etish orqali bolalar musiqa vositalarining ifodaviyligi haqidagi taassurotlar oladilar, mustahkamlaydilar, ularni badiiy obrazlarga mos ravishda ishlata olishni o'rganadilar. Bu esa

mustaqil yoki o'qituvchi bilan birgalikda jo'r bo'lib asar yaratishda qo'l keladi, albatta.

Shunday qilib, o'quvchilar musiqa shaklining tuzilishi, musiqaning rivojlanish qonunuyatlari haqida elementar bilimlar oladilar.

Demak, ilk mashg'ulotlardan boshlab, cholg'ularda ijro etishni o'rgatishda o'quvchilarni badiiy izlanishi uchun vazifalar berish muhimdir hamda barchaning musiqiy-ijodiy fikrlashini shakllantirish kerak.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan turli musiqiy faoliyatlardagi shakllar va ritm hissining birligi bolalarning musiqani tushunishlarida muhim rol o'ynaydi. Endi, ularning har birini alohida ko'rib, tahlil qilamiz.

Musiqa madaniyati darslarida bolalar musiqa cholg'ularini qo'llash

Darsda musiqa cholg'ularida ijroga o'rgatish, musiqiy cholg'ulashtirish vazifasini bajarish darsga halaqit beradi, o'quvchilarni chalg'itadi, - degan fikr mavjud. Agar o'qituvchi II yoki III sinfning beshinchi-oltinchi darslari davomida mazkur faoliyatni kiritsa, albatta bolalar cholg'ularni o'rganishda chalg'iydilar. Bunday holatni yuzaga keltirmaslik uchun, birinchi navbatda bolalarga musiqiy cholg'ular o'rninga oddiy shiqildoqlar va tayoqchalar berish zarur. Darsdan avval har bir o'quvchida u yoki bu o'quv quroli bo'lishi kerak. Ayrim cholg'ular buzilib qolishi mumkinligi ehtimoldan holi emas. Chunki bolalar ulardan qay yo'sinda foydalanish, vazifani bajarishda uning to'g'ri yoki noto'g'riligini bilish jarayonida bevosita o'zlari sezmaganda holda sinqirib qo'yishlari mumkin.

Bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishi ma'lum bir intizomni o'rnatadi. Dastlabki darslarda ayrim sinf (guruh) bolalari musiqiy cholg'ularni qisqa muddatga oladilar. Ushbu guruh bolalarining ijrosini butun sinf (guruh) kuzatadi va ijro sifatini og'zaki baholab beradi. Berilgan vazifani sinf (guruh)ning barcha o'quvchilari yaxshi bajarganidan so'ng butun sinf o'quvchilari cholg'ulashtirishga taklif etiladi. Buni darsning oxirida bajarish maqsadga muvofiq, cholg'ular esa qatorlarga qarab bo'lib beriladi: Birinchi qator - yog'ochli, ikkinchi qator - metall, uchinchi qator - shitirlovchi yoki tovushli cholg'ularda ijro etadi.

Sinfdagi tovush shovqinidan xalos bo'lish uchun ovozsiz klaviaturalardan, ya'ni rasmi metallofon yoki boshqa cholg'ularning suratlaridan foydalanish mumkin.

Bunday tasvirlar har bir bola oldida bo'lishi shart. Bunday usul bolalarning ichki eshituvining faollashuviga katta ta'sir ko'rsatadi.

Sentyabr oyining o'rtasiga kelib (bu vaqtgacha bolalar ikkita ritmik birlik bilan tanishadilar - choraktali va nimchoraktali nota, past, o'rta va yuqori tovushlar, oddiy ritmik usullar) bolalar nafaqat kuylab, balki musiqani tanlab cholg'ularda ham ijro eta oladilar.

Bunda o'quvchilarni cholg'ulardan foydalanishda ehtiyot bo'lishni, ularni erkin ushlash kerakligi hamda ogohlantirib qo'yish kerak.

O'qituvchi bolalarni cholg'ular jarangi bilan tanishtiradi. Tembr haqidagi ilk ma'lumotlarni birinchi darsdanoq mustahkamlash zarur. Buning uchun «aks sado» va «ovozidan top» o'yinini o'ynash mumkin.

«Ovozidan top» o'yinida bolalarga turli cholg'u tarqatiladi, o'qituvchida esa cholg'ularning to'plami qoladi. O'qituvchi bolalarga ko'rsatmay ifodali qilib ritmik shaklni ijro etadi, keyin esa ushbu shaklni kimda shunday cholg'u bor bo'lsa qaytaradi. Eng muhimi shuki, bunda bolalar ijrolarida ritm va eshitish shaklining xarakterini ko'rsata olishlari kerak. Buning uchun albatta ular diqqat bilan tinglashlari zarur. Birinchi darsdayoq barcha o'quvchilar o'z kuchlariga ishonishlari uchun ushbu yangi faoliyatni bajarishlari shart. Chunki yangi faoliyatga qiziqishlari susayishi mumkin. Kelgusi ikki-uch darsni cholg'uda ijro bilan boshlash kerak. Chunki bu bolalarda qiziqishni oshiradi, cholg'uda ijro etishni yoki uni ushlab ko'rish xohishini uyg'otadi.

Birinchi sinf o'quvchilari katta qiziqish bilan oldilariga qo'yilayotgan vazifalarni yaxshi bajaradilar. Ijro paytida ular nafaqat ritmik harakatni balki kirish va yakuniy qismlarning dinamikasini to'g'ri ijro etadilar. Ijrolari esa emotsional hissiyotga boy va ifodalidir. Avvaliga qo'shiq, keyin esa murakkab bo'lmagan ritmik partituralar o'rganiladi. Asarlardagi turli obrazlarni farqlay olish uchun lad jihatidan o'xshash, ritmik, partitura tuzilishi bo'yicha o'xshash va kontrast asarlar olinadi. Bunday misollarda bolalar musiqani yanada yorqinroq his etadilar.

O'quvchilarga musiqiy cholg'ularda ijro etishni o'rgatish metodlari

Cholg'ularda ijro jarayonida lad hissini rivojlantirish usullari.

Lad hissini rivojlantirish maqsadida cholg'ulardan foydalanishga bir qancha sabablar mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida musiqiy eshituv qobiliyati kuchsiz bo'lgan, eshituv va ovoz o'rtasidagi koordinatsiyasi yomon bo'lgan bolalar kam emas. Lad haqidagi tasavvurni o'zlashtirish ular uchun qo'shiqchilik faoliyatida ma'lum bir qiyinchiliklarni tugdiradi. Musiqa cholg'ularida ijro etishda turli ko'rgazmali qurollar va

emotsional yondashuv usullaridan foydalanish bolalarning musiqiy qobiliyatlarini faollashtiradi va musiqaga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Darsda o'quvchilarga musiqiy-didaktik material beriladi, uni kuylash va ijro etishlari mumkin. Bu didaktik o'yinlar asosida o'quvchilar major va minorning bosqichlari bilan va ularning xarakterli intonatsiyalari bilan bosqichma-bosqich tanishadilar.

Birinchi o'rganiladigan qo'shiq va asarlar albatta o'zining yorqin obrazlilik, bir vaqtning o'zida aniqligi va oddiy intonatsiyasi bilan hamda katta bo'lmagan tovush diapazoniga ega bo'lishi kerak. Ular majorning V va III yoki V va VI bosqichlarining ketma-ketligi yoki takrorlanishi asosida tuziladi.

Musiqiy materialda o'quvchilar aniq lad elementlari bilan tanishadilar. Major yoki minorning intonatsiyasi bilan tanishganlaridan so'ng uni nota yozuvida yoki lad bosqichlarini qo'l belgilari orqali ko'rsatib o'rgatiladi, qo'shiq ohangini tovushli cholg'uda ijro etishni bolalarga taklif etish tavsiya etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi bosqichda tovushqatorli cholg'uda ohang ijro etish usuli qo'llaniladi, undagi natija orqali o'qituvchi bolalarning eshituv qobiliyatining rivojlanishini baholaydi. Ayniqsa, kuylay olmaydigan bolalarda musiqiy-eshituvni mustahkamlashda tovushli cholg'ularning ahamiyati katta. Xotirani yanada yaxshilashda, cholg'uda faqat ohangni hosil qilishda ishtirok etadigan plastinkalarni qoldirish kerak. Bunday usul bolalarning ichki eshituvini faollashtiradi, lad mutanosibligini his etishda ularning diqqatini jamlaydi. Maxsus konstruksiyali cholg'ular plastinkalarni almashtirish imkonini beradi. Shu asosda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan qo'shiq ohanglarini, qo'shiq kuylashga qulay bo'lgan tonlikda kuylashlari uchun kerakli plastinkalar qo'yiladi.

O'quvchilar yangi bilimlarini o'zlashtirish bilan birga avval o'rganganlarini mustahkamlash va takrorlashlari kerak. Buning uchun o'tilgan barcha asar va qo'shiqlarni qaytarish zarur.

Badiiy jarayonlardan bolalar ayrim ko'nikma va malakalarni yaxshi egallay olmasa, uni o'zlashtirdi, deya olmaymiz. Bir vaqtning o'zida vokal improvizatsiyasi birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilarining ko'pchiligi uchun ma'lum bir qiyinchiliklar tugdiradi, lekin ijro ijodiy vazifani ikkinchi-uchinchi darsdanoq yaxshi bajaradilar. Chunki ohangni to'g'ri intonatsiya qilish ularga qiyin, cholg'u ijro esa osonroqdir.

Ladning bosqichlarini bo'g'inlar bilan nomlash cholg'u haqidagi fikrni qiyinlashtiradi. Shuning uchun notali matn bilan ishlaganda bolalarning diqqatini nota belgilarini lad bosqichi o'nida qo'llash kerak. Buning uchun har bir notaga raqamlarni bosqichiga mos qilib qo'yish zaruriyati tugiladi.

Yana o'quvchilar nota nomlarini aytishlari ham muhimdir. Masalan, qo'shiq «do» tovushidan boshlansa, qo'shigini bir bosqich yuqoriga ko'tariladi. Qo'shiq endi qaysi tovushdan boshlanadi? - deya o'quvchilarga savol berilsa, o'quvchilarning diqqatini jamlaydi, fikrlashga majburlaydi. Albatta bu vazifani murakkab bo'lmagan materialda qo'llashdan boshlaniladi.

Musiqiy cholg'ularda ijro etishda ritm hissini rivojlantirish

Ritm hissining rivojlanishi juda ham qiyindir. Bolalarning ritmni his qilish qobiliyatlari qo'shiq kuylash va musiqa tinglash bilangina yetarlicha rivojlanmaydi.

Ritm hissining shakllanishi musiqiy-ritmik munosabatlarning faol o'zlashtirishni talab etadi. Bunga musiqiy-ritmik harakatlar, oddiy ritmik cholg'ularda ijro, bo'g'inlarni ritmik suratda ishlatish («ta», «ti») kiradi. Oddiy cholg'ulashtirish o'quvchilarda ritm hissini sezilarli darajada faollashtiradi. Bu faoliyat esa tanish qo'shiqlarni metallafon va ksilafonda ijro etish, tinglash va vokal-xor repertuarida ritmik jo'rnavozlik qilish jarayonida rivojlanadi. Mana shunday vazifalar o'quvchilarning diqqatini musiqadagi ritmik rivojlanish, undagi emotsional holatni o'zida his qilish kabi hodisalarga qaratadi.

O'quvchilarga ritm hissini ketma-ket shakllantiradigan ilk materiallar sifatida cholg'u qo'shiq-miniatyuralar, asarlar, tinglash uchun cholg'ulashtirilgan asarlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Oddiy musiqiy cholg'ularda ijro etish - musiqiy tarbiyaning ilk bosqichlarida juda yaxshi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni musiqiy-eshituv tasavvurlarini shakllanishiga, ritmning emotsional asosini ochishga, ijrochilik malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Murakkab cholg'ulardagi jo'rnavozlik bolalarning imkoniyat darajalariga hamisha moslashtirilishi kerak. Partiturani soddalashtirish yoki aksincha, murakkablashtirish mumkin. Shuningdek, ularni boshqa asarga ritmik jo'rnavozlik sifatida berish ham mumkin. Bundan tashqari, ularni ijodiy vazifalarda namuna sifatida ham ishlatish mumkin. Ritm hissi, ritmik malakalarni faol va ketma-ket shakllanishi uchun katta va shakl jihatdan murakkab bo'lmagan asarlar qo'llaniladi, ya'ni ular o'quvchilar tomonidan kuylashda, tovushli cholg'ularda ijro yoki tinglash jarayonida o'zlashtirilgan asarlar ishlatiladi.

Ritm hissining rivoji bir necha yo'nalishda birga olib boriladi:

- bunda bolalar turli cho'zimlarning mutanosibligini tushunadilar.

- turli ritmik shakllarning o'zlashtirilishi, uni eslab qolish orqali ichki ritmik eshituv rivojlanadi. Kuchli va kuchsiz hissalar haqidagi tasavvurlar, ularning pulsatsiyalarining hosil bo'lishidan mustahkamlanadi.

- cholg'u jo'rliги orqali ritmning emotsional asosi haqidagi tasavvurlari shakllanadi.

Ritmning emotsional asosi haqidagi bolalarning tasavvurlari cholg'ularning yorqin rang-barang jaranglari orqali kuchaytiriladi. Xususan, soatning chiqillashi yoki yomg'ir tomchilashi. Ritmik jo'rlikning ifodaviyligini, tasviriyligini asarni tahlil qilib bilish zarur. Shuningdek, uning xarakteri va musiqiy ifoda vositalarini aniqlash orqali erishiladi.

Musiqiy-ritm hissini rivojlantirishni vazifa berish bilan boshlash tavsiya etiladi. Bolalar vazifalarni bajarish jarayonida ritmik cholg'ularda o'quvchi ijro etayotgan marsh musiqasidagi bir tekis ritm hissini ijro etishlari talab etiladi. Bunday vazifani bajarishda musiqa ostida harakat bajarishni, kuchli va kuchsiz hissalarining o'zaro almashinib kelishini tahlil qilishni taqozo etadi. Ritmning o'zgarishi asarning xarakterining o'zgarishidan dalolat berishini aytib o'tish lozim.

Birinchi bosqich vazifasi, pulsatsiya hissining rivojiga qaratilgan bo'lib, bir xil tempga ega bo'lgan asarlar asosida ko'riladi. Keyin esa kontrast tempga ega asarlar qo'shiladi. Turli tezlikdagi hissalarining harakatini his qilish o'quvchilarda musiqiy-ritm hissini faollashtiradi, musiqadagi ritmning tasviriyligini, ifodaviyligini tushunishga, farqlashga yordam beradi.

Bunday vazifalarni bajarishda har bir asarni jo'rliги uchun o'quvchilarga cholg'u tanlash imkoni beriladi, aniq tembr yordamida badiiy obrazni yorqin ko'rsata olishda qo'llaniladi.

Ikkinchi bosqich - kuchli va kuchsiz hissalarining almashinib kelishidir. Turli hissalar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan vazifa bolalarga tanish bo'lgan qo'shiqlar, mazmunan kuchli hissaga to'g'ri keladigan asarlar beriladi. Bolalar kuchli va kuchsiz hissalarini cholg'uda aniq ijro eta boshlaganlaridan keyingina, qo'shiqning «pulsini» ikki hissali o'lchovda o'zlari tomonidan yozishlarini taklif etish mumkin. Bunda bolalar metr, takt chizig'i va o'lchovlar haqida ma'lumot oladilar. Shu kabi tasavvurlarni yanada faollashtirish maqsadida o'qituvchi o'quvchilarga tanish bo'lgan qo'shiqning «puls» yozuvini taklif etadi va undagi xatolarni topish kabi vazifalarni berish mumkin.

Uchinchi bosqich - metrik pulsatsiyani o'zlashtirish bilan birga musiqada ritmik shaklni ham o'zlashtirish bo'yicha ishlar olib boriladi, ikki turli ritmik birliklarning almashinishi asosida - choraktalik va nimchoraktalik

nota yoki nimchoraktalik va yarimtalik nota ko'riladi. Shu tarzda bolalar cho'zimlarning mutanosibligini yengil va ongli ravishda qabul qiladilar, asardagi ritmik kirishni va jo'rlikni ijro etadilar.

Ritmik shakllarni maqsad sari o'zlashtirishni kuydagi mashqlardan foydalanib, amalga oshiriladi:

a) O'qituvchi va o'quvchilarning cholg'u jo'rliги ostida salomlashishlari;

b) «Aks-sado» o'yini, unda o'qituvchi bolalarga tanish bo'lgan kuyini fortepianoda ifodali ijro etib beradi, bolalar esa undagi ritmik turkumni cholg'ularda qaytaradilar;

v) nota o'rniga cholg'uli-ritmik bo'g'inlar orqali javob qaytarish.

O'quvchilarni uzun va qisqa tovushlarning farqini o'zlashtirganlaridan so'ng, turli ritmlar asosida tuzilgan harakatlarni, ya'ni jo'rnavoqlikka o'tish mumkin. Ma'lum bir guruh bolalar do'stlarining qo'shiqlariga bir tekis ritmik hissada jo'rlik qilishadi, bunda qo'shiqdagi cho'zimlar ikki barabar qisqa yoki uzun bo'lishi mumkin. Agar cholg'u partiyasi qo'shiqning ritmik suratini takrorlasa unda o'quvchilar birgalikda ham kuylaydilar, ham ijro etadilar. Partiyalarda pauzalar uchrashi kuzatiladi. Ular ikki eshituvni rivojlantirish qiymatiga egadir. Lekin ular bolalar uchun ma'lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shuning uchun bu jarayon avvaldan tayyorgarlikni, maxsus usullarni talab etadi. Ilk malakalarni cholg'u asarlarda shakllantirish mumkin, «aks sado» yoki dialog qonuniyati asosida yozilgan kuyarga, undan keyin esa qo'shiqqa jo'rlik qilish ustida ishlash mumkin. Unda zarb kuchli hissaga pauza esa kuchsiz hissaga to'g'ri kelishi doim almashtirilib turiladi.

Ritm hissini rivojlantirishdagi vazifalarni o'yin shaklida olib borish katta ahamiyatga egaligi ma'lumdir.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun o'quvchilardan cholg'ular bilan tanishish, cholg'ularning musiqiy tasviriyligi va ifodaviylik imkoniyatlarini, tovush hosil qilish texnikasini bilish talab etiladi.

Cholg'ularni sinfdagi ritm hissi kuchliroq-bo'lgan bolalarga berilsa, maqsadga muvofiqdir. Avvaliga har bir cholg'u bilan alohida ritmik surat ishlanadi. Keyin esa ikkitadan fortepiano jo'rligida ijro etiladi. Ushbu asar bir necha darslar davomida o'rganiladi va mustahkamlanib boriladi.

Yog'ochli qoshiqning kuchli va kuchsiz hissalariga urilishida bolalar adashib ketishlari mumkin. Shuning uchun bu cholg'u bilan alohida ishlash kerak.

Masalan: 2-sinf dasturidagi «Qari navo» kuyiga qoshiq, doyracha, uchburchak, surnaycha va qarsaq (chapak)ni jo'rlikka olindi. Har bir

cholg'udan ikkitadan bo'lsa, 8 ta cholg'u va qolgan bolalar chapak bilan faqat 3-qismiga jo'r bo'lishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda, tabiiyki, eng sodda cholg'u asboblari qo'llanishi mumkin.

Bu cholg'ular sof, mayin jaranglashi va ko'rinishi chiroyli, bezakli bo'lib, o'quvchilarni o'ziga jalb etishi hamda ijroda qulay bulishi talab etiladi. Ijro paytida gavda, bo'yin, boshning erkin holatiga e'tibor qaratiladi.

Bolalar musiqa ijrochiligini rivojlantirish ustida ishlash metodlari

Birinchi mashg'ulotlardan oq har ikkala guruhdagi, ya'ni ritmik va melodik cholg'ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Melodik cholg'ularda ijro etish usullaridan quyidagilarni keltirish mumkin:

- sodda qo'shiq kuylarini (bir, ikki tovushdan iborat) chalish;
- «aks-sado», «Qushchalar aytishuvi» kabi o'yin shaklidagi musiqa mashqlarini chalish;

O'z mazmuni va qoidalariga ega bo'lgan o'yin, ertak, musiqiy hikoyalar o'quvchilar uchun ijodiy harakatlarda qulay ish shakli hisoblanadi.

O'quvchilarning lad va ritm haqidagi musiqiy tasavvurlari qo'shiq kuylash jarayonida turli xil ijodiy vazifalarni bajarish orqali jadal rivojlanadi.

Bulgarga:

- qo'shiqqa ritmik jo'rlik, kirish qismini «to'qish»;
- qo'shiqning xarakteri, obraziga mos keluvchi cholg'ularni tanlash va bu haqidagi fikrni asoslab berish;
- o'qituvchi tomonidan taklif etilgan jo'rlik turlaridan asar kayfiyatiga mos keladiganini tanlash va hokazo.

Bu xildagi vazifalar asosan ritmik va melodik cholg'ular yordamida bajariladi.

Partituralarni o'rganishda turli yo'llar qo'llaniladi:

- nota yozuvi, ritm yozuvi;
- eshituv orqali chalib o'rganish;
- ijrochining chalishini ko'rib yodlash orqali o'rganish.

Eslab qolish jarayonini tezlashtirish maqsadida har qaysi partiyaning ritmik ko'rinishini og'zaki tahlil qilish yordam beradi. Masalan, ritmik harakat jo'rliги kuy usulini aynan qaytaradimi yoki mustaqil ko'rinishiga egami, faqatgina kuchli hissani ko'rsatadimi yoki hissalar pulsatsiyasini ko'rsatadimi?

Musiqa cholg'ularida ijrochilik o'quvchilarda musiqa idrokini faollashtiradi va chuqurlashtiradi. Oddiy ritmik partituralarni ijro etish jarayonida bolalar musiqa ifoda vositalari haqida, asarning tuzilishi, shakli, musiqaning rivojlanish xususiyatlari haqida boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar.

Shuni ta'kidlash lozim-ki, cholg'ularda chalishga o'rgatish asosida birinchi mashg'ulotlardan oq, o'quvchilarga badiiy-muammoli vazifalar berish va ularda musiqiy ijodiy fikrlashni faollashtirish o'qituvchining asosiy pedagogik vazifalaridan biridir.

Bolalar cholg'u asboblari klassifikatsiyasi

Bolalar cholg'u asbolarini bir necha turlarga bo'lishi mumkin (avvalgi mavzularga qarang).

1) jarangli asboblarga - balandligi aniq bo'lgan o'yinchoq asboblari, shiqildoq, buben, baraban, kostanetalar kiradi.

2) Bir xil balandlikda tovush chiqaradigan asboblari - ular yordamida har xil ritmlarni bir ohangda ijro etish mumkin. Surnay, rojoklar kiradi.

3) Diatonik va xromatik tovushqatorlarga ega bo'lgan asboblarga - metallafon, pianino, royalchalar, klarnetchalar, fleytachalar, saksofonlar, bayanchalar kiradi. Bu asboblarda bemalol qo'shiq ohanglarini ijro etish mumkin. Shuning uchun to'rt guruh asboblarning o'zi ham bir necha guruhga bo'linadi:

a) torlilar - qitira, do'mbra, balalayka, dutor, rubob va hokazo.

b) damli cholg'ular - fleyta, saksafon, nay, surnay, triollar va hokazo.

v) klavishli cholg'ular - akkordion, garmonika (bunda tovush klavishni bosib garmonikada havoni itarganda hosil bo'ladi).

g) urib chalinadigan cholg'ular - bubenlar, uchburchak, tarelka, baraban, metallafon, kselofonlar kiradi.

Musiqada didaktik o'yinlar jarayonida musiqiy cholg'ular ahamiyatini oshib boradi. Bolalardan tovushlarni balandligi, uzunligi, tempi, dinamikasi haqida bilishlari talab qilinadi.

Tovush balandligini sezish hissini shakllantirish uchun har xil balandlikdagi qo'ng'iroqchani baland tovushni ijro etayotganini aniqlaydilar.

Ritm hissini shakllantirishda barcha urib chalinadigan asboblari guruhidan foydalanish mumkin. Dinamik eshitish qobiliyatini aniqlash uchun barcha asboblarni qo'llash mumkin.

Bolalar musiqa orkestrini tuzish uchun iloji boricha bir xil asboblarni guruhidan foydalanish mumkin. Bunday orkestrlarni tashkil etishda ovozi past asboblardan ko'proq, ovozi balandlari kamroq ishlatilishi kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Bolalar cholg'ularida ijrochilik faoliyatining ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Bolalar cholg'ularida ritm hissini shakllantirish necha bosqichda amalga oshiriladi? Ularni sharhlab bering.
3. Cholg'uchilik faoliyatini amalga oshirishda repertuar va ish metodlarining ahamiyatini yoritib bering.
4. Darsda qo'llaniladigan bolalar musiqa cholg'ulariga tavsif bering.
5. Darsda cholg'uchilik faoliyatini tashkil etish yo'llari qanday?
6. Bolalar cholg'ularida ijro etish faoliyatini qaysi faoliyatlar bilan uzviy olib borish mumkin?
7. Biror bir musiqiy asarga bolalar cholg'usida jo'r bo'lish yo'llarini ko'rsatib bering.

Musiqa savodi faoliyati

Musiqa savodi faoliyati maktabdan boshlanadi. Musiqa savodi musiqa ta'limi tizimidagi muhim jarayon hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarga zarur musiqiy-nazariy bilimlarni, ma'lumotlarni berishi kerak. Musiqa savodiga doir olib boriladigan ish asosan bolalarning musiqiy o'quvini o'stirish va nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa) tashkil etadi. Musiqa savodi o'quvchilarda musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning asl mazmunini tushunib olishga yordam beradi, notaga qarab kuylash va qo'shiq aytish malakalarini hosil qilish hamda garmonik qobiliyatni o'sishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga ovozlarni aniq talaffuz qilishga va jamoa bo'lib qo'shiq aytish sifatini, samaradorligini oshirishga qulaylik tug'diradi. Maktabda musiqa savodini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodik talab – dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda – qo

shiq aytish, musiqa tinglash va musiqa ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishdan iborat. Har bir faoliyat bilan shug'ullanganda o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglayotgan asarlarining kim tomondan yaratilganligi, qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi, o'lchovi, ritmi, shakli, dinamik belgilari, tonligi va hokazolarni qisman bo'lsa ham aniqlashlari darkor. Mana shu jarayonda musiqa savodi berazir ko'makchidir. Musiqiy-nazariy bilimlar ancha sayoz va bir tizimga solinmagan bo'lsa ham, o'qituvchi imkoni boricha darslarni ko'rgazmali qurollardan, o'qitishning zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda dars o'tishi maqsadga muvofiqdir. Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteraciya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifodalovchi vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beriladi. Lekin bu tushunchalar oddiydan murakkabga qarab, iloji boricha tizimiylikka rioya qilib o'rgatilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.

1-sinfda musiqa savodi boshlang'ich bilimlarni beradi. Bolalarning maktabga endigina kelganliklariga qaramay ular bog'chada ko'pgina qo'shiqlar aytib, raqsga tushgan bo'ladilar. Musiqa savodiga kirishdan avval bolalarning oldingi bilimlariga tayanishimiz kerak. Tabiiyki, bog'chada musiqa savodi o'rganilmaydi. Shuning uchun o'qituvchi nihoyatda ehtiyotkorlik bilan bolarga musiqa haqida tushuncha beradi. «Siz qanday qo'shiqlarni bilasiz? Raqsga tushishni bilasizmi? Musiqani yaxshi ko'rasizmi?» va shu kabi savollar orqali bolalar bilan muloqotga kirishadi. «Endi men sizlarga musiqa aslida nima ekanligi va qanday paydo bo'lganligi haqida gapirib beraman...» - deb bolalarni o'zaro suhbatga tortadi. O'quvchilar musiqa haqida tushunchaga ega bo'lganlaridan keyingina, ularning musiqaning ifodalovchi vositalari bilan tanishtirish mumkin. 1-sinfda o'quvchilar nota yozuvi, notalarning joylashuvi, notalar nomi, uzunligi bilan qisman tanishib boradilar. Musiqa boshqa san'at turlari kabi insonlarning o'zaro muloqot qilishga yordam beruvchi vositadir. Shuning uchun musiqa tilini yaxshiroq tushunish uchun, musiqaning muhim ifodalovchi vositalarini bilish ahamiyatlidir. Eng muhim bo'lgan vositalardan ladlar - major va minor lادلari haqida o'quvchilarga tushuncha berish maqsadga muvofiqdir. 1-sinfning 2-yarmida bevosita nota yozuviga kirishish mumkin. Avvalambor, o'quvchilarga notalar yoziladigan chizig'ning nega beshtaligi, nota yo'lining ahamiyati va ularda notalar qanday joylashishi haqida boshlang'ich tushunchalar berilgan bo'lmog'i lozim.

Nota yozadigan chiziq pastdan yuqoriga qarab sanalishini o'qituvchi doskaga yozib ko'rsatib berishi lozim. Skripka kaliti yoki sol kaliti haqida tushuncha berish kerak.

Notalar yozilishidan oldin kalit belgisi qo'yilishi kerakligi, kalitsiz nota yozish mumkin emasligini o'quvchilarga misollar bilan tushuntiriladi. Masalan,

O'qituvchi: «Bolalar, maktabdan uyga kelganingizda chshikdan to'g'ri kirib ketasizmi, yoki avval kalit bilan ochib keyin kirasizmi?»

Bolalar: Kalit bilan ochamiz.

O'qituvchi: Demak, kalitsiz uyga kirib bo'lmas ekan-a?

Bolalar: Ha.

O'qituvchi: Musiqani yozish uchun ham musiqiy yo'lni avval kalit bilan ochamiz, ya'ni kalit belgisini qo'yishimiz shart, aksincha biz musiqa tovushlari olamiga kira olmamiz.

Shu tarzda nota yozuvi o'rgatiladi. Yozishdan avval o'quvchilar notalar joylashuvini yodlagan bo'lishlari kerak. Masalan,

DO-yordamchi chiziqda joylashgan.

RE-birinchi chiziqni tagida joylashgan.

MI-birinchi chiziqda joylashgan.

FA-birinchi chiziq bilan ikkinchi chiziqning orasida joylashgan.

SOL-ikkinchi chiziqda joylashgan.

LYA-ikkinchi chiziq bilan uchinchi chiziq orasida joylashgan.

SI-uchinchi chiziqda joylashgan.

Ana shundan keyin o'quvchilar beshta chiziqni qaysi birida qanday nota joylashganini o'zlari topa boshlaydilar.

Ayrim hollarda o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga tushunarliroq va qiziqarliroq bo'lishi uchun nota chiziqdari yordamisiz ham qo'l yordamida notalar joylashuvini topish va ko'rsatishlari mumkin.

Buning uchun o'qituvchi qo'lini ko'ndalang holda tutib, har bir barmog'ini nota chizig'i deb faraz qiladi. O'quvchilarga ham o'ng qo'llarini xuddi shunday tutib o'qituvchi bilan birgalikda chap qo'l ko'rsatkich barmog'ida notalarni ko'rsatadilar va o'qituvchi aytgan notalarni o'zlari topib ko'rsatadilar.

Demak, musiqa savodi faoliyati maktablardagi eng muhim va yetakchi faoliyatlardan biri bo'lib, u o'quvchilarni o'rganiladigan asarlarni savodli holda o'zlashtirishlariga imkon beradi.

Tekshirish savollari:

1. Musiqa savodi faoliyatining ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Musiqa savodi faoliyatining boshqa faoliyatlar bilan bog'liqligi tushuntirib bering.
3. Nota yozuvini o'rgatganda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Nota savodi va musiqa savodi tushunchalariga izoh bering.
5. Musiqa savodi faoliyatida qaday vazifalar bajariladi?
6. Dars jarayonida musiqa savodi faoliyatiga qancha vaqt ajratish kerak?

III BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASI

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi «Musiqqa madaniyati» darslarining tuzilishi

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish deganda biz musiqaga oid bo'lgan barcha bilimlarni o'zlashtirishni tushunamiz. Xususan:

- 1) Musiqa savodi (musiqa nazariyasining boshlang'ich bilimlari);
- 2) Musiqa tinglash va tahlil qilish;
- 3) Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash;
- 4) Musiqiy ijodkorlik (musiqaga mos harakatlar qilish, bolalar cholg'u cholg'ularida chalib, musiqaga ritmik jo'r bo'lish).

Musiqa darsining asosiy xususiyati shundaki, musiqa ta'limining to'rt faoliyati mustaqil jarayon bo'lishi bilan birga, ularning bir-biri bilan uzviy aloqada, o'zaro bog'liq ravishda olib borish kerak. Ushbu jarayonlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, ularni ijodiy shaxs bo'lib etishishlariga zamin yaratadi.

Darsning mohiyati, mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda darsdagi biror bir faoliyat birinchi o'ringa chiqib qolishi mumkin. Musiqa darsining tuzilishi asosan, musiqiy ijrochilikni tashkil etadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, birgina ashula aytish uchun nota yozuvi, dinamikasi, shtrixlarini bilish zarurdir. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda jamoatchilik, do'stlik, birdamlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu jarayonda butun sinf jamoa bo'lib, «bir yoqadan bosh chiqarib» faol ishtirok etadilar. Shu tufayli musiqiy qobiliyati sust bo'lgan o'quvchilar faol va yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarga ergashadilar.

Musiqiy qobiliyat faqatgina musiqiy amaliyot, musiqa san'atiga xos bo'lgan musiqiy material va maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin, ya'ni aynan musiqa insonning musiqiy hislarini uyg'otadi.

Musiqa darsi har xil musiqiy nazariy faoliyatlarni o'z ichiga oladi: ashula aytish (vokal xor tarbiyasi, solfejjo), musiqaning elementar nazariyasi (musiqa savodi), musiqa tinglash, musiqa tahlili, musiqa adabiyoti. musiqa ostida harakatlar bajarish.

Quyida biz bir darsning tuzilishini misol tariqasida keltiramiz:

Darsning mavzusi - Musiqaning ifoda vositalari.

Darsning turi - predmetlararo uzviylik.

Darsning maqsadi:

1) ta'limiy maqsad: musiqaning ifodalovchi vositalar haqida tushuncha berish, ovoz sozlovchi mashqlar bajarish, yangi qo'shiq o'rgatish, musiqiy asar tinglash, avvalgi o'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash;

2) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning musiqiy idrok, did, dunyoqarash va tafakkurlarini shakllantirish, musiqiy asarga va uning yaratuvchilariga nisbatan hurmat va qiziqishni uyg'otish, qo'shiq matni va musiqa ta'sirchanligi yordamida o'quvchilarda axloqiy fazilatlarini shakllantirish.

Qo'llaniladigan adabiyotlar - darslik, solfejio darsligi,

Darsning berishi:

1. Sinfni uyushtirish:

a) musiqiy kirish;

b) o'quvchilarni yo'qlama qilish;

v) darsning mavzusini ehlon qilish.

Amaliy ishlar:

a) ovoz sozlash mashqlari: har xil metodik usullar yordamida;

b) stakatto va legato usullarida kuylash.

2. Yangi materialni o'tish:

a) qo'shiq o'rgatish: jumalarga bo'lib, nafas va ovozni to'g'ri yo'lga o'ygan holda;

b) intervallarni tushuntirish: har xil misol va usullar yordamida;

v) musiqa tinglash: metodik usullar yordamida - rasm chizish, bayon etish va hokazo;

g) bolalar musiqa cholg'ularida jo'r bo'lish va ritmik harakatlar bajarish: o'rganilayotgan qo'shiq yoki tinglanayotgan musiqiy asarga mos chapak chalish, bolalar cholg'ularida (doyra, shiqildoq, surnaycha, metallafon...) jo'r bo'lish;

d) ijodiy vazifalar: mustaqil tarzda kuyga jo'r bo'lish uchun qaysi musiqiy cholg'u mosligini aniqlash, tinglangan kuy qanday xotira yoki tasavvurlarni uyg'otishini, tinglangan musiqiy asar qaysi ladda yozilganligini aniqlash (major yoki minor), asarning janrini aniqlash (qo'shiq, raqs, marsh), asarning o'lchovini, tempini, dinamik belgilarini aniqlash. Asardan olingan taassurotlarga tayangan holda rasm chizish.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

4. Uyg'a vazifa berish: yangi qo'shiq matnini yodlash, «Musiqia ifoda vositalari» mavzusini yodlab kelish.

✓ 1-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni

Birinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari

Birinchi sinf o'quvchilariga xos xususiyatlar quyidagilar:

- 1) To'liq shakllanmaganlik, organizmining nozikligi; bir xil holatda turish, bir xil faoliyat bajarish jarayonida, o'qituvchining ohangsiz nutqi, darslarning bir qolipda o'tilishidan tez charchab qolishlari; diqqatlarining tarqoqligi;
- 2) aqliy faoliyat jarayonida yo'naltirilganlik, tizimlilik malakalarining etishmasligi; yorqin xotira;
- 3) erkin diqqatlarining ko'lami torligi (shuning uchun dars jarayonida tez-tez faoliyatlarni o'zgartirib turish kerak);
- 4) Aniq va yorqin obrazli tasavvurga ega bo'lishlari;
- 5) o'yinga moyillik: eng murakkab materiallar ham o'yin orqali yengil o'zlashtiriladi. O'yin o'quvchilarning tasavvurlari, diqqati, xotirasi hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishini faollashtiradi.

Birinchi sinf o'quvchilarining musiqiy xususiyatlari

Kuzatishlarimizga ko'ra, birinchi sinf o'quvchilarining bilim darajalari bir tekis bo'lmaydi. Ayrim bolalar bimalol musiqani boshidan oxirigacha tinglay oladilar, qo'shiqlarni sof intonatsiyada kuylaydilar, ayrim bolalar esa aksincha tignlash va to'g'ri kuylash haqida tasavvurga ham ega bo'lmaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgunlariga qadar, musiqa to'garaklariga qatnashgan va maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiya olgan bo'ladilar. Ayrim bolalar musiqiy muhitda tarbiyalangan bo'lsalar, ba'zilari umuman musiqadan bexabar bo'ladilar. Shu nuqta nazardan qaraydigan bo'lsak, birinchi sinf o'quvchilari har xil xususiyatlarga ega bo'ladilar. Shunga qaramay, biz ularning ayrim umumiy qiyofalarini sanab o'tamiz:

1. Musiqani idrok etish borasida ular qo'shiq, marsh va raqs janrlarini idrok eta oladilar. Birinchi sinf o'quvchilari tinglaydigan kuy va qo'shiqlar hajmi jihatidan kichik va yorqin bo'lmog'i hamda tinglashdan avval o'qituvchi uning ifodaviyligi, musiqiy obrazlari, ma'no va mazmuni haqida tushunchalar berishi kerak.

2. Kuylash borasida, birinchi sinf o'quvchilari avvalgi (maktabgacha bo'lgan davrga) musiqiy tayyorgarliklariga bog'liq. Tayyorgarligi bo'lmagan bolalarning ovoz diapazoni 2-3 tovushdan, tayyorgarligi bor bolalarda bir oktavagacha ovoz diapazoni rivojlangan bo'lishi mumkin. O'qituvchi kuylash

jarayonida bolalarning ovoz apparati to'liq shakllanmagan, nozik, ovoz poyalari ingichka bo'ladi. Shuning uchun kuylashda baqirmasdan yumshoq ovozda kuylash kerak. Bu davrda bolalarning (7 yoshli) ovoz diapazoni re-lya birinchi oktavagacha bo'lgan tovushlarni qamrab boradi. Lekin dars jarayonida bu diapazon ayrim hollarda birinchi oktavaning si va ikkinchi oktavaning do va re tovushlarigacha ko'tarilishi mumkin. Biroq o'quvchilar birinchi oktava do tovushi va undan quyiroq tovushlarni kuylay olmaydilar. Chunki ularning ovozlari tabiatdan jarangdor va yorqindir.

3. Ijodiy yondashish borasida birinchi sinf o'quvchilarining imkoniyatlari kengdir. Ular bemalol har xil ijodiy topshiriqlarni bajaradilar. Ular biror so'zga melodik va ritmik badihalar qilishlari mumkin. Ular musiqiy cholg'u asboblari yoki sahnaviy ko'rishnislarda, tanish bo'lgan qo'shiqlarni harakatlar va pantomimalar bilan ko'rsatib bera oladilar.

Musiqani idrokini rivojlantirish vazifalari va ularning o'zaro bog'liqligi

Musiqiy idrok - musiqani tinglash faoliyati barcha musiqiy mashg'ulotlarning asosidir. Musiqiy tovush balandligi, uning ritmik suratini tinglamay kuylab bo'lmaydi. Lekin musiqani tinglash oson emas, chunki har bir musiqiy asarning xarakteri musiqaning ifoda vositalari orqali aks ettiriladi va doimiy rivojlanish va harakatda. Shuning uchun musiqani tinglashni o'rganish kerak. Musiqani tinglashni har qanday musiqiy jarayonda - qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar bajarish, musiqiy cholg'ularda jo'r bo'lish, musiqani savodi jarayonlarida ham o'rganish mumkin.

«Musiqani sevish uchun, avvalambor, uni tinglay olish kerak...» - degan kompozitor D. Shostakovich. Musiqani idrok etish masalalariga bir qator rus olimlari N.Vetlugina, E.Gorskaya, G.Rigina, N.Grodzenskayalar murojaat qilganlar (avvalgi boblarga qarang).

Musiqani eshitish va tinlashni o'rgatish 1-sinf o'qituvchisi oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. Avvalam bo' o'qituvchi musiqani boshqa san'at turlaridan farqi nimadalgini tushuntirib bermog'i lozim. Musiqani his qilish, anglash, tushunish uchun uni tinglay olish muhimdir. Buning uchun bolalar musiqaning ifoda vositalari haqida - kuy harakati, ritmik surati, registrlarning ifodaviylik ahamiyati, sur'at, dinamika, lad bo'yoqlari (major va minor) va boshqalarni bilishlari kerak.

Asosan musiqani tinglash faoliyati quyidagi to'rtta shartli bosqichlarda o'tkaziladi:

1. Kirish so'zi.
2. Asar ijrosi.

3. Tinglangan asar haqida suhbat.

4. qayta tinglash.

Bu bosqichlar shartli deb bejiz ta'kidlamadik. Dars tuzilishi, asar mazmuni va mohiyatiga qarab bu bosqichlar qisqartirilishi yoki kengaytirilishi ham mumkin.

Birinchi sinfda kuylash malakalarini shakllantirish

Birinchi sinfda kuylash malakalarini shakllantirish bevosita musiqiy eshitish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liq. Sof intonatsiyada kuylash, aniq idrok etib, tinglangan tovushni toza ijro etishdan iboratdir. Gohida musiqiy tovushlarni to'g'ri idrok etadigan, biroq to'g'ri kuylay olmaydigan o'quvchilar ham uchrab turadi. Sinfda turli xususiyat va odatlarga ega bolalar bo'lganligi tufayli, o'qituvchi barcha bolalarga mos keladigan usullarni qo'llashi kerak. qo'shiq kuylashni o'rganayotganda sekin-asta takrorlash usullari bilan, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilgan holda, qo'shiq ritmini sanagan holda ko'zlangan maqsadga ehrishadilar. Bolalar ko'pincha o'qituvchiga taqlid qilishlarini hisobga oladigan bo'lsak, o'qituvchi o'quvchilarni kuylatishidan avval qo'shiqni o'zi ijro etib berishi lozim. O'qituvchi kuylash jarayonida nafaz, talaffuz, ansambl, soz ustida ish olib boradi. Buning uchun o'quvchilarni o'qituvchini qo'liga qarab, qo'shiqni barobar boshlash va barobar tugatishlarini nazorat qilib borish kerak. har qanday tovushni chiroyli, baqirmasdan, to'g'ri nafaz olib, undoshlarga unli tovushlarni qo'shgan holda kuylash yashxi natija beradi. Nafas olganda, «...xuddi gul hidlagandek,» (N.Grodzenskaya) olish muhimdir. O'quvchilar nafaqat o'zlarini, balki, sinfdoshlarining ham kuylashini eshita olishlari kerak. qo'shiq kuylash jarayonida, musiqa tinglash jarayonida bo'lgani kabi, o'quvchilarga musiqa savodidan ma'lumotlar berib boriladi.

Endi qisqacha qo'shiq o'rgatish jarayoniga to'xtalib o'tamiz.

Qo'shiq ijrosini ko'rsatib berish. Bolalarni o'rganiladigan qo'shiq bilan, uning yaralish tarixi, ijodkorlari va qo'shiqning mazmuni bilan tanishtiriladi. O'qituvchi o'zi mazkur qo'shiqni ijro etib beradi. O'qituvchining ijrosi badiiy jihatdan yorqin va ifodali bo'lishi lozim. Agar o'qituvchi o'zi ijro etib bera olmasa, qo'shiqni magnit tasma yoki boshqa yozuvlar orqali ham eshittirish mumkin. Baribar o'qituvchi qo'shiqni o'rgatish jarayonida o'quvchilarga qo'shiqni bo'laklarga bo'lib kuylab berishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun qo'shiq qanchalik kichik va sodda bo'lishiga qaramay, o'qituvchi uni yuqori saviyada ijro etib berishi muhimdir.

Qo'shiq haqida suhbat. qo'shiqning badiiy ahamiyatini aniqlash maqsadida o'qituvchi bolalarga qo'shiqning xarakteri, ifodaviyligi, dinamikasi va boshqalar haqida so'zlab beradi. Bu sinfdagi bolalarga ko'proq quvnoq, sho'x xaraktyerdagi qo'shiqlar yoqadi. Shuning uchun ularga g'amgin, qayg'uli qo'shiqlarni o'rgatish qiyinroq kechadi.

Qo'shiq so'zlari va ohangini o'rganish. Qo'shiqning qay darajada murakkabligiga qarab o'qituvchi uni so'zlarini alohida, kuyidan avvalroq o'rgatadi. Biroq hadeb so'zlarga berilmay, uni iloji boricha kuy bilan hamohanglikda o'rgatish yaxshi natija beradi. O'qituvchi qo'shiqni jummalarga bo'lib o'rgatadi. O'quvchilar jumalalar haqida tushunchaga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarga jumalarning o'rtasida nafas olish mumkin emasligini tushuntiradi. Bu jarayonda musiqa savodiga murojaat qilish kerakli natijani beradi.

Ijro ifodaviyligi ustida ishlash. Qo'shiqni o'rganish jarayonining boshidan to oxirigacha ijroni ifodaviyligiga ahamiyat berish kerak. Ko'pchilik mutaxassislarning fikriga ko'ra, o'quvchilar qo'shiqning so'zlari bilan kuyini to'liq o'zlashtirib bo'lganlaridan so'ngina ifodaviylikka erishish mumkin, ekan. Bu holda o'quvchilar o'z diqqatlarini so'zlarni va kuyini qanday kuylashga emas, balki qo'shiqning mazmunini ochib berishga qaratadilar. Ifodali kuylashni o'qituvchining asarning kompozitori va shoiri, uning yaralish tarixi hamda tarbiyaviy ahamiyati haqidagi kirish so'zi ham ta'minlab beradi.

1-sinfda musiqa savodi

Yuqoridagi bo'limlardan ko'rib turibmizki, musiqa savodi barcha faoliyatlarni birlashtiruvchi va o'quvchilarning ijodkorligini, ijro mahoratini oshiruvchi jarayondir. Shuning uchun bu jarayonni alohida mustaqil faoliyat sifatida ko'rib bo'lmaydi.

Birinchi sinflarda musiqa savodi jarayonini hamma o'qituvchilar har xil mavzularni o'rgatishdan boshlaydi. Kimdir tovushlar harakatidan, kimdir tovushlar balandligi, uzunligi va boshqalardan boshlaydi. Ayrim o'qituvchilar musiqa savodi jarayonini musiqiy registrlarni o'rgatishdan boshlaydi. qanday mavzudan boshlashidan qati' nazar o'qituvchi musiqa savodini boshqa faoliyatlar bilan uzviy bog'lashi kerak. Kuylashda tovushlar harakati, balandligi, cho'zimi haqida tushuntirsa, tinglashda ritm, metr, dinamika, o'lchov va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Bolalarga tovushlar harakatini qo'l yordamida tushuntirish ham yaxshi natija beradi. Ularga beshta barmoqlarimizni nota chiziqjariga qiyoslab notalar joylashuvini o'rgatish

mumkin. Birinchi sinf o'quvchilarining musiqa darsliklarida kerakli mavzularni o'zlashtirish uchun barcha ma'lumotlar, ko'rgazmalar keltirilgan bo'lib, ularni bolalar o'qituvchilari yordamida bemalol o'zlashtiradilar.

Muhimi birinchi sinf o'quvchilari «yuqori»ga va «pastga» harakatlanish tushunchalarini to'liq o'zlashtirishlari lozim. Buni amalga oshirishga «zinapoya» yordam beradi. O'quvchilar zinapoya yordamida tovushlarni pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga bemalol kuylay oladilar. O'quv dasturiga ko'ra birinchi sinf o'quvchilari tovushlar nomi, uzunligi, balandligi, ritmi, metr tushunchalarini, nota yozuvi haqida tushunchalarni egallashlari kerak. Maktabga kelgan bolalar uchun bu biroz murakkab bo'lsada, mahoratli o'qituvchi bu vazifalarni bemalol uddalay oladi. Birinchi darslardanoq nota yozuvi va unda notalar joylashuvini sekin-asta o'rgatilib, kuylatib borilsa, bu vazifalar hech qanday qiyinchilik uyg'otmaydi.

Tovushlar balandligi haqida tushunchalar quyidagicha beriladi:

- 1) baland, past va o'rta tovushlar - registr haqida tushunchalar berish;
- 2) bir xil balandlikdagi tovushni yuqoriga va pastga harakati haqida tushuncha berish;
- 3) bosqichma-bosqich harakat (zinapoya);
- 4) har xil balandlikdagi tovushlar turlicha nomlanadi : do,re,mi ...;
- 5) tugullanganlik va tugallanmaganlik (turg'un va noturg'un) va tonika tushunchalari beriladi;
- 6) tanish bo'lgan kuylar orqali major va minor ldlari haqida tushunchalar beriladi.

Yuqoridagi barcha beriladigan tushunchalar darsdagi musiqiy faoliyatlar jarayonida mustahkamlanib boriladi.

Tovushlar uzunligi haqida tushunchalar quyidagicha beriladi:

- 1) uzun va qisqa tovushlar qarama-qarshi ohangda beriladi;
- 2) eng ko'p qo'llaniladigan uzunliklar chorak va nimchorak notalar har xil sharh bo'g'inlar, qarsaklar orqali tushuntiriladi.

Birinchi sinfda yil va chorak mavzulari:

Yil mavzusi: Biz musiqani sevamiz.

1-chorak: Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar.

2-chorak: Musiqali o'yinlar va qo'shiqlar.

3-chorak: Xushnavo cholg'ularimiz.

4-chorak: Xushnavo cholg'ularimiz.

Demak, birinchi sinf o'quvchilari bilan Musiqa madaniyati darslarini olib borishda ularning yosh-psixologik xususiyatlariga, idroklari, xotira va

shuningdek, fiziologik xususiyatlariga ahamiyat berish oldinga qo'yilganmaqsadga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

- 1) Birinchi sinf o'quvchilariga tavsif bering.
- 2) Birinchi sinfda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
- 3) Qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
- 4) Birinchi sinfda o'quvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilar?
- 5) Birinchi sinfda musiqa savodi jarayonida nimalarni o'rgatish mumkin va bu jarayon qanday amalga oshiriladi?
- 6) Birinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
- 7) Birinchi sinfda darslikdagi materiallardan va qo'shimcha materiallardan foydalangan holda dars ishlanmasini tayyorlang.

2-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni

Ikkinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik, musiqiylik xususiyatlari

1-2-sinf o'quvchilarining ko'pgina umumiy jihatlari - idroki, fantaziyasi, xotirasi, qiziqishlari bo'lishiga qaramay, ular o'rtasida sezilarli farq bor. Birinchidan, 2-sinf o'quvchisi 1-sinf o'quvchisiga nisbatan, darsda o'zini qanday tutish, dars tartib-intizomi, kun tartibiga moslashganlik jihatidan ancha tajribaliroq bo'ladi. 2-sinf o'quvchisida iroda yetarlicha shakllangan bo'lmasada, 1-sinf o'quvchilariga nisbatan ular birmuncha qiyinchiliklarni engay oladi. 2-sinf o'quvchisi o'qish va yozish malakalarini egallagan bo'ladi. Bu esa o'z navbatida musiqiy bilimlarni ham ko'lamini kengaytirishga yordam beradi. Bularning barchasi o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi ularning 1-sinfda olgan bilimlariga asoslanadi.

Tashkillashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan, qiziqarli darslar o'quvchilarni birgalikda musiqa tinglashga, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashishga, jamoa bo'lib kuylashga, bir-birini tinglashga o'rgatgan bo'ladi.

Odatda 2-sinf o'quvchilari xuddi 1-sinf o'quvchilaridek, o'ta qiziquvchan bo'lmaydilar. Biroq, o'qituvchi ularning qiziqishlarini so'ndirmaslikka harakat qilmog'i kerak. Buning uchun o'qituvchi musiqiy

qobiliyati bo'lmagan o'quvchilarga nisbatan ham e'tiborliroq bo'lmog'i lozim va kelajakda ularning qobiliyati o'quvchilarga birlashtirib ularga ham alohida vazifadar berishi kerak. O'qish jarayonida o'qituvchi darsdagi vazifalarni osondan murakkabga, quyidan yuqoriga qarab olib borishi kerak. Boshlang'ich sinflardagi musiqa darslari umumiy ta'lim maktablarida o'quvchilarga badiiy ta'lim va estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Birinchi va ikkinchi sinflarning orasida unchalik farq bo'lmasada, lekin ikkinchi sinf bolalari tajribali o'quvchi, maktab qoidalariga ko'nikma hosil bo'lgan, diqqati mustahkamlashgan o'quvchi hisoblanadi.

Musiqa madaniyat darslarida dars faoliyatlarini tez-tez almashtirib turish, ularni musiqa qiziqishlarini yanada oshiradi. Ikkinchi sinfda ovoz apparatining nozikligi, mo'rtligi va ovoz pardalari to'la shakllanmaganligi sababli ovozlari falset ko'rinishida yangraydi. Ovoz diapazoni do1-re2 gacha bo'ladi. O'quvchilarda birinchi sinfda olgan bilimlari ikkinchi sinfda yanada mustahkamlanib, chuqurlashib boradi. Ular marsh musiqalari, tantanavor xarakterdagi musiqalar haqida ta'savurga ega bo'lib, bu musiqalarni janri, turlari haqida bilimga ega bo'ladilar. Shu tarzda qo'shiq va raqs janri ham o'rgatiladi.

2-sinf bolalari ovoz apparatining fizilogik xususiyatlari, ya'ni nozikligi, mo'rtligi ovoz pardalarining to'la shakllanmaganligi bilan ham birinchi sinf bolalaridan kam farq qiladilar. 2-sinf o'quvchilarining musiqiy qobiliyatlarining rivojlanishi birinchi sinfda berilgan darslarning sifat va mohiyatiga bog'liq. 1-sinfda o'quvchilar bilan o'tilgan samarali, qiziqarli tashkillashtirilgan darslar o'quvchilarda musiqa tinglash, qo'shiq haqida o'zining taassurotlarini ifodalash, xor jamoasi bilan qo'shiq kuylash malakalarini oshiradi.

Musiqa tinglash musiqa faoliyatining yetakchi turi hisoblanadi. Zeroki, darsda qo'llanadigan barcha musiqa materiallari asosan eshitib o'zlashtirish orqali amaliy faoliyat (kuylash, chalish, raqsga tushish, qadam tashlash)ga ko'chadi. Xususan, bolalar musiqaning uch asosiy janri (qo'shiq, marsh va raqs) ni: har bir janrning o'ziga xos turlanishi, uch janrning yirik asarlarida mujassamlashuvi va ularning qo'shiqona, raqsona va marshona xarakterga ega bo'lishini bilib oladilar. Mazkur janrlar vositasida musiqa nima haqida «So'zlashi» va uni qanday ifodalashini anglaydilar. Bu mavzular asosida olingan bilim va ko'nikmalar esa to'rt chorakda umumlashadi.

Musiqa pedagogikasi sohasidagi mutaxassislar tajribalari ikkinchi sinf o'quvchilarini psixologik fizilogik hamda musiqiy malakalariga musiqa qiziqishlariga asoslanib ularni musiqa darslariga qatnashishiga tayyor ekanliklarini ko'rsatadi. Bu yoshdagi o'quvchilar musiqa sa'nati bilan

birinchi sinfda, oilada, radio va televidenie orqali beriladigan eshitarishlar, ko'rsatuvlar orqali tanish bo'ladilar. Darsda bolalarning quvnoq kuy va qo'shiqlarni tinglash, kuylash raqs elementlarini bajarish hamda chapak va cholg'u asboblari chalish ishtiyoqlari oshib boradi. Chunki bu yoshdagi bolalarning diqqatlari hali uncha turg'un bo'lmaydi, ular ko'proq serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar. Bunga esa darsdagi musiqa faoliyatini turlarini maqsadga muvofiq almashib turishi yordam beradi. Shu bilan birga musiqa haqida yangi tushunchalar paydo bo'lib musiqani ongli o'rganishga qiziqish kuchayib boradi. Buning natijasida kuylashda va boshqa amaliy faoliyatlarni bajarishda faollik ifodalilik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Ammo bu yoshda bolalar ko'proq shirin so'zga moyil bo'ladilar. Shunga ko'ra, bolalarni musiqa madaniyati darslariga tobora qiziqtirishga, butun dars davomida quvnoq kayfiyatni saqlashga erishish lozim.

1-sinfda qo'llanilgan musiqa o'qitish metodikasi 2-sinfda ham deyarli o'zgarmaydi. Bu davrda musiqaga qiziqish va muhabbat uyg'otish, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish davom etadi. Barcha bilim, ko'nikma va malakalar chuqurlashtiriladi. Shuningdek, musiqani to'laqonli idrok etish, uning estetik kechinmalar va sifatli ijro nuqtai-nazaridan mukammal bo'lishi ta'minlanadi.

Ikkinchi sinf o'quvchilari psixologik fiziologik xarakterga ko'ra birinchi sinfga o'xshash bo'ladi. 2-sinf o'quvchilari o'z diqqat e'tiborini uzoq vaqt bir narsaga qaratib tutolmaydilar, juda tez charchab qoladilar. Shuning uchun ham musiqa madaniyati darslarida musiqiy ijroga ahamiyat berib borish chapak chalish, qadam tashlash kabi xilma-xil harakatlardan foydalanish zarur. Ayniqsa, bolalar musiqiy „cholg'u asboblari (Doyra, bubenga, rumba) da jo'r bo'lish va ritmik raqs harakatlarini bajarish bolalarni faollashtiradi va dars qiziqarli mazmunli o'tadi. 2-sinfda bolalar musiqaning xarakteri, obrazlar orqali olgan bilimlari nisbiy bo'lib, keyingi sinflarda aniq tushunchalarga aylanadi.

Musiqiy faoliyatlarning birinchi turlariga doir vazifalar ish mazmunini tashkil etadi. Mazkur faoliyatlar qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, raqs elementlarini bajarish, qadam tashlash musiqa madaniyatini tarkib toptirishda muhim rol o'ynadi. 2-sinfda qo'shiq kuylash-jamoa faoliyati sifatida o'quvchilarni bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. qo'shiq kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyadagi asab hujayralari faol qatnashadi, o'quvchilarda ijobiy his-tuyg'ularni faollashini ta'minlaydi, ko'krak qismi tovush hosil qiluvchi a'zolari artikulyatsiya va nafas organlarini faollashtiradi, hamda o'quvchilarni samarali kuylashga sharoit yaratadi.

2-sinfda o'quvchilarni ovoz diapazonini kengaytirishga alohida e'tibor berish lozim. qo'shiqlarni o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, o'quvi, xotirasi, tallafuziga ahamiyat berib tanlash maqsadga muvofiqdir.

Dars samaradorligini oshirishda dars mazmuni bilan bo'lgan ko'rgazmali qurollar, musiqa obrazlarini ifodalovchi badiiy suratlar, texnika vositalari, didaktik o'yinlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu yoshdagi o'quvchilarni ovozi o'zlariga xos juda mayin va yo'qimli tembrga ega bo'ladi. O'tirib va turib kuylaganda gavdani to'g'ri tutish, nafasni so'z o'rtasida olmaslik uchun rejaga solish, unli va undosh tovushlarni to'g'ri tallafuz qilish, sof intonatsiya ustida mumtazam ish olib borish lozim. Ovoz sozlashni primar tovushlardan (mi 1, fa 1, sol 1) boshlab, elkani ko'tarmasdan nafas olishga ahamiyat berish, ko'shiq kuylash samaradorligini oshiradi.

2-sinf o'quvchilarining psixologik, fiziologik va musiqiylik xususiyatlarini rivojlantirishda darsning har bir faoliyati bir-biri bilan uzlik bog'liq holda olib borilishi lozim. Darsning chorak, yil mavzulari bir-biri bilan izchil bog'lanib bir-birini to'ldirish kerak.

2-sinf o'quvchilarida ovoz apparatlari to'la shakllanmaganligi sababli, hali ancha zaif va nozik, ovoz pardalari esa kuchsiz bo'ladi, ovoz registri kuchi va tembr bo'yicha o'g'il va qiz bolalarda deyarli farq sezilmaydi. Shu sababli ularda tovush falcet tipida hosil bo'ladi. Ayrim bolalarning ovozlari normal holatda bo'lsada, ular sozga tusholmaydilar. Bunga sabab, ularda musiqa eshitish (slux) o'rgani bilan tovush qilish apparati o'rtasida musiqa tovushlari baland pastligini sezish bo'yicha umumiy koordinatsiya hali yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Natijada yil boshida bolalarning musiqiy o'quvi qobiliyatlari, musiqa tinglash ko'nikmalari va kuylash malakalari bo'yicha saviyalari bir xil bo'lmaydi. Shularni hisobga olib birinchi darsdan boshlab bolalarni musiqaga qiziqtirish yo'li bilan ularni musiqiy qobiliyatlarini, kuylash hamda ovoz sifatlarini sinchiklab o'rganib, ularni differensial (tabaqalashgan) tarzda guruhga bo'lish mumkin.

1-guruhga - iqtidorli musiqiy o'quvi yaxshi rivojlangan o'quvchilar.

2- guruhga - musiqani aniq eshita oladigan ammo sozga va o'qituvchi ovozigga tayyangan holda kuylaydigan o'quvchilar.

3-guruhga - sozga umuman tusha olmaydigan o'quvchilar kiritiladi.

Birinchi guruhga kirgan bolalarni orqaga, ikkinchi guruhga kirgan bolalarni o'rtaga, uchinchi guruhga kirgan bolalarni esa oldingi partalarga o'tkazish talab etiladi. Maqsad musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar oldinda o'qituvchi va orqada esa qobiliyatli ovozi rivojlangan bolalarning ijobiy tasirida musiqiy ravnaqini tezlatish hamda yil davomida guruhlar saviyasini tenglatishdan iboratdir.

Ayrim bolalarda ovoz kasalligi belgilari (masalan, doimiy xirillash, ovoz paychalarining to'la birlashmasligi kuzatilishi mumkin) ammo bular vaqtinchalikdir. Kasal bolalarni davolatish ota-onalar yordamida va qoidali qo'shiq kuylatish yo'li bilan bunday bolalar ovoqidagi nuqson bartaraf etiladi. Bundan ayniqsa, o'qituvchi ovoz gigienasini bolalarga tushintirib va sinfda qo'shiq kuylash holatiga doimiy e'tibor berishi muhim ahamiyatga ega. Dars davomida musiqa qobiliyati sust rivojlangan va ovozida ma'lum xastalik mavjud bo'lgan o'quvchilarning har bir yutuqi uchun ularni rag'batlantirish hamda qiziqtirish va ilg'or bolalar bilan teng darajada musiqiy faollik ko'rsata olishlariga ishonch hosil qildirish lozim.

2-sinfda o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarda musiqa qiziqishni uyg'otish va musiqiy taassurotni tarkib toptirish, musiqani san'at sifatida ongli idrok etishga zamin yaratadi. Natijada bolalarda musiqa haqida mushohada qilishning boshlang'ich asoslari vujudga keladi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi.

1. O'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
2. Musiqani (tinglash) idrok etish malakasini o'stirish.
3. qo'shiq kuylash malakasini o'stirish.

Musiqiy badiiy-g'oyaviy mazmun vastasida axloqiy estetik tarbiyalash.

O'quvchilarning aqliy nafosat va jismoniy rivojida raqs musiqali o'yinlar va musiqa mos harakatlar bajarish muhim ahamiyatga ega. Musiqa madaniyati darslarida musiqa mos harakatlar bajarish o'quvchilarning musiqiy o'quvi, xotirasi, ritm tuyg'usiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har qanday harakat turi musiqiy asarning sur'ati va ritmi ostida bajariladi, harakat bilan bog'liq musiqiy ohanglar bola xotirasida uzoq saqlanadi.

Raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib qomatni to'g'ri o'sishiga va badanini chini'tirishga yordam beradi. Demak, musiqa mos harakatlar o'quvchilarning aqliy nafosat qobiliyatini rivojlantirish bilan birga irodasini ham mustahkamlaydi. Masalan, marsh - o'quvchilarga g'ayrat va tetiklikni, raqs - ichki his-tuyg'ularni hosil etib raqsqa tushishga undaydi va zavqlantiradi.

2-sinf o'quvchilarida bolalar cholg'u aboblarida jo'r bo'lish eng qiziqarli mashg'ulotdir. Bolalarni cholg'u asboblari jonli tovushli o'yinchoq sifatida har bir o'quvchini qiziqtiradi. Cholg'u asboblari chalishga hamma intiladi, shuning uchun berilgan asarning bolalar xato qilmay to'g'ri his qilishga va xotirada saqlashga harakat qiladilar.

Shunday qilib yosh avlodni etuk inson qilib voyaga yetkazishda musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishii

ahamiyati katta. Musiqiy qobiliyatlar yordamida o'quvchilarda fikrlash o'ylash, mushohada qilish rivojlanadi.

Bolalar ovozi xususiyati va uning rivojlanishi

Musiqiy ta'limning asosiy maqsadi - maktab o'quvchilarini musiqa madaniyatlarini tarkib toptirishdan iborat, bunda o'quvchilarning musiqiy o'quvi, ritm tuyg'usi, musiqiy xotirasi melodik va garmonik o'quvi, tembr o'quvi kabi qobiliyatlarni rivojlantirish vositasida vokal xor hamda musiqiy idrok malakalari shakllanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda har bir o'quvchini alohida o'rganish undagi musiqaga qiziqishmi va ikkinchi sinfning imkoniyatlarini hisobga olgan holda repertuar tanlash va turli metodlardan umumli foydalanish lozim.

Bolalar ovozi parvarish qilish, vokal va xor malakalarini oshirishda qo'shiq o'rganishdan oldin maxsus vokal mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda avval o'quvchilarning ishchi diapazonining primar(o'rta) tovushlardan boshlab pastki tomon yo'naluvchi tetraoxdlardan foydalaniladi. Nafas esa me'yorida, shovqinsiz, elkani ko'tarmay, o'z vaqtida olish va mayin atakada kuylashga alohida e'tibor beriladi.

Ularning ovoz diapazonining haddan tashqari past yoki yuqori pardalarida kuylatish yaramaydi.

2-sinfdan o'quvchilarning ovoz diapazoniga alohida e'tibor berish lozim. 2-sinf o'quvchilarining diapazoni birinchi oktava «DO», ikkinchi oktava «RE» ga cha bo'ladi. Dasturda berilgan qo'shiqlar diapazoni yuqori bo'lganligi sababli ba'zi o'quvchilar qo'shiqning bu pardalarida mutlaqo noto'g'ri ijro etadilar, yoki umuman ayta olmaydilar Shu tufayli o'quvchilarning ikki ovozga ajratish, ya'ni ovozi yuqori pardalarga ko'tarilmaydigan o'quvchilar jim eshitishlari, qolganlar kuylashi talab etiladi. Shuningdek, ovozga ajratish o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishda, ularni guruhlariga bo'lishda ham qo'l keladi. Har bir ovoz guruhning alohida kuylanishi o'quvchilarni ko'p ovozlikka tayyorlab boradi va ularda mustaqillik hissini tarbiyalaydi.

2-sinf o'quvchilarining ovoz apparati o'ziga xos musiqa asbobi bo'lib, u o'zining nihoyatda tembr boyligi, nozik musiqa ohangini ifodalash xususiyatlari bilan musiqa asboblardan ustun turadi. Qo'shiq aytib kuylaganda bolalar organizmining deyarli hamma a'zolari ayniqsa, tovush hosil qiluvchi artikulyaciya nafas organlari va nerv to'qimalari faol ishtirok etadi. Agar mazkur organlarning biri qo'shiq kuylash jarayonida noto'g'ri ishlasa ovoz apparatiga va ovoz hosil bo'lishiga zarar etishi mumkin. Buning

uchun bolalar ovozini parvarish qilish va vokal xor malakalarini shakllantirishda maxsus vokal mashqlarini ya'ni oktava miq'yosidagi qismlarida ovozni bir maromga solish katta ahamiyatga ega. Qo'shiq kuylash jarayonida o'quvilar ovozini baqirib, kuchanib aytmasligiga ahamiyat berish lozim. Chunki bunday hollarda ovoz pardalari shikastlanishi mumkin. Nafis gul hidlagandek burun bilan ochib, asta sekin chiqarish malakalarini rivojlantirib borish zarur. O'quvchilarni ovoz tembri, ovoz diapazoni va sof intonatsiyasiga katta ahamiyat berish zarur. Shuningdek, qo'shiq kuylaganda asar mazmunini kirish avji, tugatish joylariga e'tibor berish, sof intonatsiya, nafas tallafuziga rioya qilib erishish lozim. 2-sinfda o'g'il va qiz bolalar ovozi bir-biridan uncha farq qilmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qo'shiq kuylashga o'rgatish musiqa madaniyati darslarining amalga oshirish mumkin bo'lgan muhim masalalaridan biridir. qo'shiq kuylash har bir bolaning o'ziga jalb qiluvchi samarali natija beruvchi jarayonidir. Bolalarda kuylash malakalarining shakllantirishda musiqa o'qituvchisidan katta malaka va bilim talab etiladi. Chunki bunda diqqat, xotira, musiqiy o'quv shakllanib boradi. qo'shiq kuylash jarayonida bola organizmining deyarli barcha a'zolari faol ishtirok etadi. Vokal xor malakalarini hosil etishda bu organlarni bir maromda o'zaro aloqada normal ishlashiga erishish zarur. Nota bilimlarini, uning matnini tushinish qo'shiq o'rgatishni osonlashtiradi. Kuyni puxta ijro etishga va yaxshi ehsda saqlashga yordam beradi. Shuningdek, nota savodini bilish ikki-uch ovozda kuylash malakalarini o'stiradi. Ikki ovozda kuylashda asosiy maqsad ikki ovozlari tovush yangrashining yaxshi soz bilan barobar uyg'un va ravon bo'lishiga erishishdir. Oldin ovoz sozlash mashqida har bir ovozda sof intonatsiyaga erishish lozim. So'ng qo'shiqning, musiqiy jumllariga bo'lib har bir ovoz bilan alohida o'rganib chiqish lozim. Ovozlar mukammal o'rganilgandan keyin ikki ovozni qo'shib birgalikda kuylatish mumkin.

Ikkinchi sinfda vokal-xor malakalarini rivojlantirish ishlari

2-sinfda vokal xor ishlari birinchi sinfda olingan bilim va malakalarni mustahkamlash va qo'shiq kuylashdagi mavjud nuqsonlarni tuzatib borishdan iboratdir. Bunda bolalarning qo'shiq kuylash jarayonidagi musiqa o'quv qobiliyatlarini rivojlantirish va bu ularning umumiy musiqa idroki, ravnaqi uchun muhim ekanligini hisobga olish lozim. 1-sinfdagidek, bolalarni xor sa'natiga muttasil qiziqtirib borish lozim. Xorning o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, unda hamma ishtirokchilardan «Diqqat», «Auf», «Ijroni boshlash», «Ijroni tugatish» kabi zarur dirijyorlik ishoralariga amal qilib

kuylashi talab etiladi. Ayniqsa, bolalarni qo'shiq kuylash holati (Xor ustanovkasi, ya'ni, qo'llarni tizzalarga erkin qo'yib, stul suyanchig'iga suyanmasdan, bosh va gavdani to'g'ri tutib o'tirish) ga doim amal qilib kuylash kerakligi ham ehsolatib boriladi. 2-sinfda ham bolalarning o'qituvchi ovozigga «Tayanib» kuylash uslubi davom etadi. Shuning uchun osoyishta yengil nafas olib, vokal tovushlarini to'g'ri hosil qilib ko'rsatish, talaffuzning burroligi, yumshoq va lo'nda ovoz hosil qilish kabi muhim malakalarda o'qituvchining o'zi yaxshi namuna bo'lishi shart.

2-sinfda bolalar malakalarinng oshib borishi fiziologik o'sish munosabati bilan ovoz kuchi, diapazoni, tembri, ovozining cho'zimi va boshqalarining o'zgarib borishi vokal xor ishlarini ma'lum sistema asosida clib borishni talab etadi. Bunda bolalar ovozlari avaylab tarbiyalash, xorda kuylaganda bolalarda onglilik va badiiy kuzatuvchanlikni rivojlantirish, xor ijrosidagi ikki ovozlikni sezib ajrata olish va o'qituvchi ovozigga tayanib ikki ovozlilik elementlari bo'lgan qo'shiqlarni kuylash malakalarni hosil etish asosiy maqsad deb hisoblanadi.

Vokal xor ko'nikmalarini rivojlantirish usullari: U ko'pincha maxsus mashqlar (a, u, yu, da, deh, di, do, du) va qo'shiqlar o'rganishda so'zlarni fonetik jihatdan aniq ravshan tallafuz etish yo'li bilan shakllanib boradi. Shuningdek, unli tovushlarni cho'zib va undosh tovushlarni tez, aniq talaffuz etib kuylash vokal tovushlarini to'g'ri hosil etish juda muhim ahamiyatga ega. Kuylashda ligattoga erishish esa, osoyishda va ravon nafas olish va chiqarishga bog'liq.

Vokal nafasi nutq nafasidan farqli o'laroq o'pkaga me'yorida havo olib, uni musiqiy jumlaning oxirigacha etkazib ravon va osoishta sarflashdan iboratdir.

Diktsiya (tallafuz) qo'shiq kuylashda alohida o'rin egallaydi. Bunda unli tovushlar cho'zib, undoshlar qisqa, tez va aniq tallafuz etiladi.

Ansambl - xorda ovozlarning ritmik, dinamik, temp, tembr va intonatsion uyg'unligidir. Soz malakasi esa, ansamblning vujudga kelishida asosiy omil hisoblanadi. Qo'shiqlarning badiiy ijro etilishiga ovozlardagi soz va ansamblning uyg'unligi vositasi bilangina erishish mumkin bo'ladi.

Ritm ansambli musiqa asarining metrik hissalarini sezib kuylashga yordam beradi.

Dinamik ansambl - asardagi obrazlarni tasvirlashga yordam beradi. Asardagi obrazlarni tasvirlashda kompozitor kuchli va kuchsiz tovushlardan foydalanganligi aniqlanadi, albatta. Shundagina o'quvchilarda forte va piano dinamik turlari haqida aniq tushuncha hosil bo'ladi.

Temp ansambli xor ishtirokchilarining ma'lum bir su'ratda kuylashga erishishidir. Temp asar xarakteriga bog'liq. Qo'shiqning bandlari va naqorati xarakter jihatdan bir biridan farq qilib tempning o'zgarishiga ham ta'sir etishi mumkin.

Tembr ansambli ustida ishlaganda, o'g'il va qiz bolalar ovozlari registr va tembr jixatidan bir-biriga yaqinligi sababli hozircha asosan ovozlarni fonetik jihatdan bir teksda hosil etib kuylashda o'rgatish. Tembr ansamblining vujudga kelishi ijrochilarning malaka va tajribalari bilan bog'liqdir.

Ikki ovozda kuylash xor sa'natining asosiy xususiyatlaridan biridir. Ammo u bir oz qiyinchiliklar bilan amalga oshadi. Ikki ovozda kuylash zahirida o'quvchilarning garmonik intervallarni his qilish o'quvini rivojlantirish yetadi. Ikki ovozda kuylashning elementar ko'nikmalari ham birinchi sinfdan boshlab rivojlana boradi:

1. Akkomponimentida qo'shiq ohangi takrorlanmaydigan asarlarni kuylatib, bolalarda e'tiborni taqsimlash ko'nikmasini shakllantirish. Bu - o'quvchilarni qo'shiq kuyini akkomponiment ritmi va tempiga mos holda, tonallikdagi melodik sozdan chiqmasdan kuylashga o'rgatishdan iboratdir.

2. Qo'shiqning ritmik tuzilishini chapakda yoki og'zaki tarzda ijro etish. Bolalar avval qo'shiqning ritmi, taktning metrik hissalarini chapakda chalib kuylaydilar. So'ng chapak, doyrachalar, uchburchak urma cholg'u, shaqildoqlarda chalib, qo'shiq va cholg'u kuylariga ritmik jo'r bo'ladilar. Mazkur uslublar bolalarda faqat ikki ovozlik malakalarinigina rivojlantirib qolmay, balki ularda ritm tuyg'usi va ijodkorlikni ham o'stiradi. Shuningdek bolalarda diqqat e'tiborni kuchaytiradi. 2-sinfda yangi va muhim element sifatida bolalar bilan mashq va qo'shiqlar ohangiga o'qituvchi ikkinchi ovoz sifatida jo'r bo'lib ikki ovozlikni vujudga keltirishi lozim. Bunda bolalardan ikki ovozlikni qanday his etayotganliklari va uning ta'sirchangligini so'rab, ularni ikki ovozli qo'shiq nafasatiga qiziqtirish lozim.

Ikki ovozlikni hosil etishda bolalarni mayin ovozda kuylatish zarur. Aks holda ikkinchi ovoz eshitilmay qoladi. Xor bilan ashula aytish murakkab psixologik fiziologik jarayon bo'lganligi sababli o'qituvchi xor bilan ishlash uslublari, bolalar ovozinig o'ziga xos xususiyatlari va repertuar imkoniyatlarini puxta bilgan holda ishga kirishishi lozim.

Ikkinchi sinf qo'shiq repertuari xarakteristikasi

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2-sinf o'quvchilarining intilishlari, qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda qo'shiq repertuarini tanlash

maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini o'qitish davrida o'quvchilarni go'zallikni his eta oladigan, musiqaga mehr va havas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Chunki maktabda musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda «musiqa madaniyatini» tarkib toptirishdir. Musiqa madaniyati darslarida musiqa faoliyatlari oddiydan-murakkabga qarab borish prinsipi asosida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirilishi lozim.

Boshlang'ich (1-4) sinflarda qo'shiq repertuarini tanlash orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

1. Tanlangan asarlar orqali o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini (musiqiy o'quvi, ritmi, tuyg'usi, diqqati, xotirasi nutqini) o'stirish.

2. O'quvchilarni milliy musiqamizga, ona Vatanga, tabiatga muhabbat, go'zallikni his etish tuyg'usini tarbiyalash.

3. O'quvchilarni mexnatga, o'qishga, hayotga o'z-o'zini va atrofdagilarni hurmat qilish, o'zgarlar mehnatini qadrlashga o'rgatish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, har bir darsga ijodiy yondoshib, yangi dastur talablariga muvofiq dars o'tishi lozim. Musiqa fanidan bir yilda ikki marta yarim yillik taxminiy mavzuli ish reja konspekt tuziladi. Bunda o'quvchilarni (sinf), ovoz dipazoni, musiqaga qiziqishi va qobiliyati, yil fasillari, bayramlar yil, chorak, dars mavzulari hisobga olinib, yangi dasturdan foydalanib dars tuzilishi asosida tuziladi. qo'shiqlarni tinglash uchun asarlarni o'quvchilar istagi va yangi zamonaviy qo'shiqlar bilan dars rejasiga mos keladigan asarlarga o'zgartirish mumkii. Musiqa darslari asosan bir haftada bir soat o'tiladi. Shuningdek, har bir o'quv yilida 12-14 asarlar tinglanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan bir ovozli qo'shiqlarini kuylashadi. Ikkinchi sinfning ikkinchi yarmidan boshlab ikki ovozlik ehhlimenti bor qo'shiqlar kiritilgan. Shunga ko'ra oddiydan-murakkabga prinsipi asosida musiqiy asarlar tanlanadi. qo'shiqlarni o'rgatish jarayonida pala-parpartish, shoshma-shosharlik bilan o'rgatish, o'quvchilarda beparvolik hissini uyg'otadi, aksincha yaxshi ijro etilgan, mazmuni tushuntirib o'rgatilgan qo'shiqlar chuqur ijobiy taassurot qoldiradi. Takrorlash «Bilimlar onasi» deydi dono xalqimiz. qo'shiqlarni mukammal o'zlashtirish uchun vaqti-vaqti bilan takrorlab turish lozim. Har bir bola qaysi kasbni tanlashdan qat'i nazar, musiqani, musiqa va qo'shiqlar, o'quvchilar hayotini nafaqat bezaydi, ayni paytda unga tantanovar sho'xchanlik, bayramona kayfiyat baxsh etadi. Shunday qo'shiqlar borki, hayotni yanada boyitishga va yaxshilashga xizmat qiladi, - deydi mutafakkirlarimiz. Bunga misol qilib, «Bolalar va g'ozlar» J.Najmiddinov musiqasi, «Maktabim» F.Nazarov musiqasi, «Xakkalar»

N.Norxo'jaev musiqasi, «Paxta oy» F.Nazarov musiqasi singari qo'shiqlarni misol keltirish mumkin.

Dasturda berilgan barcha qo'shiq repertuarlari Davlat ta'lim Standartlari talablariga to'liq javob bera oladi. Musiqa o'qituvchisi o'ziga talabchan inson bo'lishi, ehrishgan muvaffaqiyatlardan kifoyalaniq qolmasligi kerak. Shunday musiqa o'qituchisigina yaxshi tashkilotchi faol jamoatchi, o'z kasbini, bolalami yaxshi ko'radigan malakali mutaxassis bo'lishi lozim. Musiqa madaniyati darslarida o'rgatiladigan qo'shiqlar repertuarida foydalanganda musiqa o'qituvchisi, o'quvchilarni psixologik xarakterini, ovozini, qiziqishini asta-sekin o'rganib borishi, iqtidorli o'quvchilarni sinfdan tashqari to'garaklarga taklif qilishi, musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan esa, yakka tartibda va dars jarayonida ish olib borish, topshiriqlar berishi lozim. DTS musiqa dasturida berilgan qo'shiqlar repertuari ilmiy, zamonaviy, mumtoz, o'quvchilar yoshiga, ovoz diapazoniga mos asarlar bo'lib mazmunan tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi xarakterga ega. Ya'ni bu qo'shiqlar mazmuniga Ona - Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, hurmat tuyg'ulari aks ettirilgan.

Masalan: «Diyor madhi» N.Norxo'jaev musiqasi, «Oy vatanim» Sh.Yormatov musiqasi, «Sog'lom avlod qo'shiqi» Sh.Yormatov musiqasi, «Biz askarmiz «N.Norxo'jaev musiqasi, «Ochil paxtajon» F.Nazarov musiqasi, «Nisholda» D.Omonullaeva musiqasi, «Qadim Turon» N.Norxo'jaev musiqasi kabi qo'shiqlar shular jumlasidandir.

Masalan, «Oy bo'lamiz toy bolamiz» qo'shiqi X.Rahimov musiqasi, S.Barnev qalamiga mansub. Ushbu asarda bolalar kelajakda Amir Temur bobolaridek botir, qo'rqmas, jasur bo'lishlari haqida kuylanadi. Iigitlar Alpomishdek, Barchindek zukko, bilimdon bo'lib voyaga etishlari, ona Vatanga mehr muhabbatli, sodiq, mard o'g'lon bo'lib xizmat qilishlari haqida madh etiladi. Bu qo'shiq kuplet shaklida. Qo'shiq raqs xarakterida, tez sur'atda ijro etiladi. Qo'shiq fa major tongligida yozilgan.

Bu qo'shiqlar komil- insonni tarbiyalashda uning qobiliyatini, didini o'stirishda musiqa muhabbat tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati darslarida qo'yilgan asosiy metodik talab - olingan musiqiy bilimni bevosita amalda qo'shiq kuylash, musiqa tinglash faoliyatlarida qo'llashdan iboratdir. O'quvchilarga o'rgatiladigan qo'shiqlar repertuari murakkabligiga qarab 2-3 soat o'rgatiladi. Berilgan mavzularni oson o'zlashtirish uchun qo'shiqni ifodali ijro etib borish, mavzu asosida rasmlar chizish, ularni tahlil qilish, texnik vositalardan foydalanish, qo'shiqni magnitafonda tinglash, tarqatma materiallardan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini

qo'shiq kuylaganda ovoz apparatlariga ziyon etmaslik uchun ularning ovoz diapazonlarini o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. Dasturdagi qo'shiqlarlar repertuari har bir sinf uchun alohida berilgan. qo'shiqni o'rgatishdan oldin maxsus yaqqol har xil mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsdan tashqari tashkil etaladigan turli tadbirlarda faol ehshtirok etish uchun o'quvchilarni muntazam ravishda tayyorlab borish kerak. Buning uchun o'quvchilarni musiqa madaniyati darslarida ijrochilik mahoratini takomillashtirib borish va ularni o'zaro uyg'unlashishini mustahkamlashda ba'zan «Sinf sahnasiga» chiqish kuylatish yaxshi natija beradi.

Qo'shiqni to'liq o'rganib bo'lgandan so'ng 2-3 darsdan so'ng yoki chorak oxirida «dars konsert» o'tkazish tavsiya etiladi. Sahnaga chiqish sinfdagilar orasida o'z o'rnini topish, kuylaganda bir-birini his qilish va o'z joyiga borib o'tirish kabi sahna madaniyatiga qat'iy amal qilish, o'quvchilarni o'zaro munosabatiga va xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. «Sahnada» kuylash o'quvchilarning repertuaridagi qo'shiqlarni qay darajada o'rganib olganlarini anglash, asarning ayrim jumlarini «pishitib» olishga va qo'shiqni tantanali sharoitda namoyish qilish imkonini beradi. «Sinf konserti» o'quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etadi. Darsni sifatli va qiziqarli olib borish uchun noan'anaviy dars shakllarini musiqiy viktorinalarning ahamiyati katta. Bunda o'quvchilar bilan turli mazmunli o'yinlar o'tkazish yaxshi natija beradi.

Sinfdan-sinfga o'tishda bolalarda fanni o'zlashtirish oson kechishi uchun bosqichlararo uzluksizlikni va faoliyatlararo uzviylikni ta'minlash pedagogika fanining eng muhim tamoyillaridan biridir.

Yil va chorak mavzulari:

Yil mavzusi: Ijrochilik turlari. Musiqaning ifoda vositalari.

1-chorak: Musiqaning ifoda vositalari

2-chorak: Yakkanavozlik, jo'rnavozlik va jo'rsozlik.

3-chorak: Yakkanavozlik va yakkaxonlik. Cholg'ular va xonandalar dastalari.

4-chorak: Dasta turlari. Kuy nima? Kuyda nimalar ifodalanadi? Musiqaning ifoda vositalari.

Savol va topshiriqlar:

- 1) Ikkinchi sinf o'quvchilariga tavsif bering.
- 2) Ikkinchi sinfda musiqa tinglash faoliyati qanday amalga oshiriladi?
- 3) Qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
- 4) Ikkinchi sinfdagi qo'shiq kuylash repertuarini aytib bering.
- 5) Ikkinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'tiladi?
- 6) Ikkinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
- 7) Ikkinchi sinfda darslikdagi materiallardan va qo'shimcha materiallardan foydalangan holda dars ishlanmasini tayyorlang.

3-4-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni

3-4 sinf o'quvchilarining psixologik, musiqiy xususiyatlari

3-4-sinf o'quvchilari o'zlarining pedagogik-psixologik xarakteriga ko'ra quyi sinflardan ancha farq qiladilar. Ularning diqqat-e'tibori turg'un, xotirasi kuchli, nutqi ravon, hayotiy tajribasi ko'lami ancha keng, fanlarga qiziqishlari yuqori bo'ladi. Jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatidan kattaroq bo'lgan musiqani hal etishga, izlanish, mustaqil mushohada etishga qodir bo'ladilar.

Bu yoshdagi bolalarda bosh miya anatomic tuzilishining yanada faolroq shakllanishi kuzatiladi. O'qish uning funksiyalari rivojlanishiga kuchli omil sifatida ta'sir qiladi. Jumladan, predmet-obrazli tafakkurdan sekin-asta mavhum, izohli-mantiqiy tafakkur sari o'tish uchun sharoit tug'iladi. Lekin, baribir o'qituvchi yosh o'quvchi hamma narsadan o'zining shaxsiy hissiy tajribasiga, xususiy taassurotlariga, bilimlariga, hayotga yaqinroq tayanch izlashini unutmaslik kerak. Shu-sababdan, bolaning fikrini narsalar va hodisalarning qonuniyatli tarzda bog'liqligini idrok etishga yo'naltirish maqsadida bevosita ta'sir qiladigan ob'ektlarni tanlash juda muhimdir.

Bu yoshdagi o'quvchilarda, ular uchun qiziqarli bo'lmagan ishdan hali charchaydi, bevosita ta'sir jozibasiga bo'lmagan materialga diqqat qilishi qiyin bo'ladi. Bu holni hisobga olgan holda butun ta'limni birgina qiziqish asosida, yoqib qolganligi vajidagina olib borib bo'lmaydi. O'quvchilar o'qishning jiddiy iroda kuchini talab qiladigan mehnat ekanligini qanchalik tez tushunib olsalar va his ehtsalar, ularda diqqat-e'tiborning barqarorligi, o'quv

faoliyatida harakatlarni yo'naltirishi va erkin tarzda uyushtirish qobiliyati shunchalik erta paydo bo'ladi.

Bu yoshdagi o'quvchiga jadal harakat faolligi xos bo'lib, bu faollik uning o'z xulq-atvorini yetarli darajada idora qila bilmasligi bilan qo'shilib, ko'pincha ta'sirga beriluvchanlikni, o'zini tuta bilmasligini keltirib chiqaradi. O'quvchining harakatchanligini, motorikasini to'g'ri shakllarda uyushtirmoq, unga maqbul keladigan yo'nalish berish kerak.

3-4-sinf o'quvchilarining o'qishga munosabatida muayyan dinamika kuzatiladi. Nihoyat, bola o'quv faoliyatining ichki mazmuniga qiziqib, o'quv-nazariy vazifalarni aniq va amaliy vazifalarga o'zgartira oladi. Uning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish zamonaviy pedagogika-psixologiya fanlarining vazifasidir. Bola kuzatuvchanligi haqida gapiradigan bo'lsak, bu sinflardagi bolalar allaqachon ixtiyoriy diqqatga ega bo'lgan bo'ladi. Ixtiyoriy diqqat yoki diqqatni u yo bu masalaga maqsadli yo'naltirish - bu yoshdagi o'quvchilarning muhim yutuqlaridandir. Xuddi boshqa psixologik jarayonlar kabi bollar emotsiyasining umumiy xususiyatlari ham o'zgarib bordi. Bu davrda bolalarda jamoachilikka intilish, jamoa ichida o'zini bemalol tuta olish malakalari paydo bo'la boshlaydi.

3-4-sinf o'quvchilarida ovoz apparatlari shakllangan, vokal-xor malakalariga ega, musiqa haqida bilimga ega bo'ladi. Ovoz apparati mexanizmi tuzilishi murakkablashadi. Hiqildoqda muhim paylardan - ovoz paylari rivojlana boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarning ovozi ancha kuchli va jarangdor eshitaladi. Ovoz tarangligi kuchayadi va qo'shiqchilik ovozi shakllana boshlaydi. Muayyan tembrdagi ohangning paydo bo'lishi o'g'il bolalar ovozinin diskant va altga bo'linishiga sabab bo'ladi. Diskantlar o'zining yengilligi, jarangdorligi, yorqinligi bilan ajralib tursa, altlar esa o'zining kuchsizligi, xiraligi, jarangsizligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun bu yoshda o'quvchilarda ko'p ovzli kuylash malakalari rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi.

Rus pedagoglari I.Ponamarev, A.Karasev, N.Kovin, D.Zarin, A.Maslovlar o'zlarining ilmiy izlanishlarida ovoz yo'nalishlari parallel tovushlarda yozilgan ikki ovozi qo'shiqlarni kuylash maqsadga muvofiq deb hisoblaganlar. Z.Koday ham bu haqida shunday degan: «Ko'povoziqlik nafaqat polifonik eshituvni rivojlantiradi, balki bir ovozi kuylashda ham muhim o'rin egallaydi». Shuni e'tiborga olish kerakki, sof intonatsiya bilan kuylash uchun avvalam bor, musiqiy asarni tinglay olish kerak.

3-4-sinf o'quvchilarining musiqa tinglash malakalarini rivojlantirish metodlari

Musiqa idroki - musiqa mazmunini eshita bilim va hissiy kechinmalari asosida o'zlashtirishdir. Musiqiy idrok - murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning asosida real borliqning obrazlar orqali musiqiy tovushlarda aks etishini eshita olish va undan ta'sirlanish qobiliyati yotadi. Idrok masalalari, xususan, musiqa vositasida uni rivojlantirish muammolari bilan ish olib borgan musiqashunoslar, psixologlar, pedagog olimlarning izlanishlari asosini tashkil etadi. Musiqashunos B.Yavorskiy «musiqani idrok qilish asosida fikrlash, musiqani «ma'noga ega nutq» sifatida qabul qilish malakasi yotadi», - deb ta'kidlaydi. O'quvchilarda musiqiy idrokn rivojlantirishda ularda musiqiy hissiy ta'sirchanlik, qiziqishni o'stirish, musiqiy ijodiy qobiliyatlar, didni rivojlantirishga qaratilgan ko'nikma va malaka shakllantirish talab etiladi. O'quvchilarda, ayniqsa, 3-4-sinflarda, musiqa idrokini rivojlantirish murakkab vazifadir. O'quvchi musiqani butunligicha umumiy xarakter, kayfiyat sifatida idrok etadi. Ular «g'amgin-quvnoq», «chaqqon-sekin», «pastu-baland», marsh, qo'shiq, raqs kabi kontrast obrazlarni yengil farqlaydilar, ammo shu bilan bir qatorda asarni doimo ham boshidan oxirigacha hayollarini buzmasdan tinglay olmaydilar. Ko'pincha, asarning boshlang'ich taktlarinigina tinglab, davomini eshitmaydilar. Shuning uchun asarni boshidan oxirigacha tinglash va idrok etishga o'rgatish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. «Musiqada har daqiqada o'zgarish sodir bo'ladi, tovushlar qaytariladi, o'zgaradi, tovushlar urli kayfiyatlarni birlashtiradi», degan fikrni bolalarga yaxshilab tushuntirish kerak. Bunda musiqa ifoda vositalarining bolalar tomonidan o'zlashtirilishi katta yordam beradi: asarning qanday yangrayotganligi, bu kayfiyat qanday vositalar orqali berilgan? - degan savollarga javob berish uchun o'quvchilar kuyning harakati, xarakteri, ritmik ko'rinishi, tempi, dinamikasiga, keyinchalik ladiga ham quloq tutishlari lozim.

3-4-sinflarda o'quvchilar asosan xalq musiqasining ommaviy janrlariga kiruvchi ko'plab asarlarni yakkanavoz, cholg'u dastalari va orkestr, xor jamoasi ijrosidagi variantlarda tinglaydilar.

Musiqiy asarlarni tinglash, idrok etish, mazmuni va kayfiyatini anglash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga yordam berishi kerak. Buning uchun o'qituvchi:

- o'quvchilarni tinglanadigan asarga hissiy tayyorlaydi;
- o'quvchilarni madaniyatli tinglovchi sifatida tarbiyalaydi;
- musiqaning mazmuni, ifoda vositalrini oddiy tahlil qilishga o'rgatadi;

- musiqa haqida fikr yuritish, asarga estetik baho berish ko'nikmalarini hosil qiladi;

- o'tilgan asarlarni tinglab ehsaga olish, asarning nomi va mualliflarini aniqlash.

Tinglashdan avval o'quvchilar diqqatini jamlash, faollashtirish uchun o'qituvchi o'quvchilar oldiga ularning musiqiy tayyorgarligi darajasidan kelib chiqqan holda turli xil vazifalar qo'yishi mumkin:

1. Katta bo'lmagan kuy, musiqiy asarni o'quvchilarga tinglash uchun beradi va «Siz bu asarga nima deb nom bergan bo'lardingiz?»- degan savolni o'rtaga tashlaydi.

2. O'qituvchi M.Mirzaevni «Bahor vals» asarini tinglash uchun beradi va asar nima uchun bunday nomlanganligini o'quvchilardan so'raydi.

3. Tinglash uchun berilgan asarning kayfiyatini aniqlash vazifasini beradi.

Bunday vazifa-savollar o'quvchilarda musiqani tinglash xohishini uyg'otadi, musiqiy idrokni faollashtiradi.

O'quvchilar asar mazmunini, musiqiy nutq vositalarining ifodaviyligini anglashga harakat qiladilar. Musiqiy idrokni hissiy jihatdan faollashtiruvchi va boyituvchi metodlar quyidagilar:

- bolalarga tanish bo'lgan asarni yangi ijroda, yangi talqinda berish;
- turli talqin va ijro usullarida berilgan bir asarning o'zini taqqoslash;
- o'qituvchining jonli ijrosi;
- o'qituvchining kirish so'zi;
- yuqori sifatli audio va SD yozuvlaridan foydalanish;
- cho'lg'u asarlarining musiqiy mavzularini lokalizatsiya qilib kuylash.

Musiqa idroki musiqiy asarni o'rganish jarayonida rivojlanadi va bu jarayon to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

- o'qituvchining kirish so'zi;
- musiqiy asarni birinchi bor tinglash;
- musiqiy asar tahlili;
- qayta tinglash.

Endi bu bosqichlarni alohida ko'rib chihimiz. O'qituvchining kirish so'zi - qisqa, emotsional, qiziqarli bo'lib, asosiy maqsad - bolalarning diqqatini tinglanadigan asarga jalb etish, unga qiziqish uyg'otish. O'qituvchi o'z kirish so'zida bolalarga kompozitor haqida qisqacha so'zlab berishi mumkin. Ba'zida esa kirish so'zi bir necha savollardan iborat bo'lib, bolalar idrokini faollashtirish, ularda musiqani tinglash xohishini hosil qilish kerak.

Musiqiy asarni tinglash - o'quvchilarni musiqani tinch, gaplashmasdan tinglashga o'rgatish birinchi galdagi vazifadir. Asar boshidan oxirigacha

ifodali badiiy ijroda grammyozuv orqali yoki o'qituvchi ijrosida ko'rsatiladi. Musiqa jaranglagan paytda o'qituvchining o'zi ham musiqani berilib tinglashi, ko'rsatmalar bermasligi, yozuv-chizuv ishlari bilan shug'ullanmasligi lozim, ya'ni o'qituvchi musiqiy asarni o'quvchilar bilan birgalikda tinglashi kerak.

Musiqa tahlili - musiqa tinglashdan olingan hissiy ta'sirni chuqurlashtirish vazifasiga qaratilgan. Bu murakkab va o'qituvchidan katta mahorat talab etadigan bosqich. Asarni tushunish va his etish bir narsa emas. Tahlil ko'pincha, hissiy idrokka halal ham berishi, tinglashni susaytirishi ham mumkin. Asar ifoda vositalari mazmundan ajralgan holda, ko'rib chiqilsa, shunday hol ro'y berishi aniq. Musiqa savodini egallagan o'quvchilar musiqa tahlili jarayonida o'z bilimlarini bema'lol qo'llay boshlaydilar. Musiqa tahlili jarayonida 3-4-sinflarda suhbat quyidagi savollar yuzasidan o'tkaziladi:

1. Mazmun va xarakter.
2. Musiqiy janr.
3. Musiqa qanday o'zgaradi.
4. Musiqiy shakl.

Musiqa tahlili asosida o'quvchilarning musiqaga kirib borishi, asosiy musiqiy qonuniyatlarni tushunib etishlari bosqichma-bosqich, tizimli ravishda hosil bo'ladi.

Qayta tinglash - o'quvchilar musiqani to'laroq idrok etishlari, asarni eslab qolishlari, asarni yoqtirib qolishlari uchun bir necha bor qayta tinglash maqsadga muvofiq, chunki bir marta tinglangan asar darrov bolalarga yoqadi, hamma bolalar tomonidan yetarli darajada emotsional qabul qilinadi, deb aytib bo'lmaydi. Musiqiy asar o'quvchining musiqiy tajribasiga aylanishi uchun bir necha bor qayta tinglash jarayoni idrokni boyitishi, musiqiy obraz tasavvurini chuqurlashtirishi va asarning esda qolishini ta'minlashi lozim.

Musiqiy obrazlarni taqqoslash-qiyoslash metodi o'quvchilarda musiqa idrokini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu metoddan oqilona foydalanish o'quvchilarning musiqiy-eshitish qobiliyatlarini o'stiradi. Avval kontrast asarlardag farqlarni anglash, keyinchalik esa kayfiyati bir xil bo'lgan asarlarda nozik o'xshashliklarni his etishlariga yordam beradi.

3-4-sinflar o'quvchilarida qo'shiq kuylash malakalarini rivojlantirish metodlari

Jamoa bo'lib kuylash - o'quvchilarni musiqa san'atiga faol jalb etishning eng ommaviy shaklidir. Har bir sog'lom bola kuylash imkoniyatiga ega bo'ladi. Kuylash bola uchun estetik ehtiyoj, hissiyot va kayfiyatni ifodalashning eng tabiiy va qulay vositaidir.

Bola qo'shiq ijro etar ekan, unda his-hayajon, zavq-shavq, ko'tarinki kayfiyat, quvnoqlik, harakatchanlik kabi ijobiy tuyg'ular hosil bo'ladi. qo'shiqda ikkita estetik vosita - musiqa va badiiy so'z birlashadi. Shuning uchun tajribali o'qituvchining qo'lida jamoa bo'lib kuylash - o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshitish, lad hissini, sof intonatsiyada kuylash malakalarini hamda musiqiy qobiliyatini rivjlan tiradi. Ijro jarayonida ovozi va musiqiy eshituvi turlicha bo'lgan bolalar jamoa bo'lib birlashadilar. Ular o'zlarining va o'rtoqlarining ijrolarini kuzatadilar, birgalikda kuylashdan bahramand bo'ladilar. Ularda diqqat, kuzatuvchanlik, intizom va boshqa tarbiyaviy xususiyatlar shakllanadi. 3-4-sinf o'quvchilarida kuylash jarayonida o'quvchilarning ovoz apparati yanada yaxshi rivojlanadi, nafasleri chuqurlashadi, qon aylanishi yaxshilanadi, qomatleri tekislanadi, bir so'z bilan aytganda ham ma'naviy, ham axloqiy, ham jismonan rivojlanadilar, tarbiyalanadilar.

Har bir insonning kayfiyatiga qarab ovozi yo'qimli, quvnoq, jarangdr, sho'x yoki bo'g'i q, «shirali», «shirasiz» va hokazo bo'lishi mumkin. Ovoz chiqishi ovoz pardalariga bog'liqdir. Ovoz pardalari tebranishi natijasida ovoz hosil bo'ladi. Inson ovoz apparati juda murakkab tuzilgan. Uning asosiy qismlari - nafas olish organlari - o'pka, qorin bo'shlig'i, nafas muskullari, shuningdek, hiqildoq, ovoz paychalari, artikulyasion apparatlar va boshqalar. Ovoz hosil bo'lishi uchun mana shu apparatlarning barchasi ishga tushadi. Bu murakkab jarayondir. Tovush apparantining fiziologik tuzilishi masalalariga olimlar P.Chesnokov, Sh.Ro'ziev, D.Xalabuzar, N.Dmitrev o'z ilmiy ishlarida murojaat etganlar va atroflicha yoritib berganlar.

3-4-sinflarda kuylash faoliyati bir qator vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- bolalarda jamoa bo'lib kuylashga qiziqish va muhabbat uyg'otish;
- musiqaga hissiy ta'sirchanlikni tarbiyalash;
- badiiy didni tarbiyalash;
- qo'shiqchilik ovozi, ya'ni yoqimli, tabiiy tovushda kuylashni shakllantirish, ovoz diapazonini o'stirish;

- badiiy ijroga erishish uchun vokal-xor malakalarini rivojlantirish;
- musiqiy qobiliyatlarini o'stirish.

Qo'shiqning badiiy, chiroyli, ifodali ijrosiga erishishning muhim vositasi - o'quvchilarda vokal-xor malakalarini rivojlantirishdir. 3-4-sinfda ham o'quvchilar bilan qo'shiq aytishlagi holat, kuylash nafasi, tovush hosil qilish, talaffuz, soz, ansambl kabi vokal-xor malakalari ustida ish olib boriladi.

3-4-sinf «Musiqqa madaniyati» dasturidan Vatan, mustaqillik, diyorimiz, tabiat, mehnat, bolalik mavzularidagi qo'shiqlar o'rin olgan. Bu qo'shiqlar o'quvchilarda Vatanga muhabbat, uning kelajagiga sadoqat, mehnatsevarlik, estetik tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Qo'shiq o'rgatish jarayonida o'rganiladigan qo'shiqqa emotsional munosabatni rivojlantirish, tasavvurni, musiqiy eshitish va xotirani o'stirish, musiqaning ifoda vositalarining ahamiyatini tushunish, jarangli, kuychan, yengil tovushlarda kuylash, o'zini va o'rtoqlarini tinglay olish, jo'rsoz bilan hamda jo'rsozsiz kuylash, ikki-uch ovozli kuylash orqali garmonik eshitish qobiliyatini shakllantirish kabi vazifalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. O'qituvchi kuylash uchun qo'shiq tanlar ekan, avvalambor doyrasini sinchiklab tahlil qilib chiqadi. Olingan natijaga qarab qo'shiqni o'rgatish metodlarini tanlaydi.

3-sinfda yil va chorak mavzulari:

Yil mavzusi: Musiqaning ifoda vositalari

1-chorak: Musiqaning ifoda vositalari

2-chorak: Musiqqa nutqi

3-chorak: Xor va orkestr

4-chorak: Musiqaning tuzilishi. Oddiy musiqqa shakllari. Bänd va naqorat

4-sinfda yil va chorak mavzulari:

Yil mavzusi: O'zbek xalq musiqqa ijodi

1-chorak: Xalq aytimlari va cholg'ulari

2-chorak: Bayram va marosim qo'shiqlari

3-chorak: Mavsum qo'shiqlari

4-chorak: Bahor fasli qo'shiqlari

Savol va topshiriqlar:

- 1) Uchinchi va to'rtinchi sinf o'quvchilariga tavsif bering.
- 2) Birinchi sinfda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
- 3) qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
- 4) Uchinchi va to'rtinchi sinflarda o'quvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilar?
- 5) Uchinchi va to'rtinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?
- 6) Uchinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
- 7) To'rtinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
- 8) Yuqoridagi sinflarga mo'ljallab, chorak mavzulardan kelab chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang.

5-6-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni

Umumiy o'rta ta'lim maktabining har bir bosqichi o'qituvchi oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. O'qituvchi o'z imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda, umumdidaktik metodlardan foydalanishi, bosqichlararo uzluksizlikni ta'minlashi, turli xil metodlardan unumli foydalanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi kerak. Uzluksiz ta'limning ayrim bosqichlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish muhimdir. Chunki o'rganadigan mavzulari, bolalarning yosh xususiyatlari, o'zlashtirish qobiliyatlari bu sinflarda deyarli bir xil bo'ladi. Shuning uchun ham 5-6-sinflarni uzviy holda o'rganish mumkin. 4-sinfda boshlang'ich maktabning tugaganligini hisobga oladigan bo'lsak, 5-sinfda bolalar bevosita yangi bosqichga, ya'ni o'rta ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichiga o'tadilar. Bu sinfda barcha fanlar bo'yicha o'qituvchilarning o'zgarishi, sinf rahbarining o'zgarishi o'quvchilarning yangi sharoitlarga ko'nikishini talab qiladi. Bu jarayon ayrim o'quvchilarga qiyinchiliklar tug'diradi.

5-6-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga umumiy xarakteristika

Pedagogik-psixologik adabiyotlardan ma'lumki, bu yosh o'smirlik davriga to'g'ri keladi. O'smirlik davri chegaralari taxminan 5-8-sinfga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab

oladi, lekin o'smirlik yoshiga o'tish 5-sinfga o'tish bilan mos tushmasligi va bir yil oldin yoki keyin sodir bo'lishi ham mumkin.

O'smirlik davri «o'tish», «keskin o'zgaruvchan», «mushkul», «qiyin» davr deb ham nomlanadi. O'quvchilarda bu yoshda sodir bo'ladigan rivojlanish jarayonlarining murakkab va muhimligi qayd etish joiz. Bu hayotning bir davridan boshqasiga o'tish bilan bog'liq. Inson rivojlanishining barcha yo'nalishlari bo'yicha (jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy, ijtimoiy) katta sifat va miqdoriy o'zgarishlar ro'y beradi.

O'smir Shaxsi rivojlanishning muhim omili - uning shaxsiy faolligi - shaxsiyat omilidir. Bu davrda o'smirning o'z-o'zini anglashi jarayoni faol va mashaqqatli kechadi.

O'smirning yoshidagi muhim o'zgarishlar uning organizmidagi jismoniy o'sish va biologik voyaga etish bilan bog'liqdir.

O'smirlar bilimdon va talabchan, lekin materialni qiziqarli va aniq tushuntirib beradigan, darsni bir me'yorda tashkil eta oladigan, unga jalb qila oladigan, darsni har bir o'quvchi uchun maksimal darajada unumli eta oladigan adolatli, oqko'ngil va madaniyatli o'qituvchilarni yoqtiradilar.

O'smir organizmi o'sishidagi sakrashlar, ehndokrin tizimdagi o'zgarishlar, gipofiz faoliyatidagi faollik, jinsiy voyaga etish, yurak, mushak, butun organizmning mustahkamlanishi insonning psixik, aqliy va ruhiy o'sishida muhim o'zgarishlarga olib keladi.

Musiqiy tarbiyada bu yosh ovoz apparatining mutasiyasi davri bilan bog'liq. Ovoz apparati yo'qonlashadi, ovoz ayniqsa, o'g'il bolalarda sezilarli darajada pastroq bo'lib boradi. Shuningdek, ovozning buzilish holatlari ham shu davrga xosdir. Bu yoshda ovoz apparatining haddan ortiq yuqori tessiturasidan qochib, vokal repertuari tanloviga ehtiyotkorona yondashish lozim.

Endi mutasiya hodisasiga batafsil to'xtalib o'tamiz.

O'g'il bolalarda mutasiyaning boshlanish davri, odatda jinsiy bolog'atga etish davriga to'g'ri keladi. Mutasiyaning boshlanishi ko'p sabablarga bog'liq, juladan, iqlimga ham bog'liqdir.

Mutasiya davrida hiqildoq tez o'sadi. Ayniqsa qalqonsimon tog'ay juda kattalashadi. Boylamlar ikki barobar 13-14mm dan 24-25mm gacha kattalashadi. Bu davrda hiqildoq kasallikka chalinuvchan bo'lib qoladi. Ovoz ehtiyot qilinmasa, hiqildoqda turli xil kasalliklar paydo bo'lishi mumkin. mutasiyaning turi va davomiyligi hammada har xil kechadi.

Bolalarda mutasiyaning boshlanganligini o'z vaqtida payqash va vokal asarlarini to'g'ri tanlash o'ta muhim shartlardandir. Mutasiya boshlanganligining dastlabki belgilari: ovozning nimjon bo'lib qolishi,

intonatsiyaning buzilishi, qo'shiq aytish xohishining yo'qolishi, ovozning xirrilab qolishi. Mutasiya hammada har xil, ayrim bolalarda yengil, ayrim bolalarda esa og'ir kechadi. Bir me'yorda ovozning yo'qonlashib borishi bu yengil mutasiyadan darak bersa, ovozning bir yo'qonlashib, bir ingichka yangrashi, gohida ovozning chiqmay qolishi og'ir mutasiya belgilaridir. Kuzatishlarga ko'ra ko'pincha, diskant ovozlarga basga, alt ovozlarga tenorga aylanadi.

Qizlarda ham mutasiya davri bo'lib o'tadi. Biroq ularda mutasiya o'g'il bolalarnikidek sezilarli o'tmaydi. Qizlarda mutasiya bilinmay, juda sekin o'tganligi tuffayli ularning ovoz o'zgarishlarini payqash mushkul. Bu davrda og'ir kuylarni kuylashga berish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. ovozni haddan tashqari zo'riqtirib qo'yish natijasida, qizlarning ovoz paylarida bog'lam, tugunchalar paydo bo'lishi va keyinchalik muloqot ovozning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

O'qituvchi mutasiyaning har xil - sezilarli yoki sezilmasdan o'tishini hisobga olgan holda, o'quvchilarning ovoz apparatlarini zo'riqtirmay, ularga yengil kuy va qo'shiqlarni berishi kerak.

5-6-sinfda qo'shiq kuylash faoliyati

Qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Ovoz apparati o'smir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli o'zgaradi. Jismoniy o'sish ham ovoz apparatining o'sishi ham ravonligini yo'qotib, notekis ravishda shakllanadi. Bu davrda mutasiya davom etadi. Shuning uchun ham ularga ovoz diapazoni keng, baland dinamikadagi asarlarni kuylash tavsiya etilmaydi. O'quvchilar qo'shiqlarni past-yarim ovozda baqirmasdan, ehtiyotkorlik bilan kuylashlari kerak. Bu sinf o'quvchilari bilan bir ovozli qo'shiqlar bilan birga ikki ovozli qo'shiqlar ustida ham ish olib boriladi. Buning uchun kichik hajmdagi kanonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Qo'shiqlar o'rtacha sur'atda yozilgan bo'lishi, katta intervallarga sakrashlarning bo'lmasligi bu davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

5-6-sinfda musiqa tinglash faoliyati

Musiqiy asarni tinglash jarayonida o'quvchilarga asarni tinchlikni saqlagan holda, gaplashmay madaniyatli tinglash odobini o'rgatish muhimdir. Asar boshidan oxirigacha ifodali, badiiy ijroda magnit tasma yoki o'qituvchining jonli ijrosi orqali eshittiriladi. Musiqa yangrashi bilan barcha

sinfdagilar, jumladan o'qituvchining o'zi ham berilgan holda, barcha ishlarini chetga surib diqqat bilan tinglashi kerak.

Bu yoshdagi o'quvchilar murakkab ichki dunyo, his-tuyg'ular, ichki kechinmalarga boy, muhabbat mavzularidagi, qahramonlik ruhidagi, tragediya va satira kabi janrlardagi musiqiy asarlarni bajonudil kuylaydilar. O'smirlar hissiyotga beriluvchan, ta'sirchan bo'lganligi sababli, chuqur falsafiy g'oyalar bilan sug'orilgan, orzu va baxt-saodat uchun kurash, ilk muhabbat kechinmalari, sog'inch kabi insoniy his-tuyg'ular ifodalangan musiqa ularga kuchli hissiy ta'sir o'tkazadi va jiddiy mushohada qilishga undaydi. Beshinchi sinfda o'quvchilarning musiqiy dramaturgiya haqidagi tushunchalarni rivojlantirish va tasavvurlarini uyg'otish muhim vazifadir. «Musiqa madaniyati» dasturiga kirgan buyuk g'oyalarni aks etuvchi T.Qurbonovning «Shiroq» baleti, U.Musaevning «To'maris» baleti, T.Jalilovning «Tohir va Zuhra» operasi, S.Yudakovning «Mirzacho'l» vokal-simfonik syuitasi, L.Betxovenning «Qahramonlik», A.Motsartning 40-simfoniyasini tinglab idrok etish jarayonida, o'quvchilar bu asarlardagi aniq ifodalangan musiqiy obrazlar va ularning to'qnashuvlari, ziddiyatlari, motivlar kurashi, dramatik rivojlanishlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

6-sinfda esa o'quvchilar bevosita mumtoz musiqa haqida tushunchalarga ega bo'ladilar. Mumtoz musiqa namunalaridan tinglaydilar. Shuningdek, sharh xalqlari mumtoz musiqalaridan namunalar tinglab o'z bilimlarini oshiradilar.

5-6-sinfda musiqa savodi faoliyati

Musiqa savodi faoliyatida asosan musiqa nazariyasiga oid bilimlar o'rgatiladi. O'quvchi musiqa savodini o'zlashtirib borar ekan, u musiqiy asarlarni bemalol nazariy jihatdan tahlil qila oladi. Bu sinflarga kelib o'quvchilar tovush, ritm, o'lchov, sur'at, al'teraciya belgilari, major va minor ladi, ikkita belgiga ega bo'lgan tonliklarni biladilar. O'qituvchi o'quvchilarning mazkur faoliyatda egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini boshqa faoliyat turlarida unumli qo'llay bilishi kerak. Bu o'z navbatida o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi hamda boshqa faoliyatlardagi bilimlarini ham orttiradi.

5 sinf. Yil mavzusi: Kompozitorlik musiqa janri.

1-chorak: O'zbek xalq cholg'ulari orkestri. Xor san'ati.

2-chorak: Simfonik orkestr. Musiqada vokal simfonik janrlar.

3-chorak: Sahnaviy musiqa asarlari. Balet va raqs san'ati. Musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak tomoshalar.

4-chorak: Opera san'ati. O'zbek musiqasida opera janri.

6 sinf. Yil mavzusi: Mumtoz musiqa.

1-chorak: Mumtoz musiqa haqida tushuncha.

2-chorak: Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari.

3-chorak: Sharh xalqlari mumtoz musiqasi namunalari.

4-chorak: Evropa mumtoz musiqasi bilan taniShuv.

Savol va topshiriqlar:

1) Beshinchi va oltinchi sinf o'quvchilari xususiyatlariga tavsif bering.

2) Beshinchi va oltinchi sinflarda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?

3) Qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?

4) Mutasiya hodisasiga ta'rif bering.

5) Beshinchi va oltinchi sinflarda o'quvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilar?

6) Beshinchi va oltinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?

7) Beshinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.

8) Oltinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.

9) Yuqoridagi sinflarga mo'ljallab, chorak mavzulardan kelab chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang.

10) Yuqoridagi sinflar o'quv dasturiga yana qanday kuy va qo'shiqlarni kiritgan bo'lar edingiz?

7-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni

7-sinf o'quvchisiga xarakteristika

7-sinf o'smirlik davriga to'g'ri kelib, qiyin o'quvchi davr hisoblanadi. Bu ko'pgina olimlarning kuzatishlarida o'z aksini topgan. O'quvchilar bu yoshda jismoniy etiladilar. Bu davrda musiqa darslarini o'smiring holatiga qarab tashkillashtirish talab etiladi.

Bu davrda o'quvchilarda ovoz mutasiyasining eng rivojlangan paytidir. Ovoz apparati o'smir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli o'zgaradi. Ovoz apparatining o'sishi ravonligini yo'qotib, notekis rivojlanadi. Ayrim o'quvchilarda mutasiya 5-6-sinflarda boshlangan bo'lsa, ayrimlarida endi boshlanadi. Bu o'qituvchidan nihoyatda katta mas'uliyatni talab etadi. Chunki sinfning yarmi mutasiyaning so'nngi bosqichida bo'lsa, qolgan yarmi boshida bo'ladi. Bu davrda o'quvchilarning ovoz diapazoni yuqori ovozlarda - 1 «do»dan 2 «mi»gacha, quyi ovozlarda - kichik oktava «si»dan 2 oktava «re» gacha bo'ladi.

7-sinf o'quvchilarining ichki dunyosi ancha shakllangan va rivojlangan bo'ladi. Ularning dunyoqarashi kengaygan bo'lib, o'z fikr-mulohazalarini bemalol bayon eta oladilar. Musiqiy didlari ham yaxshi shakllangan bo'lib, o'qituvchi repertuar tanlashda ularning qiziqishlarini hisobga olmog'i kerak.

7-sinf o'quvchilari ixtiyoriy diqqatga ega bo'ladilar va qiyinchiliklarsiz yirik musiqa shakllarini idrok eta oladilar (uvertyura, simfoniya, sonata, maqom va hokazo). O'quvchilar asarga nisbatan paydo bo'lgan his-tuyg'ulari, tasavvurlarini hikoya tarzida aytib bera oladilar. Shuningdek, 7-sinf o'quvchilari kompozitor yoki bastakor haqida referatlar, bukletlar va nutqlar tayyorlay oladilar. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarning mana shunday ijodiy xislatlaridan unumli foydalangan holda, ularni musiqiy to'garaklar, xor jamoalariga jalb qilishi, qolaversa, o'quvchilar orasida o'tkaziladigan tanlov, musobaqa va olimpiadalarga jalb etishi muhim. Bu o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini orttirib qolmay, balki etti yil davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini ham mustahkamlashga yordam beradi.

7-sinfda «Musiqa madaniyati» darslarining tuzilishi

7-sinfdagi musiqa darslari umuta'lim maktablari uchun belgilangan musiqa ta'limining so'nnggi bosqichi hisoblanadi.

7-sinfda musiqa darslari asosan, uchta faoliyatni o'z ichiga qamrab oladi.
Xususan:

1. qo'shiq kuylash.
2. Musiqa idroki (tinglash).
3. Musiqa savodi.

Mazkur sinfda avvalgi sinflarda o'tilgan musiqa materiali yakunlanadi va mustahkamlanadi. Musiqa darsining tuzilishi asosan, ijrochilikni tashkil ehtsada, musiqa savodi va idrokisiz to'la?onli ijroga erishib bo'lmaydi. Bundan tashqari jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda bir qator ijobiy fazilatlar shakllanadi.

Musiqa darslari quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi:

- dars mavzusi (yil, chorak va dars avzusidan kelib chiqqan holda);
- darsning turi (to'rt faoliyatdan biri ustuvor bo'ladi);
- darsning maqsadi: ta'limiy va tarbiyaviy;
- qo'llaniladigan adabiyotlar;
- darsning olib borilishi;
- amaliy ishlar;
- yangi mavzuni o'tish (barcha faoliyatlarni o'z ichichga qamrab oladi);
- o'tilgan mavzuni mustahkamlash;
- uyga vazifa berish va o'quvchilar bilimini baholash.

Barcha sinflarda yil va chorak mavzulari mavjud bo'lib, 7-sinfning yil va chorak mavzulari quyidagicha:

Yil mavzusi: Xalq musiqasining maxalliy uslublari.

1-chorak: Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand vohalarining musiqiy

uslublari bilan tanishuv.

2-chorak: Farqona, Toshkent hamda Xorazm vohalari musiqiy uslublari bilan taniShuv.

3-chorak: Maqom. Shashmaqom.

4-chorak: Xorazm maqomlari, Farqona-Toshkent maqom yo'llari.

7-sinfda qo'shiq kuylash faoliyati

7-sinfda qo'shiq kuylash jarayonida o'tgan sinflardagi vokal-xor malakalari mustahkamlanadi va aralash xorda kuylashning boshlang'ich malakalari shakllanadi. Shuni e'tiborga olshi kerakki, bolalarning ovoz apparati o'zgarishi natijasida ular o'zlarining «yangi ovoz»laridan uyalib, qo'shiqni kuylamasligi mumkin. bu paytda o'qituvchi ehtiyotkorlik bilan yondashib, kerakli chora-tadbirlarni qo'llashi kerk.

Bu davrda sinfdagi o'quvchilar ovozi uchga bo'linadi: 1) «do» birinchi oktavadan «mi» ikkinchi oktava diapazonidagi ovozlari; 2) «si» kichik oktavadan «re» ikkinchi oktavagacha bo'lgan ovozlari; 3) «mi» («re») kichik oktavadan «si» («do») kichik oktavagacha (mutasiya davrida bo'lgan ovozlari). Shu sababli o'qituvchi jamoa bo'lib kuylash jarayonida, ayniqsa mutant ovozi bolalarning to'g'ri kuylayotganligini nazorat qilib turishi lozim.

Qo'shiq kuylash faoliyati uchun tavsiya qilingan dastur - janr va musiqiy obrazlarning xilma-xilligi tufayli o'quvchilarning badiiy didini rivojlantirishga katta ta'sir qiladi.

Ko'povozlilik - jamoa bo'lib kuylash faoliyatining asosiy omillaridan biridir. Ushbu usulda kuylash 7-sinf o'quvchilari uchun juda foydalidir. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarning ovoz imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, jamoa bo'lib kuylash jarayonida ular o'z ovozlari ehtiyot qilish va ortiqcha zo'riqtirmay kuylash imkonini beradi. Ko'povozli asarlarni kuylashdan avval, ko'p ovozlilik elementlari bo'lgan bir qator mashqlarni kuylash, avvalgi sinflarda o'tilgan osonroq bo'lgan ko'povozli kuylarni qaytarish yaxshi natijalar beradi.

7-sinfda musiqa idroki (tinglash)

Musiqa idroki jarayoni musiqa mazmunini eshita bilish va hissiy kechinmalari asosida o'zlashtirishdir.

Yuqorida aytilganidek, 7-sinf o'quvchilarida tinglash jarayonida ixtiyoriy diqqat ancha rivoj topgan bo'ladi. Buning natijasida o'quvchilar ancha katta hajmdagi asarlarni uzoq muddat tinglay oladilar. Shuni hisobga olgan holda 7-sinfda mumtoz musiqiy merosimizga salmoqli o'rin ajratilgan bo'lib, o'quvchilar o'zbek maqomoti va maxalliy uslublarni o'zlashtiradilar. Ular dars jarayonida turli xil xalq va kasbiy ashula namuna (Mustahzod, Savti suvora, Mug'ulchai Dugoh Qashqarchasi va hokazo) lardan tinglaydilar.

Bu kabi namunalarni tinglash o'quvchilarda o'zbek mumtoz musiqa merosiga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, ularning estetik dunyoqarashini boyitadi. Bu sinfdagi o'quvchilarga uyga beriladigan vazifalar ham ahamiyatlidir. O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularga simfoniya, kantata, operalardan, maqomlardan, katta ashulalardan namunalarni tinglashga berishi mumkin. Uyda mustaqil ravishda tinglangan asarlar sinf dars jarayonida birgalikda tahlil qilinishi kerak hamda o'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini tuzatib borishi lozim. Bu

o'qituvchiga o'quvchilarni baholash va ularning bilim darajalarini aniqlashga yordam beradi.

7-sinfda musiqa savodi jarayoni

7-sinf musiqa darsiga qo'yilgantalablarga binoan o'quvchilar musiqiy asarning mazmuni, xarakteri, janr va shaklini, lad va tonligini aniqlay olishlari zarur.

Mazkur sinf o'quvchilari musiqa savodi faoliyati orqali o'zlashtirgan materiallarini takrorlaydilar va mustahkamlaydilar. Bunday tashqari yangi tushuncha va atamalar bilan ham tanishadilar (katta ashula, dugoh, segoh, tuzuk, ufar va hokazo). Har bir chorakdan so'ng yozilgan musiqa lug'ati bolalar uchun juda qulaydir.

7-sinfdagi muhim talablardan biri - o'quvchilarning notaga qarab nutqlay olishlaridir. Ular major va minor ladlarida bimalol solfejiolab kuylay olishlari kerak. Bu faoliyat uchun murakkab bo'lmagan asarlar tavsiya qilinadi.

7-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi musiqa asarlarini tahlil qilishni o'rganadilar. Ular musiqiy asarning kaliti, tonligi, o'lchovi, ritmi, tempi, mazmuni, xarakteri va janri haqida ma'lumot bera olishlari kerak.

Savol va topshiriqlar:

- 1) Ettinchi sinf o'quvchilari xususiyatlariga tavsif bering.
- 2) Ettinchi sinflarda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
- 3) Mazkur sinfda qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va repertuarga qaysi mavzudagi qo'shiqlar kiritilgan?
- 4) Ettinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazonlari qanday bo'ladi?
- 5) Ettinchi sinfda o'quvchilar tinglashi uchun qaysi mavzu va janrdagi kuy va qo'shiqlar tavsiya etiladi va nima uchun?
- 6) Ettinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?
- 7) Ettinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
- 8) Yuqoridagi sinflarga mo'ljallab, chorak mavzulardan kelab chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang.

IV BOB. XORIJIY MAMLAKATLARDA MUSIQA TA'LIM-TARBIYASI TIZIMI

Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy tuzumiga xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu millatning musiqa madaniyati, tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining tuzilishi, tizimi va ilmiy-metodik yutuqlari boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. Xorijiy mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollejl va oliy ta'lim dargohlari mavjud bo'lib ularda turlicha darajada estetik tarbiyani amalga oshirishda o'qituvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan. O'qituvchi o'z davlatining maktab sharoiti, imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda san'at orqali hayotni o'rganish va unga shaxsiy munosabat bildirish, ijodiy munosabatda bo'lish malakalarini rivojlantiradi. Musiqa darslarida yuksak rivojlangan texnik vositalaridan keng foydalaniladi. O'quvchilar elektroorganlarda chalib kuylaydilar, turli faoliyatlarni (aytishuv, harakatlar, bir-biriga jo'rnavorlik qilishlarni) bajaradilar. Bunda asosan o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni ro'yobga chiqarishdan iborat.

Yunesko qoshidagi musiqiy tarbiya xalqaro jamiyati (ISME) o'z faoliyatini rivojlantirmoqda. Bu jamiyat o'z oldiga dolzarb va ehzgu maqsadlarni qo'yib, butun jahonda bolalar va o'smirlarni musiqiy tarbiyalash, bu jarayonni yosh avlodni axloqiy, intellektual va estetik jihatdan shakllatirishda qudratli vosita sifatida o'rganadi.

Bu tashkilot faoliyatining asosiy shakllaridan biri xalqaro miqyosida o'tkazilayotgan anjumanlar bo'lib, bularning ichida kompozitorlar, yetakchi tashkilotlar, amaliyotchi-pedagoglar, bolalar xor jamoalarining rahbarlari ishtirok etadilar.

ISME anjumanlari ikki yilda bir marta o'tkazilib, jahonning turli mamlakatlaridagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan turli mamlakatlardagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan to'la tanishish imkonini beradi.

Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida bolalarga musiqiy tarbiyani berish xor san'ati yordamida barkamol, mukammal rivojlangan shaxsni rivojlantirishida boy tajriba orttirilgan. Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil topgan o'quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz katta qiziqish uyg'otmoqda.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lib, shaxs shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Xor ijrochiligi elementlarini o'z ichiga olgan musiqiy tarbiyaning zamonaviy xorijiy uslublari orasida quyida bayon etilgan yo'nalishlar butun dunyoda ommalashib ketgan.

Shuningdek, Tolbuxin shahri va Bolgariyadagi «Bodra Smyana», xor jamoalari, Berlindagi o'smirlar xor jamoasi, Polshadagi «Poznan bulbullari», Chexiyaning Borno shahri o'smirlar saroyi xor jamoalari va boshqaqalar mashqur xor jamoalari qatoriga kiradi. Leypcigda XIII asrda tashkil topgan «Tomanerxor» jamoasida guruhli kuylashning ko'hna an'analari rivojlanmoqda. Jumladan, Z.Koday (Vengriya, solfejio, musiqa o'quvini rivojlantirish), L.Daniel va F.Lissek (Chexiya «tayanch» qo'shiqlari, solfejio), B.Trichkov (Bolgariya, solfejio), R.Myunnix (Germaniya, «yalen» tizimi, solfejio, qo'shiqchilik), K.Orf (Germaniya - Avstriya, musiqali ijod, metroritmik o'quvini rivojlantirish), E.Jak-Dalkroz (Shvecariya, musiqali ijod), T.Sudzuki (Yaponiya skripka ijrochiligiga o'rgatish orqali musiqiy malakalarni rivojlantirish), Dj.Kerven (Angliya, «Tonik-sol-fa» tizimi, solfejio), P.Van Xauve (Gollandiya, musiqali ijod), D.B.Kabalevskiy (Rossiya, musiqa asarlarini idrok etish tajribasini rivojlantirish).

Endi har bir mamlakatning musiqa ta'lim-tarbiya tizimini alohida ko'rib chihamiz.

Amerika Qo'shma shtatlarida musiqa ta'limi

AQS'da yagona davlat dasturi yo'q. Musiqa ta'limi «estetika» fani sifatida o'tiladi. O'qituvchilar o'zlari xohlaganlaricha darslarni tashkillashtiradilar. Unda musiqa, tasviriy san'at va mehnat mazmunan bir-biri bilan bog'lagan. Davlat maktablari bilan birga diniy hamda shaxsiy dunyoviy maktablar ham mavjud. Shuning uchun har bir shtatda, davlat maktablarida, shaxsiy va diniy maktablarda o'quv soatlarni ham bir xil emas, o'rta hisobga I-VII sinflarda haftasiga 1-2 soatdan dars o'tiladi. Maktablarning 1-4-sinflarida musiqa darsi har kuni 20-30 minut hajmida o'tkaziladi. Darslarni umumiy o'quv fanlari bo'yicha dars beradigan o'qituvchilar olib boradilar. Darsda o'quvchilar musiqa ostida ritmik harakatlar bajaradilar, har xil mavzulardagi, jumladan, ibodat qo'shiqlarini ham ijro etadilar. O'rta ta'lim maktablarida musiqa darslari dars jadvalidan tashqari vaqtga belgilanadi. Darsdan tashqari har bir o'quvchi musiqa to'garaklariga – xor, orkestr, raqs, VChA (vocal cholg'u ansambl) larga a'zo bo'ladilar. Ko'pchilik maktablarda simfonik orkestrlar mavjud. Maktab bilan

kelishilgan holda o'quvchilar simfonik orkestrlarga jalb etiladilar. Sinfdan tashqari musiqa darslari jarayonida o'quvchilar turli xil musiqa cholg'u asboblari – musiqiy qutichalar, baraban, ucburchaklar kabi cholg'ularda ijro etish malakalarini egallaydilar. 3-sinfdan boshlab turli orkestr cholg'ularida ijro etish o'rgatiladi. O'quvchilar cholg'u asboblarda ijro etishni o'rganib bo'lganlaridan keyin, maktab orkestr jamoasi tashkil etiladi. Bundan tashqari o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, cholg'u ansambllari, xor jamoalari ham tashkil etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilari kollej va universitetlarda tahsil oladilar. AQSHda musiqa ta'limi sohasi bo'yicha aniq bir tizim bo'lmaganligi, ta'lim muassasalarini turli xil shaxslar, kompaniyalar boshqarishi tufayli ta'lim tizimida noturg'unlik va nomutanosiblik mavjud.

Musiqa mashg'ulotlarining o'tkaziladigan vaqti, shakli va mazmunini pedagoglar tomonidan belgilanadi. Mamlakatda mutaxassis o'qituvchilar yetishmasligi, musiqa mashg'ulotlariga maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan, yosh kompozitor va ijrochilarni jalb etish ehtiyojini tug'diradi. Natijada, maktablarda yagona musiqiy ijro repertuari vujudga keladi.

Ixtisoslashgan musiqiy ta'lim kollejlardan boshlanadi. Kollejlarda o'qish muddati to'rt yil bo'lib, talabalar keyinchalik o'qishni davom ettirishlari va magistr unvonini olish uchun ikki yil. Doktorlik ilmiy darajasini olish uchun besh yil, jami etti yil o'qishlari kerak bo'ladi.

Musiqaga ixtisoslashgan kollejlarning uch xil yo'nalishi - ijrochilik, musiqashunoslik va pedagogik yo'nalishlarda musiqa o'qituvchilari tayyorlanadi.

Kollejdagi ta'limdan keyin talabalar o'qishni universitetlarda davom ettirishlari mumkin. AQSHda XIX asrda konservatoriyalar tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda ular universitetlarga qo'shib yuborilgan. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad ta'lim sifatini yaxshilash, yoshlarga musiqiy ta'lim bilan birga adabiyot, san'atning boshqa turlaridan ham kerakli bilimlarni berish, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishdir. -

Angliyada musiqa ta'limi tizimi

Angliya maktablarida kapitalistik mamlakatlar jumladan, AQSH qatori, yagona dastur va uslubiyotning yo'qligi sababli mamlakatdagi musiqiy tarbiya ishlarining ahvoli turli saviyadadir.

Ijobiy misol tariqasida 1969-1970 yillarda Britaniya radio korporatsiyasining radio orqali 6-7 yoshdagi bolalar uchun tashkil etilgan 10 minutlik musiqa eshittirishlarini keltirish mumkin.

Bu eshittirishlardan ko'zda tutilgan maqsad - bolalarning musiqa cholg'ulari ijrochiligiga xohishlarini uyg'otish bo'lgan: bolalar radio eshittirish jarayonida musiqani ijro etishlari lozim bo'lgan. Keyinchalik bu dasturlar magnit tasmlariga yozilib, maktablarga, ulardagi «musiqa burchak»lariga jo'natilgan.

Hozirgi kunda Angliya maktablarida ko'proq Dj.Kerven (1816-1880) tomonidan ishlab chiqilgan relyativ tizimiga asoslangan o'qitish usullari qo'llanilmoqda.

Angliyada boshlang'ich maktab o'qituvchilarini o'rta maxsus o'quv yurtlari - ikki yoki uch yillik kollejlari tayyorlaydi.

Milliy musiqa, qirollik musiqa kolleji va xatto qirollik musiqa akademiyasini bitirgan musiqachilar uchun 1 yillik maxsus pedagogik kurslar tashkil etilgan. O'rta maktab musiqa o'qituvchilarini universitetlarning musiqa - pedagogika fakultetlari tayyorlaydi. Ularda o'qish muddati 4 yilni tashkil etadi. Universitetlar o'rta maktab uchun universal musiqa o'qituvchisini tayyorlashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganki, o'qituvchi nafaqat xor jamoasiga rahbarlik qilish, shuningdek orkestrni boshqarish, musiqa va cholg'u ansamblida mashg'ulot olib borish, bolalarni musiqiy cholg'uda ijro etishga o'rgata bilishi lozim.

Angliyada boshlang'ich sinflarda 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qiydilar. Barcha o'quv fanlarini bitta o'qituvchi olib boradi. Boshlang'ich maktabni bitirgach, bolalar gumanitar yoki texnik yo'nalishga asoslangan o'rta maktablarga o'tadilar. Bularda musiqa ta'limiga ko'proq e'tibor beriladi.

Yaponiyada musiqa ta'limi tizimi

Yaponiya - go'zallikni ulug'laydigan mamlakat, shuning uchun bolalarda estetik didni shakllantirish va rivojlantirishga bo'lgan intilish maktab o'quv rejasidagi «musiqa» o'quv fanida o'z ifodasini topgan.

Birinchi sinfda o'quvchilar musiqa bilan haftada uch marta, ikkinchidan to sakkizinchi sinfga qadar - ikki marta, to'qqizinchi sinfda esa haftada bir marta shug'ullanadilar.

Mashg'ulotlarni olib boradigan pedagoglar o'rta ma'lumotli, aksariyati esa maxsus oliy ma'lumotga egadirlar.

Yaponiyalik muallimlari 1-sinf bolalarining musiqiy tarbiyasiga alohida e'tibor beradilar, chunki aynan shu yoshdagi bolalarda o'quv faniga intilish va jiddiy munosabat tarbiyalanadi. Birinchi sinfda o'quvchilar, ko'nikma-malakalarning butun bir majmuasini, ya'ni tovushni to'g'ri chiqara olish, nafasni rostlash, dirijorning oddiy harakatlarini tushunish, qo'shiqni o'rganish hamda uni ijro etish, usulni his etish kabilarni egallashlari lozim.

Bolalarga mutlaq tizim asosida nota savodini o'rgatish, keyinchalik metallofon, lab garmonchasi va fisgarmoniyada kuy ijro etish o'rgatiladi, shunday qilib qo'shiq ijrochiligi cholg'ular jo'rnavozligi bilan to'ldiriladi.

Maktabdagi o'quv yili uch trimestrga bo'linib, 38 hafta davom etadi. Birinchi trimestrda bolalar ritmik jo'rnavozligi, ikkinchisida esa musiqa cholg'ularida murakkab bo'lmagan ikki ovoqli mashqlar bajarishadi.

Birinchi sinfda bolalar musiqani eshitib, musiqa asarining badiiy xususiyatlarini, sur'ati, registr, dinamika, tembrni belgilaydilar, oddiy uch-qismli (ABA) shaklni aniqlaydilar.

6-sinfga kelib, bolalar murakkab musiqa asarlarini ijro etadilar. Shunday qilib, musiqa darslarida asosiy o'rin musiqa cholg'u asboblari ijro etishga ajratilib, bu narsa hamma bolalarni ijodiy jarayonda faol ishtirok etishga jalb etadi va ularda musiqaqa qiziqish va muhabbatni uyg'otadi.

Musiqa o'quv rejasi va dastur shu tarzda tuzilganki, bolalarning musiqa ijrochiligida ishtiroki ularning musiqani eshish qobiliyatining muttasil rivojlantirib beradi, ularni yanada murakkabroq musiqa asarlarini tinglab, idrok qilishga tayyorlaydi. Maktab o'quvchilari I.S.Bax, A.Vivaldi, V.Motsart, L.Betxoven, F.Shubert, F.Mendelson, M.Glinka, M.Musorgskiy, P.CHaykovskiy, N.Rimskiy-Korsakov, I.Stravinskiy, D.Shostakovich, A.Xachaturyan asarlari bilan, shuningdek, G.Karayan, E.Shvarckopf, L.Kogan, D.Oystrax, S.Rixter kabi buyuk ijrochilar va ular yaratgan asarlar bilan tanishadilar.

Musiqani eshish jarayonida o'qituvchi texnik vositalardan, stereoelektrofon va videomagnitofonlardan keng foydalanadi. Hozirgi kunda Yaponiya maktab va oliy o'quv yurtlarida fan-texnika taraqqiyoti o'z aksini topgan. Barcha darsxonalar yangi zamonaviy texnika asboblari bilan jihozlangan.

Bolalar bog'chasida «Sudzuki» tizimi mashqurdir. Yapon pedagogi Sudzukining metodi juda yaxshi natijalarni bermoqda. Uning tizimida ona tilini o'qitilishi, musiqa tinglab idrok etishi bilan amalga oshiriladi. Bolalar cholg'u asboblarda kuy chalishlari muhim rol o'ynaydi. Sudzuki musiqani eshish - bolaning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi muhim vosita deb ta'riflaydi. Bola, iloji boricha, o'zi ijro etadigan musiqani ko'proq eshishini

ham lozim. Bunda, garchand, musiqa mutaxassisi bo'lmasa ham, onaning roliga So'zduki alohida e'tibor beradi. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning onasi ham ishtirok etadi. Onalar mashg'ulot mazmuni va maqsadidan ogoh bo'ladilar va oilada o'z ovozi bilan shug'ullanadilar. Sudzukining fikriga ko'ra onalar musiqa ma'lumotiga ega bo'lishi shart emas. Oilada gramyozuv, televidenie, konsertlarda tinglangan asarlarni muhokama etadilar. Bunda bog'cha va oilaning hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Natijada 5-6 yoshli bolalar Betxoven sonatalarini chalishga erishadilar. Televidenie, gramplastinka va magnitofon yozuvlaridan foydalanib, Sudzuki, bolakaylarni ham bevosita, ham «sirtqi» tarzda o'qitmoqda. Ta'limning an'anaviy usulidan farqli o'laroq ushbu uslub bolaga ona tilini o'rgatish jarayoniga o'xshab ketadi.

O'quvchilarning bilimlarini baholash uchun har bir trimestrda ikki marta barcha mavzular bo'yicha yalpi so'rov o'tkaziladi.

Yaponiyadagi qariyb har bir maktabda xor jamoasi bo'lib, unda haftada ikki marta mashg'ulot o'tkaziladi. Xor jamoasi bilan musiqa o'qituvchisi ish olib boradi. Yaponiyaning musiqali hayoti yosh skripkachilarining qo'shma orkestrlari chiqishlari bilan o'zgacha ko'rinishga egadir. 1948 yili Yaponiyada xor dirijyori va jamoat arbobi Akiko Sekki tashabbusi bilan «Yaponiyaning kuylovchi ovozlari» xor jamoasi tuzilib, u xor qo'shiqchiligining barcha havaskorlarini birlashtiradi.

Yaponiyada ham yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Yaponiyada musiqa tarbiyasining o'ziga xos tizimi vujudga kelgan. Ularda bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya intengratsiya qilingan fan bo'lib unga musiqa, tasvjiryi san'at va mehnat uzviy birlashgan. U bir necha bosqichda amalga oshiriladi

- a) 1-5 yoshgacha bolalar bog'chasida
- b) 6-14 yoshgacha to'liqsiz o'rta maktab
- v) 15-18 yosh o'rta maktabi
- g) 18-23 yosh oliy ta'lim maktabi

Yuqori sinflarga ko'chgan sari estetik tarbiya ham bir predmet singari murakkablashib boradi. Yuqori sinflarda o'qigan talabalar rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va musiqa san'ati tanqidchilari kasblarini egallab chiqadilar.

O'qituvchi-kadrlar tayyorlash juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ular oliy pedagogika va san'at oliygohlarida tayyorlanadi. O'qituvchilar, shuningdek ona Vatanidan olgan bilimlariga qoniqmay, rivojlangan Evropa mamlakatlarga o'qishga borib o'z bilim va malakalarini oshirib qaytadilar.

Shveysariyada musiqa ta'limi tizimi

Emil Jak-Dalkroz (1865-1950) Shveysariyalik pedagog, kompozitor, musiqachi, yozuvchi va jamoat arbobi, musiqiy-ritmik tarbiya tizimi yaratuvchisidir. 1910-yilda «musiqa va ritm» maktabini Jenevada «Jak-Darkroz» institutini tashkil qilgan. Keyinchalik Jak-Dalkroz ishi davomchilari Stokgolmda, Londonda, Parijda, Venada, Barselonada, Nyu-York shaharlarida «Jak-Dalkroz» maktabi, «Jak-Dalkroz» institutlarini tashkil qilganlar.

Jak-Dalkroz musiqiy dinamika va emotsional harakatlari hamda obrazli mazmun, musiqa ostida plastik harakatlar jo'rligida musiqiy faoliyatga jalb qilish tizimini yaratdi. O'quvchilarda improvizatsiya, obsolyut eshitish qobiliyatini rivojlantirish tizimini ishlab chiqdi. U o'z o'quvchilarining plastik ritm tuyg'usiga ega bo'lishlarida ularning asab tizimi va muskul apparatini mukammal rivojlantirishga intildi. Uning nazariyasiga ko'ra, ritmni o'quvchilarga tushuntirish muhim emas, ritmni o'zlashtirilmasdan ham tana harakatlarini his etgan holda mashqlarni takrorlash va ritmik harakatlar bajarish yaxshi natija beradi.

E.Jak-Dalkroz, Zoltan Koday, Karl Orf tomonidan ishlab chiqilgan musiqiy tarbiyaning yaxlit tizimlari turli mamlakatlardagi musiqa tarbiya nazariyasi va amaliyoti ishlariga katta ta'sir ko'rsatdi.

Vengriyada musiqa ta'limi tizimi

Vengriyada musiqiy tarbiya sohasida erishilgan asosiy yutuqlar zamonaviy venger asoschilaridan biri, kompozitor, xalq og'zaki ijodi bilimdoni, musiqashunos, pedagog Zoltan Koday (1882-1967) nomi bilan bog'liqdir. Bolalarning musiqiy tarbiya sohasidagi o'zining faol va sermahsul faoliyatini Zoltan Koday 1920-yillardan boshladi. Z.Kodayning bolalar musiqiy tarbiya tizimi ommaviylik tamoyiliga asoslangan.

Buyuk alloma xor jamoasida qo'shiq aytish hammaga ham mumkinligini alohida ta'kidlagan, keng ommani xor ijrochiligiga jalb etib, bu ishga alohida diqqat va e'tiborni talab qildi. Uning butun musiqiy ta'lim jarayoni xalq kuylariga asoslangan. Koday ommaviy venger maktabiga «Tonika-sol-fa» usulini kiritdi. Uning g'oyalari ikkinchi jahon urushidan so'ng ommalashib ketdi. Koday metodi - bu yaxlit tizim bo'lib: relyativ (nisbiy) solmizatsiya, kuylayotgan o'quvchilarga qo'l harakati yordamida beradigan ko'rsatmalar,

venger xalq qo'shiqlari, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim maktablari, xor sinflari hamda guruhli kuylashdar iborat.

Unutmaslik kerakki, Koday metodi haqida gap ketganda so'nggi musiqiy tarbiya konsepsiyasi haqida, uni hayotga tadbiiq etish yo'llari to'g'risida bormoqda. Bularni Z.Koday turli manbalardan olib, venger musiqasi xususiyatlariga moslashtirdi.

Guruhli kuylash Vengriyada, haqiqatdan, umumxalq jarayoni bo'lib, bunga musiqa savodxonligi, nota bo'yicha qo'shiq ayta olishga yordam beradi. Z.Kodayning «2000-yilga kelib, har bir umumta'lim maktabini bitirgan o'smir notani erkin o'qiy oladi» - degan orzusi amalga oshmoqda.

Vengriyada musiqiy tarbiya yuqori darajadadir. Butun mamlakatdagi umumta'lim maktab tizimining asosi 8 yillik to'liqsiz o'rta maktab bo'lib, uni bitirgan o'quvchilar 4 sinfli gimnaziyaga o'tadilar. Birinchi sinfda bolalar haftada 2 marta 0,5 soatdan, 2-7-sinflarda esa haftada 2 soat «Musika» o'quv fani bilan shug'ullanadilar.

Bundan tashqari, har hafta ikki soat orkestr mashg'ulotlariga ajratilgan. Gimnaziyaning 3-4-sinflarida o'quvchilar musiqa adabiyoti bilan tanishish va birorta musiqa cholg'usini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umumta'lim maktablari orasida «Musika qo'shiqchiligi» to'liqsiz o'rta maktablari, ya'ni musiqani chuqur o'rganishga qaratilgan umumta'lim maktablari keng joriy etilgan. Ularda 1-4-sinf o'quvchilari haftada 6 soat, 5-7-sinflarda esa 4 soat musiqa va 2 soat xor mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar. Maktablarda, shuningdek, fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg'ulari sinflari mavjud.

Bunday maktablardagi sinflarda o'quvchilar soni umumta'lim maktab, sinfidagi bolalar soniga nisbatan kamroq, ya'ni 26 o'quvchidan ortmaydi. Bundan tashqari ularda umumta'lim yo'nalishdagi o'quv fanlarining soni ham qisqartirilgan.

Boshlang'ich sinflarda barcha o'quv fanlaridan bilim berayotgan o'qituvchi musiqa darsini ham o'tadi. 5-8-sinflarda bu darslarni musiqa mutaxassisi olib boradi. Bolalarning musiqa savodini chiqarishda ustoz tomonidan qo'l harakatlari, maxsus imo-ishoralar qo'llaniladi.

Relyativ solminizაციyani chuqur o'rgangandan so'ng, o'quvchilar mutlaq tizimga o'tadilar. Musika ta'limini berish, shu jumladan musiqa o'quvini rivojlantirish uslubiyoti, asosan, bolalar ongining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan va ularga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Umumta'lim maktablarida fortepiano, fleyta, yog'och simbala va ayrim urma cholg'ulardan foydalaniladi. Koday tizimi, ayniqsa, musiqani chuqur

o'rganishga yo'naltirilgan va umumiy ta'lim maktablarida o'zining yorqin ifodasini topmoqda.

Har kungi musiqa darslari bolalarda usullarni ajrata bilish tajribasini, xotira, his-tuyg'ularni rivojlantiradi. 14-18-yoshdagi o'quvchilar ta'lim oladigan gimnaziyalarda musiqa tarixi fani o'rganiladi, barcha janr, uslub va davrdagi musiqa asarlari eshitiladi, shuningdek, sinfdan tashqari ishlaydigan xor va orkestr jamoalarida faoliyat ko'rsatadilar.

Vengriyada maxsus musiqa ta'limi beradigan gimnaziyalar ham bor. Bunday gimnaziyalar bitiruvchilari, aksariyat hollarda boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchilari bo'lib ishlaydilar. Shuningdek, Vengriyada bir nechta musiqa bilim yurtlari ham mavjud. Mazkur o'quv yurtlarida o'quvchilar umumta'lim fanlari bilan birga biror musiqa cholg'usini, solfejio, garmoniya, guruhli kuylashni o'rganishadi. Gimnaziya bitiruvchilari o'qishni (ta'lim olish muddati 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan) Ferents List nomidagi Musiqa akademiyasida davom ettirishlari mumkin.

3 yillik kurslarda umumta'lim maktablari uchun solfejio, qo'shiq, biror musiqa cholg'u ijrochiligi bo'yicha, mutaxassis o'qituvchi tayyorlanadi. 5 yillik ta'lim esa oliy malakali o'qituvchi va ijrochi artistlarni tayyorlaydi.

Bundan tashqari Vengriyada yuqori sinf musiqa o'qituvchilari tayyorlaydigan 4 yillik oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, bu yerda talabalar muayyan musiqa ixtisosligi bilan birga ikkinchi mutaxassislik (masalan: musiqa va tarix, musiqa, til va boshqalar)ni egallaydilar. Z.Koday tizimi Vengriyadagi musiqa ta'limi va tarbiyasining barcha bosqichlarida joriy etilmoqda. Vengriya musiqashunos pedagoglarining tajribasi dunyoning ko'pgina malakatlarida jumladan, O'zbekistonda ham musiqashunos va pedagogika mutaxassislari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

Z.Koday tizimi turli milliy madaniy an'analarga muhim ravishda moslashib bormoqda va shuning uchun u jahonning aksariyat mamlakatlarida keng miqyosda ommalashib ketdi.

Vengriyada butun xalq musiqiy savodini chiqarish vazifasi muvaffaqiyat bilan hal etilmoqda. Bunda, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim mamlakatlarida xor kuni o'tkaziladigan musiqa darslari katta ahamiyat kasb etmoqda.

Guruhli kuylash Vengriyada, chindan ham, umumxalq jarayonidir, bunga odamlarning musiqa savodxonligi, notaga qarab kuylash malakasi ta'sir ko'rsatmoqda.

Germaniyada musiqa ta'limi tizimi

Germaniyaning yirik nemis kompozitori va buyuk pedagogi Karl Orf (1895-1982) jahonda keng tarqalgan bolalar musiqiy tarbiya uslubiyotining asoschilaridan biri hisoblanadi. Jak-Dalkrozning o'quv tizimiga asoslanib K.Orf «Oddiy musiqa» (elementar musiqa) g'oyasini ishlab chiqdi va bu g'oyani Myunxendagi (Gyunter maktabi) gimnastika va raqs maktabidagi o'qitish uslubiga aylantiradi. 1953 - yilda Avstriyaning Zaltsburg shahrining Motsarteum deb nomlangan musiqa dargohida Karl Orf instituti tashkil topib, u AQSh, Angliya, Germaniya, Hindiston kabi 30 dan ortiq mamlakatlarni birlashtirgan baobro' ilmiy muassasaga aylanib ketdi.

K.Orf nomidagi institutda 400 dan ortiq o'quvchi, 50 dan ziyed pedagog ta'lim oladi. K.Orf kashf etgan bolalar va o'smirlar musiqiy tarbiya usuli o'quvchilarning musiqiy folkloridan keng miqyosda foydalanishi, ularning ijodiy ko'nikma va imkoniyatlarini rivojlantirishga asoslangan.

Ushbu o'quv usuli tamoyillari xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan «Shulverk» to'plamida o'zining badiiy - metodik talqinini topdi.

Besh jildlik «Shulverk» uslubiy qo'llanmasi, asosan umumiy ta'lim maktablari va bolalar muassasalaridagi 4 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning uzluksiz musiqiy ta'lim-tarbiyasini amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Xalq musiqa ijodiga asoslangan bu qo'llanmadagi asarlar bolalar ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Barcha namunalarga etnografik yoki tarixiy manbalar asosida izoh berilgan. Bu o'ziga xos hamma bolalarga majburiy musiqa ta'limini beradigan boshlang'ich maktabdir. K.Orfning fikriga ko'ra boshlang'ich musiqa tarbiyasi - bu nafaqat musiqa o'quvi hamda ritm hissiyotini rivojlantirish. Kuylashga yoki biror cholg'uuda ijro etishga o'rgatish, balkim bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, badiha malakalarini kengaytirish, yakka va jamoaviy ijro jarayonida musiqani ijod etish qobiliyatini rivojlantirish hamdir.

Guruhdagi bolalar soni 10-12 kishidan oshmasligi kerak. Barcha mashg'ulotlar jamoaviy tarzda olib boriladi, bunda bolalar qo'shiq ijro etib, raqsqa tushadilar, navbat bilan musiqa cholg'ularida chaladilar, turli jismoniy mashqlarni bajaradilar.

Asta - sekin bolalar shu darajaga yetib boradiki, ular butun tomosha-sahnachalarni, keyinchalik hatto spektakl, undagi musiqa, she'riy matn, sahna jihozini, barcha hatti-harakatlarni ham o'zlari o'ylab topadilar.

K.Orf cholg' u jo' movozligiga ham katta ahamiyat beradi. «Shulverk»da nazarda tutilgan jamoaviy cholg' u ijrochiligi bolalardan maxsus tayyorgarlik va bilimlarni talab qilmaydi, ammo, bunda ta limning oddiyligi bilan musiqa yangrashining yuqori sifatleri uyg'unlashadi. «Shulverk»dagi aksariyat namunalar vokal mashqlarga asoslangan. Orfning uslubi notaga qarab ijro etish (ya' ni nota savodi)ga bog' liq bo' lmasada, instituti pedagoglari relyativ solfejioga o' zgacha yondoshadilar: bolalarga tovushlarning nisbiy va mutlaq nomlarini baravar o' rgatadilar.

Hozirda «Shulverk» to' plamlaridan ko' p mamlakatlarda foydalanilmoqda. K.Orf ta' kidlab o' tganki, «Shulverk» kitobini har bir mamlakatda milliy musiqa, shu jumladan bolalar folklori bilan boyitish zarur. «Shulverk»ning fransuz, yapon, ingliz, shved va boshqa milliy nashrlari mavjud. Mazkur kitob ko' r-soqov, maxsus logopedik bolalar maktablarida joriy etilmoqda.

K.Orf institutida ertalabki darslar yosh pedagoglar, oliygoch talabalari bilan o' tkaziladi. Bolalar mashg' ulotlari kunning ikkinchi yarmida o' tadi. K.Orfning didaktik konsepsiyasi jahon o' quv amaliyotida keng tarqalgan bo' lib, turli uslubiy yechimlarga yo' l ochadi va ijodiy tafakkurni rag' batlantirishga, badiha malakalari va musiqiy ritmik his-tuyg' uni rivojlantirishga ko' maktashadi.

Bolgariyada musiqa ta' limi

Bolgariyada musiqa darslari, o' quv rejasiga muvofiq, maktabni birinchi sinfidan to' qqizinch sinfiga qadar o' tkaziladi, 10-12 sinflarda esa, ixtijoriy mashg' ulotlar tarzida, xaftada ikki soatdan olib boriladi. Birinchi sinfda musiqa darsiga 1 «shartli» soatdan iborat, chunki birinchi sinf tayyorlov sinfi bo' lib, unda musiqiy eshitib kuylaydilar va raqsga tushadilar. 2-4 sinflardan esa musiqa darslariga-ikki soatdan ajratiladi.

2-sinfdan boshlab o' quvchilar darsda musiqa savodini va qo' shiq aytishni tizimli ravishda o' rgana boshlaydilar.

Bolgariyadagi ommaviy musiqiy tarbiyaning asosi - bu xalq qo' shiqlaridir.

6-sinfdan boshlab o' quvchilar asosiy janrlar va Bolgariya musiqa madaniyati bilan tanisha boradilar. Bolgar xalq musiqasi o' ziga xos usul, ohang va boshqa xususiyatlarga ko' ra hozirgi zamon yoshlarining musiqa ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatiga egadir. Bolgariyada asosan diqqat e' tibar ommaviy havaskorlik jamoalari - folklor ansambllariga qaratilgan.

Ularning faoliyatida xalq ijodi namunalari milliy ijrochilik uslubiga yaqin ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Xalqchilik ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgan bolalar va yoshlarning qo'shiq va raqs xalq ansambllari ma'naviy-xalqiy tarbiyasi va badiiy-emotsional ta'sirning vositalaridir.

Bolgar xalq qo'shiqining boyligini egallash, uning o'ziga xos ohang ko'larini o'zlashtirish, bolalarda musiqiy tasavvur hamda ijro malakalarini egallashga ko'maklashadi, milliy hamda jahon mumtoz musiqa asarlarining go'zallik va boyligini baholashga imkon beradi. Bolgariya ommaviy musiqa ta'limining milliy uslubiyoti, uning bolalarda musiqaviy ijrochilik, ritmik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullari, musiqiy tarbiyaning dastlabki bosqichida o'quvchining badii va boshqa ijodiy harakatlarini rag'batlantiradi.

Bolgariya musiqa ta'limi tizimida notasiz kuylashdan, notaqa qarab kuylash jarayoniga o'tishda 1923 yilda Boris Trichkov tomonidan ishlab chiqilgan «stolbica» (ustun) metodi keng tarqaldi. Oddiy, ommabop, qiziqarli bo'lgan «stolbica» usuli, ayniqsa, umumta'lim maktab bolalari bilan ishlashda katta yordam bermoqda. Bu uslub asosan musiqa savodi jarayonida qo'l keladi. Biroq amaliyotda - qo'shiq kuylash, musiqa tinglash jarayonlarida bu metoddan faqat do major miqyosidagina foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinflarda musiqa darsini barcha o'quv fanlaridan mashg'ulot olib boradigan pedagoglar o'tkazadilar.

Ular gimnaziyani bitirgach, muallimlar institutida ta'lim oladilar.

Muallimlar institutida o'qish muddati uch yil.

5-8-sinflarda ashula darsini, ikki o'quv fani (masalan, "til va ashula") bo'yicha pedagogika institutining maxsus fakultetida ta'lim olgan o'qituvchi o'tadi.

9-12-sinflarda esa, konservatoriyaning musiqiy pedagogika bo'limlarining bitiruvchilari olib boradilar. Ularning o'qish muddati - 4 yil.

O'quv dasturlarida ko'rsatganidek, musiqa darsini asosini guruhli kuylash va musiqa cholg'ularida - ijro etish tashkil etadi. Darslarda qo'llaniladigan musiqa cholg'ulari turli-tumandir: urib chalinadigan cholg'ular - bolgar (milliy) va maktab o'quvchilari tomonidan yasalgan havaskorlik cholg'ulari; metallofonlar, milliy puflab chalinadigan (surnaycha, xushtak va hokazo), furuylar (venger xalq cholg'usi); «melodika» (akkordeonga o'xshash katta bo'lmagan cholg'u). Bu cholg'ularda ijro etish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi va bolalarni musiqa darslariga faol jalb qiladi.

Ko'pchilik bolgar o'qituvchilari musiqiy cholg'ularni darslarda keng qo'llanishiga ehtiyotkoronalik bilan qarashmoqda. Ularning fikrlariga ko'ra

mazkur cholg'ularni dars jarayoniga tatbiq etish boshqa faoliyat turlariga kam e'tibor berilishiga sabab bo'lmoqda. 1970-yillarda qabul qilingan dasturga ko'ra musiqa tinglash jarayoniga juda kam soat ajratilgan bo'lib, musiqa darslarining asosiy faoliyatlari - jamoa bo'lib kuylash va musiqiy cholg'ularda ijro etishdir. O'tgan yillar tajribasi shuni ko'rsatdiki, mazkur dastur o'zini oqlay oldi.

Maktabdagi o'quv jarayoni darsliklar va o'qituvchilarga mo'ljallangan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlangan bo'lib, bu narsa, albatta, ommaviy musiqiy tarbiyani amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. 2-9-sinflar uchun yaratilgan darsliklar o'quvchi va o'qituvchilar uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari o'qituvchilar uchun chiqarilgan o'quv qo'llanmalar notaga qarab kuylash, metodika masalalari, vokal-xor malakalarini shakllantirishga qaratilgan bir qator muammolar echimiga qaratilgan.

Bolgariyada sinfdan tashqari ta'lim masalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, xor madaniyatini rivijlantirishga Sofiya o'smirlar saroyining - «Bodra smyana» bolalar xor jamoasi o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Jamoa 1947 yilda tashkil topgan bo'lib, u ko'p yillar davomida bu jamoaga Bolgariya xalq artisti, professor Boncho Bochev rahbarlik qilgan edi. Xor jamoasi tarkibida 380 - a'zosi bo'lib, katta va kichik yoshdagi bolalar guruhlari, 100 kishilik konsert guruhidan iborat. Mazkur jamoa dasturiga murakkab ko'pvozli, turli janr va uslubdagi asarlar kirgan.

Bolalar va o'smirlar havaskor xor maktab - studiyasi bolalar xor jamoalarining zamonaviy ko'rinishi sifatida yosh ijrochilar uchun ma'lum kasbiy istiqbollarini ochib beradi. Shunday jamoaning muntazam konsert faoliyati, havaskor xor jamoaning xor maktabiga aylanishidagi muhim shart - sharoitlaridan biridir.

Yuqorida tilga olingan jamoadan tashqari, Bolgariyada boshqa juda ko'p bolalar va o'smirlar xor maktablari mavjud. Ushbu maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar kasbiy xor jamoalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xor jamoalari negizida - turli xil repertuarga ega bo'lgan kamer, modregal, katta konsert jamoalari shakl topishi mumkin. B. Bochev «Bodra smyana» xor jamoasining ish tajribasini har bir bolalar xor jamoasiga tatbiq etish mumkin.

Bolalar va o'smirlar havaskor xor maktablarini mustahkamlash zamon talablariga javob beradigan, mukammal tashkiliy - o'quv shakllarini vujudga keltirish mumkin.

Gollandiyada musiqa ta'limi

Gollandiyadagi bolalar musiqiy tarbiyaning tizimi, umrining 35 yilini musiqa faoliyatiga bag'ishlagan Frantsua van Xauve (Delft shahri) nomi bilan bog'liqdir. U Parij va Bryussel konservatoriyalarining dirijyorlik, musiqa nazariyasi hamda kompozitsiya sinflari bo'yicha tamomlagan. Delftdagi musiqa maktabini tashkil etishi hamda uni boshqarish takliflarini qabul qilgandan so'ng u xor va orkestr jamoalarida direyorlik fao'iyatini to'xtatdi. Hozirgi zamon pedagogik usullar bilan tanishish maqsadida Frantsua van Xauve Evropa mamlakatlariga, birinchi navbatda, Bavariyaga yo'l oldi. U yerda Karl Orf va uning bolalar musiqiy tarbiyasi tizimi bilan tanishib, uning ashaddiy muhlisiga aylandi. Shuningdek, Frantsiya va Belgiya, Italiya va Ispaniyada bo'lib qaytdi. Vengriyada u Z.Koday bilan tanishdi. Kodayning musiqiy tarbiya tizimi Franciya van Xauveda katta yutuqlarga erishishga asos bergan relyativ tizimini qunt bilan o'rganishga kirishdi.

Bolalar bilan olib borgan amaliy faoliyat natijasida Per van Xauve musiqiy tarbiyadagi o'zining yariqi tizimini yaratdi, bu tizim ikki - Orf va Koday usullarining o'zaro uyg'unlashgan mahsuli bo'lib, unda psixologiya va bolalar tasavvuriga mos keladigan asosiy tomonlari olingan edi. Bu usulning mohiyati quyidagidan iborat: bolalarni o'yinga jalb etib (masalan, qarsak chalish, tarekalar, qo'ng'iroqchalar, bubenlarni urib tovush chiqarish), pedagoglar ularda musiqa bo'yicha malakalarni hosil qiladilar. Shu tarzda hamma bolalar musiqaviy bilim saviyalari turlicha bo'lishiga qaramay ta'lim jarayoniga kirishib ketadilar. Ta'kidlash joizki, Gollandiya musiqa maktablari bolalarga kasbiy ma'lumot berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, gap o'zining musiqaviy vaqtichoqligi va xursanchiligi haqida ketadi.

Delft musiqa maktabi tashkil topish davridan bir necha yildan keyin P'er van Xauve o'z amaliyotida sinovdan o'tgan shaxsiy tajribalariga asoslanib har bir sinf uchun «musiqa bilan o'yinlar» nomli qator darsliklar yaratdi. Darsliklarda ko'plab musiqali asarlar, mashqlar, o'yinlar, qo'shiqlar va aniq vazifalar mavjud bo'lib, ularni bajara borib, bola asta-sekin notani yozish va o'qishni, nota bo'yicha qo'shiq aytish va o'yin o'yinashni o'rganadi.

«Musiqani eshitamiz» keyingi kitobi esa Gollandiya va Belgiyada nashr etildi. Bundan tashqari Gollandiyada gramplastinkalar chiqarilgan edi, ulardan P'er van Xauvening musiqiy tarbiya usullari va tizimini aniq tushunish mumkin.

Per van Xauvening «musiqa bilan o'yinlar» nomli musiqiy tarbiya usuli nafaqat Gollandiyada, shuningdek, Zaltsburgdagi Motsarteumda, Belgiya, Norvegiya, Frantsiyada keng tarqalgan. Uning kitoblari turli tillarga tarjima

qilingan va Delft shahriga jahonning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan muallimlar musiqa pedagogikasi masalalariga bag'ishlangan xalqaro seminarlarda uning tizimi bilan yaxshiroq tanishishga imkoniga ega bo'ladilar.

O'tkir qobiliyatga ega musiqachi, mohir psixolog, oliyjanob va xushchaqchaq inson, o'ta farosat sohibi bo'lmish P'er van Xauve bir zumda ham birinchi sinf o'quvchilari bilan, ham turli yoshdagi bolalar bilan va shuningdek, o'zini o'rab turgan hamma kishilar bilan ham til topa oladi.

P'er van Xauve hayotidagi asosiy shiori: «Musiqa hammaga shodlik baxsh etishi lozim»

Ruminiyada musiqa tizimi

Ruminiya xalq an'analarining rivojlanishi Z.Koday, K.Orf, E.Jak-Dalkroz, E.Villem usullarini ijodiy o'rganish bilan uyg'unlashib ketgan. Buxarest Konservatoriyasi qoshidagi musiqali - pedagogik tadqiqotlar kabineti mamlakatda musiqiy tarbiya tizimini mukammallashtirishning qator loihalarini ishlab chiqdi. Bu loyiqalar umumta'lim va musiqa mashg'ulotlarini yagona o'quv tarbiyaviy jarayonda mujassam etishiga asoslangan. Ruminiyadagi musiqiy tarbiya tizimining ijobiy tomoni shundan iboratki, o'quvchilarning estetik tarbiyasiga yaxlit munosabat bo'lib, unda musiqaga yetakchi o'rin ajratilgan, musiqiy tarbiyaning eng muhim tarkibiy qismi - xor qo'shiqchiligi bo'lib, u hamma bolalar uchun mos bo'lgan musiqa ijrochiligi hisoblanadi.

Chexiyada musiqa ta'limi

Chexiyadagi musiqiy tarbiya hozirgi zamon musiqali - pedagogik ilmi va nazariyasi yutuqlari asosida rivojlanmoqda. Bu jarayonda havaskorlik musiqa ijrochiligi an'analarining tiklanishi, zamonaviy shaxsning musiqaviy ehtiyojlariga javob beradigan, ommaviy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan ommabop musiqaning yangi uslubini yaratish muhim omil hisoblanadi. Hozirgi zamon chex musiqa pedagogikasi o'quvchilarning musiqiy - ijodiy faolligini oshirishga, ularning musiqiy tafakkuri, xayoli, xotirasi, musiqani hissiyot orqali idrok etish imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Musiqiy tarbiyada bolalarning musiqali - ijodiy faolligini ko'tarish maqsadida musiqiy mashqlarning to'rt turi joriy etilgan: kuylash (ovozni, musiqa o'quvini rivojlantirish, mustaqil kuylash), musiqa cholg'ularida ijro etish (biror musiqiy cholg'uni o'zlashtirish hamda ansambl ijrosi), tinglash (bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish), o'yin-raqs (nafis harakatni rivojlantirish).

Chexiyada bolalarning musiqaviy rivoji besh bosqichdan iborat. 4-6 yoshdagi bolalarga o'yinga asoslangan musiqa o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflar (6-9 yosh)da musiqali o'yin ma'lum qoidalar bilan to'ldiriladi. 1-3 sinflarda musiqiy tarbiyaga haftada 1 soat ajratiladi.

O'rta yoshli o'quvchilarda xor jamoasida yoki biror cholg'u ansamblida ishtirok eta olish malakalari shakllanadi. 4-6 sinflarda musiqiy tarbiyaga haftada 2 soat ajratiladi.

Yuqori sinflarda esa o'smirlar musiqa olamiga mustaqil yo'l topa olishini o'rganishadi. 7-9-sinf o'quvchilari musiqa bilan haftada 1 soat shug'ullanadi; bundan tashqari fakultativ asosida xor qo'shiqchiligi va cholg'u ansamblida mashg'ulotlari haftada 2 soatdan olib boriladi.

16-19 yoshdagilar musiqiy tarbiyani maxsus o'quv yurtlari - to'rt yillik gimnaziyalarda davom ettiradilar.

O'qishning dastlabki ikki yili davomida musiqa darslari hamma uchun majburiy bo'lib, estetik tarbiyasi darslari bilan navbatma-navbat olib boriladi. Uchinchi va to'rtinchi yilga kelib, musiqiy tarbiya fakultativ o'quv fani sifatida o'tiladi.

Bundan tashqari, har bir o'quvchiga, xor jamoasi yoki cholg'u ansamblida ishtirok etish yoki musiqa klublarida ishlash imkoni beriladi.

Ushbu tizimdan tashqari, Chexiyada musiqiy istedodli bolalar uchun maxsus musiqa maktablari ham mavjud. Bulardan tashqari, bolalar yakka tartibda, xalq san'ati maktablari, musiqa to'garaklari, madaniyat uylari va xususiy musiqa o'quv yurtlarida musiqa ta'limini olishlari mumkin.

Chexiyadagi musiqiy tarbiya - o'zgarib turuvchi tizim bo'lib, ta'lim o'quv faniga, pedagogning maqsad va niyatlari hamda o'quvchining shaxsiy xususiyatlariga moslashtirilgan.

Musiqiy tarbiya darslari milliy folklor xorijiy mamlakatlar xalq musiqasi, mumtoz va zamonaviy musiqaga asoslangan. Badiiy asarni faol kuzatish, tasavvur qilish, undagi kechinmalarni boshdan kechirish va anglash orqali musiqaga yo'l ochiladi.

Musiqani o'rgatishda audio - vizual vositalari, Praga radiosining maktab radio dasturlari jalb etiladi.

Chexiya zamonaviy musiqiy tarbiya tizimi pedagogikaning shakllantiruvchi va faollashtiruvchi soha sifatida rivoj topmoqda.

Rossiyada musiqa ta'limi tizimi

Rossiyada musiqa pedagogikasi katta muvafaqiyatlarga erishdi va jahon musiqa jamoatchiligining hurmat - eliboriga sazovor bo'ldi. Shu jumladan, taniqli kompozitor, pedagog, musiqa va jamoat arbobi D.B.Kabalevskiy (1909-1982) hozirgi zamon musiqiy tarbiyasiga katta hissa qo'shdi.

D.B.Kabalevskiy ishlab chiqqan tarbiya tizimida ichki aloqalar birligi mezoni asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha darsning tarkibiy mushtarakligi mashg'ulotlar izchilligining asosini tashkil etishi kerak. Birlilik mezoni bilan bir qatorda, dasturda, umumlashtirish qoidasiga ham muhim o'rin ajratilgan. Ta'kidlash lozimki, bolalar bilim egallashida didaktikaning «xususiylikdan umumiylikka» formulasi «umumiylikdan xususiylikka» qoidasi qo'llaniladi. D.B.Kabalevskiy tizimining asosida «uch kit» ya'ni qo'shiq, raqs, marsh turadi. Bu ishda oddiy janrlar bolalar uchun musiqa haqida tushunchalarning shakllanishida birinchi qadamdir. Musiqiy asar orqali ya'ni, qo'shiq, raqs, marsh janrida yozilgan asarlarni eshitib, ularni farqlash, aniqlash, tinglaganda faxmlay olishini maqsad qilib qo'ygan.

Keyingi bosqichda ushbu tushunchalar chuqurlashtiriladi, ya'ni raqssimon, marshsimon, qo'shiqsimon asarlar bolalarga eshittirilib, ular haqida erkin fikr yuritish malakalari rivojlantirilishi maqsad qilib qo'yiladi.

Umuman D.B.Kabalevskiyning ishlab chiqqan musiqiy o'qitish tizimi, musiqiy asarlar orqali hamma bilim va malakalarni bolalarga taqdim etish asosida tuzilgan. Shu bilan birga pedagogikaning muammoli o'qitish tizimi Kabalevskiyning tizimida asosiy vositalardan biri bo'lib qolgan. Ya'ni bolalar o'zlari fikr yuritib muhokama qilib, o'qituvchining rahbarligida malum bir bilim va malakalarga ega bo'lishligi nazarda tutiladi.

Estoniya musiqa ta'limi

Estoniya musiqiy tarbiya tizimi qo'shiq bayramlarining ko'p yillik xalq an'analari asosida shakllanadi, hamda eston xalqining yuksak xor san'atini saqlab qolishga intilgan musiqa o'qituvchilarining, musiqachilarning ulkan tashabbuslari hisobiga rivojlanib bordi. Hozirgi zamon musiqiy tarbiyasining ildizlari XIX asrga qarab o'tilgan. Sankt-

Peterburg konservatoriyasida musiqa ta'limini olgan birinchi eston kompozitorlari bolalarga beradigan musiqiy tarbiyaning zarurligini angladilar va bolalar uchun xor asarlari hamda qo'shiqlarini shuningdek, maktablar uchun ko'plab to'plamlarni yaratishga e'tiborlarini qaratdilar.

Estoniya musiqa hayotida qo'shiq bayramlarini o'tkazish katta voqeadir. Bu bayramlarni o'tkazishdan oldin har bir tumanda qo'shiq kunlari o'tadi. Birinchi ommaviy qo'shiqlar bayrami 1869-yili Tartu shahrida o'tkazilgan. Bunda hamma vohalardan erkaklar xor jamoalari (sakkiz yuz kishidan iborat) ommaviy ravishda qatnashish uchun to'planadilar.

Ushbu bayram bugungi kunga yetib kelgan an'analarga asos soldi. Bolalar xor jamoalari 1870-yildan boshlab (doimiy ravishda bo'lmasa ham) qo'shiqlar bayramida ishtirok etmoqdalar. Qo'shiqlar bayrami birinchi kundan boshlab, aholining hamma qatlamlarini san'atga jalb etishga asoslangan edi.

1947-yildagi umumrespublika qo'shiq bayrami 25000dan ortiq qatnashchilarni yig'ini va umumxalq ommaviy bayramiga aylandi. 1947-yildan boshlab maktab xor jamoalari ham hamma qo'shiq bayramlarida ishtirok eta boshlaydilar. Dastlab, bayramlarda maktab bolalar xor jamoalari, aralash va ayollar xor jamoalari shuningdek, damli cholg'ular jamoalari ishtirok etdilar. 1960-yildan boshlab o'g'il bolalar xor jamoalari ham ishtirok eta boshlaydilar. V.Laul boshchiligidagi o'g'il bolalar qo'shma xorini alohida ko'rsatish lozim.

1965-yili, birinchi marta respublika yosh skripkachilar ansambli ishtirok etib, qo'shiq bayramini an'analarga yangilik kiritdi. Maktab xor jamoalari qatnashchilarining soni oshib borayotganligi, shu munosabat bilan qo'shiq bayramlarini tashkil etishda paydo bo'lgan qiyinchiliklarni hisobga olib, umumrespublika qo'shiqlar bayrami orasida maktab o'quvchilari xor jamoalarining ko'riklarini o'tkazishga qaror qilindi. Birinchi shunday bayram 1962-yilning yozida Tallin shahrida o'tkazildi. Qatnashchilarning umumiy soni 20000ga yaqin-edi. Xor ishida eng muhim va qiziqarli shakllardan-biri 1963-yildan boshlab o'tkazilayotgan yozgi qo'shiq oromgohlaridir.

Ikki soatlik qo'shiq mashg'ulotlari bolalarning kashfiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, sport va boshqa o'yinlar esa kunning qolgan vaqtini to'ldiradi. Estoniyadagi qo'shiqlar bayramiga tayyorgarlik jarayonida seminar va yozgi yig'ilishlar o'tkaziladi. Seminarining alohida shakli-dirijyorlarning respublika qo'shma xori bo'lib uning tarkibiga 200dan ortiq musiqa o'qituvchilari va xor dirijyorlari kiradi. Bu xor jamoasini respublikaning eng yaxshi dirijyorlari, shu qatorda Gustav Emesaks, Yuriy Variste edi. Ularning

xorni boshqarishi mamlakat xormeysterlarining malakasini oshishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar va yoshlarning musiqa madaniyatini rivojlanishiga maktabdan tashqari musiqiy tarbiya ham katta ahamiyatga ega.

1951-yili Yu.Variste rahbarligi ostida Tallindagi o'smirlar saroyi qoshida bolalar xor jamoasi tashkil qilindi. Bugungi kunga kelib bu jamoa xor maktabiga aylanib, hamma sinf o'quvchilarini qamrab olgan. Xor jamoasi bitta asosiy va uchta tayyorlov xor jamoalaridan iborat. 1964-yildan boshlab xor maktabi o'quvchilari nota o'qishning yangi «YO-LE-MI» tizimiga o'tdi, yangi repertuarni muvaffaqiyat bilan egallab, notani juda yaxshi o'qib, musiqa ohanglarini to'g'ri kuylamoqda.

1964 yili respublikada bolalar musiqa maktablari o'quvchilaridan iborat yosh skripkachilar ansambli tashkil etildi.

Orkestr repertuarini bolalar o'zining turar joylarida o'rganadilar va har yili 3-4 marta konsertlar uchun repetitsiyaga yig'iladilar. Orkestr qatnashchilarining yoshi 7 dan 17 gachadir, ya'ni o'qishni boshlayotgan va uni tugatayotgan o'quvchilar bir jamoaga birlashgan. Orkestr konsertlari doimo muvaffaqiyat bilan o'tmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodga musiqa-xor tarbiyasi berish ishiga respublikadagi eng yaxshi bolalar xor jamoalaridan biri «Ellerkeyne»ning rahbari X.Kalyustening hissasi kattadir. Bu jamoadagi ijrochilik madaniyatining yuqori saviyada ekanligi - bolalar bilan yaxshi tashkil etilgan ishning bevosita natijasidir.

Xor jamoasidagi mashg'ulotlar natijalari faqat qo'shiq ijro etish bilan chegaralanib qolmagan. Xor jamoasida qo'shiq aytish, bolalarning his-tuyg'ulari va salohiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularning ma'naviy kamolotiga turtki bo'ladi. Musiqa bilan shug'ullanish bolalarning badiiy bilim darajasini kengaytiradi, ularning dunyoni tasavvur qilishlariga yordam beradi. Shaxsga beriladigan estetik tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblangan xor qo'shiqchiligini buyuk mazmuni ana shundadir.

Litvada musiqa ta'limi

Litvada bolalar va yoshlarga beriladigan musiqiy tarbiya uzoq va o'ziga xos rivojlanish yo'liga egadir. Musiqiy tarbiya ko'p yillar davomida folklor, avloddan avlodga o'tayotgan xalq an'alariga asoslangandir. Litva musiqa madaniyatini rivojlantirishga, ko'p asrlar davomida maktab tarbiyasining asosini tashkil qilgan diniy musiqaning ta'siri katta.

XX asrning ikkinchi yarmida bolalarga beriladigan musiqiy tarbiya sohasida o'zgarishlar ro'y berdi. 1966-yil umumiy ta'lim maktabi isloh qilindi. Bolalar musiqiy tarbiya uslubiyoti uning qoidalari va mazmunidagi o'zgarishlar musiqa sohasida yangi o'quv qo'llanmalarini vujudga kelishi natijada respublikada musiqiy tarbiya saviyasini oshirishga sabab bo'ldi.

Musiqa bo'yicha eski dasturlarda bolalarning musiqiy tarbiyasida, tor va keng ma'noda, ayrim cheklanishlar bor edi. Masalan umumta'lim maktablari dasturlaridan musiqa nazariyasi asosiy o'rin olgan edi, musiqani tinglash, bolalarga musiqiy cholg'ularda kuy ijro etish o'rgatilmagan edi. Darslarning mazmuni va uslubiyoti ko'p hollarda kasbiy musiqa ta'lim yo'nalishlarini to'g'ridan - to'g'ri qaytarar edi. Jahon musiqi tarbiyasi va ta'lim tizimlarini diqqat bilan o'rganib chiqqan litvalik mutaxassislar barcha tizimlarda ta'limning ma'lum bir shakliga (Z.Koday tizimida-solfejio uslubida kuylash qo'shiq, K. Orfda-bolalar cholg'ularida kuy ijro etish. Kabalevskiyda musiqani eshitish va u haqida suhbatlashish) diqqat-e'tibor berilgan, degan xulosaga keldilar. Shuning uchun ular «musiqiy tarbiya tizimi bir-biri bilan mazmuni va uslubi orqali mahkam birlashgan faoliyat turlarining izchilligiga asoslanishi kerak»- degan farazni ilgari surdilar.

Shunday qilib, Litvadagi musiqa darslari quyidagi bo'g'inlarga ajratila boshlandi: musiqani eshitish, musiqa o'quvi asosida kuylash, solfejio usulida kuylash, ritmik tarbiya, musiqa cholg'ularida ijro etish. Undagi bo'g'inlar musiqiy tarbiya va ta'limda yagona bir tizimni tashkil etdi va ayni paytda har bir bo'g'in o'zining maqsadiga ega bo'ldi.

Musiqani eshitish - darsning kerakli qismi hisoblanadi. Musiqani tinglash orqali bolalar o'qib, bilim oladilar, kompozitorlar ijodi bilan tanishadilar, eshitib malakalarini rivojlantiradilar. Ayni paytda, Litvalik mutaxassislar musiqiy tarbiyaning bu shakliga ortiqcha baho berish va musiqiy tarbiyaning butun tizimini faqat shu asosida tuzish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaydilar. Litva maktabida musiqani tinglash malakasini rivojlantirish bilan birga quyidagi vazifalar ham muhim deb hisoblanadi: bolalarni to'g'ri va aniq kuylashga o'rgatish, ma'lum repertuarga ega bo'lish shuningdek, musiqa tinglashga qiziqishini uyg'otish.

Musiqa uquvi (savodi) asosida kuylash murakkabroq qo'shiqlarni ijro etish imkonini beradi (umumta'lim maktablarida notaga qarab kuylash musiqa o'quvi yordamida kuylashga nisbatan kamroq rivojlangan).

Solfejio uslubida kuylash esa - musiqa o'quvi rivojlantirishiga, ovozni yaxshilashga, ohanglarni aniq ijro etishga yordam beradi.

Ritmik harakat - tovushning davomiyligini va uning turlarini idrok etishining eng qulay va ta'sirchan yo'lidir.

Musiqacha cholg'ularida ijro etish ijodiy imkoniyatlarini ochilishi va boyishiga yordam beradi, tovushning jilvadorligini rivojlantiradi, orkestr yangrashi bilan tanishtiradi va, nihoyat, bolalarga katta quvonch baxshida etadi.

Yuqorida sanab o'tilgan musiqiy faoliyat shakllari nafaqat bolalarning musiqaviy qobiliyatlariga ta'sir ko'rsatadi, balki ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, pedagogik jarayonda faoliyatning hamma turlari yagona bir majmuaga birlashadilar, unda barcha tarkibiy qismlar bir-birlari bilan yaqindan aloqada bo'ladi hamda bu o'zaro aloqadorlik musiqacha darsidagi pedagogik jarayonni tashkil etishning muhim qoidasi hisoblanadi.

Musiqali faoliyatning asosiy bo'g'inlaridagi o'zaro tenglik - eng muhim qoidalardan biri hisoblanadi, buning ustiga bu tenglik o'quv materialini mavzular bo'yicha taqsimlashda o'z ifodasini topishi kerak.

Musiqacha darslari sharoitlarining xilma-xilligi darslarning qiziqarli bo'lishiga ta'sir etadi va bolalarga katta xursandchilik baxsh etadi. Ta'lim mazmuni, o'quv materialini tanlash va taqsimlash musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi - barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bevosita bog'liqdir.

Musiqiy tarbiyaning «litva uslubi» samaradorligining yorqin misoli sifatida Vilnyus o'g'il bolalari xori «Ayuolyukash»ni olish mumkin.

Zamonaviy musiqacha pedagogikasini yaratish muammosini hal qilish, umumta'lim o'rta maktablarida musiqaning ahamiyatini asta-sekin to'g'ri anglashga qaratilgan yo'l, xalq madaniyatining umumiy masalalari va tinglovchini shakllantirish muammolariga ahamiyat berilishi Litva davlatining musiqacha sohasiga beradigan katta e'tiboridan dalolat beradi. Xor madaniyati (ommaviy qo'shiqlar bayrami, yosh avlodni turli musiqacha jamoalari orqali xor san'atiga jalb etish)ning miqdor va sifat jihatdan o'sib borishi Litva musiqacha san'atining etuklik darajasiga ko'tarilayotganligidan dalolat beradi, xalq ijodini xalqaro maydonga chiqishiga zamin yaratmoqda.

Urugvayda musiqacha ta'limi

Urugvaylik pedagog va olim Alsira Legasti de Arismendi maktabgacha yoshdagi bolalarga folklor qo'shiqlari asosida musiqiy tarbiya berishning yaxlit uslubini ishlab chiqdi. J.Piyaje, A.Valyon, L.Vigotskiylarning psixologik nazariyalariga suyangan holda A.Arismendi musiqiy tarbiya amaliyotiga «faollik qoidasi»ni joriy etishni taklif qildi.

Dunyo ruhshunoslik (psixologiya) fanida yetakchi deb hisoblanmish bu prinsip zamonaviy psixologlarga hodisalarni qayd qilish va kuzatishdan voz

kechib, shaxsning rivojlanishi, uning ijodiy salohiyatini oshirish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Bola va pedagog harakatlari, ularning shaxsiy faolligi Arismendi asos solgan Boshlang'ich musiqa ta'limotida yetakchi omil hisoblanadi. Musiqani eshitish va tasavvur qilish bolaning musiqaga bo'lgan layoqatini rivojlantirishdagi faol jarayonga aylandi.

Qo'shiq aytish, musiqa sadolari jo'rligida ritmik harakatlarni bajarish, oddiy musiqa cholg'ulari yordamida kuylashga jo'rnavoz bo'lish, shularning barchasiga Arismendi musiqali faoliyatning turli shakllari sifatida qarashni taklif etdi.

Kuylashni Arismendi bolalar musiqiy qobiliyatining rivojlanishidagi asosiy omil, yetakchi tarkibiy qism deb hisoblaydi.

Psixologiya tadqiqotlariga Z.Koday tizimi va o'zinning shaxsiy amaliyotiga suyangan holda Arismendi, bolalarning ohangni ijro etish zarurligini ta'kidlaydi, ya'ni ular uchun o'z ovozi bilan qo'shiq aytib, eshitgan tovush ohanglarini qayta yangratish muhimligini uqtiradi.

Arismendi bolalarni dastlab sekin qo'shiq aytishga o'rgatishni tavsiya qiladi, ayni paytda bola o'z ovozini kattalar ovozi bilan taqqoslashi kerak. Keyinchalik bola qo'shiq so'zlarini o'rgatishda oldin uning ohanglarini yoki kuyni ijro etishni o'rgatishi kerak. Ayniqsa, bolani nafaqat qo'shiq aytishga yoki jo'r bo'lishga, shuningdek, o'z ovozini muallim ovozi yoki boshqa bolalar ovozi bilan taqqoslashga o'rgatish muhimdir. Alohida tizimni tashkil qilgan muayyan mashqlarni egallay borib, bola asta-sekin o'z ovozini boshqara oladi, kerakli ohangga erisha oladi. Shu bilan birga, pedagog, albatta, bolaning yosh xususiyatlarini, ham fiziologik nuqtai nazardan, ham individual va moyilligi nuqtai nazaridan hisobga olishi kerak.

Bolalarning musiqani tinglash faoliyati boshqa ijodiy faoliyat turlari bilan uyg'unlashuvi kerak: oddiy urma cholg'uulari (kastanetalar, tamburin, tarelka)da usullarni chalish, musiqa sadolari jo'rligida jismoniy harakatlar bajarish, fikrlash va hayolni rivojlantirish imkonini beradigan rasm chizish va boshqalar. Bolalar tashabbuskorligini rivojlantirishga qulay shart-sharoitni yaratishda A.Arismendi bo'lajak shaxsning ijodiy qobiliyatlarni yuksalishning boy va tunganmas imkoniyatlarini ko'radi.

Arismendining «Shakllantiruvchi va yaratilishni modellashtiruvchi» usuli istiqbolli metod bo'lib, ayniqsa amaliyot uchun zarur hisoblanadi.

Bu usul psixolog va pedagoglar uchun bolaning barcha qobiliyatlarni shakllantirishda faol va ongli ravishda ishtirok etish imkonini beradi. Agarda ushbu prinsip maktabgacha tarbiya va maktab muassasasidagi ta'limning

barcha shakl va ko'rinishlariga tadbiiq etilsa, u bolani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarini ochib beradi.

Bu maktabga maxsus musiqa maktabiga kira olmagan bolalar ham kiradilar. Maktab muallimlari bolalarda erkin tasavvurni shakllantiradilar. O'yinga bo'lgan intilishni rivojlantirishning asosiy shakllaridan biri - badihahdir. Barcha davlat va musiqiy maktablarda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona dastur asosida olib boriladi. Ilmiy-tadqiqot instituti qoshida musiqa kabineti kuylash uchun musiqa savodxonligini, tinglash uchun musiqa hajmini belgilab beradi. Mazkur kabinet maktab o'qituvchilari uchun qo'llanmalar nashr etishda sifatliiligi bilan ajralib turadi. Musiqa darsliklari har yili ayrim o'zgartirish va to'ldirishlar bilan qayta bosib chiqariladi.

Polshada musiqa ta'limi

Polshadagi musiqiy tarbiya tizimi. E. Jak-Dalkroz va K. Orf g'oyalariga polyak pedagoglarining ijodiy yondashuvi asosida rivoj topmoqda.

To'liqsiz o'rta maktabda musiqiy tarbiya darsini birinchi-sakkizinchi sinflarda haftada bir soat miqdorida majburiy o'quv fani sifatida, qolgan yuqori to'rt sinflarda esa faqat bir yilda majburiy, qolgan uch yilda esa fakultativ tarzida o'tkaziladi.

Polyak maktab o'quvchilarining musiqiy tarbiyada asosiy musiqa shakli bo'lmish qo'shiq muhim o'rin tutadi. Qo'shiq bilan bolalar bog'cha davridayoq tanishadilar. Asosiy diqqat e'tibor musiqiy tarbiyaning yetakchi shakli hisoblangan – kuylashga qaratilgan. Shuningdek, repertuar tanlashga ahamiyat beriladi, uning badiiyligi musiqa va matnlar, bolalarning ijrochilik imkoniyatlari va ularning xilma-xilligi hisobga olinadi. Musiqiy tarbiyaga oid o'quv dasturlarida polyak xalq qo'shiqlariga keng o'rin ajratilgan, qo'shiq ijro etishdan tashqari bolalar, urma cholg'ular – fleyta, mandolina, gitara, akkordeon kabi musiqa cholg'ularida ijro etadilar.

Polyak pedagoglari, bolalarning musiqali salohiyatini ijodiy tafakkurini kuchaytiradigan ijodiy amaliyotga alohida e'tibor beradilar.

Bolalar ijodiy amaliyotining eng ko'p tarqalgan ko'rinishlari quyidagilar:

1. O'zi yaratgan yoki berilgan kuy asosida erkin badiha etish;
2. Musiqa qonunlariga bo'ysunadigan hamda ongning nazoratini talab qiladigan badiha.

Polyak pedagoglari bolalarga beradigan topshiriqlarning turli variantlaridan keng foydalanadilar: ma'lum ritmdagi badiha (masalan, maqol va matallarning turli vaznlar asosida) yoki poliritmiya, polimetriya

uslublarida kuylash, kuyni berilgan usulga yoki polyak xalq raqslari usullariga moslashtirish, ma'lum (masalan, rondo, variasiya, uch qismli) kompozitsion shaklda badiha, she'r va hikoyalarga bag'ishlab musiqa bastalash. Polyak maktablarida Jak-Dalkroz asos solgan musiqa sadolari ostida ritmik mashqlar keng qo'llanilmoqda. Tajriba maktablarining 1-4-sinflarida musiqiy-jismoniy mashqlarning quyidagi shakllari bajariladi:

1 - mashqlar va ritmik o'yinlar bo'lib, ularda muayyan vazifalar rejalashtiriladi, masalan, musiqa sur'ati, dinamikasi, ritmikasi o'zgarishiga bolalarning sezgirligini oshirish;

2 - usul va jismoniy harakatlardan iborat musiqa shakllari (uch qismli, variasiya va

boshqa)ni yaratish;

3 - tinglagan musiqa asarlariga izoh berish;

4 - ashula va raqs o'yinlari.

Barcha sinflarda bir necha daqiqalar davomida musiqani eshitish joriy etilgan.

Sakkiz yillik maktablar uchun fonotekalar tuzilib unga maxsus ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar ilova qilingan. Mazkur qo'llanmalarda turli yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurni rivojlantirish, diqqat va xotirani faollashtirish usullari tariflanadi, yozib olingan musiqa asarlarining tahlili beriladi, kompozitor va ijrochilar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Musiqani tinglash jarayoni boshlang'ich sinflarda polyak tili dasturidagi muayyan musiqa mavzusiga, yuqori sinflarda esa tarix, geografiya, badiiy va fuqarolik tarbiyasi fanlari bilan bog'liq bo'ladi.

Polyak maktablari musiqiy tarbiya darslarida musiqa bilan tasviriy san'atlarning uyg'unlashuviga e'tibor beriladi. Shu maqsadda darslarda musiqa va tasviriy san'atning uyg'unlashgan shakllari, shu jumladan, audiovisual jihozlari yordamida kino, televidenie kabi turlari qo'llaniladi.

Xor qo'shiqchiligi bolalarda tasavvur va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, qo'shiq orqali tashqi olamni idrok etish, dunyo haqidagi bilimlarni egallash va boyitishning manbalaridan biri, insonparvarlik tarbiyasining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ta'riflanadi. Xor jamoasida qo'shiq aytish zamonaviy inson uchun zaruriyat hisoblanadi.

Evropa, Amerika va Osiyo mamlakatlaridagi musiqiy tarbiya shakl va tizimlarini tahlil qilib, ham ijobiy, ham salbiy tomonlari haqida xulosa chiqarish mumkin.

Ijobiy tomonlardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: musiqa materialining asosi sifatida xalq musiqasidan keng foydalanish; musiqa o'quvi, ritm, xotirani rivojlantirish, musiqa savodxonligini oshirish yuzasidan

ommabop usullarni tadbiiq etish, musiqa o'qituvchilarining pedagogik tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, o'qituvchilar musiqiy tayyorgarligining maqsadga muvofiq usullarini qidirib topish, ta'limda texnik vositalaridan keng miqyosda foydalanish.

Xorijdagi musiqiy tarbiya sohasidagi salbiy holatlar, ziddiyatlar, asosan, musiqa o'qituvchilarning tayyorlash jarayonida, shuningdek, umumiy ta'lim maktablarda yagona o'quv rejalari va dasturlarining yo'qligida namoyon bo'lmoqda.

Jahon musiqiy tarbiya tizimi bugun izlanishlar bosqichidadir. Unda mavjud bo'lgan turli maqsad va vazifalariga qaramasdan musiqiy tarbiyaning umumiy tomonlarini ham ko'rsatish mumkinki - uning asosini ijodiy va asosan jamoaviy (ommaviy) musiqa ijrosi tashkil kilish kerak.

Bolalar musiqiy tarbiyaning eng yangi usullari bilan tanishish, tajriba almashish, uchrashuv, seminar, anjumanlar, bolalar xor jamoalari ko'riklarini o'tkazish va boshqa chora- tadbirlar bolalar musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasida jadal rivojlanishga olib boradi.

Hozirda, ISMEDan tashqari, konservatoriya va musiqa akademiyalarining Evropa Assosiaciyasi va Umumjahon xor federaciyasi tashkil qilingan. Ushbu xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashish yurtimizning musiqa pedagogikasi, musiqiy tarbiya nazariyasi va amaliyotining bundan keyinga rivojlanishi va mukammallashuvi uchun zarur bo'lgan ilg'or uslubiyotning egallashda muhim o'rin tutadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Boris Trichkov qanday uslub ishlab chiqqan?
2. Venger musiqa ta'lim-tarbiyasiga Z.Koday qanday hissa qo'shdi?
3. Karl Orf va Jak Dalkrozlarining ishlab chiqqan uslublari haqida gapirib bering.
4. P'er van Xauvening qanday uslubi mavjud va undan qaysi faoliyatlarda foydalaniladi?
5. Lotin Amerikasida Musiqa ta'limi jarayoni va uning asoschisi kim?
6. Polshada musiqa ta'limi tizimi va undagi usul va uslublar haqida so'zlab bering.
7. Rossiyalik pedagog D.Kabalevskiyning «uch kit»i haqida so'zlab bering.
8. Chexiyada qo'llaniladigan ta'lim tizimining o'ziga xos uslubi.
9. Estoniyada o'kaziladigan bayramlar va ularning ahamiyati.
10. Sudzuki uslubi va uning afzal tomonlari haqida gapirib bering.

V BOB. SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI MUSIQA TARBIYASI TIZIMI

Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi shakllari

Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi, o'quvchilarni, iloji boricha, ko'proq ommaviy va to'garak ishlariga jalb etib, ularni dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini o'stirish, tabiatga, Ona vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirishdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda maktablarda musiqa darslaridan tashqari, ommaviy va to'garak ishlari olib boriladi. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ikkita shakli mavjud;

1. Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli
2. Musiqa tarbiyasining to'garak shakli

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy o'quvini tekshiruvdan o'tkazmay, yalpi tarzda jalb etishni taqozo etadi. Bularga, qo'shiq bayramlari, «Musiqa haftaligi», «O'zbekiston vatanim manim», «Ilhom chashmalari» ko'rik tanlovlaridan; ijodiy uchrashuvlar, teatr va konsertlarga sayohat, «Alifbe» bayramlariga, shoir va bastakorlar bilan uchrashuvlar kiradi. Ammo, bularning har biriga bolalarni yoshi, qiziqishiga qarab, oldindan tayyorlab borilishi kerak. Bu tadbirlarni har birini yuksak badiiy did bilan tashkil etib, amalga oshirish, chinakam badiiy-musiqiy bayram ruhini kasb etish lozim.

Musiqa o'qituvchisining ommaviy ishlar rejasi, maktab ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Ommaviy, musiqiy ishlar rejasi, musiqa o'qituvchisi va maktab tarbiyaviy va ma'naviy ishlar mudiri, maktab yetakchisi bilan hamkorlikda, o'quvchilarning yoshiga, qiziqishiga, bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarini hisobga olgan holda tuziladi. Bunda o'quvchilarning musiqiy o'quvi, qobiliyati hisobga olinadi. Ommaviy musiqa mashg'ulotlarining har biri, aniq ishlab chiqilgan reja, asosida amalga oshirilmog'i lozim. Bunda har bir mashg'ulot turiga qarab, uning asosiy maqsadi, xususiyati, repertuar mazmuni, maktab imkoniyatlari, taklif etilgan mehmonlar hisobga olinib, o'quvchilarni jalb etiladi. To'garak ishlarini esa, ish rejasini musiqa o'qituvchisining o'zi, o'z xohishi va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O'qituvchi to'garak ishlariga o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, xohishi-istagi, qiziqishi, ovozigacha qarab tanlab oladi va turli xil to'garaklar tuzadi. Haftasiga 2-3 bor to'garakni guruhlarga bo'lib ishlaydi. To'garak ishlarining asosi musiqa darsidir. To'garak ishlariga qobiliyatli, qiziquvchan, musiqa darslarida aktiv qatnashadigan o'quvchilar

tanlab olinadi. Darsda har bir bolaning layoqati, qiziqishi hisobga olinib, u yoki bu musiqa to'rarigiga jalb etiladi. To'garak faoliyati aktivlashtiradigan rarsa bu maktab sahnasidir. o'quvchilar tadbirlarda, qo'shiqlar, raqslar ijro etib, maktab jamoasi oldida e'tibor qozonib, nohiya, shahar, respublika ko'rik-tanlovlarida qatnashadilar. Bu ularni o'z mehnatidan zavqlanishi his-tuyg'ularni Ona-Vatanga muhabbat, musiqa san'atiga hurmat, do'stlari orasida mehr-muhabbat tuyg'usini oshirib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o'qituvchi o'z imkoniyatlariga qarab, turli to'garaklar tuzish mumkin:

1. Xor jamoalari.
2. VChA (vokal-cholg'u ansambllari).
3. Ashula va raqs ansambllari.
4. Vokal ansambllari.
5. Cholg'uchilar ansamblli (dutorchilar, rubobchilar, doyrachilar).
6. Raqs ansambli.
7. Orkestr (damli, xalq cholg'u asboblari orkestri).
8. Yakkaxon qo'shiqchilar.

Maktabdan tashqari musiqaviy tarbiya shakliga bolalar musiqa maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, o'quvchilar saroylari, bolalar teatrlari, muzeylar kiradi. Mazkur muassasalarga qatnashadigan bolalar ham o'qituvchi nazoratida bo'lib, maktab musiqa hayotiga ularning aktiv qatnashuvlarini ta'min etish lozim. Maktab hayotida musiqa o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Musiqa darslaridan tashqari, zamon talabiga mos ravishda tadbirlar tayyorlab, o'quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishi lozim.

1920-90 yillardagi musiqa o'qitish metodikasi

O'zbek xalqi ko'p asrlik taraqqiyot tarixiga ega bo'lgan an'analar sohibidir. O'zbek musiqa san'atining idizlari qadim zamonga borib taqaladi. Qadim madaniyatning ko'pdan-ko'p obidalari buyuk o'zbek mutafakkirlari, shoirlari, yozuvchilari, ulug' daholari Al-Farobiy, Abu-Ali ibn Sino, Navoiy, Jomiy, Nizomiylar lirikasida, keyinchalik esa o'zbek shoirlari va ma'rifatparvarlari Muhimiy, Furqat, Hamza asarlarida musiqa tarbiyasi va ta'lim berish borasida talaygina qiziqarli fikrlar bildirilgan.

Musiqa ta'limining rivojlanishiga nihoyatda katta ahamiyat bergan, o'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasidagi olim Muhammad Farobiy yosh

avlodni tarbiyalash va o'qitish masalalariga, etika va estetika masalalariga ko'plab ilmiy va amaliy g'oyalar bildirgan. U shuningdek, musiqa nazariyasining asoschilaridandir. Taniqli tojik olimi, musiqachisi, faylasufi Jomiyning «Risolai dar ilmi musiqiy» nomli kitobida, kompoziciya, lad, ritm nisbatlari haqida yozgan.

O'zbek shoiri, mutaffakiri A.Navoiy musiqa san'ati sohasida nihoyatda katta bilimga ega bo'lgan edi. Uning musiqaviy-estetik qarashlari «Sabbai-Sayyor», «Mahbul qulub», «Hamsa» va boshqa asarlarida aks etgan.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati xalq va kasbiy ijod naqsuli bo'lgan musiqa asarlari, og'izdan-og'izga o'tish asosida asrlar davomida to'plangan an'ana zahirida rivojlangan. U bizgacha hofizlar, musiqachilar, baxshilar orqali etib kelgan. Unga xalq ijodining eng yaxshi namunalari hamda professional ijrochilar tomonidan chalingan musiqa asarlari kirgan. So'nggi yillarda, olib borilgan tadqiqotlarning natijalari XVIII asrda o'ziga xos nota yozuvi bo'lganidan, lekin haqiqat, musiqa folklori emas, balki o'zbek xalqining professional musiqasi ham 1920 yillarga qadar asosan og'izdan-og'izga o'tishi yo'li bilan tarqalgan.

Shunga qaramasdan, musiqa, o'zbek xalqi hayotida muhim va katta o'rin egallagan. Xalq ommasining madaniyatini yaratishdagi ishiroki turlicha xarakterda edi. Avvalo savod chiqarish harakati keng quloq yoydi, chunki, aholi yoppasiga savodsiz bo'lgan. Xalqning savodsizligini tugatish hamda, xalq maorifining, yangi tizimini yaratish, jamiyatni ma'naviy qayta qurish asosiy vazifa bo'lib hisoblandi. O'zbekistonda o'qituvchi kadrlar tayyorlash ishi xalq maorifi tizimida asos qilib olingan edi. Tarbiyaviy va ta'lim ishlari, diniy muassasalarni ajratish ishlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek 7 yillik majburiy bepul o'qitish joriy qilindi. Ishchi va o'quvchi yoshlar orasida havaskor «duxovoy» orkestrlar keng tarqaldi. Bu orkestrlar birinchi marotaba 1918 yilda o'zbek umumta'lim maktablari qoshida tashkil etila boshladi. Keyinchalik esa, musiqa jamiyatlari va xususiy tarzda musiqa darslari Turkistonning boshqa shaharlarida ham paydo bo'la boshladi. Qo'qondagi maktablarda o'zbek musiqasining mashhur targ'ibotchisi H.H.Niyoziy, Toshkentda Abdulla Avloniy, Samarqandda Abduqodir Shakuriylar bo'lishgan.

Hamza o'zi ochgan maktablarda barcha fanlardan o'zi dars bergan va shu bilan birga «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi» kabi darsliklar yaratdi. 1917-18-yillarda Hamza «Yasha Sho'ro», «Ishchilar uyg'on», «Biz Ishchimiz» va boshqa qo'shiqlarini yozgan. U musiqaga doir «Oq gul», «Qizil gul», «Pushti gul» va boshqa to'plamlarini yozgan.

Abdulla Avloniy faoliyati alohida diqqatga sazovardir. 1908 yilda Toshkentning Mirobod, Degrez mahallalarida bolalarni ona tilida o'qitish uchun mo'ljallangan maktab ochgan, keyinroq 1919 yilni sentyabrda Turkiston respublikasida Xalq maorifi Komissariligi tuzilgan bo'lib, u bir qancha bo'limlarni o'z ichiga olgan. Bular ichida san'at bo'limi alohida e'tiborga sazovor edi. O'z navbatida uning ichki bo'limiga musiqa (Muzo), teatr (Teo), ta»sviriy san'at (Izo) bo'limlariga ajralgan.

Musiqa bo'limi Turkiston respublikasida musiqa tarbiyasi va ta'limini shakllantirish yosh avlodni musiqa madaniyati durdonalari bilan tanishtirish masaladari qo'yilgandi.

1921-22 yillarda maorif institutlari qoshida, fabrika va zavod to'garaklari hamda maktablar qoshida havaskorlik to'garaklari tashkil etila boshlagan edi. Shuning uchun yoshlar orasida havaskor «duxovoy» (puflab chalinadigan mis cholg'u asboblari) orkestrlar keng tarqalgan. Chunki, urush yillari duxovoy musiqa maxsus ramziy ma'no kasb etgan edi. Bu davrda Hamza juda faol qatnashib, Farqonadagi maktablarning birida u ashuladan dars berdi. Bo'sh vaqtlarida ota-onalar bilan ishlab, savod chiqarish va musiqa haqida tushuntirish ishlarini olib bordi. Aholining keng qatlami orasida musiqa ta'limiga qiziqish kuchaya boshladi. O'rta Osiyoda dastlabki, musiqa o'quv yurti 1917 yili Turkiston xalq konservatoriyasi ochildi. 1919 yili Samarqanda konservatoriya tashkil etildi. Keyinroq xalq konservatoriyalari, maxsus o'quv yurtlari musiqa texnikumlariga aylantirildi. 1936 yili Toshketda Xalq konservatoriyalari qayta tashkil etildi. Maxsus o'quv yurtlari bilan bir qatorda musiqa maktablari, musiqa o'qituvchilari tayyorlaydigan instruktorlar kurslari ochildi. Turkiston maktablari uchun dastlabki, o'quv dasturlari va rejaları yaratildi. Etti yillik o'rta va uch yillik boshlang'ich maktablari uchun dasturlar yaratildi.

Musiqa darslari majburiy dars tariqasida kiritilgan bo'lsa ham, ba'zi hollarda «bo'sh» soat bo'lib, undan maktab ma'muriyati o'z bilganicha foydalandi. Ko'p joylarda maxsus darsliklar, metodik ko'rsatmalar yo'qligi sababli, musiqa dars soatlari ancha kamaytirildi. Musiqa tarbiyasining tashkil etishning samarali yo'llarini izlash lozim edi. Buning uchun 40-yillarning oxirida musiqa dasturi maktablariga moslab qayta ishlash va o'qituvchi kadrlar tayyorlash ishlari bosh vazifa qo'yildi. Musiqa maorifining yanada rivojlanishi hamda professional musiqa ta'limining shakllanishi uchun zamin yaratildi. o'zbekistonda 1941 yilning 7-11-yanvar kunlari respublikamizda tarbiyaviy ishlarga bag'ishlangan birinchi pedagogik konferensiya o'tkazildi. Unda maktablarda yetarli miqdorda musiqa o'qituvchilari yo'qligi bolalar

xori kamligi haqida o'qituvchilarni malakasini oshirishga jiddiy e'tibor berish kerakligi haqida ta'kidlab o'tildi.

Shundan keyin, musiqa ta'limi sohasida jadal ishlar olib borildi. Musiqa maktablari yuzaga keldi. Texnika va maorif institutlari, texnika bilim yurtlari tashkil etildi. Bolalar musiqa maktablari, o'quvchilar saroylari, havaskorlik to'garaklari, o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta o'qitish institutlari, ilmiy-tadqiqot institutlari ochildi. Musiqa ta'limi tizimida jiddiy qayta qurish ishlari amalga oshirildi.

1960-61 o'quv yillari Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutida «Musiqa nazariyasi va cholg'u asboblari chalish» kafedrasini tashkil etildi. Shu yilning o'zida musiqa o'qituvchilari tayyorlaydigan maxsus «Musiqa» fakulteti ochildi.

Shuningdek, viloyat pedagogika institutlar huzurida musiqa pedagogika kafedralari tarmoqlari ko'paya boshlandi. 60-70 yillarda va 80-yillar boshida xalq maorifi tizimida musiqa o'quv yurtlari soni yanada ortib bordi. Yosh musiqachilar «San'at bayrami», «Yosh ijrochilar konkurslari», «Bolalar musiqa haftaligi», «Marhabo talantlar», «Do, re, mi, fa, sol», teleko'rsatuvlari, O'zbekiston Televideniyesi va radiosi orqali bolalar musiqiy ko'rsatuvlari musiqa ta'limi va tarbiyasini targ'ibot qilishda muntazam ishlar olib borildi.

Xalq maorifi vazirligi o'quvchi va talabalarga estetik tarbiya berish sohasida katta ishlarni amalga oshirdi. Yangi dasturga utish munosabati bilan to'plamlar, tavsiyanomalar, umumiy ta'lim maktablarida «Musiqa madaniyati» fanidan 1-7-sinflar uchun darsliklar chop etish bosh vazifa qilib qo'yildi. Jumladan, «Musiqa alifbosi», «Musiqa darsligi» va boshqalar Respublika umumiy ta'lim maktablarini malakali kadrlar bilan ta'minlash asosiy masala bo'lib qoldi. Yangi dastur bo'yicha darslarni olib borish uchun umumiy ta'lim maktablarida malakali o'qituvchilar rahbarlik qildilar. 1985-86-o'quv yillarda «...musiqa xonalari tashkil etilsin ular texnik vositalari bilan, mebel, maxsus musiqa ma'lumotiga ega bo'lganlar amaliyotchi-student bo'lib, ular uskunalari bilan musiqali cholg'u asboblari bilan ta'minlansin»-degan, qaror qabul qilindi.

1986-87 yillarda musiqa o'qitish metodikasi bo'yicha respublika seminari o'tkazildi. Shuningdek, yangi dastur, darsliklar nashr etildi. Ushbu ma'lumotlar musiqa madaniyati markaziga uzoq viloyatlarda shaharlarda musiqa ta'limotini targ'ib qilish vositalariga aylandi.

Yosh pedagoglarning ijodi tufayli o'zbek bolalar musiqasi rivojlandi, musiqa orqali, o'quvchilarning ma'naviy dunyosi shakllandi. Respublikamizda har yili «O'zbekiston - vatanim, manim», «Ilhom

chashmalari», «Qo'shiq bayram»larini o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. O'zbekistonda musiqa o'qitish metodikasini rivojlantirishda yangi dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar yaratishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda D.Omonullaev, O.Ibrohimov, X.Nurmatov, O.Fayziev Sh.Yormatov, A.Mansurov, Q.Mamirov, N.Norxo'jaev kabi olimlar, kompozitorlar va tajribali o'qituvchilar o'z hissalarini qo'shdilar. Hozirgi kunda musiqa madaniyati yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi.

Musiqiy tarbiyaviy ishlarning ommaviy shakllari

Sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy-tarbiyaviy ishlarning ommaviy shakllari maxsus tayyorgarlikka, keng, alohida layoqatga ega bo'lmagan, musiqiy bilim va malakalari yetarlicha shakllanmagan bolalar jamoasini nazarda tutadi. Bolalarga musiqiy tarbiya berishining ommaviy shakllari - maktab o'quvchilarining musiqiy qobiliyat darajasidan qat'i nazar amalga oshiriladigan ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar tushuniladi. Ular vaqti-vaqti bilan o'tkazilib, ma'lum bir o'quv rejasiga asoslanmaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy musiqiy ishlarga ma'ruzali konsertlar, musiqali (shu jumladan, opera) spektakllarini jamoa bo'lib tomosha qilish, ommaviy musiqa bayramlarini tashkil etish, festivallar, karnavallar, ko'rik-tanlovlar kiradi. Mana shunday tadbirlar jarayonida musiqa pedagoglari musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan bolalarni ajratib olishga hamda ularning mavjud bilimlarini, yanada rivojlantirishga, ularda musiqiy-estetik tuyg'ularini uyg'otishga va takomillashtirishga yordam berishi kerak.

Mazkur ishlarni amalga oshirish yo'lidagi dastlabki tadbirlar 1940-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab o'tkazilayotgan, ko'p sonli bolalar ommasini qamrab olgan bolalar badiiy havaskorlik ko'rik-tanlovlari edi. Ko'rik-tanlovlarni o'tkazish jarayonida ko'pgina umumiy o'rta ta'lim maktablarida xor jamoalari tashkil etilgan. Ushbu tadbirlar maktab o'quvchilari orasida xor qo'shiqchiligi san'atining ommalashib ketishiga sabab bo'ldi.

E.A.Gudkova rahbarligida «O'smirlar va bolalar» saroyida tashkil etilgan o'zbek va rus bolalar xor jamoalari ushbu ko'rik-tanlovlarning ilk nishondorlaridan bo'lganlar. O'zbek bolalar xori tarkibida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari ham bor edi. Bu jamoa E.Shvarening «Jannat» nomli bolalar operasini sahnalashtirishda ishtirok etishgan.

1954 yildan muntazam ravishda har yili bolalar olimpiadalari o'tkazila boshladi. Bu tadbirlarning barchasi bolalar xor ijrochiligi rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

1960-70 yillari bolalar ommaviy badiiy havaskorlik ishlari avj olib ketdi. Ko'pgina ko'rik tanlovlari, bayramlar, olimpiadalar o'tkazila boshladi. Ko'pincha, tadbirlar musiqiy spektakllar elementlarini o'zida mujassamlashtirgan holda namoyish etildi.

Hozirgi kunda har yili pedagogika bilim yurtlaridagi badiiy havaskorlarning 12 ta janr bo'yicha ko'riklar, olimpiadalar o'tkazilmoqda. Mana shu ko'riklarda qolib chiqqanlar O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining I, II, III darajali diplomlari bilan taqdirlanib kelmoqdalar. Ko'rik-tanlovlar uch bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich - tuman va shaharlar bo'yicha;

2-bosqich - viloyatlar bo'yicha;

3-bosqich - Respublika bo'yicha respublika ko'rik-tanlovlari musiqiy-ijrochilik va g'oyaviy jihatdan yuqori saviyada o'tadi. Tanlovning har bir ishtirokchisi musiqa-ashula ijrochiligida faol qatnashishi tufayli san'atning ijobiy ta'siridan bahramand bo'ladi. Lekin ko'rik-tanlovning tarbiyaviy ahamiyati shu bilan chegaralanib qolmay, ko'pchilik tinglovchilarni musiqa madaniyatiga jalb etadi, ularning ma'naviy hamda estetik saviyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy havaskorlik to'garaklari keng mehnatkashlar ommasi orasida faol ish olib bormoqdalar. Jamoa xo'jaliklarida, zavod va fabrikalarda, shuningdek, xalq xo'jaligining turli korxonalar, tashkilot birlashgan jamiyatlarida konsertlar berib kelmoqdalar.

Ommaviy musiqiy tarbiyada bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan ma'ruzali konsertlar alohida ahamiyatga ega. Bunday konsertlarni tashkil etish, mazmunli o'tkazishda O'zbek filarmoniyasining, shuningdek, maxsus musiqa o'quv yurtlarining hissalariga katta.

Jumladan, maktab o'quvchilar uchun filarmoniya tomonidan tashkil etilgan musiqali ma'ruzalar (lektoriy) tizimida xor san'ati namunalari tarkibiga katta ahamiyat berilgan. «Biz kuylashni bilamiz», «O'zbekiston kompozitorlari», «O'zbekiston shoir va kompozitorlari - bolalar uchun», «Musiqiy shakl va janrlar», «Qo'shiq haqida gaplashamiz» va «Yilning eng yaxshi qo'shiqlari» kabi ma'ruzali konsert dasturlarida ommaviy bolalar qo'shiqlari, M.Burxonov, S.Yudakov, F.Nazarov, B.Gienko, B.Umidjonov, D.Saydaminova va boshqa kompozitorlar xor asarlari ijro etilgan.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi tomonidan ham ko'p yillar davomida turli yoshdagi maktab o'quvchilar uchun ma'ruzali konsert va

musiqali uchrashuvlar o'tkazilib kelinmoqda. Bu ishlarga ko'p yillar davomida ma'sul bo'lgan M.Artishevskaya, shuningdek konservatoriyaning ko'pgina boshqa musiqashunoslari musiqa haqida qiziqarli va bolalarga tushunarli tarzda ma'ruzalar o'tkazmoqdalar. Mazkur jarayonlarda Jahon xalqlari hamda O'zbekiston musiqa asarlari namunalari ijro etilmoqda.

Musiqiy to'garaklar

Sinfdan tashqari musiqiy tarbiya ishlari maktabning turli to'garaklar - xor, cholg'u ijrochiligi, yakka qo'shiqchilik, turli ansamblarni tashkil qilish shakllarida amalga oshirilmoqda.

Cholg'uchilik to'garaklari

O'zbek xalq musiqasi hamda milliy musiqamizni anglashdagi eng muhim vositalardan biri o'zbek cholg'ular bo'lib, «cholg'uchilik» to'garaklari ushbu vazifani bajarishda yoshlarni to'g'ri yo'naltiruvchi omillardan biri sanaladi. Yakka cholg'u ijrochiligi to'garaklari musiqani o'rganishga intilayotgan bolalarga bilim olish imkoniyatini beradi. Maktab to'garagiga yoshi va musiqa tayyorgarligi saviyasidan qat'iy nazar, xohlagan bola kelishi mumkin va bu maktab musiqa hayotining barcha shakllarining samaradorligini ko'tarishiga ko'maklashadi.

Cholg'uchilik to'garaklari biror bir milliy cholg'uda ijro etish malakalarini shakllantirishga va mazkur cholg'u yordamida dastur tayyorlashga qaratilgan bo'ladi. Shuningdek, mashg'ulotlarda milliy cholg'ularning keilib chiqish tarixi, ijrochilik imkoniyatlari, tembr xususiyatlarini to'la-to'kis ochib berish, ular orqali milliy musiqamizning lad va ohanglari, usul xususiyatlarini to'g'ri idrok etishga o'rgatadi. Dastlab ijro cholg'usi haqida tushunchalar beriladi. So'ng boshqa sozlar - yakkaparvoz, jo'rparvoz, cholg'u ansambli va orkestr haqidagi ma'lumotlar berib boriladi.

Shu tarzda milliy musiqiy janrlar: kasbiy va ommaviy janrlar haqida tushunchalar beriladi. Kasbiy ijodiyot namunalaridan - katta ashula, maqom, dostonchilik, ommaviy janrlardan - lapar, yalla, terma, allalar, yor-yorlar va bolalar qo'shiqlari ham amaliy ham nazariy jihatdan o'rgatilib boriladi.

Cholg'uchilik to'garaklarida o'quvchilarni nafaqat cholg'u asbobida ijro etish, balki ularni ma'naviy, estetik, madaniy va jismoniy rivojlantirishga kuchli e'tibor qaratiladi.

VChA (vokal-cholg'u ansambllari) faoliyati

Vokal-cholg'u guruhlari va vokal-estrada studiyalari bugungi kunda maktab o'quvchilarini musiqaga jalb etishning eng ommaviy shakliga aylanib ketdi. Ba'zan esa ular musiqali-ma'rifiy ishlarning markaziga aylanib, yosh avlodni zamonaviy musiqaga jalb etib, unga bo'lgan qiziqishini uyg'otmoqda, yaxshi musiqaviy didni tarbiyalashiga xizmat qilmoqda. Ammo ko'p hollarda, ularning faoliyati jamiyatimizning ma'naviyati va axloqiga yot bo'lgan, badiiy va musiqiy sifati jihatidan talab darajasida bo'lmagan namunalarni ommalashuviga sabab bo'lmoqda.

O'quvchilarning maktabda vokal-cholg'u ansamblni tuzish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlagan holda, o'qituvchi ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan asarlarni tanlashiga yordam berib, bolalarning faoliyatini to'g'ri yo'lga qaratmog'i lozim.

Vokal-cholg'u ansambllarining ommaviy musiqiy tarbiyadagi ahamiyati ijobiy yoki salbiy xarakterda bo'lishi ularning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, shuningdek, ular faoliyatining mazmuni va mohiyatiga bog'liqdir.

Orkestr jamoalari

Afsuski, orkestr jamoalari moddiy va tashkiliy jihatdan qiyin ahvolda ekanligi sababli, maktab hayotida kamdan-kam hollarda tashkil etiladi. Orkestrda ishtirok etish bolalar va o'smirlar bo'sh vaqtini o'tkazilishining sarmazmli shakllaridan biri bo'lib, ularda estetik va fuqarolik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Maktablarda turli xil - simfonik, kamer, puflama, o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrlarini tashkil etilishi shaxsning ma'naviy shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Maqomchilar (milliy mumtoz musiqa) ansambli

Maqomchilar (milliy mumtoz musiqa) ansambli jonli va ta'sirli vositalarning boy majmuiga ega bo'lgan milliy san'atning eng muhim ko'rinishlaridan biridir. Yosh avlod vakillarining an'anaviy musiqa ansambllariga qatnashlari millatning ruhiyati va ma'naviyatini shakllantirishga, xalq madaniyatining an'analari, uning bebaho qadriyatlarini o'rganishga yordam beradi.

Maqomchilar ansambllari asl milliy an'analarni saqlab qolish va keyingi rivojlanishi uchun muhim zaxira bo'lishi mumkin.

Yakkaxonlik to'garagi

Yakkaxonlik to'garagi 1930-50 yillarda keng tarqalgan edi, keyingi yillarda esa ular alohida guruh sifatida jamoadan ajratilmaydi, chunki ularning asosiy vazifasi yakkaxon qo'shiqchilarni emas, balki xorda ashula boshlovchilarni tayyorlashdir. Odatda ular xor jamoalarda qo'shiq aytadilar va alohida mashg'ulot o'tkazadilar.

Bolalarning yakka qo'shiqchiligi, anchadan beri, musiqashunos-pedagoglarning diqqatini jalb etib kelmoqda va bu borada ikki xil fikr bor. Birinchi yo'nalish tarafdorlari, bolalarning qo'shiq aytishi tabiiy hodisa deb hisoblaydilar. Ammo, ularning fikricha, bolalarda ovoz apparati hali to'ralishcha shakllanmagan bo'lsa-da, ularni qo'shiq aytishga o'rgatish mumkin emas. Ovoz apparatining dastlabki ko'nikmalari u o'zgarandan so'ng keraksiz bo'lib qoladi.

Boshqa yo'nalish vakillari esa - baloqat yoshida bolalar ovozi o'zgaradi (mutasiya), degan fikrga ko'shilgan holda, baribir bolalik cho'ida mashg'ulot o'tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Ularning ta'kidlashicha, qo'shiqchilik faoliyati nafaqat ovoz apparati, balki kuylovchining ongiga ham bog'liqdir, chunki qo'shiqchilik malakalari xalqumda emas, balki miyada shakllanadi. Bu hol esa ovoz o'zgarandan keyin ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu nuqtai nazar tarafdorlari keyingi yillarda ko'payib bormoqda.

Xor to'garagi

Musiq a darsi va sinfdan tashqari mashg'ulotning asosiy maqsadlari bir-biriga yaqin bo'lgan chog'da ham xor to'garagi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Birinchi navbatda, bu bolalarning turli yoshga mansubligida namoyon bo'ladi. Quyi sinf xor guruhlari, ko'pincha, 1-4, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining, o'smirlar guruhi yoki 4-9 sinf o'quvchilarini birlashtiradi yoki 4-6, 7-9 sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi.

Jamoadagi xor-ijrochilik ishi nafaqat alohida e'tiborni, balki muntazam ravishda bolalarga ta'lim berishini ham talab qiladi. Mashg'ulotlar davomiyligi xor to'garagi qatnashchilarining yoshlariga bog'liqdir. Amaliyot ko'rsatadiki, kichik xor guruhi bilan haftada ikki marta 45 minutdan mashg'ulot o'tkazish maqsadga muvofiq. O'smirlar xor guruhi esa tanaffus bilan ikki akademik soatdan shug'ullanishi mumkin.

Xor to'garagida bolalar uchun qulay va qiziqarli, ularning aql va ruhiyatini boyitadigan, ijrosi yengil bo'lgan asarlarning tanlashi katta ahamiyatga egadir.

Sinf va xor to'garagidaga ish usullari ko'p hollarda bir-biriga o'xshab ketadi (masalan, asar bilan tanishish, uning qisqa tahlili, qo'shiqni jummalarga bo'lib o'rganish va hokazo), ammo xordagi mashg'ulot jarayoni notaga qarab kuylash, asar yozuvini eshittirish hamda o'zining ijrosida eshittish imkonini beradi. Bularning hammasi repertuarni chuqur va tez o'zlashtirishiga yordam beradi.

Musiqiy olimpiadalar

Musiqiy olimpiadalar maktab, tuman, respublika miqyosida o'tkazilishi mumkin. Bu olimpiada o'tkazishning bosqichlari hisoblanadi. Olimpiadadan kutilgan maqsad - maktab o'quvchilarinsh musiqa saviyasi va estetik madaniyati darajasini aniqlash, o'quvchilarning musiqa bo'lgan qiziqishlarini faollashtirishdir. Musiqa olimpiadasi maktab o'quvchilari bilan o'tkaziladigan ishning eng ommaviy ko'rinishi bo'lib, og'zaki va yozma shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Olimpiadaning birinchi bosqichi - bu maktab dasturi asosida o'quvchilarni musiqa o'ld bilimlarini tekshirish bo'lib, maktab bosqichi hisoblanadi, keyin tuman, shahar va respublika bosqichlari o'tkaziladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu shakl bolalar faoliyatining oddiy va tushunarli shakllaridan bo'lib, ularni qiziqtiradi va faollashtiradi.

Bu ish nimadan boshlanadi? O'quv yilining boshida tuman uslubiyotchilari bilan yiqilish o'tkazilib, unda maktab va tuman bosqichlarini o'tkazish usullari bayon etilib, tavsiyalar beriladi, hay'at a'zolari belgilanadi.

Olimpiadada maktab o'quvchilariga taklif etiladigan savollar maktab dasturi bo'yicha o'rganiladigan musiqa asarlari va musiqa nazariyasiga oid bilimlar asosidagi bilimlarni o'z ichiga olishi kerak. Maktab bosqichining davomiyligi - 45 minut, savollar soni esa 5 tadan-10tagacha bo'lishi mumkin.

Maktab bosqichi - bu sinflar o'rtasidagi musobaqa bo'lib, musiqa darslarida olingan bilimlarning puxtaligi tekshiriladi.

Ikkinchi - tuman bosqichida maktab tanlovida qolib chiqqan o'quvchilar ishtirok etadilar. Tuman bosqichida taklif etiladigan savollar ham dastur talablaridan chetga chiqmagan holda, ularning bayon etish shakli murakkablashtirilgan bo'ladi. Tuman olimpiadasi ham maktabda bo'lgani kabi yozma ravishda o'tkaziladi, ammo uni og'zaki usulda: ijodiy musiqa o'yinlari, xazillar, musiqali topishmokdar bilan to'ldirish mumkin.

Tuman bosqichi musiqiy bilimlarning hajmi va teranligini aniqlashga, ularni yangi musiqa materialida sinab ko'rishga yordam beradi. Tuman bosqichida g'olib chiqqan o'quvchilar shahar olimpiadasida ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

Shahar hay'at a'zolari tarkibiga musiqa-pedagogika oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, shuningdek shaharning eng yaxshi musiqa o'qituvchilarini kiritish mumkin. Savollar soni 9-10 tagacha etadi. shuni nazarda tutish kerakki, ular izchillik prinsipi asosida tuzilgan bo'lib, avval osonlari, so'ngra qiyinroqlari beriladi. Savollar o'quvchilardan nafaqat ma'lum bir savollarni bilishni, balki musiqa haqida o'ylash, fikrlashni talab qiladi (masalan: maqomning katta ashuladan, baletning operadan, konsertning simfoniyadan qanday farqi bor va nima uchun? va hokazo).

Olimpiada tugagan zaxoti yozma ishlar tekshirilib, eng ko'p ball to'plagan qatnashchilar g'oliblar deb e'lon qilinadi. G'oliblarga ballarning hajmiga qarab I, II, III darajali diplomlar beriladi. Olimpiadalar o'tkazilishi musiqa ta'limi tizimi ishini faollashtiradi va o'qitish usullarini yaxshilashga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek maktab ma'muriyati va butun pedagoglar jamoasini musiqa darslarini o'tkazish sharoitlarini yaxshilashga, sinflar, kabinetlarni jihozlash, audio-vizual texnika, kompyuterlar sotib olish va ularni dars jarayoniga tatbiq etish ishlariga jalb etadi.

Olimpiadalar o'tkazilishining ijobiy tomonlari shundaki, ularning aks-sadosi maktab o'quvchilarining musiqa darslariga va musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga shuningdek, o'quvchilarning musiqiy-estetik madaniyati, bolalarning ma'naviy-axloqiy saviyasini sezilarli darajada ko'tarilishiga turtki bo'ladi.

XX asrda, sovet ittifoq davrida birinchi olimpiada Sankt-Peterburgda o'tkazilgan. 1970-80 yillardan boshlab olimpiadalar O'zbekistonda ham o'tkazila boshladi. D.Shtern, N.Tishkevichlar tashabbusi bilan tashkil topgan musiqiy olimpiadalarda respublikamizning turli shaharlardan kelgan bolalar ishtirok etganlar. Toshkentda tashkil etilgan olimpiadaning boshqalardan farqi shunda ediki, ular asosan og'zaki ravishda emas, balki yozma shaklda o'tkazilgan. Olimpiadaning yozma ravishda o'tkazilishining afzalligi shundaki, u har bir o'quvchining musiqali-estetik madaniyat saviyasini aniqlash imkonini beradi. Olimpiadalar o'quvchilarning musiqaga oid bilimlarining puxtaligi, teranligi va anglab-etilganini tekshirishga yordam beradi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, bu ish shakli bolalar uchun nafaqat tushunarli va qulay bo'lib, balki ularning faolligini ham oshirgan. Maktab

o'quvchilariga berilgan hamma savollar shunday tuziladiki, ularga beriladigan javoblar qisqa va aniq bo'lishi nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda musiqiy olimpiadalar nafaqat umumiy o'rta ta'lim, balki ixtisoslashgan musiqa maktablarida keng hamrovda o'tkaziladi. Zamona talabiga ko'ra olimpiada bosqichlari ham takomillashib bormoqda. Birinchi maktab bosqichida faqat maktab dasturidagi asarlardan foydalaniladi. Savollar 6-8 tadan iborat bo'ladi. Hay'at a'zolari qatoriga konservatoriya o'qituvchilari kirgan. Maktab bosqichida g'olib chiqqanlar tuman bosqichida qatnashadilar. Tuman bosqichidagi olimpiada shartlari dasturga muvofiq bo'lsada, biroz murakkab tidla bayon etilgan bo'ladi. Hozirgi kunda olimpiadalarda test savollaridan foydalanish ham keng tarqaldi. Tuman bosqichida g'olib chiqqan o'quvchilar shahar bosqichiga yo'llanma oladilar. Shahar olimpiadasi natijalarini tuman metodistlari maktab o'qituvchilari yiqilishida bayon etiladi. Shahar bosqichlarida g'olib chiqqan o'quvchilar Respublika bosqichida qatnashadilar. Respublikada g'olib chiqqan o'quvchilar maxsus sovg'alar va diplomlar bilan taqdirlanadilar. Bunday olimpiadalarning o'tkazilishi o'quvchilarning va fan o'qituvchilarining musiqa darslariga bo'lgan munosabati va qiziqishlarini yanada kuchaytirib, boshqa o'quvchilarni ham musiqa san'atiga jalb etishga asos bo'ladi.

Jamoa shaklida o'tiladigan to'garaklar

To'garak mashg'ulotlariga yakka tarzda yondashish bilan birga jamoa shaklida mashg'ulotlar o'tkazish ham keng qo'llanilmoqda. Jumladan, cholg'u ansambllari, folklor, raqs, xor jamoalari shular jumlasidandir. Hozirgi kunda musiqiy to'garaklarda «Doirachilar», «Dutorchilar», «Raqs», «Xor» va boshqa turdagi jamoaviy to'garak turli o'z ish faoliyatini olib bormoqda. Maktabdan tashqari to'garaklardagi jamoa tarzida tashkil etilgan to'garaklardagi bolalar soni 15-20 tadan, boshqa turdagi to'garaklarda birinchi yili 10 tadan, ikkinchi yili sakkiztadan kam bo'lmasligi nazarda tutiladi.

To'garak mashg'ulotlari uchun birinchi o'quv yili 4 akademik soat ajratilsa, ikkinchi va keyingi yillar haftasiga 6 akademik soatdan ajratiladi.

Bolalar xor studiyasi

Bolalar bilan musiqa ishlarini amalga oshirishning yana bir shakllaridan biri - xor studiyalaridir.

Xor studiyasi - bu bolalarni musiqiy tarbiyalovchi dargoh bo'lib, u o'zida o'quv, ijrochilik va tarbiyaviy ishlarni mujassam etadi.

Xor studiyalariga bolalar 4-6 yoshlaridan boshlab qatnashishlari mumkin. mashg'ulotlar jarayonida bolalar nafaqat vokal-xor malakalarini, balki musiqa cholg'ularida ijro etish, musiqa savodini o'rganish, muayyan musiqa cholg'u ijrosini o'zlashtiradilar. Musiqiy cholg'uni shu tarzda o'rganish ularning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini susaytirmaydi. Bunday mashg'ulotlariniig afzalligi - xor qo'shiqchiligi jarayonida bolalarning musiqaga bo'lgan layoqati namoyon bo'lib, ularning musiqiy qobiliyati jadal rivojlanadi.

Xor studiyalar faoliyatining o'ziga xosligi shundan iboratki, ularda ijrochilik, ma'rifiy faoliyat, o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy ishlar bilan uzviy olib boriladi.

Xor studiya xususiyatlarini xor studiyalari negizida rivoj topgan xor maktablarida, shuningdek umumiy o'rta ta'lim va ixtisoslashgan musiqa maktablaridagi bolalar xor jamoalari va maktabdan tashqari muassasalar (bolalar va o'smirlar uylari va saroylari, madaniyat uylari va saroylari)da ko'rish mumkin.

Xor studiyalari faoliyatini tashkil etishning asosiy shartlari: 1) xor bosqichlari; 2) xor sinflari; 3) xor oromgohlari, 4) xor «payvandi»; 5) xor estafetasi; 6) barcha musiqa o'quv fanlariining o'zaro aloqadorligi; 7) xor solfejiosi.

Xor bosqichlari

Xor bosqichlari - bu kamida ikki xor jamoalari, ya'ni kichik va katta guruhlarining mavjudligidir. Xor bosqichlari - xor jamoasi barqarorligining asosiy sharti bo'lib, ayni paytda uning ijodiy salohiyatidan darak beradi. Mazkur bosqichlar bolalarning bilim darajalariga qarab belgilanadi. Turli bilimdagi bosqichlarning yo'qligi xor rahbarini xor jamoasiga musiqiy tayyorgarligi yo'q bo'lgan bolalarni qabul qilishga majbur qiladi.

1- bosqich - bu tayyorlov xor guruhi bo'lib, unda birinchi sinf o'quvchilari kuylaydilar. Mashg'ulotlar haftada uch marta 1 soatdan o'tkaziladi. Asosiy vazifa - bolalarda kuy va qo'shiqqa qiziqishni uyg'otish, ularning musiqiy qobiliyatlarini takomillashtirishdir. Birinchi bosqich mashg'ulotlarida o'yin shakllaridan keng foydalaniladi (musiqali salomlashish, dirijyorlikka taqlid qilish va hokazo). Birinchi bosqich mashg'ulotlarida xor solfejiosi bilan bog'liq bo'lgan ko'proq solfejioning

o'ziga e'tibor beriladi. Bolalar bu bosqichda turli musiqa asboblari ijro etish malakalarini egallaydilar. Bu ish: studiya qatnashchilarini fortepiano, akkordeon, skripka yoki xalq cholg'ularidan rubob, dutor, doyra va boshqalarda ijro etishga tayyorlash maqsadida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar rejasi oyma-oy tuzilgan buladi. Bolalar yuqori va past tovushlarni o'zaro farqini o'rganadilar. Xor rahbari katta o'zgarishlardan iborat kuyni ijro etadi, bolalar esa ohang o'zgarishlarini aniqlab, ularni o'ng qo'llari bilan ko'rsatadilar. Bu bosqichning keyingi mashg'ulotlarida qo'l harakati va xatto oyoq harakatlari bilan bog'liq mashqlardan foydalanish mumkin. Qo'l harakatlari turli balandlikda bajarilib, buning yordamida parda bosqichlari belgilanadi. Qo'l harakatlariga asoslangan kuylash asta-sekin o'rgatiladi, bolalar oldin o'qituvchi bilan birga, qo'l harakatlarini qaytargan holda, barcha pardalarni pastdan-yuqorigacha kuylaydilar. Keyinchalik qo'l harakatlariga asoslangan mashqlar turli bosqichlar birikmalarini o'z ichiga oladi.

Notaga qarab kuylashga tayyorgarlik mashqlari besh bosqichda amalga oshiriladi. Bu holda kuylovchining chap qo'li nota yo'lini ko'rsatib, o'ng qo'lining ko'rsatkich barmoqi tovushlarning harakatini belgilaydi. Pardalarni egallash jarayonini 4 bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich - 2-3 tovushdan iborat oddiy mashqlar.

2-bosqich - VII- parda kiritiladi.

3-bosqich - IV va V pardalar kiritiladi.

4-bosqich - VI parda kiritiladi.

Notalar bo'yicha solfejio mashg'ulotlarini boshlangandan so'ng, bolalar, har bir chorak notaga bitta hisob, yarimtalikka - ikki, butun notaga esa to'rt hisobi to'g'ri kelishini yodga oladi. O'leovni o'rgatishda bolalarning diqqatini yuqoridagi sonlar vazn birligi necha bo'lakdan iborat ekanligiga, pastki sonlar esa ritmik bo'laklarning sifati ekanligiga jalb etiladi.

Musiqa savodi o'rgatishning keyingi muhim bosqichi - major ruzilmalarining turg'un va noturg'un pardalar haqidagi tushunchani o'rgatishdan iboratdir. Xor rahbari fortepianoda turg'un, keyin noturg'un pardalarni ijro etadi. Bolalar do major tovushqatoridagi do, mi, sol - turg'un pardalar, qolganlari esa - noturg'un pardalar ekanligini tinglab, idrok etadilar. Xor rahbari bolalar egallagan bilim va malakalardan qo'shiq ustidagi amaliy ishlarda faol foydalanishga harakat qilmog'i kerak.

Bolalarga bilim berishning birinchi yilida turli musiqiy o'yinlaridan foydalanish mumkin. Ulardan kutilgan maqsad - bolalarning musiqiy u'uvi va xotirasini takomillashtirishdir.

2-bosqich (kichik bolalar xori - ikkinchi sinf o'quvchilari). Ular b \bar{u} lan haftada uch marta 1 soatdan mashg'ulot o'tkaziladi. Bolalar ikki ovozli o'di diy qo'shiqlarni ijro etishga harakat qiladilar. Bu bosqich bolalari qo'shiqlar b \bar{u} lan bir qatorda musiqa savodi va solfejio uquvidan ham xabar topadilar. Shuningdek, turli xil musiqiy o'yiniardan ham mashg'ulotlar jarayonida keng foydalanish davom ettiriladi. Iqtidorli bolalar yakkaxon vazifasini ham bajaradilar. Shuningdek, ular asosiy musiqa cholg'ularida ijro etishni o'rganadilar.

Kichik bolalar xori yangi o'quv yilining birinchi oyidan boshlab, o'tgan yilda o'zlashtirilgan o'quv materiali qaytariladi va yangi ohanglar asosida mustahkamlanadi. Bolalarga major tuzilmasini ton va yarim tonlardan iborat ekanligini tushuntirib bera olishlari kerak. Yaqqol ko'rsatish uchun Bolgariyada qo'llaniluvchi zinapoya usulidan foydalanish mumkin. Minor tizimini bolalar musiqa uquvi yordamida kuylash jarayonida anglab oladilar. Ammo minor ladning tuzilish qoidalarini tushunish ikkinchi o'quv yilining oxirida, maxsus mashqlarni o'rganilgandan keyingina ro'y beradi. Bolalarning diqqati, doimo, majorni minordan farqlashga qaratiladi. Bularning hammasi ixtiyoriy ravishda, repertuardagi qo'shiqlarni o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy maqsad, bolalarni biror bir narsaga o'rgatishdan ko'ra, ularda bir-biriga o'xshamagan akkordlarning garmolik tuslariga qiziqish uyg'otishdir.

Bolalar xorning birinchi bosqichidayoq, garmolik birikmalarni tinglab tushunib etishlari va nafaqat qo'shiq ohangiga, balki, uning jo'rligiga ham e'tibor berishlari muhimdir.

3- bosqich (o'rta xori, 3-5, ba'zan 6-7-sinf o'quvchilaridan tashkil topgan bo'ladi). Mashg'ulotlar - haftada ikki marta 2 soatdan o'tkaziladi. Dars mashg'ulotlaridan kutilgan asosiy maqsad - xor ishtirokchilarini katta xor guruxlariga tayyorlashdan iborat. O'rta xor guruhi - mustaqil jamoa bo'lib, konsertlarda faol ishtirok eta oladi. Xor mashg'ulotlarida bolalar muntazam ravishda og'zaki diktantlarni yozib, xor solfejiosining qolgan turlarini ham egallab boradilar.

4-bosqich (katta xor) - bu yetakchi xor guruhidir. Bu bosqichda 10-16 yoshdagi bolalar haftasiga ikki marta ikki soatdan Shug'ullanadilar. Katta xor guruhi yutuqlari - avvalgi uch bosqichda egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarning mahsulidir.

Boshqa xor bosqichlarida bo'lgani kabi, katta xor guruhida ham yangi materialni o'rganishdan oldin o'zlashtirilgan qo'shiqlarni takrorlash va mustahkamlash bilan uzviy ravishda olib boriladi. Xor solfejiosi mashqlariga

endi 20 minutgacha vaqt ajratiladi, shundan yarmisi o'tgan materialni qaytarishga sarf qilinadi.

Minor tovushqatorini major bilan qiyoslab, bolalarning diqqatini, ayniqsa, minor terciyasiga, so'ngra ikkala tovushqatorning oltinchi bosqichlari orasidagi farqga qaratish mumkin.

Bolalarga, ularning musiqiy ongida major bilan tabiiy minorlarning VII bosqichi orasidagi farqni mustahkamlaydigan mashqlar beriladi. Tabiiy minorni idrok etishga qaratilgan mashqlar bilan birga major tuzilmasi ustidagi ish ham davom ettiriladi: major bilan minorni tez-tez qiyoslab turish materialni o'zlashtirishni tezlashtiradi.

Minor ladini idrok etishga nisbiy solmizatsiya uslubining quyidagi usuli yordam beradi. Qulay balandlikdagi tonlikda sozlanib, (bolalar qaysi tonlikligini bilmaydilar), o'qituvchi u yoki bu bosqichni raham nomini aytib, bolalarga ularni kuylashni taklif etadi. Ushbu tarzda ham oddiy, ham murakkabroq mashqlar bajarish mumkin.

Bir ovozli mashqlar bilan bir qatorda ikki yoki uch ovozli mashqlarni ham kiritish mumkin. Ikki ovozli mashqlarda xor amaliyotida keng tarqalgan turli interval birikmalari beriladi.

Major va keyinchalik minor ladlarini to'g'ri anglab etgandan so'ng, xor qatnashchilari o'z ovoz yo'llarini ham erkin ravishda ijro etadilar. Xor guruhi uch ovozli musiqani ijro etishi bilan uch ovozli garmonik mashqlar kiritiladi. Bu ishning uslubiyoti, ikki ovozli mashqlarni o'rganilganda qanday bo'lsa, shundayligicha qoladi.

Xor sinflari ko'pincha biror bir umumiy o'rta ta'lim maktabi qoshida tashkil etiladi. Bu xor studiyasiga qatnovchilarning umumiy o'rta ta'lim maktab sinflari o'quvchilari bilan birlashishidir. Xor studiyasining barcha a'zolari maxsus jadval asosida yiqilishib o'qituvchi rahbarligida mashg'ulot o'tkazishadi.

Xor oromgohlari - bolalar va o'smirlar yozgi oromgohi tarzida tashkil etilgan bo'lib, unda har kuni musiqiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bu yerda xor mashg'ulotlari har kuni 1-2 marta 1,5 soatdan muntazam ravishda o'tkaziladi.

1. «Xor payvandi» - deganda tajribali xor ijrochilarining tajribasi kam bo'lgan xor ijrochilari bilan hamkorlikda o'tkazadigan mashg'ulotlari tushuniladi. «Xor payvandi» jamoalarning o'zaro tajriba almashinuviga asoslanib, ularning ijodiy salohiyatini oshiradi. «Xor payvandlari» turidagi mashg'ulotlardan olingan bilim va malakalarni yanada takomillashtirish, tajriba almashish yo'li bilan saqlab qolish, rivojlantirish va ommalashtirish kerak.

Xor estafetasi Bu katta xor guruhlarining kichik guruhlar bilan birga olib boradigan «otali?» ishidir. Xor estafetasi shunisi bilan afzalki, u studiya qatnashchilarida o'zaro tajriba almashuv, kichiklar haqida hamxurlik, pedagogik ko'nikmalar, shuningdek, jamoa bo'lib ishlash an'alarini saqlab qolishdek ajoyib hislatlarni tarbiyalaydi.

Xulosa o'rinida shuni aytish mumkin, Respublikamizdagi ommaviy va yakka tartibda o'tkaziladigan musiqiy to'garaklar faoliyati, jumladan xor jamoalarining faoliyati yosh avlodga estetik tarbiya berish, ularning musiqiy qobiliyatlari, dunyoqarash va didlarini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan muhim ishlardan biridir.

Ixtisoslashgan musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishning pedagogik shart-sharoitlari

Musiqiy faoliyat barcha ta'lim-tarbiya ishlarimizning ajralmas qismi bo'lib, yoshlarni garmonik rivojlantirishda uning roli katta. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda mamlakatimizda juda ko'plab musiqa maktablari, maktab va maktabdan tashqari bolalar, madaniy oqartuv muassasalarida, ishlab chiqarish tashkilotlari huzurida ko'plab ijodiy jamoalar tashkil etilmoqda. Ularning asosiy maqsadi bolalarni ommaviy ravishda musiqa san'atiga jalb qilish, uni sevish, qadrlash va musiqaga bo'lgan qobiliyatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Musiqiy-nazariy bilimlar to'laqonli tarzda faqatgina ixtisoslashgan musiqa maktablarida berilishini hisobga olib, bu o'quv muassasalarda musiqiy-nazariy bilimlar berishning shakl va usullari, metodlarini aniqlash ulardan istiqbolda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ham foydalanish imkoniyatini beradi. Shu maqsadda ixtisoslashgan musiqa maktablarining o'quv rejasi va dasturida musiqiy-nazariy bilimlar hajmini aniqlash, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodik yondashuvlarni o'rganish, maxsus musiqiy bilim berish jarayonini umumiy o'rta ta'lim maktablariniki bilan taqqoslash bo'yicha maqsadli ishlar bajarildi hamda Glihr nomidagi Respublika ixtisoslashgan musiqa akademik leceyining boshlang'ich musiqiy maktabi «Musiqqa nazariyasi» bo'limining ish faoliyati bilan tanishdik va kuzatish ishlarini olib bordik.

Ixtisoslashgan musiqa maktablarida «Musiqqa nazariyasi» va «Musiqqa tarixi» bo'limlari mavjud bo'lib, «Musiqqa nazariyasi» bo'limi - solfejjo,

musiqa savodi, ritmika, musiqa nazariyasi, garmoniya, musiqiy asar tahlili, «Musiqa tarixi» bo'limi - musiqa tinglash, musiqa adabiyoti, o'zbek musiqasi kabi fanlarni o'z ichiga qamrab olgan. Har bir fanni o'z mutaxassisi olib boradi. Sinf xonalari ixcham va shinam, har bir xonada stol va stullar, pianino, ko'rgazmali plakatlar, nota va matn yozuvi uchun doska mavjud. Sinf xonalari tashqaridagi shovqindan muhofaza qilingan. Maktabda musiqiy-nazariy bilimlarga oid grammplastinkalar zahirasi, o'quvchilar musiqiy-nazariy bilimlarni egallashlari uchun zarur bo'lgan maxsus adabiyotlar mavjud.

O'quv rejasiga ko'ra musiqa nazariyasi bo'limi fanlarining sinflardagi o'quvchilar soni o'ntadan, musiqa tarixi bo'limi fanlari sinflardagi o'quvchilar soni o'n ikkitadan oshmasligi zarur. O'quv dasturiga ko'ra, boshlang'ich sinfda o'quvchilar haftasiga ikki soat solfejio, ikki soat ritmika, bir soat musiqa tinglash darslariga kiradilar. Demak, boshlang'ich sinfda musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun o'quvchilarga hammasi bo'lib besh soat vaqt ajratiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ixtisoslashgan musiqa maktablari o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, maktab ta'limi jarayonida vujudga kelgan etishmovchiliklarni o'mini to'ldiradi. Shu bilan birga maktab ta'limi jarayonida qo'llash imkoniyatlari birmuncha qiyin kechadigan yakka tartibda ishlash, tabaqalashtirib o'qitish «Musiqa madaniyati» fani dasturlarida inobatga olinmagan nazariy va amaliy bilimlar berish imkonini beradi, ta'lim mexanizmini uzviylashtiradi, boyitadi.

Ixtisoslashgan musiqa maktablarj umumiy o'rta ta'lim maktablaridan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilimlar hajmi nisbatan ko'pligi bilan farqlanadi.

Ixtisoslashgan musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni quyidagi metod va shakllar yordamida amalga oshirildi:

1) O'quvchilar ongiga ta'sir etuvchi tarbiya metodlari - hikoya, tushuntirish, ta'kidlash, ma'ruza, amaliy misollar, ko'rgazmalilik, namuna ko'rsatish, ba?s-munozaralar;

2) Ijodiy faoliyatni tashkil etish - mashqlar bajarish, takrorlash va mustahkamlash, pedagogik talab, topshiriqlar berish, tarbiyalovchi vaziyatlardan foydalanish va boshqalar;

3) Ta'lim-tarbiya jarayonida jazolash va rag'batlantirish metodlaridan foydalanish;

4) O'tilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

5) Kichik musiqiy diktantlar yozish va nazorat darslarini tashkil etish.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirishning ixtisoslashgan musiqa maktablarida ta'limiy-tarbiyaviy ishlarini tashkil etish quyidagi vositalarga tayanib olib borildi: o'qituvchi va o'quvchilarning shaxsiy yondashuvi va qobiliyati; axborot va texnik vositalar; namuna ko'rsatish; ko'rgazmali qurollar; yangi texnologiyalardan foydalanish.

Kuzatishlarimizga ko'ra ixtisoslashgan musiqa maktablaridagi musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonining quyidagi prinsiplarga muvofiq amalga oshirilishi ta'minlandi:

1. Musiqiy ta'lim-tarbiya birligi.

2. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish yagona maqsadga yo'naltirilganligi.

3. Musiqiy bilimlarning hayot bilan bog'liqligi.

4. O'quvchilarning yosh-psixologik xususiyatlari hisobga olinganligi.

5. Musiqiy-nazariy mashg'ulotlarning muntazam va tizimli olib borilishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan qiyoslaganda, ixtisoslashgan musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonining quyidagi jihatlarni farqlash mumkin:

1) Darslarga haftasiga ko'p vaqt ajratilganligini;

2) O'quvchilarning darsga qiziqishlari yuqori darajadiligini;

3) O'qituvchilarning bilim saviyasi va malakasi ancha yuqoriligini (maxsus oliy o'quv yurtlarini tamomlagan mutaxassislar);

4) Har bir darsning aniq maqsadga yo'naltirilganligini;

5) Sinf xonalarida ko'rgazmali qurollarning yetarliligi va darslarda ulardan unumli foydalanilishini;

6) Darslarda yangi texnologiyalardan foydalanilishini;

7) Sinflar guruhlariga bo'linganligi va har bir guruhda o'quvchilar soni o'ntadan oshmasligini. Aynan mana shu omillar maxsus musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini ta'minlaydi. Yana shuni ta'kidlash joizki, maxsus musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish boshqa maxsus fanlar bilan to'ldirilgan holda kechadi. Bu darslarda olingan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi.

Musiqa nazariyasi kursi o'quvchilarga musiqa san'ati to'g'risida va musiqa «tili»ni birlashtiradigan musiqiy ifodalilikning asosiy vositasi - ohang haqida zarur ma'lumotlarni beradi.

Musiqa nazariyasi bo'limining maqsad va vazifalari:

1. O'quvchiga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushuntirish uchun zarur bilim va malaka tizimini berish.

2. Kursni o'zlashtirish jarayonida ham, keyinchalik ham o'quvchining musiqiy kamoloti uchun zarur musiqiy-nazariy malakalarni tarkib toptirish, uning musiqiy tafakkuri shakllanishi va takomillashishiga, musiqiy idroki shakllanishiga zamin yaratish.

Musiqqa nazariyasi fanini o'qitish uslubiyatining asosiy qoidalari:

1. Butun kurs mobaynida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish musiqani eshitish bilan uzviy bog'lanishi kerak. Bu tadbir musiqqa nazariyasini o'zlashtirishga yuzaki yondashishni bartaraf etadi. Mavzular musiqiy asarni tinglashdan boshlanmog'i lozim. Binobarin, o'rganilayotgan musiqiy asarni ma'nosini anglamay, u haqidagi fikrni, ta'rifni, qoidani yodlash noo'rindir.

2. Nazariy qoidalarni izohlashda musiqiy misollarga, materiallarga, ya'ni o'quvchining didini tarbiyalaydigan musiqqa madaniyatiga - milliy musiqaga tayanish kerak.

3. Musiqqa nazariyasi solfejio bilan metodologik aloqadorlikda amalga oshirilishi zarur. Boshlang'ich sinflarda boshlang'ich musiqqa nazariyasi (musiqqa savodi) solfejio fani tarkibida o'tiladi. Lekin, shu bilan birga, musiqqa nazariyasi ham - nazariy fan sifatida, solfejio ham - amaliy fan sifatida o'z mustaqilligini yo'qotmasligi kerak.

4. Musiqiy-nazariy bilimlarni berish mantiqli, izchil bayon qilishning muayyan tizimi bo'yicha olib borilishi darkor.

Ixtisoslashgan musiqqa maktablarining boshlang'ich sinflarida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan musiqiy-nazariy bilimlar modeli

Musiqqa nazariyasi bo'limi		
Boshlang'ich sinflar		
Solfejio	Ritmika	Musiqqa tinglash

Nota savodi, musiqqa savodi, notaga qarab kuylash asosida musiqiy eshitish qobiliyatini, ovozning intonatsion tozaligini, dirijyorlik qilish, ilk musiqiy tushunchalar, bilim va malakalarini shakllantiradi. Musiqiy tushunchalar, asosan ritm hissini shakllantiradi. Musiqqa ostida ritmik harakatlar bajarish, bolalar musiqqa cholg'u asboblari jo'r bo'lish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Musiqqa haqida boshlang'ich tushunchalar, musiqiy asar tahlili, musiqaning ifoda vositalari, musiqiy janrlar-opera, balet,

raqs, qo'shiq, marsh, oratoriya, prelyudiya va boshqalar haqida tushunchalar beradi.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonining yuksak mas'uliyatli, ilmiy-nazariy, uslubiy jihatdan pishiq, mukammal bo'lishi muhimdir. Uning samaradorligini, muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omil bu puxta ishlab chiqilgan dars tizimidir.

Ixtisoslashgan musiqa maktablarining musiqa nazariyasi bo'limi boshlang'ich sinflarda bir qancha fanlarni - solfejio, musiqa tinglash va ritmika darslarini birlashtiradi. O'rta sinflarga kelib musiqiy-nazariy fanlar soni ortadi. O'quvchilar ana shu fanlar orqali kerakli musiqiy-nazariy bilimlarni oladilar. Endi ana shu fanlarning har biriga alohida izoh beramiz.

Notaga qarab kuylash (solfejio)

Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida notaga qarab kuylash murakkab jarayon hisoblanadi. Solfejio faoliyati haqida qo'llanmaning II bobida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Ixtisoslashgan musiqa maktablarining boshlang'ich sinflarida musiqa savodiga alohida soat ajratilmagan bo'lib, ushbu bo'lim solfejio darsi tarkibida o'tiladi, ya'ni avval musiqa savodi berilib, keyin u amalda qo'llaniladi.

Ritmika

Musiqiy, ritmik o'yinlar o'quvchilarda musiqani idrok etishni, his-hayajonni, badiylikni, ritm hissini, melodik va garmonik eshitish qobiliyatini, musiqa shaklini his etishni, musiqiy xotira, did va hokazolarni shakllantiradi. Musiqiy o'yinlardagi badiiy obrazlar musiqiy asar mazmunini, musiqiy kechinmalarni chuqurroq ochib beradi. O'z xatti-harakatlari bilan o'quvchilar musiqiy kuy, ritm, musiqiy asarning tuzilishini, dinamikasini, umuman, «musiqiy til»ning ifodaliligini his etadilar.

Ritmika darsi asosan ritmik mashg'ulot bo'lib, darsda o'quvchilar musiqa jo'rqligida ritmik harakatlarni bajaradilar. Buning uchun, dastavval, o'quvchilarga musiqiy tovushlar, notalar va ularning xususiyatlari o'rgatiladi. O'quvchilar notalarni sanashni o'rganib bo'lganlaridan so'ng, o'z musiqiy harakatlarini aniq sanash asosida amalga oshiradilar. Shundagina ritmik harakatlar musiqa bilan hamohang va uyg'un bo'ladi. Ko'pchilik musiqiy harakatlar musiqiy o'yin va raqs elementlariga tayanadi. Musiqiy ritmik harakatlarning asosi - yurish, yugurish, sakrashdir. Ritmika darsi jismoniy

tarbiya darsiga o'xshaydi. Bu darsning jismoniy tarbiya darslaridan farqi shundaki, bolalar barcha harakatlarni musiqa jo'riligida bajaradilar, harakatlar musiqa ohangiga mos tarzda bo'ladi, ya'ni musiqa yangrasa - o'quvchilar harakatlanadilar, musiqa to'xtasa - ular ham to'xtaydilar, sho'x musiqaga sho'x, vazmin musiqaga ohista harakatlanadilar. Bu o'z navbatida o'quvchilarga musiqiy asar xarakterini yaxshiroq anglash, har xil ohangdagi musiqani bir-biridan ajratib olishda yordam beradi. Ritmika darslari ayrim jihatlari bilan gimnastika mashg'ulotlariga o'xshab ketadi. Chunki bu darslarda ham xuddi gimnastika mashg'ulotlari kabi arqon sakrash, xalqa bilan, koptok bilan o'ynash mashqlari bajariladi. Bu yordamchi vositalar darsda ko'rgazmali qurol sifatida keng qo'llaniladi. Ritmika darslarida musiqiy spektakllar tayyorlanib, keng ommaga namoyish etiladi. Bu tadbirlar o'quvchilarda musiqaga, darsga bo'lgan qiziqishni orttiradi.

Musiqaning tinglash

Musiqaning tinglash, musiqa adabiyoti - musiqa janrlari, kompozitorlar, ular yaratgan asarlar haqida tushuncha beradi, mavzuga oid musiqa tinglanadi va tahlil qilinadi.

«Musiqaning tinglash» darslaridagi mavzular tizimi

sinf	№	O'quv yili davomida o'tilishi kerak bo'lgan mavzular.
1-sinf	1	Musiqaning haqida dastlabki ma'lumotlar.
	2	Musiqaning yaratuvchilari, tinglovchi, ijrochi.
	3	Musiqaning qayerda ijro etiladi?
	4	Musiqaning haqida afsona, hikoyalar, rivoyatlar.
	5	Musiqaning ifoda vositalari
	6	Milliy janrlar (yalla, lapar, yor-yor, alla, marosim qo'shiqlar...)
	7	Qo'shiq, raqs, marsh.
2-sinf	1	Musiqaning tabiati. Musiqiy tovushlar.
	2	Intonatsiya, tabiiy musiqiy tovushlar.
	3	Musiqiy cholg'ular.
	4	Torli, urma, damli cholg'ular.
	5	Yakkanavoz cholg'ular.
	6	Ansambli, orkestr.
	7	Orkestr boshqaruvchisi - dirijyor
	8	Kompozitor ijodi haqida.

3-sinf	1	Musiqiy shakllar.
	2	Kuyning cho'qqisi, avj.
	3	Motiv, jumla.
	4	Shaklning eng sodda asosi. Takrorlash, qarama-qarshi, rivojlov.
	5	1,2,3 qismli variatsiyalar.
	6	Kuplet, rondo shakllari.
	7	Dasturli musiqa.
	8	Teatr musiqasi. Balet, opera.
	9	Kompozitor, rejissyor va dramaturg.

4-sinflarda «Musika adabiyoti» darslaridagi mavzular tizimi

sinf	№	O'quv yili davomida o'tilishi kerak bo'lgan mavzular
4-sinf	1	Musiqiy janrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
	2	Vals, marsh, ifoda vositalari.
	3	Lirika.
	4	Qo'shiq, ariya, romans, elegiya, pastoral, noktyurn, serenada...
	5	Afsona, ballada.
	6	Raqs, marsh.
	7	Qadimiy va zamonaviy raqs turlari.
	8	Prelyudiya, kaprichcho, fantaziya, musiqiy daqiqa.
	9	Janr ichidagi bog'liqlik.

Ixtisoslashgan musiqa maktablarida musiqa tinglash jarayoni alohida dars sifatida o'tiladi. Ushbu darsga o'quv rejasiga asosan, boshlang'ich sinflarda haftasiga bir soat ajratilgan. O'quvchilar dasturga asosan yuqoridagi bilimlarni o'zlashtiradilar.

Dasturda berilgan mavzularni tahlil qilar ekanmiz, mavzular xilma-xil, rang-barang, qiziqarli ma'lumotlar bilan to'la ekanligining guvohi bo'ldik. Maxsus musiqa maktablaridagi musiqa tinglash darslarida nafaqat musiqa va uning ifoda vositalari, janrlar, ijrochilar, kompozitorlar haqida mavzular o'rgatiladi, balki o'tilgan mavzularga oid musiqiy asarlar tinglanib, tahlil qilib boriladi. O'quvchilar taassurotlarini rasm chizish orqali yoki so'z bilan ifodalab beradilar. Bu o'quvchilarning musiqiy idrok va tafakkurlari shakllanishiga asos bo'ladi. Bir musiqa tinglash darsida quyidagi vazifalar bajariladi:

1. Yangi mavzu bilan tanishtirish.

2. Mavzuni tushuntirib berish.
3. Mavzuga oid musiqa tinglash.
4. Tinglangan asarni tahlil qilish.
5. Tinglangan asardan olingan taassurotlarni rasm orqali ifodalash.

Darslarning bunday tashkil etilishi o'quvchilarning musiqa bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va musiqa san'atini mohiyatini to'liq anglashlariga zamin yaratadi.

Ko'rinib turibdiki, maxsus musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun yaxshi sharoit mavjud.

Ixtisoslashgan musiqa ta'limiga oid ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, ulardagi ayrim dars o'tish yo'llarini umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi «Musika madaniyati» darslarida ham qo'llash va shu orqali darslar sifatini yanada oshirishga zamin yaratadi.

Savol va topshiriqlar:

1) Sinfidan va darsdan tashqari musiqiy ta'lim-tarbiya muassasalarining qanday turlarini bilasiz?

2) Maktab qoshida tashkil etilgan to'garaklardan maktabdan tashqarida tashkil etilgan to'garaklarning farqi nimada?

3) Milliy cholg'ular to'garagida ta'rif bering.

4) Raqsa to'garaklariga ta'rif bering.

5) Xor jamoalari qay tarzda tashkil etiladi va unga qanday bolalar qabul qilinadi?

6) Xor to'garaklarining turlarini sanab bering.

7) Olimpiadalar va ularni o'tkazish shart-sharoitlari haqida so'zlab bering.

8) Ixtisoslashgan musiqa maktablari va ulardagi o'quv rejasining umumiy o'rta-ta'lim maktablaridan farqi nimada?

9) Ixtisoslashgan musiqa aktablaridagi shart-sharoitlarni sanab bering.

VI BOB. MUSIQA TA'LIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODLARI

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish shakllari

XX asrning 1970-yillarda sobiq ittifoq, jumladan O'zbekiston maktablarida musiqiy talimning quyidagi tizimi joriy etilgan edi. Unda dasturlar darslarining alohida, ammo bir-biri bilan o'zaro bog'liq turlari ishlab chiqilgan:

- mavzuga kirish darsi;
- mavzuni chuqurlashtirish darsi;
- mavzuni o'zlashtirish darsi;
- yakuniy dars-konsert.

Musiqa ta'lim tizimining tahlillari va o'zidagi ijobiy jihatlarni umumlashtirish musiqqa darslarining yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Zamonamiz taqozosi bilan musiqqa darslari yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun ularda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash yaxshi natija bermoqda. Darslar qiziqarliroq, jo'sh'in, ko'tarinki ruhda o'tishi uchun biz quyidagi dars turlarini taklif etamiz:

Konsert darslar, viktorina darslar, intervyu darslar, konkurs darslar, yo'naltiruvchi darslar (illyustrativ material yordamida), «stol atrofida» darslari, o'z-o'zini anglash darslari, himoya darslari, rasmlar galereya darslari, quvnoqlar va zukkolar darsi, bahs munozara darslari va hokazolar. Bu darslarning har biri o'z tuzilishi, vazifasi va metodik asosiga egadir.

Boshlang'ich sinflarda darslarni o'yin tarzida olib borilsa, o'quvchilarning faolligi oshib boradi va ular berilgan vazifalarni nisbatan oson bajaradilar. Masalan, musiqiy cholg'ular mavzusini o'tganda, o'quvchilarga turli xildagi musiqqa cholg'ulari surati solingan kartochkalar beriladi. O'qituvchi magnitofon yordamida biror bir cholg'uda ijro etilgan musiqani qo'yadi. O'quvchilar musiqiy asar qanday cholg'uda ijro etilganligini qo'llaridagi kartochkalar orqali ko'rsatadilar. Eng faol qatnashgan o'quvchilar baholanadilar va rag'batlantiriladilar. Masalan, viktorina-dars, konsert-darslari o'quvchilarning bilimlariga asoslangan holda o'tiladi. Dars-sayohat video tasma yordamida tabiat qo'yniga, shaharlarga musiqiy sayohatga asoslanadi.

hozirgi paytgacha keng qo'llanilib kelingan dars turlaridan:

1. Tashkiliy darslar.
2. Aralash darslar.

3. Dominantali (darsdagi biror faoliyat turi - qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, musiqiy ijodkorlik - boshqalaridan ustunroq bo'ladi) darslar.

4. Kontrol-tekshiruvchi darslar.

5. Kompleks darslar.

6. Intervyu darslari.

7. Himoya darslari.

8. Yakunlovchi darslar.

Hozirgi kunda zamonamiz taqozosi bilan musiqiy ta'lim tizimiga ham noan'anaviy dars turlari kirib kelmoqda. Biz mavjud pedagogik texnologiyalar asosida musiqa ta'limida qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir necha noan'anaviy dars turlarini ishlab chiqdik. Endi har bir dars turiga izoh berib o'tamiz.

Konsert darslari - o'quvchilardagi bor musiqiy-nazariy bilimlarni amalda qo'llash, o'zlari va boshqalarning bilimlariga baho berish, sahnada o'zini tutishni o'rganish, jamoa bo'lib kuylash va yakkanaovozlik malakalarini shakllantirish, bolalar musiqiy cholg'ularida jo'r bo'lish, raqs elementlarini bajarish va hokazolarga keng imkoniyat yaratadi. Bunday darslarni asosan bir chorak tugab, boshqasi boshlanganda uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu dars turida o'quvchilar chorak davomida o'zlari o'rgangan qo'shiqlari asosida «konsert» o'tkazadilar. Bunday darslar o'quvchilar bilim darajasini aniqlashga va baholashga keng imkoniyat beradi. Dars avvaldan rejalashtiriladi. O'quvchilar o'zlari o'rgangan qo'shiqlarini tayyorlab keladilar. O'qituvchi avvalgi darsida har bir o'quvchiga vazifa belgilab bergan bo'lishi kerak. Darslar hammaning birgalikda davlat madhiyasini kuylashlaridan boshlanadi. Bu darslar Shunisi bilan ahamiyatliki, o'quvchilar o'zlarining barcha ijodiy qobiliyatlarini, ijrochilik mahoratlarini ishga soladilar. Bunday darslar o'quvchilarning musiqiy did va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantirishga asos soladi. Shuningdek, o'quvchilarda sahnada o'zlarini tuta olish, artistizm, jamoa bo'lib kuylash, mustaqillik, tashabbuskorlik malakalari shakllanadi.

O'qituvchi darsdan bir dars avval o'quvchilarga qanday qo'shiq kuylashlarini taqsimlab bersa, qaysi qo'shiqdan keyin qaysinisi ijro etilishini taqsimlab bersa, darslar aniq bir tizimga asoslangan holda, tartibga rioya qilingan holda uyushtiriladi. Bunday darslarda o'qituvchi deyarli barcha o'quvchilarni baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. «Konsert» darslariga qo'shiqlarining mazmuniga mos holda kiyinib kelish o'quvchilarning qiziqishlarini yanada orttiradi va darsning samaradorligi ortadi. Konsert darslarda o'quvchilar o'zlarining bor bilim va iste'dodlarini ishga solishariga

imkon yaratilishi kerak. Masalan, kimdir yaxshi qo'shiq kuylasa, kimdir raqsga tushishni o'rniga qo'yadi, kimdadir aktyorlik qobiliyati kuchli. O'qituvchi ziyrak bo'lgan holda har bir o'quvchining xohish-istaklarini, imkoniyatlarini hisobga olib konsert uyushtirishi zarur. Konsert darslarini biror bir kompozitor yoki yozuvchining tavallud kuniga yoki ijodiga bag'ishlab ham o'tkazish mumkin. Bunda konsert darsda shu ijodkor yaratgan asarlar ijro etiladi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilardan biror bir boshlovchi muallifning hayot va ijodi haqida so'zlab beradi.

Viktorina darslari asosan musiqa tinglash jarayonlarida o'tkaziladi. O'qituvchi biror texnik cholg'u yordamida o'quvchilarga musiqa qo'yib beradi. O'quvchilar o'z navbatida bu musiqaning nomi, ijrochisi, kompozitorini topadilar. Bunday darslar «Kompozitor, ijrochi va tinglovchi» mavzusi o'tilganda juda qo'l keladi.

Bunday darslarda o'qituvchi o'quvchilarni qatorlarga, ya'ni jamoalarga bo'ladi. Har bir jamoaning faoligiga, to'g'ri berilgan javoblariga qarab bal berib boriladi. Viktorina darslari o'quvchilarni nafaqat musiqa tinglash, balki qo'shiq kuylash jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Bunda o'quvchilar musiqiy asarlarning yaratuvchilari-kompozitor, shoirlari va ijrochilari haqida ham ma'lum tushunchalarga ega bo'lish kerakligini o'rgatadi. Bunday darslarni har bir mavzuga moslab o'tish mumkin. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga qardosh xalqlar musiqalarini o'rgatganda har xil millat va xalqlar musiqasini tinglab, ularni qaysi xalqqa, qaysi millatga mansubligini aniqlash o'quvchilarning musiqiy idroklarini rivojlantiradi. Ular boshqa millat musiqalarini bir-biridan ajratishni o'rganadilar. Shuningdek ularning musiqiy dunyoqarashlari shakllana boradi. Viktorina darslari musiqiy did, musiqiy idrok va musiqiy dunyoqarashning shakllanishiga asos soladi.

Bahs munozara darslari - musiqiy asarlarni chuqur tahlil qilish, musiqa savodiga oid bilimlar - musiqa tarixi, musiqa adabiyoti, musiqiy asar tahlili, musiqa shakli kabi musiqiy nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi. Bu mashg'ulot turida asosan chorak yoki yarim yil davomida olingan musiqiy nazariy bilimlarga asoslangan bo'ladi. Bahs munozara darslari o'quvchilarning avval egallagan bilimlari asosida tashkil etiladi. Imkoni bo'lmagan masalalarni anglatish, munozarali qarashlarda bir to'xtamga kelish va shu asosda o'quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashlariga erishish, musiqiy tafakkur, musiqiy idroklarini, musiqiy madaniyatlarini shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan dars sanaladi.

Bahs munozara darslari boshqa darslardan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Ya'ni bu darslarda biror bir masala yuzasidan tortiShuv bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchilar o'z fikr mulohazalari bilan o'rtoqlashadilar. Bunday darslarda bahs kuchli bo'лади va har bir fikr o'z isboti bilan tasdiqlanadi va eng ma'bul variant qabul qilinadi.

Bahs munozara darslari o'quvchilardan katta tayyorgarlikni talab etadi. Bu darslar o'quvchilarni hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga, voqealarga ijodiy yondashishga, nutqlarining teranlashishiga asos soladi. Bir musiqiy asardan sinfdagi o'quvchilar turli xil taassurotlar oladilar. Shuning uchun o'z fikr mulohazalari bilan o'rtoqlashishlari ularning tafakkurlarini va tasavvurlarini yanada boyitishga imkon beradi.

Bahs-munozara darslari pedagogik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. U o'quvchilarning estetik tuyg'ularini tarbiyalashda ham muhim vositalardan hisoblanadi. Munozara mavzusini uning o'quv dastur mazmuni va talablariga, shuningdek, o'quvchilarning yosh xusiyatlariga mosligi nuqtai nazaridan o'qituvchi tanlaydi. Bunda o'quvchilarning xohish istaklari va qiziqishlari ham hisobga olinmog'i lozim. Munozarali savollarni o'qituvchi tuzadi va o'quvchilarni bahsga chorlaydi. O'qituvchi savollar bilan o'quvchilarni faollashtirib turadi va o'quvchilarning javoblarini izchil va aniq bo'lishiga ko'maklashib turadi. Bahs munozara darslari o'quvchilarning nutqlarini aniq va ravon bo'lishiga, ularning muomala madaniyatlarini o'sishiga zamin yaratadi. Bunday darslarni tashkil etish o'qituvchi bilan o'quvchilarni bir birlariga yaqinlashtiradi, do'stona munosabat uyg'otadi, musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirishning samaradorligini oshiradi. Bunday darslarni uyushtirish o'qituvchi va o'quvchilardan dars jarayonida bir qancha qoidalarga amal qilishlarini talab qiladi:

O'quvchilardan:

- o'z fikrlarini tushunarli qilib, shoshilmasdan ifodalash;
- munozara paytida suhbatdoshlariga nisbatan hurmatda bo'lish;
- odobni saqlash (qo'l ko'tarib navbat bilan javob berish);
- boshqa o'quvchilar gapirganda halal bermaslik;
- suhbatdoshlarini fikrlarini diqqat bilan tinglash;
- mavzudan chetga chiqmaslik;
- fikri noto'g'ri bo'lsa ham, munozarada ishtirok etishga intilish;
- o'z fikrini dalillar bilan isbotlash.

O'qituvchidan:

- o'quvchilarni munozaraga tortish;
- o'quvchilarni qiziqтира olish;
- o'quvchilar xatolarini tushuntirib, to'g'rilab turish;
- o'quvchilar fikrlarini bir tizimga solib turish;
- faol ishtirok etganlarni rag'batlantirish.

Quvnoqlar va zukkolar darsining asosiy maqsadi o'quvchilarning darslarda olgan bilimlarini sinovdan o'tkazish, ularni mustahkamlash, darsdan tashqari olgan bilimlarini nazorat qilish, ularni aniq bir maqsad sari yo'naltirish, o'quvchilarni musiqiy asarlar bilan muloqotda bo'lishlarini shakllantirishdan iborat. Darsning musobaqa tarzida tashkil etilishi o'rganilayotgan kompozitor ijodi yoki musiqiy asarning yaratilish tarixi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Bunday darslarda kompozitorlarning mahoratlari, ular yaratgan asarlar zahiriga singdirilgan musiqiy vositalarni anglatish, ularni o'zlashtirishga qiziqtirish, mustaqil mushohada yuritishga odatlantirish ham muhim hisoblanadi. O'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik, hushyorlik fazilatlarini shakllantirish ham bu dars maqsadining tarkibiy qismidir.

Quvnoqlar va zukkolar darsi - musiqiy mashg'ulotlarning qiziqarli o'tishini va o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlovchi noan'anaviy dars shakllaridan biridir. quvnoqlar va zukkolar darsini bir necha yo'nalishda o'tkazish mumkin. O'tilgan mavzularni takrorlash, qo'shiq kuyilash tarzida, savol-javob tarzida, musiqa vositalarini aniqlash, tinglangan musiqiy asarlarni mazmun-mohiyatini izohlash, asarlarni yodga olish bo'yicha turli xil didaktik o'yinlar tarzida uyushtirish bunday dars yo'nalishlariga usul bo'lishi mumkin.

O'qituvchi quvnoqlar va zukkolar darsiga alohida tayyorgarlik qilishi kerak. U savollarni avvaldan tayyorlashi, darsda qanday ta'limiy-tarbiyaviy usullar qo'llanishini avvaldan rejalashtirishi kerak. Bunday darslarda musiqiy o'yinlarni uyushtirishning boy imkoniyati mavjud. Masalan, televidenie orqali namoyish etiladigan musiqiy ko'rsatuvlarga taqlid qilgan holda «Kuyini top!», «Mo'jizalar maydoni», «Ohanrabo», «Balli qizlar!», «Balli yigitlar!» kabi darslarni tashkil etish orqali darslarning samaradorligini oshirish mumkin. quvnoqlar va zukkolar darslari o'quv yilining yakunida, chorak oxirida, rejadagi har bir bo'lim yakunida uyushtirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday darslarda sinfdagi o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi, qizlar va bolalar, qatorlararo, muvoziy sinflararo bo'lish mumkin. Har bir jamoaga sardor saylanadi. Ikki raqib jamoalar o'z bilimlarini sinab ko'rishadi. Faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladilar. Bunday darslarda maktab rahbariyati, boshqa fan o'qituvchilarining, yuqori sinf o'quvchilarining juyri a'zosi bo'lishi darsning ahamiyatini oshiradi va o'quvchilarning qiziqishlarini orttiradi. quvnoqlar va zukkolar darsi o'quvchilarga uni tashkil etishdan bir hafta oldin ma'lum qilingan bo'lishi kerak. Musobaqaning shartlari avval o'tilgan darslarga asoslangan bo'lmog'i darkor. O'quvchilar bir hafta davomida bilishlari kerak bo'lgan ma'lumotlarni takrorlab, mustahkamlab,

o'z ustilarida ishlaydilar. Musiqiy sahnalar, qo'shiqlar va boshqa musiqa savodiga oid bilimlar, ma'lumotlar umumlashtiriladi. O'quvchilarning har bir shart uchun to'plagan ballari doskaga va jyuri a'zolarining maxsus daftarlariga yozib boriladi. Dars oxirida ballar umumlashtiriladi va e'lon qilinadi hamda qolib jamoa rag'batlantiriladi. Bunday darslarga tayyorgarlik jarayoni o'quvchilar uchun o'ziga xos o'quv-biluv, takrorlash va mustahkamlash, izlanish va boshqotirish, umuman olganda musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga aylanadi. quvnoqlar va zukkolar darsidagi ta'limiy o'yinlar, mitti boshqotirmalar, sirli topshiriqlar, har xil faoliyatlarning almashib turishi o'quvchilarni fikrlashga, o'ylashga odatlantiradi, zerikish, zo'riqish va toli'ishdan saqlaydi. Shuningdek, bu darslarda o'qituvchi o'quvchilarni har tomonlama: o'rtoqlariga nisbatan munosabati, muomala madaniyati, o'zlarini har xil vaziyatda qanday tuta olishlarini va boshqa xildagi xatti-harakatlarini, odatlarini yaqindan bilib, sinab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Quvnoqlar va zukkolar darsini tashkil etishda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- o'rganilgan mavzuning mazmun va mohiyati, undan kutilgan maqsad va amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar, o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda «quvnoqlar va zukkolar» darsini rejalashtirish;

- quvnoqlar va zukkolar darsining mavzusini va dars o'tkaziladigan kun haqida o'quvchilarga bir hafta oldin xabar berish;

- quvnoqlar va zukkolar darsida beriladigan savol va topshiriqlarni o'ldindan tayyorlash, javoblarni sir tutish, dasturga, muvofiq o'tilayotgan mavzuga mos bo'lishiga erishish;

- musobaqa shartlarini hamma bilan kelishilgan holda belgilab, tasdiqlab olish;

- quvnoqlar va zukkolar darsida qo'llaniladigan ta'limiy o'yinlarning, har bir shart uchun berilgan vaqt, ishtirokchilar sonini kelishib olish;

- quvnoqlar va zukkolar darsidagi o'yinlar va faoliyatlarning o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligiga ahamiyat berish;

- shartlarning xolisona, haqqoniy va odil baholanishiga erishish;

- g'olib jamoani maqlub jamoani kamsitmagan holda rag'batlantirish.

Tahlil darsi - musiqa savodi, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash jarayonlarida o'tilgan asarlarni mukammal tahlil qilishga e'tibor beriladi. Zotan asarlarni batafsil tahlil qilish, ya'ni uning mualliflari haqida ma'lumotlar keltirish, asarning tempi, ritmi, o'lchovi, ladi, tonligi, dinamikasi, shakli, qanday jamoa yoki orkestr uchun yozilganligini aniqlash,

janrini aniqlash, uning g'oyaviy mohiyati, badiiy qiyofasini o'rganish asar orqali musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishga zamin yaratadi.

Tahlil darsini qanday tashkil etish va qay yo'sinda o'tkazish o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq. Bunday darslardan, avvalam bor amaliy maqsad ko'zlanadi. Tahlil darslari o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatadi, o'ylashga majbur qiladi, turli muammolarga duch kelib ularni yechishga undaydi.

Suhbat darslari - musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini jonli va qiziqarli o'tkazishning muhim vositalaridan biridir. Darslarni suhbat shaklida uyushtirish va o'tkazish o'qituvchidan ijodiy izlanishni talab qiladi. Suhbatni aniq tuzilgan reja asosida, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tarzda olib borish o'qituvchi mahoratining belgilovchi omili hisoblanadi. Suhbat dars jarayonida o'quvchi mustaqil fikrlashga va o'z fikrini bayon eta olishga o'rganadi. Suhbatning samarali, qiziqarli, ma'lumotlarga boy bo'lishi o'qituvchining rahbarlik mahoratiga, savollar tuzish va ularni to'g'ri tanlay olish uquviga bog'liq. Suhbat darslari o'zlashtirilgan musiqiy-nazariy bilimlarni tekshirishning eng samarali yo'llaridan biridir. Suhbat darslarining yana ham samaraliroq bo'lishi suhbatdoshlarning mavzuni aniq va yaxshi tushunishlariga, suhbat paytida beriladigan savollar aniq va lo'nda bo'lishiga bog'liq. Savollar og'zaki tarzda berilib xuddi shu tarzda javob olinadi. O'qituvchi o'quvchilar javoblaridagi xatolarni kuzatib boradi va kerak bo'lgan hollarda tuzatib turadi. Suhbatda mustaqil o'rganilgan qo'shiq, tinglangan musiqiy asar, ko'rilgan konsert yoki musiqiy ko'rsatuv haqida so'zlashish mumkin. O'qituvchi dars mavzusini avvaldan aytib qo'ygan bo'lishi kerak. O'qituvchi tayyorlab qo'ygan savollarini beradi va o'quvchilar javob bera boshlaydilar. To'liq berilmagan javoblarni boshqa o'quvchilar to'ldiradilar. O'qituvchi suhbatni boshqarib boradi va o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Suhbat darslarida o'qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tuziladigan suhbat uchun qiziqarli va hayotiy savollar tayyorlash.
2. Savollar mavzuni to'la qamrab olishiga ahamiyat berish.
3. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalashlariga sharoit yaratish.
4. Savollar tizimli va izchil bo'lishiga erishish.
5. Barcha o'quvchilarni suhbatga jalb etish.
6. Suhbat davomida bir-birlariga hurmat ko'zi bilan qarashga erishish.
7. Muomalada o'quvchilarga namuna bo'lish.
8. Fikrlarni umulashtirish va xulosa chiqarish.

Musiqiy sayohat darslari - musiqashunoslik manbalarini o'rganish, biror bir kompozitorning ijodini kengroq o'rganish uchun kompozitorning uy

muzeylariga, konsertlarga, musiqiy festivallarga, musiqiy tanlovlarga sayohat qilish orqali yoki video tasma yordamida biror mavzuga oid musiqiy sayohat qilish orqali uyushtiriladi. Sayohat ob'ektlari dars mavzusiga bevosita aloqador bo'lishi muhim shartlardandir. Bu o'z navbatida sinfda o'tilgan darslardan ancha samaraliroq bo'lib, o'quvchilar ongida uzoq saqlanib qoladi. Ularning musiqiy dunyoqarashlarini, musiqiy tafakkurlarni shakllantiradi hamda musiqiy-estetik his-tuyg'ularini uyg'otadi. Bunday darslar o'quvchilarda shu fanga va o'qituvchiga nisbatan hurmat va muhabbatni oshiradi. O'qituvchi bilan o'quvchilar bir-birlarini yaxshiroq tushuna boshlaydilar, bir-birlariga ruhan yaqinlashadilar. Musiqiy sayohat darslari ayrim shart-sharoitlarga bog'liq ravishda tashkil etiladi. Buning uchun shahar yoki viloyatda biror bir konsert yoki tanlov bo'lishi, sinfda video tasma yoki kompyuter mavjud bo'lishi bilan bog'liqdir.

*Stol atrofida*gi darslar - asosan musiqiy-nazariy bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilarning olgan bilimlarini tekshirish uchun tashkil etiladi. O'quvchilar jamoalarga bo'linadilar. O'qituvchi maxsus tayyorlangan konvertlarda savollarni qator qilib terib qo'yadi. Jamoa sardorlari galma-gal konvertlarni tanlaydilar va jamoalari bilan kelishgan holda javob beradilar. Har bir savolga tayyorlashin uchun belgilangan vaqt beriladi. Dars oxirida eng ko'p ochko yiqqan jamoa reyting tizimining eng yuqori ballari bilan baholanadi. Qolgan jamoa ishtirokchilari javoblariga muvofiq kamroq ballar bilan baholanadilar va hokazo. Bunday darslar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, ularni faollashtiradi. Stol atrofida darslari «Zakovat» televizion o'yiniga juda o'xshab ketadi. O'qituvchi savollar tuzishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, dars mavzusini hisobga olgan holda tanlashi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida ko'rsatilgan dars turlari biz uchun namuna bo'lib, biz bu kabi dars turlarini ko'plab o'ylab topishimiz hamda amaliyotga tatbiq etishimiz mumkin.

Savol va topshiriqlar:

- 1) XX asr oxirlarida umumiy o'rta ta'lim makablarida qanday dars shakllari mavjud bo'lgan?
- 2) Hozirgi kunda musiqiy ta'limda qanday noan'anaviy dars turlari qo'llanilib kelinmoqda?
- 3) Konsert darslarini tashkil etish yo'llarini aytib bering.

4) Suhbat, ma'ruza, bahs-munozara darslari qaysi faoliyat turlarida qo'llanilishi mumkin?

5) Viktorina darslarini tashkil etish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?

6) Musiqa savodini o'zlashtirish uchun qaysi dars turlaridan foydalanish mumkin?

7) O'zingiz biror bir noan'anaviy dars turini rejasini tuzib, izohlab bering.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Barkamol shaxs tarbiyasi barcha zamonlarda inson aql-zakovati, tarbiyashunoslik ilmi xulosalari yo'naltirilgan eng muhim soha hisoblangan. Bu sohaning o'ziga xos «sho'ba»lari ichida musiqa san'atining ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati yuqori baholangan. Shu bois ham ilm-fan, madaniyat va san'at sohasida jahonshumul e'tirof qozongan allomalar (Abu Nasr Forobiy, Abdulqodir Marog'iy, Al Kindiy, Abdurahmon Jomiy, Ibn Sino, Darvesh Ali Changiy, Alisher Navoiy) musiqaga ham ilm sohasi, ham san'at, ham tarbiya vositasi sifatida alohida ehtirom bilan qarashgan, uning turli muammolariga oid yirik asarlar, risolalar yaratganlar. Bu asarlar musiqiy-nazariy bilimlarning tarixiy negizi sifatida bugungi kunda ham o'z ilmiy, tarbiyaviy nufuzini yo'qotgan emas. Biroq har qanday sohada bo'lgani kabi, musiqiy ta'limda ham shaxsni shakllantirishning zamonaviy talablari mavjud bo'lib, u har bir ijtimoiy davrning ta'limga buyurtmasi, ehtiyoji sifatida kun tartibiga chiqadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsini shakllantirishda musiqiy bilimlarni o'zlashtirishning o'rni mazkur o'quv qo'llanma natijalarida yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

«Musiqqa madaniyati» darslari o'quvchilarga ijobiy ta'sir etibgina qolmay, ularning musiqiy didi va musiqiy dunyoqarashi shakllanishiga ham samarali ta'sir qiladi. Shu bois maqbul mazmun va metodikada berilgan musiqiy bilimlar majmuasi o'quvchilarda musiqaga barqaror qiziqishni tarbiyalaydi, muhimi ular yaxshi musiqani, janrlarni, xalq va mumtoz musiqasini ajratishga o'rganadilar. Tadqiqot natijalari bolalarning qiziqish bilan qo'shiq kuylab, musiqa tinglab, kompozitorlar hayoti bilan tanisha, boshlaganliklarini ko'rsatdi. Hatto avvaliga musiqa madaniyati darslariga e'tiborsizlik bilan qaragan o'quvchilar ham, oxir-oqibatda musiqa madaniyati darslariga ko'tarinki ruhda, biror bir yangilikdan xabardor bo'lish niyatida kela boshladilar.

O'quvchilarda «Musiqqa madaniyati» o'quv fani tarkibidagi turli xil faoliyatlarga bo'lgan qiziqish va intilish kuchaydi. Ko'pchilik o'quvchilarda musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar bajarish jarayonlariga savodli, ya'ni ongli ravishda yondashish malakalari shakllandi.

O'quvchilarda musiqiy asarning ifoda vositalari va shaklini tahlil qilish malakasini shakllantirish ularda o'z fikrlarini bemalol bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirdi.

«Musiqqa madaniyati» darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning musiqiy bilimlarga, jumladan musiqa savodiga qiziqishlarini kuchaytirdi. O'quvchilar endilikda musiqiy boshqotirmalarni

bemalol ehadigan, notalarni yaxshi biladigan, tovush va uning xususiyatlarini anglaydigan, musiqa ifoda vositalari haqida aniq tushunchalarga ega bo'ldilar.

Tajribalar darslarning samaradorligi ularning to'g'ri uyushtirilishiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Musiqa «til»i hamma va barchaga tushunarli va yaqin. Shuning uchun u insonlarning ruhiyatini ko'tarish, quvonch va rohat baxsh etish bilan birga, o'sib kelayotgan yosh avlodni shaxs sifatida shakllantirishda benazir yordamchidir.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilarda nafaqat musiqiy savodxonlikni, balki musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur va shu kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi amalda o'z isbotini topdi.

O'quvchilar maktabga kelgan ilk kunlaridanoq, san'atga, ayniqsa, musiqaqa intilish va qiziqishlari yuqori bo'ladi. Shuning uchun musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu o'qituvchining mutaxassis, o'z sohasining ustasi sifatida bilimdonligi va ijodiy barkamolligiga bog'liqdir.

Musiqa madaniyati darslari - o'quvchilarda musiqiy did va musiqiy dunyoqarashni shakllantiruvchi eng muhim vositadir. U o'quvchilarning aqliy, jismoniy, g'oyaviy shakllanishiga ta'sir etadi. Musiqa o'quvchilarda borliq haqida o'ziga xos «Shaxsiy nuqtai nazar»ni, voqea va hodisalarga faol va ijodiy munosabatni shakllantiradi. Musiqa alohida shaxsga va keng jamoaga ham birdek ta'sir qiladi (emotsional, ijodiy, estetik, g'oyaviy, pedagogik, fiziologik va hokazo). Aynan shuning uchun ham «Musiqa madaniyati» o'quv fanining xususiyatlaridan kelib chiqib, nazariy va amaliy yo'nalishdagi materiallarning maqbul nisbatini saqlagan holda, musiqaning barcha mavjud imkoniyatlarini ochib bera olishi kerak. Shu maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi tavsifalarni beramiz.

O'qituvchilarga:

1. Darslarni tashkil etishda, jumladan, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida tizimlilikka rioya qilish. Shunda o'quvchilarning shaxsiy sifatlari bir maromda shakllanadi.

2. Chorak mavzularidan kelib chiqqan holda musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlar bilan uzviy olib borish.

3. Musiqa madaniyati darslarida, xususan, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

4. Ilg'or pedagogik tajribalardan ibrat olish va darslarni o'yin tarzida qiziqarli qilib uyushtirish.

5. O'z pedagogik mahoratini, malakasini muntazam ravishda takomillashtirib borish.

6. Ota-onalar bilan doimo muloqotda bo'lish orqali o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish yo'llarini izlash (maxsus musiqa maktablari, musiqiy to'garaklarga jalb etish).

7. O'quvchilarning umumiy musiqiy bilim darajalarining qiziqish va moyilliklarini aniqlashda sinfning va har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

8. Dars mobaynida ijodiy ko'tarinkilikka erishish hamda o'quvchilarning erkin fikrlashi, dars materiallariga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini bemalol ayta olishiga imkon yaratish.

9. O'quvchilarning ijodiy shakllanishini doimiy nazorat ostiga olish. Lozim topilsa, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilarga birlashtirish.

10. O'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda darslarni tabaqalashtirib o'tish.

11. O'rganiladigan har bir mavzuning ta'lim va tarbiyaviy mohiyatini ochib berish orqali dars o'tish maqsadga muvofiqdir.

12. Sinf-dars sharoitidan kelib chiqqan holda, musiqa savodi, qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, raqsga tushish, bolalar cholg'u asboblari chalish faoliyatlarini qo'llagan holda, konsert-darslarni uyushtirish. Bu o'quvchilarda jamoa oldida, sahnada o'zini tutish, hayotiy vaziyatlarni oson idrok etish, yanada yuqori bosqichlarga intilish hissini shakllantiradi.

13. Musiqiy asarlarning g'oyaviy mazmunini ochish jarayonida o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish, olgan taassurotlarini rasm chizish orqali aks ettirish, kerakli rivoyat, maqol va matallarni qo'llash, asarning musiqiy-nazariy va badiiy qirralarini ochib berishga o'rgatish. O'quvchilarni tahlil qilish va umumlashtirish, bilimlarni to'plash orqali kerakli xulosalar chiqarishga o'rgatish. Musiqa madaniyati o'qituvchisi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich amalga oshirsa, yuqoridagi vazifalarni natijalar yanada samaraliroq bo'ladi.

Ota-onalarga:

1. Farzandlarining musiqiy madaniyatini rivojlantirish uchun doimo musiqa madaniyati o'qituvchisi bilan aloqada bo'lish.

2. Farzandining musiqiy qobiliyati borligini sezganda, uni musiqa to'garaklariga, maxsus musiqa maktablariga jalb etish yo'llarini izlash.

3. Oilada farzandlarini radio, televidenie orqali milliy, xalq, estrada musiqasi bilan tanishtirib borish.

4. Farzandlarini yoshiga mos musiqiy asarlar bilan muntazam tanishtirib borish.

5. Maktabdagi musiqa madaniyati darslarida faol qatnashishlari uchun farzandlarini kerakli o'quv qurollari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kartochkalar va chizmalar bilan ta'minlashlari.

Maktab ma'muriyatiga:

1. Musiqa madaniyati kabinetini zamon talablariga mos tarzda jihozlash (pianino, ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar va hokazo).

2. Bayramlarda, maktab tashkiliy ishlarida musiqa madaniyati o'qituvchisi va o'quvchilarni konsertlar uyushtirishga jalb etish, buning uchun shari-sharoitlar yaratib berish.

3. Musiqa bo'yicha tuman va shahar tanlovlarida ishtirok etish uchun qobiliyatli o'quvchilarni jalb etish.

4. Maktab ichida musiqiy tanlovlar tashkil etish.

5. Ijrochilik, sozandalik, xonandalik yo'nalishlari bo'yicha sinfdan tashqari to'garaklar tashkil etish.

Tadqiqotchilarga:

1. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonining pedagogik tizimini 5-7-sinflar misolida tadqiq etish.

2. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish muammosini maktabdan tashqari muassasalar misolida tadqiq etish va ilmiy-pedagogik echimini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR

1. Abdullin E. O nachalnom etape muzikalnogo obucheniya v obsheobrazovatelnix shkolax Yaponii // Muzikalnoe vospitanie v shkole, vip.9. M., 1984.

2. Abdullin E., Sipin G. Programma, ustremlennaya v budushee // «Sovetskaya muzika», 1988, №10.

3. Avratiner V. Obucheniya i vospitanie muzikanta-pedagoga. M., 1981.

4. Akbarov I., Xusainov T. III sinf musiqa darsligi uchun metodik qo'llanma. T., 1974.

5. Alaev Yu. Puti formirovaniya navikov mnogogolosnogo peniya v detskom xore // Muzikalnoe vospitanie v shkole, vip. 10, M., 1985.

6. Anisimov A. Dirijyor-xormeyster. L., 1976.

7. Apraksina O. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole. M., 1983.

8. Apraksina O.A. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole. (Uchebnoe posobie dlya ped. institutov po spec. 2119 «Muzika i penie») - M.: Prosveshenie, 1983. -222s.

9. Arismendi A. Doshkolnoe muzikalnoe vospitanie. M., 1989.

10. Archajnikova L.G. Professiya-uchitel muziki. -M.: Prosveshenie, 1984. -110 s.

11. Asafev B. O xorovom iskusstve. L., 1980. -214

12. Bandina A., Popov V., Tixeeva L. Shkola xorovogo peniya. Vip.1. Dlya shkolnikov mladshego vozrasta. M., 1981.

13. Baxritdinova N.A. O'zbekiston bolalar xor madaniyati. T., 2002, -110 b.

14. Vasileva A. Organizatsionnie printsipi raboti detskogo xora//Voprosi metodiki prepodovaniya muzikalnix dissiplin. T., 1991

15. Vengrus L. Vokalno-xorovaya rabota s detmi doshkolnogo vozrasta. Avtoref. diss. na soiskanie uch. st. k. isk. L., 1988.

16. Vetlugina N.A., Keneman A.V. Teoriya i metodika muzikalnogo vospitaniya v detskom sadu. -M.: Prosveshenie, 1983. -255 s.

17. Vetlugina N.A. Razvitie muzikalnix sposobnostey doshkolnikov v processe muzikalnix igr. M.: APN, 1988g., -247str.

18. Voprosy metodiki muzikalnogo vospitaniya detey. M.: «Muzika», 1985, -127 str.

19. Vospitanie muzikoy. M.: «Prosveshhenie», 1991 g., -204 str.

20. Kabalevskiy D.B. Kak rasskazivat detyam o muzike? M.:Prosveshhenie, 1984. -256 str.

21. Mamirov K. Vospitanie nravstvennix chustv mladshix shkolnikov v processe obucheniya muzike. Dis. na sois. kand. ped. nauk. (13.00.01.) - T., 1986. -186 b.

22. Matonis V. Muzikalno-esteticheskoe vospitanie lichnosti. -L.: Muzika, 1988. -86 s.

23. Metodika prepodavaniya muzikalnix dissiplin: Sb. statey. -T.: O'qituvchi. 1989. -95 s.

24. Muzikalnaya psixologiya: Uchebnoe posobie. / avtor sost. Kadirov R.G., -T.: Muzika, 2005. -80 c.

25. Muzikalnoe vospitanie v shkole. Vip.19.: Sb. statey. / Sostav. O.Apraksina. M.: Muzika, 1987. -110 s.

26. Oripova R. O'smirlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish (maktabdan tashqari muassasalardagi musiqiy to'garaklar misolida). T., 2007, 76 bet.

27. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. (13.00.01.), 2006 y., -198 b.

28. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA TARBIYASI VA METODIKASI	8
✓ Musiqa san'atining ahamiyati.....	8
Musiqa qobiliyatini rivojlantirishning shart-sharoitlari.....	11
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining yosh psixologik xususiyatlari.....	6
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari guruh va faoliyatlar kesimida.....	22
Musiqa mashg'ulotlari.....	46
Musiqiy ertaliklar va bayramlar.....	47
✓ Musiqa rahbari (o'qituvchisi)ga qo'yiladigan asosiy talablar.....	47
Musiqa o'qitish metodikasi pedagogik prinsiplar tizimida.....	51
Musiqa o'qitish metodlari.....	59
✓ Bola rivojlanishida musiqaning o'rni.....	65
✓ Musiqa bolalarning estetik qiyofasini shakllantiruvchi vosita sifatida.....	68
Bolalarni jismoniy tarbiyalashda musiqaning roli.....	69
II BOB. MUSIQA TA'LIMIDA MUSIQIY FAOLIYATLAR	71
Musiqa idroki (tinglash) - bolalar musiqiy faoliyatining yetakchi turi.....	71
Qo'shiq kuylash faoliyati.....	77
Musiqiy-ritmik harakatlar faoliyati.....	91
Bolalar musiqiy cholg'ularida ijrochilik faoliyati.....	102
Musiqa savodi.....	115
III BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASI	119
Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi «Musiqa madaniyati» darslarining tuzilishi.....	119
1-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni.....	121
2-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni.....	126
3-4-sinflarda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni.....	138
✓ 5-6-sinflarda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni.....	145
✓ 7-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni.....	150
IV BOB. XORIJIY MAMLAKATLARDA MUSIQA TA'LIM - TARBIYASI TIZIMI	154
Amerika Qo'shma shtatlarida musiqa ta'limi.....	155
Angliyada musiqa ta'limi tizimi.....	156
Yaponiyada musiqa ta'limi tizimi.....	157
Shveyscariyada musiqa ta'limi tizimi.....	160

Vengriyada musiqa ta'limi tizimi.....	160
Germaniyada musiqa ta'limi tizimi.....	163
Bolgariyada musiqa ta'limi.....	164
Gollandiyada musiqa ta'limi.....	167
Ruminiyada musiqa tizimi.....	168
Chexiyada musiqa ta'limi.....	168
Rossiyada musiqa ta'limi tizimi.....	170
Estoniyada musiqa ta'limi.....	170
Litvada musiqa ta'limi.....	172
Urugvayda musiqa ta'limi.....	174
Polshada musiqa ta'limi.....	176

**V BOB. SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI MUSIQA
TARBIYASI TIZIMI.....** 179

Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi shakllari.....	179
1920-90 yillardagi musiqa o'qitish metodikasi.....	180
Musiqiy tarbiyaviy ishlarning ommaviy shakllari.....	184
Musiqiy to'garaklar.....	186
Ixtisoslashgan musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	196

**VI BOB. MUSIQA TA'LIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLO-
GIYALARDAN FOYDALANISH METODLARI.....** 204

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish shakllari.....	204
---	-----

XULOSA VA TAVSIYALAR..... 213

ADABIYOTLAR..... 217

MUNDARIJA..... 219

Bichimi 60x84 1/16. "Times New Roman" garniturası.

Ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 36,0.

Nashr bosma tabog'i 35,5. Tiraji 300. Buyurtma № 15.

«Fan va texnologiya Markazining bosmaxonasi» да чоп этилди.

100003, Тошкент шаҳри, Олмазор кўчаси, 171-уй.

